

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

Bibisara Sadibekova

**GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA XITOIY IQTISODIY  
RIVOJLANISHINING MUHIM MASALALARI**

**Toshkent - 2020**

UO'K: 338 (510)  
KBK: 65.6 (5 Кит)  
С - 14

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
“XITOYSHUNOSLIK” FAKULTETI “XITOY SIYOSATI, TARIXI VA  
IQTISODIYOTI” KAFEDRASI

**Ma'sul muharrir:** - Nazarova F.X. Toshkent Moliya instituti  
“Menedjment” kafedrası professori, i.f.d.

**Taqrizchilar:**

Sh.J.Ermamatov – TDSHI “Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti” kafedrası  
mudiri, dotsent, i.f.n.

G.P.Gulyamova – O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi “Ziyorat  
turizmi” kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.n.

Mazkur monografiyada Globballashuv sharoitida Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotida yuz berayotgan muhim jarayonlar natijasida, uning jahon iqtisodiyotiga ta'siri aniqlandi. Shuningdek, aksincha, jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlarning XXR iqtisodiyotiga bevosita ta'siri ham muayyan tahlillar orqali ko'rib chiqilgan.

Kitob shu soha bilan shug'ullanuvchi va qiziquvchi mutaxassislar, ilmiy izlanuvchilar, magistrant va talabalar uchun mo'ljallangan.

Ushbu monografiya Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti Kengashining 2020 yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotining yetakchi mamlakatlaridan biri bo'lgan va maqomiga ko'ra rivojlanayotgan mamlakat hisoblangan Xitoy Xalq Respublikasi hozirgi davrda, dunyoning ikkinchi iqtisodiyotiga aylandi (hattoki,- sotib olish qobiliyati pariteti (PPS)bo'yicha, 2014-yildan buyon, dunyoda 1-o'rinni egallamoqda, ya'ni \$23 trln.)<sup>1</sup>.

O'zining iqtisodiy rivojlanishi va salohiyati jihatidan kuchli hisoblangan, dunyoning yetakchi mamlakatlari, xususan, AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari kabi, Xitoy deyarli barcha yo'nalishlari, ya'ni, iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik sohalar bo'yicha, yo'qori raqobatlashish darajasiga chiqdi. Chunki, Xitoy bugun, xalqaro maydonda o'zining olib borayotgan siyosatida, xalqaro iqtisodiy munosabatlarida, iqtisodiy rivojlanishida va ijtimoiy hayotida, bir yirik mamlakatga yetarli bo'lgan zamonaviy salohiyatga egadir. Aynan, shu nuqtai nazardan, Xitoyning iqtisodiy rivojlanish modeli xususiyatlarini, undagi iqtisodiy islohotlar jarayonlarini, mamlakatni industrialashtirish va modernizatsiyalash konsepsiyalarini chuqur o'rganib chiqish hozirgi davrning dolzarb masalalariga aylanmoqda.

XX asr boshida Xitoy Xalq Respublikasi yagona siyosiy davlat bo'lib birlashmaganligi sababli, bunday ahvol asr o'rtalarigacha saqlanib qoladi. Undan so'ng, biroz vaqt o'tishi bilan, Xitoy Xalq Respublikasi "Bitta davlat-ikki tizim siyosati" tamoyili asosida rivojlanayotgan mamlakatmaqomini egallaydi, uning sababi esa, oxirgi yillarda mamlakatda ikki tizimda, ya'ni sotsialistik va bozor munosabatlari tizimida rivojlanayotgan Xitoy hududlari orasidagi siyosiy tizimdagi muammolarni yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Mazkur muammolarni hal etish va xatolarni tuzatish uchun, Xitoy Markaziy hukumati tomonidan jiddiy dasturlar tuzilib, ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ta'kidlash lozimki, oxirgi 40yil oralig'ida, ya'ni, (1979-2019 yillar) mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar davomida, Xitoyning tashqi iqtisodiy faoliyati va tashqi dunyoga ochiqlik tizimlari shakllandi. XXRsi o'zining 70 yillik tarixida, yarim feodal va yarim kolonial davlatdan, dunyoning kuchli industrial-agrardavlatiga aylandi. XXR iqtisodiyotining yillik o'sish sur'ati mana shu 40 yil ichida yiliga dunyo o'rtacha yillik o'sish sur'atidan ahamiyatli tarzda ilgarilab ketdi. Natijada, 2018-yilga kelib, XXRning jahon YaIMdagi ulushi (SOQP bo'yicha), 2000-yilga nisbatan, 2,5 barobarga o'sib, 18,7%ni tashkil etdi.

Ammo, shuni ham ta'kidlash lozimki, oxirgi 10 yillikda mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati biroz sekinlashmoqda. Tashqi ekspansiya va iqtisodiyotni yoqori o'sish sur'atlarida olib borishga qiziqib kenganiqligi sababli, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatli rivojlanishi ikkinchi darajaga o'tib qoldi. Uning natijasida, qashshoqlik, aholini qarish hamda yoqori va o'sib borayotgan aholi daromadlari tengsizligi kabi ijtimoiy muammolari XXR si uchun xos bo'lib qoldi.

---

<sup>1</sup>Аргументы и Факты: новости России и мира. <https://aif.ru/ruwww.aif.ru>, № 7, 2019.с.8.

Undan tashqari, mamlakat iqtisodiyotidagi rivojlangan sanoat sohasi va jadal industrialashtirish jarayoni, ularning energetik ehtiyojlari asosan, ko'mir orqali ta'minlanib, oqibatda esa, mamlakat atrof-muhitini ifloslanishi va yomonlashuvi yuz berdi. Shuni ta'kidlash lozimki, 2012-yilda e'lon qilingan XXRning yangi iqtisodiy modeliga binoan, mamlakat iqtisodiy o'sish drayveri aholining shaxsiy iste'moli bo'lib qolishi lozim edi. Shunga qaramay, dunyoning yetakchi xalqaro tashkilotlari XXRsi iqtisodiyotini keyinchalik ham o'rta muddatli istiqbolida sekinlashishini kutishmoqda.

Hozirgi davrga kelib, Xitoy ishlab chiqarishning muhim ko'rsatkichlari: ko'mir qazib chiqarish, po'lat quyish, sement ishlab chiqarish, mineral o'g'itlar, elektroenergiya, velosiped, muzlatgich va umuman, maishiy texnika vositalarini ishlab chiqarish bo'yicha, u dunyoda birinchi o'rinlarni egallab kelmoqda.

Xitoy hukumati va Xitoy Kommunistik partiyasi tomonidan belgilangan mamlakatning kelajak rivojlanish rejasi bo'yicha, Xitoy iqtisodiyotini 2021 yilgacha qisman, va 2049 yilgacha to'liq yangilash (modernizatsiyalash) ko'zda tutildi. XXRsi mana shu o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qator muayyan ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirmoqda.

Shu nuqtayi nazaridan, biz yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, turli tuman savollarga: nega XXR dunyo e'tiborini o'zida ushlab turibdi? XXR iqtisodiyoti keyingi yillarda ham o'sishda davom etadimi? XXR iqtisodiyotini intensiv rivojlanishini siri nimada? XXR iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga qaysi sohalarorqali va qancha hissa qo'shmoqda? kabilarga duch kelishimiz tabiiy, aynan mana shu savollarga mazkur monografiya orqali javob berishga harakat qildik.

# **1-BO'LIM: GLOBALLASHUV JARAYONIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI TURLI OMILLARNING XITOIY XALQ RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIGA TA'SIRI**

## **1-BOB: MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MAMLAKAT IQTISODIY SALOHİYATINING AHAMIYATI**

### **1.1. XXRning iqtisodiy rivojlanish omillari va salohiyati**

Xitoy–dunyodagi dinamik tarzda barqaror rivojlanayotgan mamlakatlardan biri bo'lib, u zamonaviy mintaqaviy va global jarayonlarda o'zining munosib o'rniga egadir. Chunonchi, 2019 yil yanvar holatiga ko'ra, Xitoy Xalq Respublikasi dunyoda quyidagi yo'nalishlarda 1-o'rinlarni egallab kelmoqda<sup>1</sup>:

1. Iqtisodiyotining hajmi bo'yicha (SOQP - PPSda 23 trln.doll.);
2. Oltin valyuta zahirasi bo'yicha(3,17 trln.doll.);
3. Po'lat eritish bo'yicha;
4. Ko'mir qazib olishda;
5. Avtomobillarni ishlab chiqarishda;
6. Komp'yuterlar va elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarishda.

Shuni takidlash o'rinliki, Xitoyning 2017 yildagi siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi XKPni XIX s'ezdiga (18-25.10.2017y.) tayyorgarlik va uni muvaffaqiyatli o'tqazish ostida amalga oshirildi. Mana shu s'ezdda XKP MQ ni raisi Si Zipin ma'ruza qilib, davlatning asosiy sohalarini hozirgi holatiga baho berdi va uning uzoq muddatlardagi rivojlanish strategiyasi istiqbollarini bayon etdi.

Ma'ruzaning asosiy maqsadi sifanida – XXR ni 2050-yilga kelib, “gullab yashnayotgan qudratli yetakchi sotsialistik mamlakatga” aylantirish ko'zda tutilgan. Bu vazifani bajarish 2 bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, 1-bosqichda (2020-2035yy.) asosan, xitoy spetsifikali sotsializmning qurilishini tugatish mo'ljallangan. Unda 2020-yilga kelib, Xitoy asosan, “o'rtamiyona to'q jamiyat”ni shakllantirishi (qashshoqlikni butunlay tugatish), 2035-yilga kelib esa, innovatsion mamlakatlar orasida yetakchi o'rinni egallashi lozimligi qayd etildi.

Ta'kidlash lozimki, ikkinchi o'n besh yillik (2035–2050 yy.) bosqichning yakuniga kelib, “ulug' xitoy millatini nufuzini qayta tiklash” g'oyasini to'liq amalga oshirish ko'zda tutildi. Bu esa, birinchi navbatda, XXRni ham mintaqaviy, ham global miqyosda siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatish imkoniyatlarini paydo bo'lishini anglatadi.

Shular qatorida, Si Zipin “yangi davrda xitoy spetsifikali sotsializmning qurilishi” konsepsiyasini ilgari surdi, Bu esa, mamlakatda har taraflama islohotlarni amalga oshirishni, aholini yashash farovonligini yaxshilashni, ekologik madaniyatni shakllantirishni, mamlakatda global integratsion jarayonlarni faollashtirishni ko'zda tutadi.

XXRning birinchi navbatdagi vazifasi bu - arzon ishchi kuchi evaziga yoqori o'sish sur'atlaridan hamda jadal investitsion quyilmalardan innovatsiyaga

---

<sup>1</sup>Аргументы и Факты: новости России и мира. <https://aif.ru> www.aif.ru, № 7, 2019.c.8.

asoslangan, sifatli rivojlanishga o'tishni ko'zda tutuvchi mamlakat milliy iqtisodiyotini modernizatsiyalash hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirishning ustuvor yo'li – tashqi ochiqlikni kuchaytirish va takliflar sohasida tarkibiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat. Bir vaqtning o'zida “xitoy jamiyatining asosiy qarama-qarshiliklari” deb nomlangan va “xalqning doimiy ravishda o'sib borayotgan ehtiyojlari va ularni bir tekis bo'lmagan rivojlanishini turli-tumanligi” orasidagi nomtanosiblikni yo'q qilish bo'yichayana bir vazifa qo'yildi.

Xitoy o'zining mavjud yer resurslarining tarkibiy tuzulishi va uning joylashuvi bo'yicha uchta asosiy xususiyatga egadir:

Birinchidan, unda turli xildagi yerlar mavjud bo'lib, ular: ekin ekiladigan maydonlar, o'rmonlar, cho'l hududlari va qirg'oqlarga bo'linadi;

Ikkinchidan, tog'li rayonlar, tog' tizmalari va pasttekisliklardir;

Uchinchidan, mamlakatning g'arbida va shimolida joylashgan qirlar, undagi shimoliy-sharqiy va janubiy g'arbiy qismidagi o'rmonlar kiradi.

Hozirgi kunda (2018y.) Xitoyda ekin ekiladigan yerlarning umumiy maydoni 108 mln.ga. (gektar)ga teng bo'lib, uning asosiy qismiga dehqonchilik rayonlari hisoblangan mamlakatning shimoliy-sharqiy va shimolida joylashgan tekisliklar hamda Yanszi daryosi bo'ylari kiradi. Mamlakatning shimoliy-sharqiy qismida bug'doy, jo'hori, qand lavlagi, dukkakli ekinlar ekiladi. Shimoliy Xitoy tekisligida esa, paxta, don ekinlari va hosildorligi yuqori bo'lgan jo'hori navlari ekiladi.

XKPSi XIX s'ezdida ko'tarilgan masalalardan yana biri bu – XXR tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor maqsadlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- “Bir tasma - bir yo'l” (BTBY)<sup>1</sup> tashabbusini ilgari surish;
- Yuanni internatsionalizatsiyalash (baynalminallashtirish);
- monetar siyosatini erkinlashtirish;
- investitsion iqlimni takomillashtirish.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun va “Xitoy orzusi”ni amalga oshirish maqsadida, tinch xalqaro holat va ularning ishonchli mexanizmlarini ta'minlash lozimdir. Bu yo'nalishda Xitoy mamlakatning siyosiy va iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash ustida ishlamoqda.

2017-2018 yillarda mana shunday yondoshuvlarni amalga oshirish chegarasida va milliy rivojlanish masalalarini hal etishda o'z faolligini namoyish etib bordi. Mazkur harakatlarning jadallashuvi va yo'nalishlar diapozonining kengligi murosasiz xarakterga ega bo'ldi, uning natijasida, Xitoy ko'p sohalarda sezilarli yutuqlarga erishishga yordam berdi.

XVF ma'lumotlariga binoan, 2017-yilda XXRning global iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi 30%<sup>2</sup>ni tashkil etdi va u 100dan ortiq davlatlarning yirik savdo hamkoriga aylandi. Ularning umumiy YaIM – jahon YaIMning 80%ini tashkil qilib, xalqaro tovarlarni yetqazib berish zanjirida yetakchi o'rinlarni egallaydi va

---

<sup>1</sup>To'liq nomi «Экономический пояс Шелкового пути» и «Морской Шелковый путь 21-асг».

<sup>2</sup>Jahon Bankining ma'lumotiga ko'ra, 2012-2016 yillarda AQSh, EI va Yaponiya davlatlarining global iqtisodiyotga qo'shgan hissasi, mos holda, 10%, 8% va 2% larni tashkil etgan, XXRniki esa, 34%ga yetgan.

iste'molni o'sish sur'ati bo'yicha o'z o'rnini jahonning yetakchi mamlakat sifatida mustahkamlashga erishdi.

Pekinning xalqaro maydondagi an'anaviy harakatlari, turli dastaklarni qo'llash bilan tavsiflanadi, ular esa, o'z navbatida, siyosiy, iqtisodiy, diplomatik tadbirlarni o'z ichiga oladi. 2017 yilning aprel oyida Umumjahon iqtisodiy forumida XXRsining raisi Si Zipin tashqi savdo siyosatini ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ma'ruza qilib, u erkin savdoni himoya qilish lozimligini aytdi, proteksionizmning yangi to'liqlarini qoraladi (bu so'zlar aynan, amerika ma'muriyatiga qarashli bo'ldi). Shu bilan birga, u jahon iqtisodiyotini globallashtirish yo'lasidan voz kechmaslik va shu jarayonga faolroq ishtirok etish taklif etildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, XXRni tashqi siyosatida "G-20"lik, ATEs, BRIKS, ShHT kabi tashkilotlar va birlashmalarning faoliyatiga jiddiy e'tibor berildi. Undan tashqari, XXRda tashkil etilayotgan turli yo'nalishlardagi xalqaro tadbirlar miqdori ham muhim bo'lib qoldi. Ular xalqaro hamkorlik bo'yicha, tashabbus doirasidagi yuqori darajadagi Forum "Birtasma, bir yo'l" qurilishi, Boadagi Osiyo iqtisodiy forumi va Lalyandagi ("Yozgi Davos" deb nomlanadigan) "yangi chempion" yillik sammiti hamda turli yarmarkalar va ko'rgazmalar hisoblanadi.<sup>1</sup>

2017-yilning 4-5-sentyabrida Xitoyni BRIKSdagi raisligida Syamen shahrida 9-birlashuv sammiti bo'lib o'tdi. Unda Yangi rivojlanish banki (YaRB) faoliyati, shartli valyuta zahirasi, iqtisodiy hamkorlik strategiyasi, xavfsizlik va siyosat sohasi yo'nalishlari bo'yicha yangi kelishuvlar tuzilib mustahkamlandi. XXRning BRIKSdagi raisligi xitoy tomonini faolligi bilan tavsiflanadi, u esa, muayyan moliyaviy va iqtisodiy salohiyati evaziga, mamlakatni birlashmadagi ro'lini ortishiga olib kelishiga umid qiladi.

Xitoy iqtisodiy islohotlaridan (1979–2019 yy.) keyingi, oxirgi 40 yil mobaynida, mamlakat iqtisodiyotida sezilarli natijalarga erishildi va hozirgi davrda u, ham global, ham mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga o'zining katta hissasini qo'shib kelmoqda. XXRsi o'z rivojlanishida dunyoning 2- iqtisodiyotiga aylanib, uning hajmi oxirgi 10 yil ichida, 2,4 barobarga o'sdi<sup>2</sup>.

Biroq, keyinchalik ham, mavjud iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash uchun, mamlakat rahbariyati tomonidan e'lon qilingan keng miqyosli vazifalarni hal etish, Pekin oldiga Xitoyning eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modelini yangisiga o'zgartirish zaruriyatini qo'ydi.

O'z navbatida, yangi model, ichki iste'molni kengaytirishga, innovatsiyalarni joriy etish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga asoslangan bo'lishi lozim deb belgilandi. Mazkur murakkab vazifalarni hal etish esa, Xitoy hukumatidan mamlakatda iqtisodiy islohotlarni har taraflama amalga oshirishni va iqtisodiyotning muvozanat darajasini oshirishni talab qildi. Bu yo'nalishdagi Pekinning mamlakatdagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini haddan tashqari pasayishiga yo'l qo'ymasdan va jiddiy moliyaviy tebranishlarsiz ushbu vazifalarni hal etish

---

<sup>1</sup>2017 yilda Si Zinpin tomonidan "Bir tasma – bir yo'l" loyihasi Forumda e'lon qilindi.

<sup>2</sup>[grinatal09@yandex.ru](mailto:grinatal09@yandex.ru) Full text of President Xi's speech at opening ceremony of BRICS Business Forum //The Xinhua News Agency.2017.September. URL: <http://news.xinhuanet.com/english/> 2017-09/03/c\_129695215.htm (датаобращения: 04.09.2017).

qobiliyati, jahon iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi. Xitoydagi iqtisodiy ahvol va turli tavakkalchiliklar to'g'risida Xalqaro institutlar, investorlar va analitiklar tomonidan doimiy tarzda olib borilgan monitoring ob'yektlari ekanligi bejizga emasdir.

Ta'kidlash joizki, ko'p yillar mobaynida xitoy iqtisodiyotidagi ikki raqamli iqtisodiy o'sish sur'atidan keyin, 2010-yilga kelib, sekinlasha boshladi va u, nafaqat, mamlakatdagi, balki, uning tashqarisida ham, yoqori darajadagi havf-hatar manbaiga aylandi.

## 1.2. Globallashuv jarayonida Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi o'rni va ro'li

Oxirgi besh yilda XXRsi jahon iqtisodiyotini taxminan 1/3 qismini barqaror ta'minlab kelmoqda, xususan, 2016 yilda bu ko'rsatkich 33,2%ga, 2017-yilda 34,2%ga, 2018-yilda esa, 34,7% o'sgan, Xitoy iqtisodiyotining o'zi esa, 2,3 trln.doll.ga ko'payishi<sup>1</sup> kutildi, ammo, u amalda 1,7 trln.doll.gagina ko'paydi xolos. (1.2.1.-jadvalga qaralsin).

1.2.1.-jadval.

Global iqtisodiyotning o'sishida 2012-2018-yillar mobaynida Xitoyning qo'shgan hissasi (% da)<sup>2</sup>

|                                                         | 2012 y. | 2013y. | 2014y. | 2015y. | 2016 y. | 2018y. |
|---------------------------------------------------------|---------|--------|--------|--------|---------|--------|
| Jahon YaIM                                              | 2,4     | 2,5    | 2,7    | 2,6    | 2,4     | 2,8    |
| Xitoy YaIM                                              | 7,9     | 7,8    | 7,3    | 6,9    | 6,7     | 6,6    |
| Jahon iqtisodiyotini o'sishiga XXRning qo'shgan hissasi | 31,7    | 32,5   | 29,7   | 30,0   | 33,2    | 34,7   |

Mavjud bashoratga binoan, 2017–2019-yillarda global iqtisodiyot hozirgi 75 trln.doll.dan yana qo'shimcha 6,5 trln.doll.ga ko'payishi (\$81,5 trln.) kutilgan. Ammo, lekin, jahon iqtisodiyoti hamda Xitoydagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashuviga qaramasdan, mamlakatning jahon YaIMga qo'shgan hissasi sezilarli darajada bo'lmoqda<sup>3</sup>.

Xitoyning "Qattiq qo'nim" imkoniyatlaridan xavfsiragan g'arb ekspertlari, agarda, u amalga oshirilsa, jahon iqtisodiyotining barbod bo'lishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlamodalar. Mavjud ma'lumotlarlar hisob-kitobiga qaraganda, XXR o'sish sur'atining 1%ga pasayishi, Jahon iqtisodiyoti YaIMini o'sish sur'atini 0,2 %li punktga qisqartirishi mumkin<sup>4</sup>.

<sup>1</sup>URL:[http://www.imf.org/en/News/Articles/2017/08/15/pr17326-china-imf-executive-board-concludes-2017-article-iv-consultation\(01.09.2017](http://www.imf.org/en/News/Articles/2017/08/15/pr17326-china-imf-executive-board-concludes-2017-article-iv-consultation(01.09.2017)

<sup>2</sup>Manba: IMF Executive Board Concludes 2019 Article IV Consultation with the People's Republic of China//International Monetary Fund. 2019. August 15. URL: [http://www.imf.org/en/News/Articles/2019/08/15/pr17326-china-imf-executive-board-concludes-2019-article-iv-consultation\(01.09.2019\);](http://www.imf.org/en/News/Articles/2019/08/15/pr17326-china-imf-executive-board-concludes-2019-article-iv-consultation(01.09.2019);) Infographic:China's contribution to the global economy //China Daily. 2019. March

<sup>3</sup>Roach S. Why China is central to global growth // World Economic Forum. 2016.September URL: <https://www.weforum.org/agenda/2016/09/why-china-is-central-to-global-growth> (дата обращения: 01.09.2017). экономика

<sup>4</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.



Xitoy turli xil yer osti qazilmalariga ham boy bo‘lib, amaldagi Mendeleyev jadvalidagi deyarli barcha elementlar mavjud bo‘lib, ulardan 20 tasi esa, kamyob va bebaho hisoblanadi. Foydali yer osti qazilmalarining umumiy zahiralari bo‘yicha Xitoy dunyoda 3-o‘rinda turadi. Jumladan, mamlakatdagi toshko‘mir zahirasi hozirgi kunda 1 trln.2,49 mlrd tonna deb baholanmoqda va uning eng boy ko‘mir konlari Shansi provinsiyasida hamda Ichki Mongoliya avtonom rayonida joylashgandir.

Uning asosiy neft konlari esa, mamlakatning shimoliy-g‘arbiy, shimoliy-sharqiy va shimoliy hududlarida hamda sharqiy dengiz oldi kontinental shelflarida joylashgandir. Bundan tashqari, qora metall zahiralardan: marganes, temir, vannadiy, titan, konlari ham mavjuddir. Xitoydagi temir rudasining zahirasi ekspertlarning fikricha, taxminan 46,35 mlrd. tonnani tashkil etadi. Bu temir konlari mamlakatning shimolida, shimoliy-sharqida va janubiy g‘arbida joylashgan bo‘lib, Xitoyning asosiy temir ruda konlari Anshan-Bensi, Xebey, So‘chuanlar hisoblanadi. Shuningdek, Xitoyda bir qator rangli metallar: volfram, qalay, surma, sink, molibden, qurgoshin, simob zahiralari mavjud bo‘lib, ular bo‘yicha mamlakat dunyoda birinchi o‘rinlarni egallaydi.

Ma‘lumki, ko‘p mamlakatlar uchun Xitoy yirik savdo hamkori va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar manbai hisoblanadi. Xitoy iqtisodiyotida bo‘layotgan o‘zgarishlar ko‘pgina tovar va xom ashyo bozorlari holatiga mintaqaviy va jahon iqtisodiyoti nobarqarorligini kuchaytirish orqali ahamiyatli tarzda ta’sir qiladi. Shuning uchun, Xitoyning barqaror rivojlanishini global iqtisodiyotni mustahkam o‘rishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim bir omil sifatida qarash lozim.

XXR uchun tashqi omil juda muhim hisoblanadi, chunki, Pekin uchun, mamlakatning imidjini mos ravishda, qo‘llab - quvvatlash, nisbatan yoqori o‘rinish sur‘ati va barqarorlikni saqlash zarur hisoblanadi. Undan tashqari, Xitoy xorijda o‘zi qabul qilayotgan globalizatsiya va jahon moliyaviy bozorlari bilan integratsiya qilish chegarasidagi qadamlariga “ishonch votumi”ni oshirishdan juda ham manfaatdordir. Shuningdek, mamlakat uchun, nisbatan, yoqori o‘rinish sur‘ati va barqarorlik hamda miqyosli ichki ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish juda ham muhim hisoblanadi.

XKPsining XVIII s‘ezdida XKPni 100 yilligi (2021 yilgacha) munosabati bilan, o‘z oldiga mamlakatda o‘rtamiyona “syaokan” jamiyatini qurish maqsadi qo‘yildi. Bu esa, mamlakat YaIM hajmini va daromadning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishini 2010-yilga nisbatan, 2 barobarga ko‘paytirishni ko‘zda tutadi. Bunda Pekin mazkur maqsadga erishishning asosiy ahamiyatiga urg‘u bermoqda, chunki, o‘rta sinf qatlamining ko‘payishi (600 mln.kishiga yetkazish) ichki talabning oshishiga yordam beradi va iqtisodiyot o‘rishini yangi manbalariga o‘tqazishga javob beradi. Mana shunaqa vazifalarni o‘z oldiga qo‘yish, XXR iqtisodiy siyosatini prinsipial o‘zgarishiga olib keladi. Amalda, u islohotlarning birinchi yillarida bo‘lib o‘tgan, qanday qilib bo‘lsa ham, iqtisodiyotning jadal sur‘atlarda rivojlanishidan voz kechish va keyinchalik, hayotga tadbqiq etila

boshlagan, “innovatsion, yashil, ochiq va inklyuziv rivojlanish” konsepsiyasida o‘z aksini topadi va u muvozanatli, hartaraflama o‘shiga o‘tadi<sup>1</sup>.

Ma’lumki, dunyo mamlakatlari makroiqtisodiy siyosatlarini amalga oshirishda birinchi o‘ringa adolatni va odillikni qaror toptirishni qo‘yadilar va unga eng muhim tamoil sifatida qarashadi. Barcha dunyo mamlakatlari o‘z kuch-qudratlarini muvofiqlashtirishni maqsad qilib, unda quyidagi tamoillarga asoslanadi: makroiqtisodiy siyosatlarini amalga oshirishda birinchi o‘rinda adolatni va odillikni qaror toptirish; xalqaro moliyaviy institutlarga a’zo bo‘lishni jadallashtirish va xalqaro moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish; xalqaro valyuta tizimini takomillashtirish, proteksionizm siyosatiga qarshi chiqish va savdo hamda investitsiya siyosatlarini amalga oshirishda erkin va ochiq muhitni ta’minlash. Xalqaro hamjamiyat rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish va qo‘llab quvvatlashga keng e’tibor qaratishi talab qilinadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha XXRning quyidagi sa’yi-harakatlarini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin:

➤ XXR hukumati jahon moliyaviy inqirozi davrida, ShHTga a’zo mamlakatlari 1 mlrd. AQSH dollarini kredit sifatida ajratdi va shu harakati bilan, mazkur mamlakatlarga inqiroz ta’siridan chiqib ketishga ko‘maklashdi;

➤ XXR faol tarzda xalqaro moliya kompaniyalarining savdo va moliya loyihalarida ham ishtirok etadi va Xalqaro valyuta fondi kvotasini o‘shiga o‘zining hissasini qo‘shib keladi;

➤ Shuningdek, u ko‘plab turdagi investitsiyalarini AQSH, Yevropa ittifoqi mamlakatlari va ShHT mamlakatlari kiritishi bilan xalqaro maydonda o‘z o‘rniga egadir.

Hozirgi davrda Xitoy Xalq Respublikasi o‘zining YaIM ni hajmi bo‘yicha dunyoning 2-iqtisodiyoti hisoblanib (AQShdan keyingi), u oxirgi 40 yil ichida o‘z iqtisodiy rivojlanishining yo‘qori sur‘atlari bilan butun dunyoni lol qoldirib kelayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, 2007-2018 yillarda mamlakat iqtisodiyotidagi 3-sektorning (xizmatlar sohasi) ulushi 43% dan 52,3% ga o‘sd. Shubilanbirga, ikkilamchisektorning (sanoatvaqurilish) ulushi mana shu davrda 47% dan 39,8 %gacha qisqardi.

Oxirgi yillarda, xizmatlar sohasining mamlakat YaIMdagi ulushi 50%dan ortib, u Xitoy iqtisodiyotining muhim o‘sh manbayiga aylanmoqda. Agarda, mazkur tendensiya saqlanib qoladigan bo‘lsa, uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi ro‘li yanada ortadi. Xitoy Ijtimoiy Fanlar Akademiyasining bashoratiga ko‘ra, 2020-yilga kelib, uchinchi sektorning ulushi 59 %gacha va 2030-yilga kelib esa, 72 %ga yetqazish mo‘ljallanmoqda<sup>2</sup>.

Shuni ta’kidlash joizki, Xitoyning iqtisodiy o‘sh sur‘atlari keyingi yillarda, ya’ni, 2015-2018 yillar natijalariga ko‘ra, pasayib bordi va ular, mos holda: 6,9; 6,7; 6,9 va 6,6% larni tashkil etdi, ular orasidagi (oxirgi 25 yil ichidagi eng past ko‘rsatkich) 2018-yildagi 6,6%ni tashkil etdi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup>Full text of President Xi's speech at opening ceremony of BRICS Business Forum .

<sup>2</sup>XXR Fanlar Akademiyasining bashorat ma’lumotlari.

<sup>3</sup> www ereport.ru va World Economic Situation and Prospects 2019. NewYork, 2019. R. 158

Shular qatorida, Xitoyning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini ham quyidagi jadval 1.2.2.dan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

jadval 1.2.2.

XXRning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlili<sup>1\*</sup>

| Tr  | Ko'rsatkichlar                                                      | 2018 yil  | 2017 yil  |
|-----|---------------------------------------------------------------------|-----------|-----------|
| 1.  | Aholisi soni mln.k.                                                 | 1 399.089 | 1.389.289 |
| 2.  | YaIM hajmi, trln,doll                                               | 13,28     | 12.3      |
| 3.  | YaIMni aholi jon boshiga to'g'ri kelishi, ming doll.                | 9492      | 8 976     |
| 4.  | YaIMning o'sish sur'atlari,%da                                      | 6.6       | 6.7       |
| 5.  | YaIMdabirlamchisektorning ulushi, % da                              | 8.6       | 8.82      |
| 6.  | YaIMdaikkilamchisektorning ulushi, % da                             | 38.8      | 47.4      |
| 7.  | YaIMdauchinchisektorning ulushi, % da                               | 52,3      | 51.6      |
| 8.  | Tashqi savdo hajmi, trln. doll.                                     | 4.623,0   | 4.101     |
| 9.  | Eksport, trln. doll.                                                | 2.487,4   | 2.263     |
| 10. | Import. trln. doll.                                                 | 2,135,6   | 1.840     |
| 11. | Iste'mol tovarlarining chakana savdosini umumiy hajmi, %            | +10.71    | +12.02    |
| 12. | Asosiy fondlardagi investitsiyalarning umumiy hajmi, %              | +10.01    | +15.32    |
| 13. | Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi umumiy ko'zlangan daromad, doll. | 3348      | 3200      |
| 14. | Iste'mol narhlari indeksi, %                                        | 1.8       | 1,7       |
| 15. | Ishsizlik darajasi,%da                                              | 5,1       | 5,7       |
| 16. | Inflyatsiya,%da                                                     | 3.9       | 3,2       |
| 17. | Qashshoqlik darajasi,%da                                            | 5.2       | 5,7       |
| 18. | O'rta hol sinf,% da                                                 | 11, 7     | 10.8      |
| 19. | Djini koeffisienti                                                  | 45,4      | 46,3      |
| 20. | Internetning rivojlanishi,% da                                      | 54,3      | 53,5      |
| 21. | Aholining savodxonlik darajasi,%da                                  | 96,2      | 95,9      |

\*Манба: Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г, с.16.;Мировая экономика и международные отношения 2016 том 60 №6 Китай: новые тренды развития на рубеже 2015–2016 гг.с. 212; wwwereport.ru va World Economic Situation and Prospects 2019. NewYork, 2019.R. 158

XXR si hukumati milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning XIII-besh yillik (2016 - 2020 yy.) rejasiga binoan, o'z iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdi.

Xitoy Xalq Respublikasi o'z YaIM (yalpi ichki mahsulot) ning umumiy miqdoriy ko'rsatkichlari (PPS-SOQP) bo'yicha, AQSHni quvib o'tib, jahonning birinchi iqtisodiyotiga aylandi. Ammo, miqdoriy o'sish resurslar yetishmasligi, ekologiyaning yomonlashuvi va qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Xitoy hukumati iqtisodiy islohotlar yillarida, erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, iqtisodiy rivojlanishning yangi strategiyasini ishlab chiqishga kirishdi.

<sup>1</sup>Манба: Мировая экономика и международные отношения 2016 том 60 № 6, Китай: новые тренды развития на рубеже 2015–2016 гг.с. 212 va Аргументы и Факты: новости России и мира. <https://aif.ru> [www.aif.ru](http://www.aif.ru), № 7, 2019.с.8.


Shuningdek, Xitoy hukumati banklarning qarz berish qobiliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'z monetary siyosatni olib bordi va shu orqali uy xo'jaliklari iste'molini o'sishini ta'minladi. Mazkur qilingan ishlar, Xitoy mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin kamayish xavfini anchayin bartaraf etdi. Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari, shu jumladan, AQSH, yilni salbiy iqtisodiy o'sishi bilan yakunlagan bir davrda, Xitoyning YaIMi 2008 – 2009-yillarda, mos ravishda, 9.6% va 9.2%ga o'sdi<sup>1</sup>. 2010-yilga kelib esa, u iqtisodiy inqirozdan oldingi davrdagi o'zining eksport salohiyatini tikladi va uning YaIM hajmi 10.4%ga o'sdi<sup>2</sup>.

O'z o'rnida shuni ta'kidlash joizki, 2017-2018-yillarda Xitoyning nominal YaIMi, mos holda: \$12,03 trln. va \$13.28 trln. tashkil yetdi.<sup>3</sup>

Hozirgi davrga kelib (2016-2018yy.), Xitoyning YaIMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati, mos holda 7,5; 7,0; 6,7 va 6,6% larni tashkil etdi<sup>4</sup>.

Diagramma1.2.1.

### Xitoy yalpi ichki mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari<sup>5</sup>



Манба: Мировая экономика и международные отношения 2016 том 60 № 6 Китай: новые тренды развития на рубеже 2015–2016 гг.С.216 va World Economic Situation and Prospects 2019. NewYork, 2019.R. 155 asosida muallif tomonidan tuzildi.

Xitoy hozirgi davrda erkin savdo zonalari bo'yicha 15 ta kelishuvlar ishtirokchisi, savdo-iqtisodiy munosabatlar bo'yicha, 2ta kelishuvlar (XXR-Gonkogh va Xitoy-Aomen) qatnashchilari va XXRni kontinental qismi va Tayvan orasidagi 1ta chegaralangan iqtisodiy hamkorlik kelishuvi ishtirokchisi hisoblanadi. Shuningdek, Xitoy 2001 yildan boshlab, Jahon savdo tashkiloti (JST) a'zosi hisoblanib, unga a'zolik davridan buyon, Xitoyda tarif va bojlar pasaytirildi,

<sup>1</sup>China Outlook 2015 kpmg.com/cn kpmg.com/globalchina,-P. 23

<sup>2</sup>O'sha joyda,-P. 25

<sup>3</sup>www ereport.ru va World Economic Situation and Prospects 2019. NewYork, 2019.R. 155..

<sup>4</sup>China Outlook 2015 kpmg.com/cn kpmg.com/globalchina, -P. 26 va Аргументы и Факты: новости России и мира. <https://aif.ru> [www.aif.ru](http://www.aif.ru), № 7, 2019.с.8.

<sup>5</sup> World Economic Situation and Prospects 2019. NewYork, 2019.R. 155.

korxonalar o'z tashqi savdo operatsiyalarini mustaqil amalga oshirishlari uchun mavjud chegaralar bekor qilindi. Xususan, mana shu yillar davomida XXRning import tovarlariga belgilangan bojxona tariflarini umumiy darajasi 15,3% dan to 9,8%gacha pasaydi.

Xitoyning huquqiy tizimi–fuqarolik huquqiy modeliga asoslangan sotsialistik huquqiy tizim hisoblanadi. Xitoy Konstitutsiyasida ko'rsatilganidek, siyosiy hukumat mahalliy darajadan boshlab, provinsial va milliy darajalarda xalq tomonidan amalga oshiriladi. Ammo, shunga qaramay, amalda siyosiy kursni ishlab chiqish va huquqiy boshqarish markazlashgan holda amalga oshiriladi. Xitoyning fuqarolik huquqiga sobiq sovet ittifoqi va kontinental Evropaning fuqarolik tizimi o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Xitoy hanuzgacha o'zining tashqi savdo hajmlari va jahon YaIMdagi ulushi bo'yicha, o'z yetakchiligini saqlab kelmoqda va o'zining dinamik rivojlanishini davom etmoqda.

Buni biz quyidagi jadval.1.2.3.dan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

jadval 1.2.3.

### **Xitoyning 2017 yilda jahon YaIM va jahon savdosidagi ulushi, % da<sup>1</sup>**

| t/r | Ko'rsatkichlar            | Ulushi, %da |
|-----|---------------------------|-------------|
| 1.  | Jahon savdosidagi ulushi  | 13,0        |
| 2.  | Jahon YaIMdagi ulushi     | 17,1        |
| 3.  | Jahon eksportidagi ulushi | 13,6        |
| 4.  | Jahon importidagi ulushi  | 10.0        |

Undan tashqari, Xitoy turli sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha ham jahonda o'z yetakchiligini saqlab kelmoqda, xususan, bu sohalar: avtomobilsozlik, po'lat prokati, sement, radioelektron mahsulotlar hisoblanadi. Shular qatorida ta'kidlash joizki, 2014-yildan buyon, XXR qurol-aslahalarni eksporti bo'yicha dunyoda AQSH va Rossiyadan keyingi, 3-o'rinni egallab kelmoqda.

XXR iqtisodiy rivojlanishining va iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Iqtisodiy o'sishning yangi modelini shakllantirish (unda eksportning muhimligini saqlab qolgan holda, ichki iste'mol talabini oshirib borish);
- Sanoat ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya qilish;
- Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish;
- Kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- Milliy va mahalliy eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Shuni ta'kidlash lozimki, sanoat ishlab chiqarishining 60%i va mamlakat tashqi savdosining 38%i XXR davlat sektori hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatda hozirgi davrda 112 ta davlat monopoliyasi mavjud bo'lib, 277 ta hissadorlik kompaniyalari ham davlatning nazoratidadir. Undan tashqari, mamlakatdagi

<sup>1</sup>Манба: Мировая экономика и международные отношения 2016 том 60 № 6 Китай: новые тренды развития на рубеже 2015–2016 гг.С.216; wwwereport.ruva World Economic Situation and Prospects 2019. NewYork, 2019.R. 158

kapitalning asosiy qismi esa, bank aktivlarida yig'ilgan bo'lib, ularning 80%i davlat banklari hisoblanadi.

Xitoyning dunyodagi o'rniga kelsak, uni 2017 yil natijalariga ko'ra, quyidagicha tasniflash mumkin:

- ✓ Global raqobatbardoshlik indeksi bo'yicha 140ta davlatlar orasida 54-o'rinda;

- ✓ Korrupsiyani qabul qilish indeksi bo'yicha 167ta mamlakatni ichida 83-o'rinda;

- ✓ Doing business ko'rsatkichi bo'yicha 78-o'rinda;

- ✓ Mulk huquqini himoya qilish Xalqaro indeksidagi reytingi bo'yicha 2015 yil ma'lumotiga ko'ra, Xitoy dunyoning 129ta davlati orasida 53-o'rinni egallamoqda. Undan tashqari, Xitoy Umumjahon intellektual mulk tashkiloti (UJIM - BOIC) a'zosi bo'lib, rezidentlari tomonidan olingan patentlari bo'yicha 2010 yildan buyon 1-o'rinni egallab kelmoqda (801 ming ariza 2014 y.). 2017 yilda Jahon Banki tomonidan tuzilgan Doing business reytingi bo'yicha, Xitoyning "xalqaro savdo" pozitsiyasi 96-o'rinnga chiqdi.

Jahon moliyaviy inqirozi davridagi XXR hukumati ShHTga a'zo mamlakarlarga 1 mlrd AQSH dollarini kredit sifatida ajratdi va shu bilan, ularga inqiroz ta'siridan chiqib ketishga ko'maklashdi; XXR faol tarzda xalqaro moliya kompaniyalarining savdo va moliyaviy loyihalarida ishtirok etmoqda va Xalqaro valyuta fondi kvotasi o'sishiga katta hissa qo'shib kelmoqda; Shuningdek, ko'plab turdagi investitsiyalarini AQSH, Yevropa ittifoqi mamlakatlari va ShHT mamlakatlariga kiritishi bilan xalqaro maydonda o'z o'rniga egadir.

## **2-BOB: XXR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH**

### **2.1. Xitoy zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatining natijalari**

2018-yilning mart oyida XKP UXXVKni 1-sessiya 13-chaqirig'ida Xitoyning 2017-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yakun yasaldi. XXR Davlat kengashi bosh vaziri Li Katyan o'z ma'ruzasida "iqtisodiyotda qulay holat shakllangani, bu esa, iqtisodiyot tarkibi va sifatining hamda ularning samaradorligini yaxshilanishi natijasidagi o'sish yuz berayotganligi"ni ta'kidladi. Ular quyidagi ko'rsatkichlardan iborat bo'ldi:

- inflyatsiyaning past darajasi (iste'mol narhlari indeksi) – 1,6% (rejaga ko'ra 3%dan oshmasligi lozim);

- bandlikni o'sishi – shaharlardagi yangi ish o'rinlari 13,51 mln.k.tashkil etidi, bu esa, rejadagi 11 mln.k.dan 2,51 mln.k.ga ko'p yaratilgan. Shaharlardagi ishsizlik darajasi – 3,9% ni tashkil etdi (reja bo'yicha bu ko'rsatkich 4,5%dan iborat bo'lgan);

- Iqtisodiyotning tarkibi yaxshilandi – xizmatlar sohasidagi qo'shimcha qiymat ulushi 51,6% ni, ikkilamchi sohaning ulushi 39,9% dan 40,5%gacha o'sdi. Ular orasida eng jadal sur'atlarda iqtisodiyotning yoqori texnologik tarmoqlari rivojlandi;

- byudjet kamomadi (defitsit)– 2,38 trln.yuan(rejaga mos);

- M2 pul agregatining o'sishi - 8,2 % (rejada 12,0%);

- infratuzilmaviy qurilishga jalb etilgan investitsiyalarning o'sishi, shu jumladan: temir yo'l tarmog'i uchun - 800 mlrd.yuandan ortiq, fuqaro aviatsiyasi sohasiga - 82,5 mlrd.yuan, avtomagistral va suv yo'llarini rivojlantirish uchun 2 trln.yuandan ortiqroq investitsiya kiritildi. Undan tashqari, mamlakatda 3038 km.temir yo'llar, 80 ming km.dan ortiq avto yo'l, shu jumladan, 6000 ta tez yurar avtomagistral, 11 ta aeroportlar ishga tushirildi;

- YaIM birligiga energiya harajatlarini pasayishi–3,7%ga (reja bo'yicha 3,4%);

- tadbirkorlikni va novatorlikni jadal rivojlantirish. Unda yangi ro'yxatdan o'tgan kichik va o'rta biznes korxonalarining miqdoriy o'sishi 9,9%ni tashkil etdi (kuniga o'rtacha 16,6 ming yangi korxonalar va individual tadbirkorlar ro'yxatdan o'tgan);

- aholi real daromadlarining o'sishi davom etib, u yil oxirida – 7,3%ga o'sgan. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha uning o'sish sur'atlari, butun iqtisodiyotning o'sish sur'atlaridan baland bo'lib keldi. Shahar aholisining daromadlari 8,3%ga, qishloq aholisniki esa, 8,6%ga o'sdi. Qishloq aholisini qashshoq qismi miqdori 12,89 mln.k.ga kamaydi.

Quyidagi 2.1.1 - Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotning 1- va 3-sektorlaridagi o'sish mos holda, 0,6 va 0,2 p.p.ga tezlashgan, ikkilamchi sektordau o'z dinamikasini saqlab qolgan. Shunday qilib, mamlakat YaIMda birlamchi sektorning ulushi 7,9% (2016-yilda 8,6%),

ikkilamchi sektorniki – 40,5% (38,8%), uchinchi sektorniki esa – 51,6% (51,6%) teng bo‘ldi.

Jadval 2.1.1.

**2017-yildagi Xitoy YaIMning sektorlar bo‘yicha tarkibi\***

| Iqtisodiyotning sektorlari                                          | ko‘rsatkichlar, mlrd. yuan |           | 2016-yilga nisbatan o‘lish, %da |         |
|---------------------------------------------------------------------|----------------------------|-----------|---------------------------------|---------|
|                                                                     | 2017y. IY ch.              | 2017 y.   | 2017y. IY ch.                   | 2017 y. |
| YaIM                                                                | 23 458,2                   | 82 7122,0 | 6,8                             | 6,9     |
| Birlamchi sektor                                                    | 2 423,9                    | 6 546,8   | 2,9                             | 3,9     |
| Ikkilamchi sektor                                                   | 9 617,7                    | 33 462,3  | 6,1                             | 6,1     |
| Uchinchi sektor                                                     | 11 416,7                   | 42 703,2  | 8,3                             | 8,0     |
| Qishloq xo‘jaligi                                                   | 2 515,4                    | 6 800,9   | 4,5                             | 4,1     |
| sanoat                                                              | 7 820,5                    | 27 999,7  | 6,2                             | 6,4     |
| Shujumlardan, qaytaishlash:                                         | 6 813,1                    | 24 270,7  | 6,8                             | 7,0     |
| Qurilish                                                            | 1 828,8                    | 5 568,9   | 3,1                             | 4,3     |
| Chakanavaulgurjisavdo                                               | 2 179,1                    | 7 774,4   | 6,9                             | 7,1     |
| transport, omborxo‘jaligi                                           | 997,2                      | 3 680,3   | 8,6                             | 9,0     |
| Mehmonxonavarestoranbiznesi                                         | 410,9                      | 1 459,4   | 7,0                             | 7,1     |
| Moliya                                                              | 1 630,2                    | 6 574,9   | 4,0                             | 4,5     |
| Ko‘chmas mulk                                                       | 1 486,0                    | 5 385,1   | 4,8                             | 5,6     |
| Dasturiy ta‘minot,<br>ma‘lumotlarni tarqatish va<br>axborot xizmati | 749,2                      | 2 745,2   | 33,8                            | 26,0    |
| Ijaravatijoratxizmati                                               | 625,2                      | 2 216,3   | 11,8                            | 10,9    |
| Boshqa xizmatlar                                                    | 3 215,7                    | 12 507,2  | 7,2                             | 7,1     |

\*Манба: Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республик в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.23-24

Shular qatorida, yoqorida ta’kidlaganimizdek, XXRni YaIM hajmi yil yakuni (2018 y.) ma’lumotiga ko‘ra, 90,01 trln.yuanni (13,28 trln.doll.) tashkil etdi<sup>1</sup>. Undagi sektorlarning tarkibi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ldi: iqtisodiyotning birlamchi sohasi (qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi, suv xo‘jaligi) – 6 546,8 mlrd.yuanni tashkil etib, u 2016-yilga nisbatan, +3,9% ga o‘sganligini anglatadi, ikkinchi sektor (sanoat, energetika, qurilish) – 33 462,3 mlrd.yuandan iborat bo‘lib, u +6,1%ga ortdi, uchunchi soha (xizmat ko‘rsatish, transport, sog‘liqni saqlash va ta’lim) – 42 703,2 mlrd.yuanni tashkil etdi va mazkur soha 2016-yilga nisbatan, +8,0%ga o‘tdi).

Iqtisodiy islohotlar davri mobaynida Xitoy Xalq Respublikasi aholisi 285,5 mln.kishiga; mehnat resurslari 359 mln.kishiga o‘tib, 2007 yilda mehnatga layoqatli aholi soni 901,2 mln. kishini tashkil etdi. Mamlakat aholisining ish bilan bandligi 298 mln. kishiga ko‘payib, aholi bandligi 2007 yilda qo‘shimcha yana 130,6 mln. kishi ish bilan ta’minlandi. Xitoy Xalq Respublikasi aholisining keskin o‘sishi va shu bilan birga to‘liq bandlikga intilishi islohotlar davomida iqtisodiy

<sup>1</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республик в 2017 году, Пекин, 2018 г, с.16.;XXR Davlat Statistika Boshqarmasi ma’lumotlari.



o'sishning asosiy omili bo'lib xizmat qildi. Islohotlar davrida ishga yaroqli aholining 95,8%i (1998 yilda bu ko'rsatkich - 82,9% ni tashkil etgan edi.) ish bilan ta'minlandi<sup>1</sup>.

Mamlakatni keng sur'atlarda, industriallashtirish siyosati aholini ish bilan ta'minlashda keng imkoniyatlar ochib berdi. Buning natijasida, Xitoy jamiyati, boshqa mamlakatlarda bo'lgani singari (Pokiston, Postsotsialistik mamlakatlar va boshqalar), chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozlarga tushib qolmadi.

Aholini ish bilan ta'minlash juda sodda texnologiyalar (sifati unchalik yuqori emas) asosida, asosan, ekstensiv yo'nalishda amalga oshirildi. Natijada korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish joylari tezda to'lib, mehnat resurslaridan foydalanish samarasi pasaya boshladi. Bo'sh ish vaqtini kamaytirish maqsadida 1995 yildan boshlab, davlat korxonalarida xaftasiga «5 kunlik» ish rejimiga o'tildi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy shaharlaridagi ishsizlik darajasi islohotlarning dastlabki 10 yilligida 2 karraga qisqardi (1978 y. - 5,3%; 1989 y. - 2,6 %). 1995-yilda esa, ish joylarining sezilarli qisqarishi kuzatildi. Va oxir oqibatda, ishsizlikning o'sish tendensiyasiga olib keldi. Buni 1997-98 yillardagi Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliyaviy inqirozning XXR iqtisodiyotiga salbiy ta'siri natijasida ko'rishimiz mumkin. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda 1998-yilda ishsizlik - 3,1 % ni tashkil etdi.\*

XXR hukumati mintaqadagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda, bandlik muammosini hal etishga intilmoqda. Mamlakatda ijtimoiy ta'minotning yangi tizimi ishlab chiqilib, 1990 yillar oxirida «Ishsizlik bo'yicha sug'urtalash» va «Ijtimoiy sug'urta to'lovlarining vaqtinchalik holatlari» to'g'risida qonun qabul qilindi.

2007 yil ma'lumotiga ko'ra, ish bilan band bo'lganlarning umumiy soni 864,57 mln. kishini tashkil etib, u ishga layoqotlilar sonining 95,8 % tashkil etdi, ulardan qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni - 406,34 mln. kishini (47%), sanoatda band bo'lganlar soni - 216,14 mln. kishini (25%), xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni esa - 242,7 mln. kishini (28%) tashkil etdi.

1979 yilda Xitoyda "Ochiq eshiklar" siyosati e'lon qilinib, unda nafaqat, xorijiy kompaniyalar uchun, balki mamlakatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar uchun ham mehnat bilan shug'ullanishga muayyan sharoitlar yaratila boshlandi. Shu bilan birga, xususiy va kollektiv mulkga asoslangan shahar korxonalari tarmoqlaridagi bandlikning tarkibiga e'tibor qaratsak, unda mamlakatdagi individual mehnat bilan shug'ullanuvchilar soni 1985 yilga kelib, - 4,5 mln. kishini tashkil etganligini ko'rish mumkin, u 1978 yilga nisbatan (159 ming.k.) qarayib, 30 barobarga oshdi.

Yoshlar o'rtasidagi bandlik muammosini hal etishda Xitoy hukumati yangi ishchi kuchini hisobga olish va taqsimlash ishlarini faollashtirdi hamda mazkur ishlar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarni tashkil etdi. Ushbu kompaniyalar soni agar, 1978 yilda 800 tadan iborat bo'lgan bo'lsa, 1985 yilga kelib, ularning soni

---

<sup>1</sup>XXP Давлат статистик Қўмитаси маълумотлари. (<http://www.china.org.ch>)

\*Rasmiy ma'lumotlarda ro'yxatdan o'tgan ishsizlik darajasigina aks ettiriladi, real Xitoy ijtimoiy hayotida esa, Xitoy iqtisodchilarining hisob-kitobiga binoan ishsizlik darajasi 8-9% dan kam emasdir. (Bu hisob kitoblarga asosan, shaharlar va shahar tipidagi qishloq poselkalar aholisiga nisbatan hisoblangan).

45000 taga etdi. Mamlakatdagi umumiy bandlik esa 1,2 mln.kishidan 8,8 mln.kishiga ko'paydi. Ulardan 6,14 mln.kishi hisobga olish va taqsimlash kompaniyalari tomonidan boshqariluvchi kollektiv korxonalarida faoliyat ko'rsatdilar, 1,6 mln. kishi tayyorlov kurslarida ta'lim olib, 1,1 mln.kishi esa, vaqtinchalik ish bilan band bo'ldilar.

Mamlakatda bandlikni oshirish bilan birga, Xitoy hukumati ishga qabul qilish tizimiga ham o'zgartirishlar kiritildi, jumladan, ko'pgina hollarda, ishga qabul qilish tanlovlar asosida amalga oshirilib kelindi. Undan tashqari, ishga qabul qilishning shartnoma tizimi ham, keng qo'llanila boshlandi. Birgina, 1985 yilda 3,5 mln.kishi ishga shartnoma asosida qabul qilindilar.

Iqtisodiy islohotlar davri mobaynida Xitoy Xalq Respublikasi aholisi 285,5 mln. kishiga; mehnat resurslari 359 mln. kishiga o'sib, 2007 yilda mehnatga layoqatli aholi soni 901,2 mln. kishini tashkil etdi. Aholining ish bilan bandligi 298 mln.kishiga ko'payib, 2010 yilda qo'shimcha yana 110,6 mln. kishi ish bilan ta'minlandi. Xitoy Xalq Respublikasi aholisining keskin o'sishi va shu bilan birga to'liq bandlikga intilishi islohotlar davomida iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib xizmat qildi.

Aholini ish bilan ta'minlash, juda sodda texnologiyalar (sifati unchalik yoqori emas) asosida, asosan, ekstensiv yo'nalishda amalga oshirildi. Natijada, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish joylari tezda to'lib, mehnat resurslaridan foydalanish samarasi pasaya boshladi. Bo'sh ish vaqtini kamaytirish maqsadida, 1995 yildan boshlab, Xitoy davlat korxonalarida haftasiga, «5 kunlik» ish rejimiga o'tildi.

XXR hukumati mintaqadagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda, bandlik muammosini hal etishga intilmoqda. Mamlakatda ijtimoiy ta'minotning yangi tizimi ishlab chiqilib, 1990-yillar oxirida «Ishsizlik bo'yicha sug'urtalash» va «Ijtimoiy sug'urta to'lovlarining vaqtinchalik holatlari» to'g'risida qonun qabul qilindi.

2018 yil ma'lumotiga ko'ra, ish bilan band bo'lganlarning umumiy soni 750,55 mln. kishini tashkil etib, u ishga layoqotlilar sonining 96,2 % tashkil etdi, ulardan qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni - 192,30 mln. kishini (25,5%), sanoatda band bo'lganlar soni - 216,15 mln. kishini (28,8%), xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni esa - 342,40 mln. kishini (45,7%) tashkil etdi.Shunday qilib, Xitoy hukumaning aholi bandligini oshirish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlari asosida mamlakatdagi ishsizlik darajasi ancha pasayib bormoqda va undagi bandlik darajasi esa, mavjud muammolarga qaramay, oshib bormoqda.Mamlakatda bandlik va xususan ish bilan ta'minlash sohasida paydo bo'lgan salbiy holatlar mehnat vazirligi qoshidagi mehnat ilmiy-tadqiqot instituti va XXRning ijtimoiy ta'minoti mutaxassislar tomonidan tahlil qilindi va inqiroz holatidan samarali chiqish uchun, bandlik sohasida aktiv siyosiy islohotlarni olib borish kerak deb hisoblaydilar va bu muammo bo'yicha, ular quyidagi 4ta taklif bilan chiqdilar:

Mamlakatda bandlik va aholini ish bilan ta'minlash sohasida yuzaga kelgan salbiy holatlar Xitoy mehnat vazirligi qoshidagi mehnat ilmiy-tadqiqot instituti hamda mamlakatning ijtimoiy ta'minot muassasalari tomonidan chuqur tahlil

etilib, mamlakatni inqirooz holatidan samarali chiqarish maqsadida, bandlik bo'yicha faol siyosiy islohotlarni amalga oshirish lozim deb topildi. Mamlakatdagi mavjud mazkur muammolarni quyidagi yo'llar orqali hal etish taklif etildi.

- Birinchidan, ish bilan ta'minlash siyosatini izchillik bilan olib borish va bandlikni turli yo'nalishlarda kengaytirish orqali aholi yashash farovonligini oshirish va mamlakat ijtimoiy barqarorligini ta'minlash. Buning uchun mamlakatda bandlikni maksimal darajada ko'tarish va ishsizlik darajasini qiaqartirish va milliy iqtisodiyot tarkibini optimallashtirish kabi vazifalarni amalga oshirish lozim. Shuningdek, mamlakatda bandlikni oshirish va aholini ish bilan ta'minlashda nafaqat ichki, balki, tashqi sarmoyalarni ko'proq jalb etish, mazkur yo'nalishdagi mavjud qonunchilikni mukammallashtirish, ishchi kuchi bozorini rivojlantirish lozim;


- Ikkinchidan, yangi ish o'rinlarini yaratish uchun, mamlakatda o'rtacha iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish, ayniqsa, hozirgi davrda, barqaror rivojlanayotgan mamlakatlar safi qisqarib borayotganligini e'tiborga olib foydalanish lozim;

- Uchinchidan, iqtisodiy o'sishni muayyan bir me'yorda ushlab turgan holda, aholini ish bilan ta'minlash ko'lamini kengaytirish uchun iqtisodiyotning tarkibini takomillashtirish lozim. Bir tomondan, yirik texnologiya va kapital talab korxonalarni rivojlantirish, ikkinchi tomondan, yangi ish o'rinlarini ko'proq yaratib berishga qodir bo'lgan, kichik va o'rta biznesni ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida rivojlantirish zarurdir;

- To'rtinchidan, aholini ish bilan ta'minlashda, ayniqsa, kecha o'qishni bitirib kelgan, tashabbuskor, bilimdon yoshlarga alohida katta e'tibor qaratish lozim. Undan tashqari, mamlakatda ish qidirish dastaklarini aholiga qulay variantlarda tashkillashtirish, mehnat bozoridagi ish beruvchilar to'grisida axborot ma'lumotlar tizimini shakllantirish lozim.(2.1.1.- diagrammaga qaralsin).

Diagramma-2.1.1

**Xitoyning 2018 yilda sohalar bo'yicha ish bilan band bo'lganlar soni<sup>1</sup>**




Mana shu yillar mobaynidagi XXRsi aholisining taqsimlanishini taqqoslaydigan bo'lsak, unda 2007-yildagi holatning, ya'ni qishloq va shahar aholisining nisbatlarida qishloq aholisining ulushi ko'p bo'lganligini ko'rishimiz

<sup>1</sup>www.china-people.gov.cn.

mumkin. Oradan 10 yil vaqt o'tgandan keyin, mazkur holat teskari nisbatni ko'rsatganligini kuzatamiz.

Endi Xitoy aholisining shahar va qishloq aholisiga taqsimlanishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda 2007-yilda mamlakatda aholining qishloq va shaharlardagi taqsimlanishi 63,9 va 36,1%larni ko'rsatgan bo'lsa, 2017-yilga kelib, ahvol batamom teskari holatni, ya'ni 42 va 58%larga (2.1.2.-Diagramma) o'zgarganligini guvohi bo'lamiz<sup>1</sup>

Diagramma 2.1.2.



Manba: [www.china-people.gov.cn](http://www.china-people.gov.cn).

Hozirgi davrda Xitoyda narxlar indeksi, ayniqsa, mamlakat Olimpiadaga tayyorlanish paytida juda ham ko'tarilib ketdi. Undan keyingi davrda narxlar indeksi oz bo'lsada pasaygan bo'lishiga qaramay, baribir, ular Xitoy aholisi uchun keraklicha pasaymadi. Bugungi kunda Xitoyda iste'mol mahsulotlari narxlari bozordagi talab va taklifga qarab shakllanmoqda. Xususan, mamlakatdagi 90% qishloq xo'jaligi mahsulotlari, 95% chakana savdo tovarlari va 85% sanoat mahsulotlari erkin narxlarda sotila boshladi.<sup>2</sup>

Xitoy o'z iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni intensiv davom ettirib, uning natijasida nafaqat, mamlakatning janubiy-sharqiy qismi, balki, boshqa hududlari ham, rivojlanib bordi. Ularning samarasi esa, mintaqalarda xorijiy sarmoya ishtirokidagi yangi korxonalar tashkil etilib, ularda yangi ish o'rinlari barpo qilindi. Oxir oqibatda, mamlakat aholisining katta qismi ish bilan ta'minlandi va ularning turmush darajalari oshib bordi.

Undan tashqari, ko'rilgan choralar bandlik strukturasiga kiritilgan o'zgarishlardan iborat bo'ldi. Unda ayniqsa, mamlakat sanoat ishlab shiqarishidagi uning yengil sanoatidagi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalaridagi bandlikning rivojlanishi yuz berdi.

Yoshlar o'rtasidagi bandlik muammosini hal etishda Xitoy hukumati yangi ishchi kuchini hisobga olish va taqsimlash ishlarini faollashtirdi hamda mazkur ishlar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarni tashkil etdi.

Mamlakatda bandlikni oshirish bilan birga, Xitoy hukumati ishga qabul qilish tizimiga ham o'zgartirishlar kiritdi, jumladan. ko'pgina hollarda, ishga qabul qilish

<sup>1</sup> Manba: [www.china-people.gov.cn](http://www.china-people.gov.cn) asosida muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>2</sup> XXR Davlat statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. (<http://www.china.org.cn>)

tanlovlar asosida amalga oshirilib kelindi. Undan tashqari, ishga qabul qilishning shartnoma tizimi ham keng qo'llanila boshlandi.

Mazkur o'zgarishlarni biz quyidagi 2.1.2.- jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

Jadval 2.1.2.

**Davlat korxonalari tarmoqlaridagi bandlik strukturasi  
mln. kishi (1978-2017 yy.)<sup>1</sup>**

| Xalq xo'jaligi tarmoqlari                              | 1978  | 1984  | 2000  | 2010  | 2017  |
|--------------------------------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Jami                                                   | 4,52  | 86,37 | 209,3 | 537,6 | 799,5 |
| Sanoat                                                 | 30,41 | 35,92 | 37,9  | 227,5 | 285,3 |
| Qishloq, o'rmon xo'jaligi, suv resurslarini qo'riqlash | 8,34  | 7,97  | 11,1  | 11,8  | 12,9  |
| Transport va aloqa                                     | 4,50  | 5,37  | 10,1  | 12,8  | 13,9  |
| Savdo, xizmat ko'rsatish                               | 9,70  | 8,70  | 16,9  | 19,3  | 23,7  |
| Fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash              | 9,41  | 12,51 | 12,9  | 13,7  | 14,8  |
| Shahar kommunal xo'jaligi                              | 0,97  | 1,84  | 2,94  | 3,87  | 5,87  |

Shular qatotida, ta'kidlash lozimki, 2004 yildagi Xitoy ommaviy axborot vositalari tarqatgan ma'lumotlariga ko'ra, ushbu yilda shahar va shahar tipidagi poselkalarda 23,7 mln. kishini qayta ish bilan ta'minlash muammosi yuzaga kelgan. Shulardan 6 mln. ishchilar ishsizlik ro'yxatidan o'tgan, 3 mln. xizmatchilarni esa, muassasalarda qisqartirishga majbur bo'lganlar va natijada qishloqlarda 130 mln.dan ko'proq ortiqcha ishchi kuchi to'planib qolgan.

XXR hukumati mintaqadagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda, bandlik muammosini hal etishga intilmoqda. Mamlakatda ijtimoiy ta'minotning yangi tizimi ishlab chiqilib, 1990 yillar oxirida «Ishsizlik bo'yicha sug'urtalash» va «Ijtimoiy sug'urta to'lovlarining vaqtinchalik holatlari» to'g'risida qonun qabul qilindi.

Jadval 2.1.3.

**Xitoyning ishsizlik darajasi, %da (2007-2018 yy.)\***

| yillar | o'zgarishi,%da |
|--------|----------------|
| 2007   | 4.0            |
| 2008   | 4.2            |
| 2009   | 4.3            |
| 2010   | 4.1            |
| 2011   | 6.5            |
| 2012   | 6.5            |
| 2013   | 4.1            |
| 2014   | 4.1            |
| 2015   | 4.2            |
| 2016   | 4.2            |
| 2017   | 3,8            |
| 2018   | 5,2            |

\*Manba: - CIA World Factbook <http://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/index.ht>

<sup>1</sup> Чжунго гунге цзинци тунци нуанцзуан.2018,.С.31

2007-yil ma'lumotiga ko'ra, ish bilan band bo'lganlarning umumiy soni 864,57 mln. kishini tashkil etib, u ishga layoqotlilar sonining 95,8 % tashkil etdi, ulardan, qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni - 406,34 mln. kishini (47%), sanoatda band bo'lganlar soni - 216,14 mln. kishini (25%), xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni esa, - 242,7 mln. kishini (28%) tashkil etdi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, Xitoy hukumatining aholi bandligini oshirish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlari asosida, mamlakatdagi ishsizlik darajasi ancha pasayib bormoqda va undagi bandlik darajasi esa, mavjud muammolarga qaramay, oshib bormoqda.

Mamlakatda bandlik va xususan ish bilan ta'minlash sohasida paydo bo'lgan salbiy holatlar mehnat vazirligi qoshidagi mehnat ilmiy-tadqiqot instituti va XXRsining ijtimoiy ta'minoti mutaxassislar tomonidan tahlil qilindi va inqiroz holatidan samarali chiqish uchun bandlik sohasida aktiv siyosiy islohotlarni olib borish kerak deb hisobot berildi.

Ushbu muammo bo'yicha ular quyidagi 4ta taklif bilan chiqdilar.

Birinchidan, mutaxassislarni fikricha, ish bilan ta'minlash siyosatini aktiv olib borish va bandlikni kengayishi, davlatni iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi paytda bandlikni kengaytirish, aholini yashash darajasini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda katta ro'l o'ynaydi.

Shuning uchun, bandlikni maksimal darajaga ko'tarish va ishsizlik darajasi, iqtisodiy o'sishni saqlagan holda, kamaytirish va milliy iqtisodiyot strukturasi optimallashtirish kabi vazifalarni amalga oshirish lozim deb biladilar.

Yuzaga kelgan ziddiyatlarni hal etish uchun yoki ularni yengillashtirish uchun, ish bilan ta'minlashga sarmoyani ko'proq yo'naltirish kerak, shu boradagi siyosiy qarorlarni mukammallashtirish, ishchi kuchi bozorini rivojlantirish, ish bilan ta'minlashda xizmat sohasini yaxshilash, ish izlovchilarga yordam berish tizimini shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, bir qancha chora-tadbirlar kompleksni qabul qilib, bandlik sohasidagi salbiy tendensiyaning oldini olish lozimdir;

Ikkinchidan, ko'proq ish o'rinlarini yaratish uchun, o'rtacha iqtisodiy o'sishni ta'minlash zarur. Iqtisodiyotda strukturaviy o'zgarishlar amalga oshirilganda, Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aynan, shu mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va bandlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik amalda kuzatilgan. Bandlikning o'sish sur'ati iqtisodiy o'sish sur'atlaridan orqada qolsa ham, bir-biriga bog'liqlik, o'zaro o'sish va pasayishda ko'rinadi. Yuqorida aytilganlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiy o'sish bevosita bandlikka ta'sir etib, uni tubdan o'zgartirish imkoniga ega emas, lekin, kamida, ya'ni ish o'rinlarini yaratish va bandlikdagi inqiroz hamda tushkunlikni oldini olish kabi vazifalarni bajaradi;

Uchinchidan, iqtisodiy o'sishni ma'lum bir me'yorda ushlab turgan holda, ish bilan ta'minlash ko'lamini kengaytirish uchun, iqtisodiyotning tarkibini takomillashtirish kerak bo'ladi. Bir tarafdin olganda esa, yirik texnologiya va kapital talab korxonalarni rivojlantirish zarur, ikkinchi tarafdin, ko'proq ish

---

<sup>1</sup>Manba: [www.china-people.gov.cn](http://www.china-people.gov.cn).

joylarini yaratib beruvchi va ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib boruvchi iqtisodiy korxonalarni rivojlantirish zarurdir;

To'rtinchidan, ish o'rinlarini kutayotganlarda, o'zlari ish topishlari uchun, tashabbus va qiziqishni uyg'otish zaruriyati mavjud. Hozirda davlatda ishchi kuchi bozorida, ish qidirish mexanizmi tashkil topayotgan davrda bandlikni oshirish muhim stimul sifatida, odamlarda mustaqil ravishda ish qidiruvchi faolligini oshirishni misol qilib keltirsak bo'ladi. Buning uchun, ish bilan ta'minlash siyosatini va odamlarni mehnat bozoriga qo'shib, ularga faol ishtirok etishlari uchun, bandlikni kengaytiruvchi sarmoyalarni ko'paytirish lozim.

Hozirgi davrda, XXRda narxlarning 3 turi mavjud. Qa'tiy (qattiq) narxlar eng muhim tovarlarga: resurslarga (neft, gaz), monopolistlarning tovar va xizmatlariga (transport tariflari, elektr, suv, va issiqlik ta'minoti), ayrim tovarlar (dori-darmon, qurollar). Indikativ narxlar aniq tovarlarga (po'lat prokati, rangli metallar, kimyoviy tovarlar va boshqalar) o'rnatiladi. Qolgan ko'pchilik mahsulotlarga narxlar samarali raqobatbardoshlik muhitida, erkin shakllanadi. Iste'mol predmetlar narxlari talab va taklifdan kelib chiqqan holda shakllanadi. Hozirgi paytda 90% qishloq xo'jaligi mahsulotlari, 95% chakana savdo tovarlari va 85% sanoat mahsulotlari erkin narxlarda sotilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, davlat ishlab chiqarish, daromad va narxlarni boshqarish bo'yicha, faol va samarali siyosat olib borishi mumkin. Erkin va boshqaruvchi narxlarni biriktiruvchi, raqobatni yuzaga keltiruvchi, antiinflyatsion siyosat, monetar siyosatdan ancha samarali bo'lishi mumkin.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati, faqat jamiyat a'zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mavjud ishchi kuchlarining ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos aholi tarkibiga ega bo'lgan, respublikamizda ishchi kuchining ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar jarayonida, ushbu masalani hal etish uchun bir qator quyidagi tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

**Birinchidan**, keng faoliyat turlari, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda, qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlash, xalq iste'mol mollari, mahalliy xom ashyodan tayyorlangan qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi xususiy kichik korxonalarni faol rivojlantirishni rag'batlantirish;

**Ikkinchidan**, xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo'yicha xizmat turlarini yanada kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi;

**Uchinchidan**, qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, respublikamizda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda;

**To'rtinchidan,** ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish. Bunda ishdan bo'shayotgan va ixtisosi bo'lmagan shaxslarga qisqa davrda, bozor iqtisodiyotiga hamda iqtisodiyotning o'zgarib borayotgan tuzilishiga muvofiq keluvchi kasbkorni o'rgatishga e'tibor qaratish. Shu maqsadda maxsus maslahat va o'quv markazlari, biznes maktablarning keng tarmog'ini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi;

**Beshinchidan,** vaqtincha ishga joylashtirish imkoni bo'lmagan ishchi kuchlarini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish va kafolatli tirikchilik manbalariga ega bo'lishga qaratiladi.

Xitoy o'z iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni intensiv davom ettirib, uning natijasida, nafaqat, mamlakatning janubiy-sharqiy qismi, balki boshqa hududlari ham rivojlanib bordi. Ularning samarasi esa, mintaqalarda xorijiy sarmoya ishtirokidagi yangi korxonalar tashkil etilishi, ularda yangi ish o'rinlari barpo qilinishi orqali ko'rindi. Oxir oqibatda, mamlakat aholisining katta qismi ish bilan ta'minlandi va ularning turmush darajalari oshib bordi.

Endi O'zbekistondagi ish bilan band bo'lgan aholi va ularning sohalar bo'yicha taqsimlanish jarayonini Xitoy bilan solishtirsak, ularda ham huddi shunday tendensiya kuzatiladi. Xitoyning demografik muammosi aholi sonini o'sishining sekinlashuvida va unda 16 yoshgacha bo'lganlar sonining keskin kamayib borishida ko'rish mumkin.

Biz bu holatlarni ikki mamlakatda (Xitoy va O'zbekiston) ham 2.1.4-jadvaldan kuzatishimiz mumkin.

Jadval 2.1.4.

**Xitoy va O'zbekiston aholisining ishga layoqatli va ish bilan bandlarning sohalar bo'yicha tarkibi 2018 y.<sup>1</sup>**

| Mamlakat    | Ishga layoqatlilar (umumiy aholi soniga nisbatan) |      | Ish bilan band bo'lganlar (ishga layoqatlilar soniga nisbatan) |      | Qishloq xo'jaligidagi bandlar soni |    | Sanoatdagi bandlar soni |    | Xizmat ko'rsatishdagi bandlar soni |    |
|-------------|---------------------------------------------------|------|----------------------------------------------------------------|------|------------------------------------|----|-------------------------|----|------------------------------------|----|
|             | Mln.k                                             | %    | Mln.k                                                          | %    | Mln.k                              | %  | Mln.k                   | %  | Mln.k                              | %  |
| Xitoy       | 901,2                                             | 69,3 | 864,6                                                          | 95,8 | 406,3                              | 47 | 216,1                   | 25 | 242,1                              | 28 |
| O'zbekiston | 14,5                                              | 54,2 | 13,6                                                           | 93,8 | 5,98                               | 44 | 2,72                    | 20 | 4,89                               | 36 |

Iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilmalarning o'zgargarishlarga mos ravishda va aholining mehnat tanlovining o'zgarganligi sababli, bandlikning tarmoqlararo tarkibi o'zgardi, qishloq xo'jaligida bandlar ulushi qisqarmoqda va xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlarning soni, nisbatan o'sib borishi aniqlandi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida, davlatning ijtimoiy siyosati, faqat jamiyat a'zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mavjud ishchi kuchlarining ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'zichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yoqori sur'atlar bilan borayotgan

<sup>1</sup>XXR Davlat statistika va O'zbekiston statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. ([http:// www.china.org.ch](http://www.china.org.ch)) asoaida tayyorlandi.



va o'ziga xos aholi tarkibiga ega bo'lgan respublikamizda ishchi kuchining ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

XXRda XIII-besh yillikda asosiy umumiy xizmatlarni ko'rsatish sohasini rivojlantirish ko'rsatkichlariga kelsak, ularni biz jadval 2.1.5.dan ko'ramiz:

Jadval 2.1.5.

**XXRda XIII-besh yillikda asosiy umumiy xizmatlarni ko'rsatish sohasini rivojlantirish ko'rsatkichlari\***

| Ko'rsatkichlar                                                             | 2015 y. | 2020 y. | Jami             |
|----------------------------------------------------------------------------|---------|---------|------------------|
| <b>Asosiy umumiy ta'lim</b>                                                |         |         |                  |
| 9 yillik majburiy ta'limning qamrov koeffitsienti (%)                      | 93      | 95      | -                |
| <b>Korxonalaridagi asosiy bandlik</b>                                      |         |         |                  |
| Shaharlardagi bandlar sonining o'sishi                                     | -       | -       | >50 mln. k..     |
| Qishloq joylaridan kelgan ishchi migrantlarning kasbiy malakasini oshirish | -       | -       | 40 mln. k./marta |
| <b>Asosiy ijtimoiy sug'urtalash</b>                                        |         |         |                  |
| Asosiy nafaqani sug'urtalashda ishtiroki, (%)                              | 82      | 90      | -                |
| Asosiy meditsinani sug'urtalashda ishtiroki, (%)da                         | -       | >95     | -                |

\*Манба: Социально-экономическое развитие Китая в цифрах 2017-03-01 21:10:14 | Russian.News.Cn

Aholining kam ta'minlangan qatlami orasidagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan, o'rtacha daromad 5 958 yuanni, o'rta sinfda – 22 495 yuanni, yuqori darajada ta'minlangan qatlamniki – 64 934 yuanni tashkil etdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha harajatlar darajasi 18 322 yuanni (+7,1%, narx omilini hisobga olgan holda esa, – 5,4%) tashkil etib, shahar aholisining o'rtacha harajatlar darajasi 24 445 yuandan iborat bo'ldi (+5,9%, narx omilini hisobga olgan holda esa, – 4,1%). Qishloq aholisining o'rtacha harajatlar darajasi to 10 955 yuangacha kopaydi (+8,1%, narx omilini hisobga olgan holda esa, – 6,8%)<sup>1</sup>.

2017 yilda Xitoydagi Engel koeffitsienti 29,3% (-0,8 p.p.) ni tashkil etdi, shu jumladan, shahar uy xo'jaligida u 28,6%ga, qishloqda esa, – 31,2%ni tashkil etdi.

Bazaviy pensiya tizimiga kiritilgan ishlayotgan fuqorolar soni shu davrda 22,7 mln.k.ga ko'payib, ular 401,99 mln.k.ni tashkil etdi, shaharlar va qishloqlardagi bazaviy pensiya tizimiga kiritilgan aholining soni 512,55 млн.k.ga ko'paydi (+4,08 mln.k.), ulardan bazaviy meditsina sug'urtasi tizimida qatnashayotganlar soni – 1176,64 mln.k.ni (+432,72 mln.k.) tashkil etdi. Ishsizlik bo'yicha sug'urtalash tizimidagilar soni - 187,84 mln.k. (+6,95 mln.k.) dan iborat bo'ldi<sup>2</sup>.

## 2.2. Xitoy iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarining rivojlanish holati

XXR Davlat Statistika Boshqarmasining hisobotiga ko'ra, 2019-yilning 1-yarim yillik yakuni bo'yicha mamlakat YaIMni yillik o'sish sur'ati 6,3%ga to'g'ri kelib, u 45,093 trln.yuanni (\$6,5 trln.) tashkil etdi. Unda 2019-yilning 1-choragida

<sup>1</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.23-24; World Economic Situation and Prospects 2019. New York, 2019.R. 158

<sup>2</sup>O'sha joyda

Xitoy YaIMni 6,4%ni tashkil etgan bo'lsa, 2 - chorakda esa, 6,2%ga pasaydi. Mazkur ko'rsatkich XXR iqtisodiy rivojlanish tarixida 1992-yildan beri, eng past daraja hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, hattoki, jahon moliyaviy inqirozi davrida ham mazkur ko'rsatkich, - 6,4% dan past darajada bo'lmagan.

Shundan kelib, chiqqan holda, Xitoy hukumatining ushbu ko'rsatkich bo'yicha rasmiy bashorati—2019-yil uchun 6% - 6,5% deb belgilangan<sup>1</sup>.

Ammo, lekin XXR YaIMning o'sish sur'ati sekinlashuviga qaramasdan, mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlarida ham o'sish yuz bermoqda: uning sanoati shu davr mobaynida 6%ga o'sdi. Bu esa, 2011-yilgacha bo'lgan davrdagi 13,9%dan to 2 baravardan ortiqqa pasayib borayotganligini anglatadi.

Xitoyda keng ko'lamli sanoatlashtirish siyosati olib borilishi natijasida, mamlakatda sanoat va unga xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yahlit sanoat tizimi shakllandi, hamda ilgari mamlakatda bo'lmagan yangi sanoat ishlab chiqarish sohalari vujudga keldi. Bunday ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, mamlakatni industrial-agrar davlatga aylantirdi. Bu o'zgarishlar, dunyoning iqtisodiy holatiga ham, o'z ta'sirini ko'rsatib bordi.

XXI - asr boshiga kelib, Xitoy quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha, jahonda yetakchi o'rinlarni egaladi, xususan:

I o'rinda — po'lat eritish; ko'mir qazib chiqarish; sement, kimyoviy o'g'it va televizor ishlab chiqarish; g'alla, paxta, yog'i olinadigan yog'li o'simliklar va mevalar yetishtirish.

II o'rinda — Elektroenergiya, sintetik va paxtali gazlamalar ishlab chiqarish; go'sht va choy bargi yetishtirish.

O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, 2017-yilga kelib, Xitoyning jahon savdosidagi ulushi ham ortib bordi. Mamlakat eksport hajmi bo'yicha, 1-o'ringa, import qilish bo'yicha- 2-o'ringa, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ham, 2-o'ringa chiqdi.

2018-yil ma'lumotiga ko'ra, Xitoyning JaIM hajmi (agar, 2016-yilda u - \$11,3 trln. AQSh) \$13,28 trln.AQSh ni tashkil etdi. uning oltin-valyuta zahirasi taxminan, 3.9 trln.dan ortiqroq bo'ldi.

Undan tashqari, mamlakatga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmini sekinlashuvi ham, yuz berayotganligini ko'rsatsa ham, lekin, uning baribir o'sayotganligini ko'rmoqdamiz. Agar, uning hajmi 2011-yilda 31,8%ga o'sgan bo'lsa, 2017-yilga kelib, uning o'sish sur'ati 7,2%ni tashkil etdi. 2018-yilda Xitoy asosiy fondlariga qo'yilgan investitsiyalarning hajmi 5,9%ga, ya'ni 63,56 trln.yuanga (\$9,37 trln) gacha ko'paydi. XXR xizmat ko'rsatish sohasiga kiritilgan sarmoyalar esa, 7,4%ga o'sdi<sup>2</sup>.

Quyida XXRsi asosiy sanoat tarmoqlarining o'sish sur'atlari bo'yicha qiyosiy tahlilni keltiramiz (jadval 2.2.1.ga qaralsin).

---

<sup>1</sup>World Economic Situation and Prospects 2019. NewYork, 2019.R. 159

<sup>2</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.15-16.

**2016-2017-yillarda Xitoy asosiy sanoat tarmoqlarining o'sish sur'atlari<sup>1</sup>**

| Ishlab chiqarish tarmoqlari                                                           | 2017 y.,<br>% da | 2016 y.,<br>% da | O'sish,<br>p.p.da |
|---------------------------------------------------------------------------------------|------------------|------------------|-------------------|
| Tekstil sanoati                                                                       | 4,0              | 5,5              | -1,5              |
| Kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish                                                 | 3,8              | 9,5              | -5,7              |
| Nometal mineral mahsulotlarini ishlab chiqarish                                       | 3,7              | 7,7              | -4,0              |
| Qora metallarni ishlab chiqarish                                                      | 0,3              | 6,2              | -5,9              |
| Umumiy mashinasozlik mahsulotlari                                                     | 10,5             | 5,9              | +4,6              |
| Avtomobilsozlik                                                                       | 12,2             | 15,5             | -3,3              |
| Kemasozlik va samolyotsozlik, temir yo'l uskunalari hamda boshqa transport uskunalari | 10,6             | 3,2              | +7,4              |
| Telekommunikatsiya, komp'yuter va boshqa elektron uskunalari                          | 13,8             | 10,0             | +3,8              |
| Issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash                        | 7,8              | 4,8              | +3,0              |

XXRda 2017-yilda 2016-yilga nisbatan, 596ta ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan 427ta mahsulotlar turlari bo'yicha, (71,6%, o'sish 4,7 p.p.) sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi o'zining ijobiy dinamikasini ko'rsatdi.

Xitoyda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmiga kelsak, uning asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atiga murojaat qilamiz.

**2017-yilda XXRda asosiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati\***

| Mahsulotlar turlari               | O'lchov birligi          | soni    | 2016 yilga<br>nisbatan, o'sish.<br>%da |
|-----------------------------------|--------------------------|---------|----------------------------------------|
| Birlamchi energiya resurslari     | mln.tshartli t.          | 3590    | 3,6                                    |
| Ko'mirni boshlang'ich qazib olish | mln.t.                   | 3520    | 3,6                                    |
| Xom neft                          | mln.t.                   | 191,51  | -4,1                                   |
| Tabiiy gaz                        | mlrd.kub.m.              | 148,03  | 8,2                                    |
| shakar                            | mln.t.                   | 14,71   | 1,9                                    |
| to'qish uchun ip                  | mln.t.                   | 40,5    | 8,5                                    |
| matolar                           | mlrd.m.                  | 86,81   | -4,3                                   |
| koks                              | mln.t.                   | 431,43  | -3,3                                   |
| oltingugurt                       | mln.t.                   | 92,13   | 0,9                                    |
| kaustik soda                      | mln.t.                   | 33,65   | 5,1                                    |
| Kimyoviy o'g'itlar                | mln.t.                   | 61,84   | -6,7                                   |
| etilen                            | mln.t.                   | 18,22   | 2,3                                    |
| kimyoviy tola                     | mln.t.                   | 49,196  | 0,7                                    |
| sement                            | mln.t.                   | 2340,0  | -3,1                                   |
| shisha oyna                       | mln. standart yashiklar. | 7902,4  | 3,5                                    |
| cho'yan                           | mln.t.                   | 710,76  | 1,8                                    |
| po'lat                            | mln.t.                   | 831,72  | 3,0                                    |
| po'lat prokati                    | mln.t.                   | 1049,59 | 0,1                                    |

<sup>1</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с. 17-18 б.

|                                              |                        |         |       |
|----------------------------------------------|------------------------|---------|-------|
| 10 turdagi rangli metallar                   | mln.t.                 | 55,01   | 2,9   |
| Rafinatlangan mis (elektrolitikmis)          | mln.t.                 | 8,97    | 6,3   |
| Birlamchi alyuminiy (elektrolitik alyuminiy) | mln.t.                 | 33,29   | 2,0   |
| Yirik va o'rta gabaritli traktorlar          | ming dona              | 418,0   | -32,4 |
| Avtomobillar                                 | mln.dona               | 29,02   | 3,2   |
| Energetik uskunalar                          | mln. kvt               | 118,30  | -9,8  |
| Maishiy muzlatgichlar                        | mln.dona               | 85,48   | 0,8   |
| Maishiy konditsionerlar                      | mln.dona               | 178,62  | 24,5  |
| Mobil telefonlar                             | mln.dona               | 1889,82 | 2,2   |
| Mikrokomp'yuterlar                           | mln.dona               | 306,78  | 5,8   |
| Integral sxemalar                            | mlrd. dona             | 156,46  | 18,7  |
| Rangli televizorlar                          | mln.dona               | 159,33  | 1,0   |
| Mikro dasturli boshqarishdagi kommutatorlar  | mln.dona               | 12,41   | -14,9 |
| Elektr energiyasini ishlab chiqarish         | mlrd. kvt/s            | 6495,14 | 5,9   |
| Issiqlik elektr markazlar                    | mlrd.kvt/s             | 4662,74 | 5,1   |
| Gidro elektr stansiyalar                     | mlrd.kvt/s mlrd. kvt/s | 1189,84 | 0,5   |
| Atom elektr stansiyalar                      |                        | 248,07  | 16,3  |

\*Manba: XXR davlat Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari

Shular qatorida, mamlakatda 2017-yilda tayyor sanoat mahsulotlarini sotish koeffitsienti 98,1% (-0,7 p.p.) ni tashkil etdi, uning eksporti esa, 10,7%ga o'sib, 12,32 trln.yuanga yetdi. 2017-yil yakuniga ko'ra, sanoatdagi ishlab chiqarish quvvatlari koeffitsienti 77,0%ni tashkil etdi, bu esa, 2016-yilga nisbatan, 3,7 p.p.ga ko'payganligini anglatadi.

Endi, XXR sanoatining tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatning yoqilg'i energetika majmuasiga murojaat qilamiz va ular faoliyatlarining ko'rsatkichlarini quyidagi jadval 2.2.3.dan kuzatishimiz mumkin<sup>1</sup>.

Jadval 2.2.3.

### XXR yoqilg'i energetika majmuasi faoliyatining (YoEM) asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari\*

| ko'rsatkichlar                                 | o'lchov birligi | 2017 y.  | 2016-yilga nisbatan, 2017-yildagi o'sish, %da |
|------------------------------------------------|-----------------|----------|-----------------------------------------------|
| Ko'mir qazib olish                             | mln. t.         | 3445,46  | 3,2                                           |
| Neft qazib olish                               | mln. t.         | 191,51   | -4,0                                          |
| Gaz qazib olish                                | mlrd. kub. m    | 147,42   | 8,5                                           |
| Benzin ishlab chiqarish                        | mln. t.         | 132,76   | 3,0                                           |
| Kerosin ishlab chiqarish                       | mln. t.         | 42,31    | 6,2                                           |
| Dizel yoqilg'isini ishlab chiqarish            | mln. t.         | 183,18   | 2,4                                           |
| Elektr energiyasini ishlab chiqarish           | mlrd. kvt./s.   | 6 495,14 | 5,9                                           |
| Shu jumladan: - Issiqlik energiya stansiyalari | mlrd. kvt./s.   | 4 662,74 | 5,1                                           |
| - Gidroelektr stansiyalari                     | mlrd. kvt./s.   | 1 189,84 | 0,5                                           |
| - atom elektr stansiyalari                     | mlrd. kvt./s.   | 248,07   | 16,3                                          |
| - shamol elektr stansiyalari                   | mlrd. kvt./s.   | 269,5    | 21,4                                          |

\*Manba:XXR Davlat Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari

<sup>1</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.23-24

XXR Davlat energetika boshqarmasining ma'lumotlariga binoan, 2017-yilda mamlakat bo'yicha elektr energiyasi ta'minoti 6 307,7 mlrd. kvt./s.ni tashkil etdi, bu esa, 2016-yilga nisbatan, 6,6%ga ko'payganligidan dalolat beradi. Agarda, mana shu elektr energiyasi ta'minotini sohalar bo'yicha taqsimotini ko'rib chiqsak, unda birlamchi sektorda 115,5 mlrd. kvt./s.(+7,3%), ikkilamchi sektorda 4 441,3 mlrd. kvt./s. (+5,5%), shu jumladan, sanoatda 4 362,4 mlrd. kvt./s.(+5,5%) va uchinchi sektorda (xizmatlar sohasida) 881,4 mlrd. kvt./s (+10,7%) elektr energiyasi iste'mol qilindi.

Shu bilan birga, XXR Davlat Statistika Boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda mamlakarda elektr energiyasini ishlab chiqarish 6 495,14 mlrd. kvt./s.ni tashkil etib, u 2016-yilga nisbatan, 5,9%ga o'sgan. Shular qatorida Hidroelektr stansiyalaridagi elektr ishlab chiqarish 1 189,84 mlrd. kvt./s.ga (+0,5) va Issiqlik elektr stansiyalarida esa, 4 662,74 mlrd. kvt./s.ga (+5,1%) o'sgan. Bu holatlarni navbatdagi jadval 2.2.4.dan yaqqol kuzatish mumkin<sup>1</sup>.

Jadval 2.2.4.

**2017-yilda XXR elektr energetika sohasining rivojlanish  
ko'rsatkichlari\***

| Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilari va istemolchilarini tarmoqlar taqsimoti | o'lchov birligi | 2017 yil    |               |
|------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|-------------|---------------|
|                                                                                    |                 | ko'rsatkich | o, 'sish, %da |
| Elektr energiyasini iste'mol qilish:                                               | mlrd. kvt./s.   | 6307,7      | 6,6           |
| Birlamchi sektor                                                                   | -//-            | 115,5       | 7,3           |
| Ikkilamchi sektor, shu jumladan:                                                   | -//-            | 4441,3      | 5,5           |
| sanoat, shu jumladan:                                                              | -//-            | 4362,4      | 5,5           |
| Yengil sanoat                                                                      | -//-            | 749,3       | 7,0           |
| Og'ir sanoat                                                                       | -//-            | 3613,1      | 5,2           |
| Uchinchi sektor                                                                    | -//-            | 881,4       | 10,7          |
| Maishiy iste'mol                                                                   | -//-            | 869,5       | 7,8           |
| Gidroenergetika                                                                    | -//-            | 341,19      | 2,7           |
| Issiqlik energetikasi                                                              | -//-            | 1106,04     | 4,3           |
| Atom energetikasi                                                                  | -//-            | 35,82       | 6,5           |
| Shamol energetikasi                                                                | -//-            | 163,67      | 10,5          |

\*Manba:XXR Davlat Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari

2017-yilda XXRda energiya tashuvchilarning asosiy turlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular orasida toshko'mir mamlakatdagi eng asosiy energiya manbayi ekanligini ko'rishimiz mumkin. 2017-yilda mamlakatda toshko'mir ishlab chiqarish hajmi, 2016-yilga nisbatan, 3,2%ga o'sib, u 3445,46 mln.tonnani tashkil etgan. Shu bilan birga, ko'mirning importi mana shu davrda 270,9 mln.tonnani, uning eksporti esa, 8,2 mln.tonnani tashkil etdi.

Mamlakatda tabiiy gazni qazib olish 2016-yilga nisbatan, 8,2%ga o'sib, uning hajmi 148,03 mlrd.kub.m.ga yetdi. Uning importi 26,9%ga ko'payib, uni hajmi 68,57 mln.t.ni, eksporti esa, 2,54 mln.t.ni tashkil etdi.

<sup>1</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.24-26

Undan tashqari, Xitoyda 2017-yil yakuniga ko'ra, xom neftni qazib olish 2016-yilga nisbatan, 4,1%ga qisqarib, 191,51 mln.t.ga yetdi. Uning importi 10,1%ga o'sib, 419,57 mln.t.ni, eksporti esa, 65,3%ga oshib, 4,86 mln.t.ni tashkil etdi.

Ta'kidlash lozimki, xom neftni qayta ishlash hajmi 570 mln.t.ni tashkil etib, Xitoyning neftni import qilishga bog'liqligi 67,4%ga teng bo'ldi. 2017-yilda xom neftni importi bo'yicha, Xitoy birinchi marotaba AQSh dan o'zib ketdi.

2017-yilda XXR neft mahsulotlarini asosiy turlarini ishlab chiqarish bo'yicha, ijobiy dinamikani ko'rsatdi va ular quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflandi: ularni umumiy ishlab chiqarish hajmi—378 mln.t. (+4,8%), shu jumladan, benzin—132,76 mln.t. (+3,0%), dizel yoqilg'isi—183,18 mln.t. (+2,4%), kerosin—42,3 mln.t. (+6,2%) tashkil etdi.

Xitoy sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri—uning qora metallurgiya sanoati mamlakatdagi tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va 2016-2017-yillarda Xitoy hukumati tomonidan haddan tashqari ko'p ishlab chiqarish quvvatlarini qisqartirish bo'yicha qabul qilingan choralar natijasida, mazkur yo'nalishda 115 mln.t.lik quvvatli korxonalar faoliyati bekor qilindi. Xitoyda xom po'latni ishlab chiqarishning umumiy hajmi 832 mln.tonnani (+5,7%), uning ichki iste'moli esa, 725 mln.t. (+7,7%) tashkil etdi. Shuni ta'kidlash lozimki, XXRning jahon xom po'latni ishlab chiqarish bozoridagi ulushi 2017-yil ma'lumotiga ko'ra, 49,2%dan iborat bo'ldi.

Jahon bozorida qora metallurgiya mahsulotlariga narxni o'sishi va XXR korxonalari mahsulotlariga talabning barqarorlashuvi evaziga, undan kelayotgan foyda ham o'sib bordi. Ammo, lekin, mamlakat qora metallurgiya sohasiga qo'yilayotgan kapital quyilmalar hajmi qisqarib bormoqda, jumladan, mazkur sohaga qo'yilgan investitsiyalarni o'zlashtirilgan hajmi 517 mlrd.yuanni tashkil etdi, bu esa, o'tgan yilga nisbatan, 0,6% gagina o'sgan, garchi, boshqa yillarda, uning o'sish hajmi 1% dan kam bo'lmagan.

2017-yilda mazkur sohadagi mavjud asosiy muammolarga kelsak, ular qatoriga;

- ishlab chiqarish samaradorligining pastligini;
- ishlab chiqarish quvvatini bosimini haddan tashqari kattaligini;
- tayyor mahsulotlarga narx va talabning pasayishini;
- moliyalashtirish bilan bog'liq holatning kuchayib borishi;
- ma'muriy organlar va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan kuchli raqobat hamda savdo proteksionizmni mavjudligini kiritish mumkin.

XXRda rangli metallurgiya tarmog'ini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari 2017-yil mobaynida o'zini ijobiy rivojlanish dinamikasini ko'rsatdi. Rangli metallarning 10ta asosiy turlarini eritish hajmi 53,78 mln.t.ni tashkil etib, u 2016-yilga nisbatan, +3%ga o'sdi va mazkur metallarni ishlab chiqarish hajmi bo'yicha, Xitoy bugungi kunda, 16 yildan beri, o'zining dunyodagi yetakchiligini dadil saqlab kelmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, boshqa tarmoqlardagi singari, XXRning rangli metallar tarmog'ida ham muammolar mavjud bo'lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Eskirgan korxonalarni modernizatsiyalashning juda sekin amalga oshirilishi;

- Elektrolitik alyuminiyni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan va umuman, eritish quvvatini haddan tashqari, ahamiyatli tarzda ko'payib ketganligi;
- Mahsulotni ishlab chiqarish tannarxining o'sib borishi;
- Innovatsiyalarni joriy qilish sur'atining va davlat korxonalari samaradorligining pastligi;
- Korxonalar daromadlilik koeffisientining pastligi (u 2017-yilda, atigi o'rtacha - 4%ni tashkil etdi).

### 3-BOB: XXR IQTISODIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

#### 3.1. XXRning byudjet-soliq va pul-kredit siyosatini asosiy yo'nalishlari


Har bir mamalakatda davlat moliyasi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida ajralib turadi. Moliya tizimining samarali faoliyati natijasida mamalakatda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga ulkan hissa qo'shiladi. Davlat moliyasining fiskal va monetar siyosati orqali moliya tizimining asosiy bo'g'inlari faoliyati boshqariladi va samaradorlik xususiyatlarida bu siyosatning o'zini oqlash darajasini belgilab beradi.

Davlat byudjeti tizimini tashkil etishning xorij tajribalaridan foydalanish, iqtisodiy jihatdan yuqori salohiyatli mamlakatlar byudjet tizimining asosiy yo'nalishlarini iqtisodiyotga tadbiiq etish orqali, davlat byudjeti samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirgi davrda, Xitoy Xalq Respublikasi bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha, dunyo iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida, Xitoy byudjet tizimi faoliyatining tarkibiy qismlari, asosiy yo'nalishlari va erishilgan natijalarga e'tibor qaratamiz.

Iqtisodiyoti tez sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat byudjeti defitsiti holati ko'proq ko'zga tashlanishi, iqtisodiy faol davrda mamlakat iqtisodiyotning ayrim sohalarini yanada rivojlantirish uchun xarajatlarni oshirishi va natijada, bundanda yaxshi natijalarga erishishga muvoffaq bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Xitoy davlat byudjeti daromadlari va harajatlarining YaIMga nisbatan, holatiga e'tibor qaratib, quyidagi 3.1.1-diagrammaga murojaat qilamiz.

3.1.1-diagramma

2007-2016-yillarda Xitoy davlat byudjeti YaIMga nisbatan profitsit/defitsitli holati<sup>1</sup>



Xitoyning davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiyot sohaları bo'yicha taqsimlanishini quyidagi diagrammada ko'rishimiz mumkin. Aynan, qaysi sohalariga Xitoy Markaziy byudjeti xarajatlari ulushining yuqoriligi, iqtisodiyotning tanlangan sohalarini rivojlantirish uchun ajratayotgan davlat harajatlari ulushi orqali bilib olishimiz mumkin(diagramma -3.1.2.ga qaralsin).


<sup>1</sup>[www.tradingeconomics.com](http://www.tradingeconomics.com) ma'lumotari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.



Xitoy davlat byudjeti tarkibining harajatlar qismida eng yuqori foiz ko'rsatkichi mamlakat mudofaasiga ajratilganligining sababi, so'nggi yillarda Xitoy hukumatining ushbu sohaga qaratayotgan e'tiboridan dalolat beradi. Bunga asosiy sabab esa, Xitoy Milliy mudofaa tizimidagi qurol-ya'rog'larning eskirishi hamda mamlakat uchun strategik jihatdan muhim bo'lgan sohalar: oziq-ovqat, g'alla, teri yetishtirish, paxta va shu kabi muhim ijtimoiy-qtisodiy tarmoqlarga ko'proq e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Diagramma - 3.1.2.

### 2015-yilda Xitoy byudjeti harajatlarining asosiy tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi foizda(%)



Manba: National Bureau of Statistic of China. China Statistical Yearbook.asosida tayyorlandi

«Umumxitoy Xalq Vakillari Kengashi» ning 4-sessiyasi 12-chaqirig'i "2015-yil Markaziy hamda mahalliy byudjetlar ijrosi va 2016-yilga mo'ljallangan dastur" da Xitoyning umumiy Markaziy hamda mahalliy budjeti daromadlari 2015-yilda 15.2217 trillion yuanni tashkil etgani qayd etildi. Bu ko'rsatkich 2014-yilgi markaziy va mahalliy byudjet daromadlariga nisbatan 8.4% yuqori natijani ifodalaydi.

Markaziy byudjet daromadlari 6923.4 milliard yuanga ortib 2014-yilga nisbatan, +7.4% foiz yuqori natijani qayd etgan. 2015-yilda Mahalliy byudjet daromadlari esa, 8298.3 milliard yuanga ortib, o'tgan yilga nisbbatan +9.3% o'sishga erishdi.<sup>1</sup>

Xitoy Markaziy va mahalliy byudjet daromadlarida soliqlarning umumiy qiymati 12489.2 milliard yuan (2014-yilga nisbatan, +4.8%) ga teng bo'lib, daromadlardagi ulushi 82.2% ni tashkil etdi. 2014-yilda bu ko'rsatkich 85%ni tashkil qilganiganini hisobga olsak, byudjet daromadlarida soliqlarning ulushi kamayganligining guvohi bo'lamiz va buni jadval - 3.1.1 dan ko'rishimiz mumkin.

<sup>1</sup> "Годовой обзор:состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности КНР в 2015 году" Пекин, 2016 г., с.39

Jadval-3.1.1.

**2015-yilda Xitoy byudjet daromadlarining turlari bo'yicha o'sish dinamikasi<sup>1</sup>**

| Daromad turlari                     | Qiymati<br>(milliard yuan) | 2014-yilga nisbatan<br>o'sish(%) |
|-------------------------------------|----------------------------|----------------------------------|
| Qo'shilgan Qiymat Solig'i           | 3110.9                     | +0.8                             |
| Iste'mol solig'i                    | 1054.2                     | +18.4                            |
| Ishlab chiqarish solig'i            | 1931.3                     | +8.6                             |
| Yuridik shaxslar foyda solig'i      | 2712.5                     | +10.1                            |
| Jismoniy shaxslar daromad solig'i   | 861.8                      | +16.8                            |
| Import solig'i va aksizlar          | 1251.7                     | -13.2                            |
| Bojxona to'lovlari                  | 255.5                      | -10.2                            |
| Eksportga qo'shilgan qiymat solig'i | 1286.5                     | +13.3                            |
| Soliqdan tashqari daromadlar        | 2732.5                     | +10.6                            |

XXR Davlat statistikasi qo'mitasi dastlabki makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida 2018-yildagi iqtisodiy o'sish darajasining pasayish tendensiyasi o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakat iqtisodiyoti 6,6 %ga o'sdi, oldingi yilga nisbatan 0,4 foiz darajasiga oshdi.

Jadval 3.1.2.

**2017 yilda XXR davlat byudjetining asosiy daromadlar va harajatlar qismi**

| Byudjet stat'yalari nimalari                      | Ko'rsatkich,<br>mlrd.yuan | o'sish,<br>%da |
|---------------------------------------------------|---------------------------|----------------|
| Davlat byudjetining daromadlari, shu jumladan:    | <b>17 256,7</b>           | <b>7,4</b>     |
| - soliq tushumlari:                               | 14 436,0                  | 10,7           |
| QQS qo'shimcha qiymat solig'i                     | 5637,8                    | 8,0            |
| Savdodan soliq                                    | 1022,5                    | 0,1            |
| Bojhona bojlari, QQS, aksizlar                    | 1596,9                    | 24,9           |
| Jismoniy shaxslarning daromad solig'i             | 1196,6                    | 18,6           |
| Mulksolig'i                                       | 260,4                     | 17,3           |
| Davlat buydjetining asosiy harajatlari            | <b>20 333,0</b>           | <b>7,7</b>     |
| Ta'lim                                            | 3025,9                    | 7,8            |
| Fundamental ilm va innovatsion fond               | 728,6                     | 11,0           |
| Madaniyat, sport, nashriyot                       | 336,7                     | 6,4            |
| Ijtimoiy ta'minot. Ishga joylashtirish            | 2481,2                    | 16,0           |
| sog'liqni saqlash                                 | 1460,0                    | 9,3            |
| Atrof muhitni himoya qilish                       | 567,2                     | 19,8           |
| Shahar va qishloq rayonlarini jamiyat ehtiyojlari | 2125,5                    | 15,6           |
| Davlat qarzini to'lash bo'yicha % harajatlari     | 618,5                     | 21,9           |

3.1.2.- jadvaldan ko'rib turganimizdek, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish yuz berganligini ko'ramiz. Birlamchi sohaning YaIMda ulushi 7,9% (2016-yilda 8,6%), ikkilamchi soha – 40,5% (38,8%), uchinchi soha – 51,6% (51,6%).

2018 yil yakunlariga ko'ra, XXR YaIM 90,03 trln. yuan (13,28 trln. AQSH dollari) ga teng bo'ldi. Sohalar bo'yicha YaIM quyidagicha taqsimlandi<sup>1</sup>:

<sup>1</sup> “Годовой обзор:состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности КНР в 2015 году” Пекин, 2016г, с.43

a) birlamchi soha (qishloq, o'rmon va suv xo'jaligi) – 6 546,8 mlrd. yuan (+3,9%, +3,3% 2017-yilga nisbatan);

b) ikkilamchi soha (sanoat, energetika, qurilish) – 33 462,3 mlrd. yuan (+6,1%);

c) uchinchi soha (xizmatlar, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim) – 42 703,2 mlrd. yuan (+8,0%, +7,8% 2017-yilga nisbatan).

Keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni anglash mumkinki, birlamchi va uchinchi sohalarda o'sish darajasi 0,6 va 0,2 foiz darajaga ko'tarilgan bo'lib, ikkilamchi soha o'zining o'sish sur'atini saqlab qolgan.

2017 yil yakunlariga ko'ra, XXRning davlat buydjeti kamomadi 2 380,0 mlrd.yuanni tashkil etdim bu esa, jldindan belgilangan direktib ko'rsatkichga mos ekanligini anglatadi. Davlat buydjeti kamomadi 2016 yilga nisbatan 3,8% ga pasayib, oldindan belgilangan rejali ko'rsatkichdan (3%li) past bo'ldi, ya'ni, u YaIM ning 2,87%ni tashkil etdi.

2018 yilning mart oyida UXXVKning 1-Syssiyasi 13-Chaqirig'dagi "2017 – yildagi Markaziy va mahalliy byudjetning ijrosi hamda 2018-yilga mo'ljallangan byudjet loyihasi" ma'ruzasiga ko'ra, 2017-yilda Xitoyning konsolidatsiyalangan byudjet daromadi 17 256,7 mlrd.yuanga yetib (+7,4%), u byudjatda mo'ljallangan ko'rsatkichni 102,3%ni tashkil etdi, jumladan, markaziy byudjet daromadlari 7,1%ga o'sib, u 8 111,9 mlrd.yuanni, mahalliy byudjet daromadlari esa, mod holda 7,7% ga o'sib, 9 144,8 mlrd.yuanni tashkil etdi.

Ta'kidlash lozimki, 2017-yil natijalariga ko'ra, davlat byudjetining taqchilligi 2 380,0 mlrd.yuandan tashkil topib, u XXRni 2017 yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejasida tasdiqlangan direktiv ko'rsatkichga mos keladi. U esa, byudjetining taqchilligi (mamlakat YaIMdan 2,87%ni) pasayganligini anglatadi. Chunki, 2017-yilga reja bo'yicha, byudjetining taqchilligi mamlakat YaIM dan 3% deb tasdiqlangan bo'lib, u 2016-yilda 3,8% ni tashkil etgan.

Shuni ta'kidlash joizki, ba'zi bir daromadlar bandlari bo'yicha beljilangan ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshgan, jumladan, QQSdan rejadani tashqari, kirimlar - 267,75 mlrd.yuanni, korxonalar foydasidan soliqlar – 187,56 mlrd.yuanni, import tovarlariga aksizlar va bojxona bojlari – 308,62 mlrd.yuanni tashkil etdi. Bunday natijalarga esa, soliq manbalari miqdorining oshishi asos bo'ldi. Undan tashqari, import bojlarining o'sishi import hajmining ortishi bilan bog'liq kirimlarni jiddiy o'sish omili bo'ldi.

Hozirgi davrda XXRda 25 turdagi soliqlar qo'llaniladi:

#### **Aylanmadan olinadigan soliqlar.**

Ushbu soliqlar qo'shilgan qiymat solig'i, iste'mol solig'i va tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliqlardan tashkil topadi.

**Qo'shilgan qiymat solig'i.** Ushbu soliqqa Xitoy hududidagi savdo-sotiq aylanmasi, tovarlarni import qilish, xizmat ko'rsatish sohalari tortiladi. Tovarlarni aylanmasiga ikkita stavka qo'llaniladi – 13% va 17%. Tovarlarni birinchi zaruriylar tovarlar tarkibiga kiradigan yoki boshqa guruh tovar va xizmatlarga

---

<sup>1</sup>manba: <http://ekd.me/2018/03/kitaj-2018-bolshoj-plan-bolshoj-ekonomiki/>

ta'luqligiga qarab, stavkalar qo'yiladi. Tovarlarini eksport qilish nol stavka bilan soliqqa tortiladi. Soliq summasini aniqlash uchun to'lovchilar guruhlariga bo'linadi: odatdagi, mayda va import qiluvchilar.

Mayda soliq to'lovchilar soliqni tovarlarini sotishdan olgan daromad yoki ko'rsatilgan xizmatini belgilangan stavkaga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadilar. Tijorat sohasidagi savdo aylanmasi 4% va qolgan sektorlardagi aylanmalar 6%ga ko'paytiriladi. Import guruhi bo'yicha soliq keltirilayotgan tovarlarni boj qiymati stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

**Soliq solinmaydigan tovarlar:** o'zlari mustaqil sotadigan qishloq xo'jalik korxonalari va fermerlar ishlab chiqargan mahsulotlari, boshqa mamlakatlarda qayta ishlab XXRga olib kelinadigan tovarlar, aholidan olingan antikvar kitoblar, tibbiyot preparati va asboblari, ilmiy izlanish va tajriba konstruktor ishlarini o'tkazish uchun keltirilgan asbob va uskunalar, maorif ehtiyoji uchun keltirilgan uskunalar, boshqa davlatlar hukumatlari va tashkilotlari to'lovni bergan material boyliklari, nogironlar ehtiyoji uchun, ularning korxonasidan olib kelingan buyumlar, chet el va mamlakat investorlari moliyalashtiradigan davlat buyurtmasi bilan amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha keltirilgan uskunalar.

**Iste'molga solinadigan soliq.** Mamlakatda ishlab chiqariladigan va XXR hududiga import orqali keltiriladigan quyidagi guruh tovarlar soliqqa tortiladi: Chekish mahsulotlari, alkogol ichimliklar, kosmetika, yuvelir buyumlari, benzin, motorli qayiq, moped, mototsikl, avtomobil va boshqalar. Eksport qilinadigan iste'mol tovarlari soliqdan ozod qilingan. Soliq stavkalari tovarlar guruhi va ayrim guruhlar tarkibi bo'yicha tabaqalantirilgan. Asosan, foiz stavkalar qo'llaniladi va ayrim tovarlar bo'yicha qat'iy kursda belgilangan stavka ham ishlatiladi. Masalan, tamaki mahsulotlari bo'yicha 25-50%, alkogol ichimliklar bo'yicha 5-25%, kosmetika 30%, zargarlik buyumlari 5-10%, benzinning bir litri uchun 0,2-0,28 yuan olinadi.

**Tadbirkorlik faoliyatiga solinadigan soliq.** XXR hududlarida xizmat ko'rsatish, nomoddiy aktivlarni o'tkazish, ko'chmas mulklarni sotuvchi korxona va fuqarolar to'laydilar.

Soliq solinadigan ob'ekt va stavkalari quyidagilardan iborat: transport va aloqa (3%), moliya, sug'urta biznesi (8%), madaniyat va sport (3%), tamosha o'yinlari (5-20%), xizmat ko'rsatish (5%), ko'chmas mulkni sotish (5%) va boshqalar. Soliq to'lashdan ozod qilinadi: xizmat ko'rsatgan tibbiyot muassasalari, bolalar bog'chasi, qariyalar uyi, uylanish va ko'mish xizmatlari, invalidlarni aholiga qilgan xizmatlari, o'qitish, o'simlik va hayvonot dunyosini kasalliklardan muhofaza qilish, madaniy tadbirlar bo'yicha kirish to'lovlari, diniy xizmatlar.

**Foyda (daromad)ga solinadigan soliq.** Bu guruh soliqlar tarkibida mamlakat korxonalarini foydasiga solinadigan soliq, chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan va chet el korxonalari foydasiga solinadigan soliq va jismoniy shaxslarni daromadiga solinadigan soliqlar kiradi.

a) Mamlakat korxonalari foydasiga solinadigan soliq.

Soliqni davlat, kollektiv, xususiy, qo'shma korxona va boshqa tashkilotlar (xususiy shaxslar) to'laydi. Soliq solinadigan ob'ektga mahsulot, ish, xizmatdan olinadigan foyda, boshqa tadbirkorlik faoliyatidan va operatsiyalardan (manbai)

olingan foydalar hisoblanadi. Foydaga solinadigan soliq to'lovchi hisobot yili davomida olgan foydasidan ruxsat etilgan chrgirmalar (imtiyozlar) chiqarib tashlangandan keyin qolgan foydaga solinadi<sup>1</sup>.

### **Chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxona va chet el korxonalari foydasiga solinadigan soliq.**

Chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxona va chet el korxonalari foydasiga solinadigan soliq hisoblash va undirib olish mexanizmi 9 aprel 1991 yili qabul qilingan XXR qonunida belgilangan. Bosh boshqarma ofisi xitoyda joylashgan chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalarni soliq solinadigan foydasi hamma daromadi (Xitoy xududida olingan va chet elda olingan) hisoblanadi. Chet el kompaniyalari foydaga solinadigan soliqni faqat XXR hududida olingan manbalar hisobidan to'laydilar.<sup>2</sup>

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.** Soliqni to'lovchilar Xitoyda doimiy yashash joyi bo'lgan jismoniy shaxslar yoki bunday joylarga ega bo'lmasdan XXR xududida bir yil va undan ortiq yashagan shaxslar hisoblanadi. Ushbu shaxslar soliqni hamma daromadlaridan (XXR xududida va chetki davlatlardan olgan) to'laydilar. XXR xududida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan, uning rezidenti hisoblanmagan, yoki uning xududida bir yildan kam yashagan jismoniy shaxslar soliqni faqat XXR xududida olingan daromadlardan to'laydilar. Soliq ob'ekti ishchi va xizmatchilarni ish xaqi, yordamchi yakka xo'jalikdan olgan daromad yoki tadbirkorlik faoliyati orqali olgan daromad, korxona va tashkilotlardan pudrat va ijara shartnomalari asosida olgan daromadlari, ko'rsatilgan xizmatga berilgan mukofot, mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlar hisoblanadi.

Asosiy muhim soliq ishchi va xizmatchilarni olgan ish xaqisidan ushlangan soliq hisoblanadi. Soliqqa har oyda olgan ish xaqi 800 yuanga kamaytirilgan (qattiq belgilangan harakat summasi) holda tortiladi. Olingan farqqa to'qqiz pog'onali quyidagi soliq stavkalari qo'llanadi (jadval – 3.1.3).

Jadval – 3.1.3.

### **Daromad solig'iga solinadigan soliq stavkasi<sup>3</sup>**

| Pog'ona | Har oyda soliq solinadigan daromad | Soliq stavkasi | O'rnatilgan chegirma |
|---------|------------------------------------|----------------|----------------------|
| 1.      | 501 ortiq emas                     | 5              | 0                    |
| 2.      | 501-2000                           | 10             | 25                   |
| 3.      | 2001-5000                          | 15             | 125                  |
| 4.      | 5001-20000                         | 20             | 375                  |
| 5.      | 20001-40000                        | 25             | 1375                 |
| 6.      | 40001-60000                        | 30             | 3375                 |
| 7.      | 60001-80000                        | 35             | 6375                 |
| 8.      | 80001-100000                       | 40             | 10375                |
| 9.      | 100000 dan ortiq                   | 45             | 15375                |

<sup>1</sup> Поспелова Е.Б. Современная налоговая система Китая: налоги на доходы и имущество физических лиц // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» 2014. № 6

<sup>2</sup> Liu, Zuo. Taxation in China. Cengage Learning Asia. Thomson Learning.

<sup>3</sup> Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. Chet mamlakatlar soliq tizimi. T.: 2011. b.324

Yakka yordamchi xo'jalikdan va tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadni soliqqa tortish. Soliq solishga yordamchi xo'jalikdan olingan yoki tadbirkorlik faoliyatidan olingan va u bilan bog'liq bo'lgan harajat yo'qotishlarni chegirib tashlangandan keyingi, yangi daromad hisoblanadi. Olingan farqqa quyidagi 9 bosqichli (pog'onali) soliq stavkasi qo'llaniladi:

Jadval – 3.1.4

**Yakka yordamchi xo'jalikdan va tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadni soliqqa tortish stavkasi<sup>1</sup>**

| Pog'ona                                      | Har yilgi soliq solinadigan daromad | Soliq stavkasi,%da | Beriladigan chegirma, yuan |
|----------------------------------------------|-------------------------------------|--------------------|----------------------------|
| 1.                                           | 5001 dan ortiq emas                 | 5                  | 0                          |
| 2.                                           | 5001 – 10000                        | 10                 | 250                        |
| 3.                                           | 10001 – 30000                       | 20                 | 1250                       |
| 4.                                           | 30001-50000                         | 30                 | 4250                       |
| 5.                                           | 50000                               | 35                 | 6750                       |
| Har yili soliq solinadigan daromad           |                                     |                    |                            |
| Yordamchi xo'jalik va tadbirkorlik faoliyati |                                     |                    |                            |

b) korxona va tashkilotlardan shartnoma va ijara asosida olingan daromadlar. Soliqqa, o'z navbatida, korxona va tashkilotlardan shartnoma va ijara orqali olingan umumiy yillik daromad tortiladi. Har bir tushum, u 4000 yuandan yuqori bo'lmasa, 800 yuanga kamaytirilib, qolgan summa soliqqa tortiladi. Agar, har bir tushum, 4000 yuandan ko'p bo'lsa, daromaddan harajatlarning 20%i chiqarib tashlanadi.

g) mulkni sotishdan olinadigan daromad.

d) foizlar, dividendlar va boshqa tushumlar.

**XXRda quyidagi daromadlarga soliq solinmaydi:**

- xalqaro tashkilotlar, chet el tashkilotlari va davlat organlari tomonidan ilmdagi, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, atrof muhitni muhofaza qilishdagi yutuqlarga berilgan mukofotlar.

- davlat kengashi farmoyishi bilan chiqarilgan moliyaviy obligatsiyalar bo'yicha foizlar, Moliya vazirligi chiqargan davlat zayemlari va omonat depozitlari bo'yicha olingan foizlar.

- Davlat Kengashini yagona qoidasiga binoan ish haqiga qo'shilgan maxsus hukumat ustamasi, davlat kengashi qarori asosida beriladigan soliq solinmaydigan subsidiyalar, dotatsiyalar va qator to'lovlar.

- muhtojlarga yordam berish tashkilotlarining nafaqalari, moddiy yordam, boquvchisini yo'qotganlarga berilgan nafaqa.

- sug'urta to'lovlari;

- harbiy xizmatchilarga beriladigan pul mablag'lar va pul mukofotlar;

<sup>1</sup> Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. Chet mamlakatlar soliq tizimi. T.: 2011. b.326

- yagona davlat nizomi asosida davlat ishchi va xizmatchilarini ish haqisiga qo'shimcha, chiqish nafaqasi, uzoq xizmati uchun nafaqalar;

- bankdagi schyotda to'planadigan tibbiy sug'urta nafaqasi va uzoq yillik xizmati uchun nafaqa;

- diplomatiya va konsul darajasidagi shaxslarni olgan daromadlari.

**Resurs to'lovlari** -Resurs to'lovlari resurs solig'i va yer solig'idan, (shahar va tumanlarni yeridan foydalanganlik uchun to'lov) tashkil topadi.

a) Resurs solig'i. XXR hududida mineral resurslarni qazish bilan shug'ullanayotgan tabiatdan foydalanuvchilar-huquqiy va jismoniy shaxslar soliq to'lovchisi hisoblanadi. Soliq stavkalari quyidagi mineral resurslarni turiga qarab belgilanadi.

Jadval – 3.1.5.

**Xitoyda 2015 yilda mineral resurslarga belgilangan soliq stavkasi<sup>1</sup>**

| №  | Soliq ob'ekti            | Soliq stavkasi                |
|----|--------------------------|-------------------------------|
| 1. | Xom neft                 | Bir tonnaga 8-30 yuan         |
| 2. | Tabiiy gaz               | 1000 kub metr uchun 2-15 yuan |
| 3. | Ko'mir                   | 0,3-5 yuan 1 tonnaga          |
| 4. | Temir rudalari           | 1 tonnaga 2-30 yuan           |
| 5. | Rangli metallar rudasiga | 1 tonnaga 0,4-30 yuan         |
| 6. | Qattiq tuz               | 1 tonnaga 10-60 yuan          |
| 7. | Suyuq tuz                | 1 tonnaga 2-10 yuan           |

Agar, bu xom-ashyoni isitish maqsadida ishlatilsa, neftni qazib olish soliqdan ozod qilinadi. Soliq to'lovchilar - tabiatdan foydalanuvchilar tabiiy ofatdan, halokatdan zarar ko'rsalar, ko'rgan zararlari hajmidan kelib chiqib chegirmalar va imtiyozlar beriladi.

b) Yer solig'i (shahar va tumanlar yeridan foydalanganlik uchun to'lov)

Soliqni korxona va fuqarolar to'laydi. Bundan chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan tashkilotlar, chet el kompaniyalari va xorijiy fuqarolar mustasno.

Soliq stavkasi - mintaqalar bo'yicha, har bir birlikka belgilangan. Masalan, bir kvadrat metrga yillik stavka yirik shaharlar uchun 0,5-10 yuan, o'rtacha shaharlar uchun esa, 0,4-8 yuan va kichik shaharlar uchun 0,3-6 yuan, hamda qazib olinadigan hududlarga 0,2-4 yuan deb belgilangan.

“Kambag'al” mintaqalar va yuqori salohiyatli tumanlarga soliq stavkasi ko'tarilishi va tushurilishi mumkin.

Hukumat, ijtimoiy va harbiy organlar egallagan yerlar, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar egallagan yerlar, cherkov, park, tarixiy yodgorliklar egallagan yerlar, munitsipal ma'muriy organlarga qarashli umumiy foydalanadigan yerlar, daraxt va o'rmonlar bilan band bo'lgan yerlar, chorvachilik kompleksi va baliq xo'jaligi bilan band bo'lgan yerlar, atrof- muhitni muhofaza qilish, energetika va transport xo'jaligi ehtiyoji uchun band qilingan yerlar soliq solishdan ozod qilinadi.

**Maqsadli soliqlar va yig'imlar** - Ushbu guruh soliqlar: qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanganlik uchun soliq, shaharlarni saqlash va rivojlantirish uchun

<sup>1</sup> National Bureau of Statistics of China. China statistical yearbook 2016

soliq, asosiy kapitalga qilingan investitsiyaga solinadigan soliq, yerni sotishga solinadigan soliq.

a) qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanganlik uchun soliq. Soliq huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadi. Bunga chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar va chet el fuqarolari kirmaydi. Yerni imoratlar qurish va boshqa qishloq xo'jaligidan tashqari maqsadlarga foydalanilsa soliqqa tortiladi. Soliqqa davlat va kollektiv mulki hisoblangan qishloq xo'jalik yerlari tortiladi. Soliq stavkasi mintaqalar (joylar) bo'yicha bir odamga to'g'ri keladigan yer uchastkasini o'rtacha razmyeriga qarab va mintaqadagi iqtisodiy vaziyatga qarab tabaqalashtiriladi.

Qo'shni hududlar o'rtasida keskin farq bo'lmasligi uchun Moliya vazirligi provintsiyalar va provintsiyalar bo'yicha soliq birligiga belgilangan o'rtacha stavka tabaqalashtirilgan. Bu stavka har bir kvadrat metrga 2,5-9 yuanga teng<sup>1</sup>. Soliq summasi qishloq xo'jalik yerini stavkaga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Soliq bir marta to'lanadi.

XXRda soliqqa tortishdagi asosiy yengilliklar va imtiyozlar quyidagicha:

Harbiy ob'ektlar, temir yo'l, aeroport, maktab, shifoxona joylashgan yerlar; irrigatsiyaga mo'ljallangan yerlar; qishloqlarda joylashgan mayda yer uchastkalari, yordamchi xo'jalikni olib borish uchun (uy oldidigi yerlar), qochoq va ko'chirilgan odamlar bilan band yerlar soliqdan ozod qilinadi. Agar yerlar qishloq aholisiga yangi uylar qurish uchun berilsa, soliq chiqarishi va imtiyozi qo'llaniladi. Xizmatdagi harbiylar va ularning oilalariga, yetim bolalarga, dehqonlarga - agar ular sezilarli og'ir moliyaviy ahvolda bo'lsalar, mehnat invalidlarini ta'minlash, avtomobil yo'llarini qurish uchun ajratilgan yerlarga soliq solinmaydi.

b) Asosiy kapitalga qilingan investitsiyaga solinadigan soliq.

Soliq to'lovchilar XXR hududida asosiy asosiy kapitalga mablag' qo'yadigan tashkilotlar, ularning bo'limlari, uy xo'jaligi va fuqarolar hisoblanadi. To'lovchilar tarkibiga chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar, chet el kompaniyalari va xorijiy davlatlarning fuqarolari kirmaydi.

Jadval –3.1.6.

### **Xitoyda soliq ob'yekti va uning stavkalari<sup>2</sup>**

| No   | Soliq solinadigan ob'ektlar                                                                          | Soliq stavkasi, % |
|------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|
| 1    | A. Infrastruktura                                                                                    |                   |
| 1.1. | Davlat ob'yektlari                                                                                   | 0                 |
| 1.2. | Davlat tashabbusi bilan kiritilgan loyihalar, lekin transport, energetika holati bilan chegaralangan | 5                 |
| 1.3. | Ofislar, mehmonxona yotoqxona                                                                        | 30                |
| 1.4. | Uy-joy qurilishi, tijorat qurilishi qo'shilgan holda                                                 | 0,5               |
| 1.5. | Boshqa yo'nalishlar                                                                                  | 15                |
| 2.   | B. Rivojlanish va rekonstruksiya                                                                     |                   |
| 2.1. | Davlat ob'yektlari                                                                                   | 0                 |

<sup>1</sup> Лю Юйчжо. Особенности развития налоговой системы в период рыночной трансформации национальной экономики (на примере КНР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. СПб.: Санкт-Петербургский государственный университет, 2013. С. 19.

<sup>2</sup> Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. Chet mamlakatlar soliq tizimi. T.: 2011. B.326.



v) Yerni sotishga solinadigan soliq (ko'chmas mulk) soliq to'lovchi davlat yeridan foydalanish huquqini boshqarish va unda joylashgan qurilishlarni (ko'chmas mulkni sotish) sotish va boshqalar ixtiyoriga o'tkazish orqali daromad olgan tashkilot va fuqarolar hisoblanadi.

Ko'chmas mulkni baholash qiymati = ko'chmas mulkni sotishdan olinadigan tushumi - chiqarishga mo'ljallangan harajatlar turlari. Shular qatorida, soliqning progressiv stavkasi ham qo'llaniladi.

Jadval – 3.1.7.

**Xitoyda ko'chmas mulkni sotishga solinadigan soliq stavkasi<sup>1</sup>**

| Pog'ona | harajatlar moddasidan oshmaydigan baholangan qiymat                                         | Soliq stavkasi, % |
|---------|---------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|
| 1.      | 50% chiqariladigan harajatlar moddasidan oshmaydigan baholangan qiymat                      | 30                |
| 2.      | 50% dan ortiq va 100% ga chiqariladigan harajatlar moddasidan oshmaydigan baholangan qiymat | 40                |
| 3.      | 100% ortiq va 200% chiqariladigan harajatlar moddalaridan oshmaydigan baholangan qiymat     | 50                |
| 4.      | 200% chiqariladigan harajatlar moddasidan oshadigan baholangan qiymat                       | 60                |

**Mol-mulk solig'i.** Bu guruh soliqlar mol-mulk solig'i, qo'chmas mulkka solinadigan soliq va merosga beriladigan mulkka solinadigan soliqlardan iborat.

a) Soliqlar shahar, okrug, tuman, industrial va qazib olinadigan hududlarda yig'ib olinadi.

Soliq to'lovchilar - imorat va inshootni mulk egalari, ofislarni egalari, ularda joylashgan garov xatlar bo'yicha, kreditorlar, ijaraga beruvchilar hisoblanadi. Soliq bazasiga ikki xil stavka qo'llaniladi: 1,2% va 12%.<sup>2</sup>

Agar, soliq bazasi sifatida - mulkni qoldiq qiymati olinsa (boshlang'ich qiymat 10-30%ga kamaytirilgan) 1,2% stavka qo'llaniladi. Agar, soliq bazasi sifatida mulkni ijaraga berish natijasida olingan daromad hisoblansa, soliq 12% bilan belgilanadi.

Davlat organlari o'z ehtiyoji uchun foydalanadigan qo'chmas mulk soliq to'lashdan ozod qilinadi. Ijtimoiy tashkilotlar, qurolli kuchlar, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan korxonalar, cherkovlar, parklar, tarix yodgorliklari, fuqarolar mulki hisoblangan tijorat maqsadida ishlatilmaydigan qo'chmas mulk, buzilgan, yashash uchun yaroqsiz uy-joylar ham shu tartibda ozod qilinadi.

b) Ko'chmas mulkka solinadigan soliq.

Hozirgi vaqtda bu soliqni chet el investitsiyali tashkilotlar, chet el kompaniyalari va chet el fuqarolari to'laydilar. Agar ular imorat va inshootlarga mulk egasi hisoblansa, garov xati bilan kreditorlar va ijaraga beruvchilar ham to'laydilar.

<sup>1</sup> Поспелова Е.Б. Современная налоговая система Китая: налоги на доходы и имущество физических лиц // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» 2014. № 6

<sup>2</sup> Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. Chet mamlakatlar soliq tizimi. T.: 2011. B.324.

Soliq bazasiga ikki xil stavka qo'llanadi. Ko'chmas mulk qiymatiga nisbatan 1,2%. Agar mulkni ijaraga berib, daromad olsa, u holda 18% stavka qo'llaniladi.

Soliq yengilliklari: yangi qurilgan imoratlar qurilish tamom bo'lgan oydan boshlab 3 yil davomida ozod qilinadi. Imorat rekonstruktsiya qilinsa, uning harajati yangi shunga o'xshagan imoratni narxini yarmini tashkil qilsa, ikki yil davomida u, soliقدan ozod qilinadi.

**Bojxona bojlari.** Soliq to'lovchilar tovarlarni import qilishga huquqi bor yuk oluvchilar, qonun bo'yicha tovarlarni eksport qiladigan yuk jo'natuvchilar hisoblanadi. Birinchilari import (olib kirish) bojxona bojini va ikkinchilari eksport (jo'natuvchi) bojxona bojini to'laydilar.

Soliq stavkalari ikkiga bo'linadi: import, eksport. Import boj stavkalari umumiy va imtiyozli bo'ladi.

XXR bilan imtiyozli soliqqa tortish shartnomasi tuzilmagan mamlakatlarga nisbatan, umumiy stavkalar qo'llanilsa, XXR bilan imtiyozli soliq solish shartnomasini tuzgan mamlakatlarga imtiyozli stavkalar qo'llaniladi.

XXR KRsi raisi Si Szinpin tomonidan mamlakatning yaqin kelajakka oid iqtisodiy sohadagi vazifalarini e'lon qilish barobarida, mamlakat Oliy Kengashining rahbari Li Katsyanningm aynan 2019 yil borasida ilgari surgan vazifalari ham masalani yanada oydinroq tushunibolishga imkon beradi.

Shu yilning 5 martida Pekinda bo'lib o'tgan 13chi Xalq vakillari umumxitoy kengashining ikkinchi sessiyasida so'zga chiqaan Li Ketsyan 2019 yilda mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan vazifalarni quyidagicha belgiladi:

- Yalpi ichki mahsulot o'sish xajmini 6 – 6,5% darajasida amalga oshirish;
- Shaharlarda 11 million yangi ishchi o'rinlarini yaratish;
- Shahar xududlarida ishsizlik darajasini 5,5%dan oshirmagan holda ushlab turish;
- Iste'mol mollari uchun narxlarni 3%dan ko'pga oshirmaslik;
- Eksport va importda asosan sifat ko'rsatkichlariga ustuvorlik berish;
- Qishloq xududlarda nochor aholi sonini 10 mln. Kishiga kamaytirish. Aholi daromadlarini mamlakat iqtisodiy qudari bilan baravar oshirib borishga erishish;
- QQS solig'ini mavjud darajadan qaytia ishlash sohalarida 16%ga, boshqa sohalarida 13%ga qisqartirishga erishish;
- Korxonalarga soliqlar yukini, qolaversa ijtimoiy sug'urtaga to'lovlarni qisqartirish asosida yil davomida aholiga soliq va to'lovlar yuklarini ikki trillion yuanga kamaytirish;
- Markaziy xukumatning o'zi tomonidan (maxalliy budjetlardan tashqari) ta'lim sohasiga yo'naltiriladigan mablag' miqdorini bir trillion yuandan oshirish;
- Xitoy ananaviy ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish bilan bir qatorda yuqoritexnologik sohalarini qo'llab quvvatlash hamda fundamental fan sohalarini qo'llab quvvatlash borasida tegishli ishlarni amalga oshiradi'
- Mamlakat o'z innovatsion imkoniyatlarini keng qo'llagan holda sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash maqsadida, sanoatlashgan internet platformalarini yaratish borasida tizimli ishlarni amalga oshirishi lozim;
- Ekologik yo'nalishdagi ishlarga alohida ahamiyat qaratiladi;

- Temir yo‘l tizimini rivojlantirishga yil davomida 800 mlrd. Yuan investitsiya qilinadi. Avtomobil hamda suv yo‘llarini qurish va yo‘lga qo‘yishga 1,8 trln. yuan sarflanadi va h.k<sup>1</sup>.

Yuqorida tilga olingan Xitoydagi islohotlar boshlanganligining 40 yilligiga bag‘ishlab nashr etilgan to‘plamda, mamlakat iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarni keyingi o‘n yilliklar davomida muttasil o‘rganib kelayotgan tadqiqotchi Ross Garneuning “40 years of Chinese economic reform and development and the challenge of 50” maqolasida Xitoy kambag‘al davlat darajasidan chiqib, aholining daromad darajasi o‘rta ko‘rsatkichdan o‘tayotganligi, aynan, bundan keyingi iqtisodiy o‘sishning asosiy murakkabliklarini belgilab beradi<sup>2</sup> deb yozadi. Lekin, fikrimizcha, endilikda, daromadning o‘rta darajasidan o‘tib, uning yoqori daromadli iqtisodiyotlar maqomiga ega mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi uchun, umuman boshqa omillar talab etiladi. Ushbu omillar esa, avvalo iqtisodiy rivojlanishning yangi talablariga javob beradigan iqtisodiy institutlar, shu jumladan, bozorlar, qolaversa, ta‘lim darajasiga, axborot texnologiyalari, innovatsion rivojlanishga qo‘yiladigan talablar va boshqalarda o‘z aksini topadi<sup>3</sup>.

XXRda amalga oshirilgan iqtisodiy o‘zgarishlar xo‘jalik yuritishda nodavlat sektorining xissasini oshirib, davlat sektorining ulushini tobora kamayib borishiga olib kelgan. Bu esa, resusrlarni taqsimlashda ma‘muriy dastaklarning ahamiyatini ham pasaytirib borgan.

Bunday sharoitda, soliqlar prinsipiial o‘zgacha ahamiyat kasb etib borgan, ya‘ni, ular endilikda, davlat tomonidan moliyaviy imkoniyatlarni zarur yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkonini beribgina qolmasdan, mamlakat iqtisodiy hayotini tartibga solib turuvchi mexanizmlardan biriga ham aylangan.

O‘z navbatida, mamlakat soliq tizimini isloh qilish jarayonida bir qator muammolar ham saqlanib qolgan ediki, jahon moliyaviy inqirozi davriga kelib, ushbu muammolar yanada chuqurlashdi:

- xususan, markazga va xududlarga bo‘linuvchi soliqlar tizimining oxiriga yetkazilmaganligi (mahalliy muammolarning qarayib, 75% mahalliy budjetlar hisobiga hal qilinishiga qarmasdan, soliqlar taqsimoti oldingidek, markaz va hudud hisobiga o‘rtacha 50%da qolmoqda);

- hududiy soliqlar tarkibinig samarali emasligi;

- soliqlarning iqtisodiy sub‘ektlar o‘rtasidagi taqsimlanishi adolatli tashkil etilmaganligi va hokazolar.

Ushbu omillar mamlakat milliy soliq tizimida samarali tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga to‘siq bo‘lib, mamlakatning barcha hududlarida birdek iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashga yuk bo‘lib kelmoqda<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> В 2019 году Китай будет прикладывать усилия для развития экономики и расширения открытости // <https://dknews.kz/selkovyi-put/v-2019-godu-kitai-budet-prikladnyat-usilia-dla-razvitiya-ekonomiki-i-rassirenia>

<sup>2</sup> Ross Garnaut 40 years of Chinese economic reform and development and the challenge of 50// China’s 40 years of reform and development 1978–2018. P.42.

<sup>3</sup> Armstrong, S. and Westland, T. Escaping the middle-income trap: Trade, investment and innovation, in F. E. Hutchinson and S. Basu Das (eds), Asia and the Middle-Income Trap. New York: Routledge. 2016; Куклина Е. А., Чжу Сяоцин, Сунь Юйсю, Се Тяньчэн Налоговая политика стимулирования инноваций как фактор экономического роста: китайский путь // Управленческое консультирование. №2. 2014. Стр. 86

<sup>4</sup> Кадочников Д.В. Бюджетная система Китая на современном этапе: ключевые вызовы и направления развития // terra economicus. 2018. Том 16. №3. Стр.96

Qolaversa, mamlakat oldida turgan soliq sohasidagi islohotlarni samarali amalga oshirishda, o'ziga xos tomonlarini ham inobatga olgan holda, ish yuritishga to'g'ri keladi. Bular avvalo:

- mamlakatning ichki energetik va boshqa xom ashyo resurslari cheklanganligi sharoitida, aholi sonining juda yuqoriligi;

- qariyb 40 yildan ortiq islohotlar amalga oshirilayotganiga qarmasdan, milliy iqtisodiyotda davlat sektori ulushining yuqori bo'lib qolayotganligi, ya'ni iqtisodiy sub'ektlarning hal qiluvchi qismi hali bozor tamoyillari sharoitida ishlamayotganligi.

Ushbu muammolarni hal qilish bo'yicha, Xitoy Xalq Respublikasida bir qator tizimli ishlar amalga oshirila boshlanganligini hamda ularni amalga oshirishda, aynan soliqdan asosiy tartibga solish dastagi sifatida foydalanilayotganligini ko'ish mumkin.

Soliq siyosatidagi ushbu yangi choralar, nafaqat, Xalqaro valyuta fondining bashoratlariga javoban, balki aholi daromadlarining tabaqalanishidagi yaqinlashuv, qolaversa, mamlakatning chet el eksportiga bog'liqligini kamaytirib, unda ichki iste'mol hajmini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Xususan, aholidan undirilayotgan daromad solig'i miqdorining kamaytirilishi, nafaqat kam ta'minlangan aholi qatlamalarini turmush sharoitlarini yanada yaxshilashga, balki mamlakatda ichki iste'molni ko'paytirishga xizmat qilishi ko'zda tutilmoqda.

Li Ketsyan o'z chiqishida "Biz soliq yukini keskin qisqartirish yo'lidan borishga kelishib oldik. Qo'shimcha qiymat solig'iga soliqliqni, qolaversa ijtimoiy sug'urtaga to'lovlarning tushirilishi shu yilning o'zida soliq yukini 2 trln. yuanga pasaytirish imkonini beradi",- degan fikrni bildirdi. 2019 yilning 1 aprelidan boshlab QQS, 1-maydan boshlab ijtimoiy sug'urtaga to'lovlar miqdori pasaytirilishi belgilandi.<sup>1</sup>.

Mamlakat soliq tizimida oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan va ko'zda tutilayotgan o'zgarishlar quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi.

Xususan:

- Mamlakat soliq tizimini jahon andozalariga yaqinlashtirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar;

- Markaziy va mahalliy soliqlarni tartibga solish borasida olib borilayotgan choralar;

- Chet el investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri jalb qilishga keng yo'l ochish borasida amalga oshirilayotgan ishlar<sup>2</sup>.

Xitoy Xalq Respublikasida soliq tizimini isloh qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganiga, ular istiqbolda albatta o'z natijalarini berishiga ishongan holda, hali bu yo'nalishda bir qator katta masalalar saqlanib qolayotganligini ham aytib o'tish lozim. Ushbu masalalarning o'z vaqtida hal etilmasligi ekspertlarning fikricha kelajakda quyidagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

---

<sup>1</sup>Ли Кэцян рассказал о приоритетах правительства КНР// <https://newsru.cgtn.com/news/3d517a5832457a4e78457a6333566d54/p.html>

<sup>2</sup>我国对外签订避免双重征税协定一览表 URL: <http://www.chinatax.gov.cn/n8136506/n8136593/n8137537/n8687294/8688432.html>

-Birichidan, keyingi yillarda hududlarning o'z soliq bazalarini kuchaytirishlari uchun, tizimli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, bu siyosatda baribir, dengizbo'yi hududlariga ustuvor imkoniyatlar berilayotganligi ko'zga tashlanadi. Albatta, shimoliy va markaziy hududlarga ham davlat siyosati bilan katta e'tibor qartish ko'zda tutilgan bo'lsada, hozirgacha amaliyotda bu narsa sezilarli darajada bo'lmayotganligini ko'rish mumkin. Natijada chet el investorlari, ko'proq, hanuzgacha dengizbo'yi hududlarida o'z ishlarini boshlashga qiziqish bildirishmoqda;

-Ikkinchidan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Xitoy iqtisodiyotiga ta'sirlaridan biri - uning tashqi savdo aylanmasi hajmini pasayishida, o'z aksini topmoqda. Uzoq yillar davomida, aynan eksport Xitoy iqtisodiyotini jonlantirayotgan o'ziga xos muhim omil bo'lib kelayotgan edi. Xitoy mollariga chet davlatlarda bo'lgan ehtiyojning kamayishi, mamlakat yalpi ichki mahsulotida tashqi savdo ulushining 2006 yildagi 67% dan 2011 yilga kelib 50,1%ga tushishiga olib keldi<sup>1</sup>. Albatta, bunday sharoitda eksportni kuchaytirish uchun eksportga yo'naltirilgan sohalarga soliq imtiyozlarini berish yo'li bilan, sohani jonlantirish mamlakat oldidagi hal etilishi zarur bo'lgan masalalardan biriga aylanmoqda;

-Uchinchidan, qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotganlar, birinchi navbatda, dehqonlarning soliq yukini pasaytirish, shu yo'l bilan, ularning daromadlarini shahar aholisi daromadlariga yaqinlashtirish. Bu borada keyingi yillarda Xitoyda bir qator ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, qishloq aholisi Xitoyda nisbatan, qashshoq aholi qatlami bo'lib qolmoqda<sup>2</sup>.

Ma'lumki Xitoy Xalq Respublikasida soliq tizimiga kiritish mo'ljallangan o'zgarishlar dastlab, biror hududda eksperiment tarzida amalga oshiriladi. Faqat, u ijobiy natija bergan taqdirdagina, ushbu soliqqa tortilayotgan sub'yekt barcha hududlarda teng qo'llaniladi. Aks holda u, qo'llanilmasdan qolib ketadi<sup>3</sup>;

-To'rtinchidan, albatta, keyingi davrda Xitoyda iqtisodiy, moliyaviy hayotni tartibga solishda bozor mexanizmlaridan keng foydalanish yo'liga o'tilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan, hali davlat ma'muriy resurslarining roli bu borada asosiy vosita bo'lib qolayotganligi sohani zamonaviy boshqaruv tizimiga o'tishiga bir muncha halaqit qilmoqda.

Ushbu keltirilgan ma'lumotlarning o'zidan ham ko'rish mumkinki, Xitoy rahbariyati XXR iqtisodiyotini yangi davrning muammoli holatlariga javob bera oladigan rivojlanish yo'lidan olib borishga harakat qilmoqda. Bunda bugun Xitoy iqtisodiyotiga ta'sir qilayotgan barcha omillar inobatga olingan holda, uning yangi sharoitlarda ham o'z ustunligini yo'qotmaydigan taraqqiyot modelini shakllantirish va iqtisodiy institutlarni shu relslarga ko'chirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

---

<sup>1</sup> <http://baike.baidu.com/view/70997.htm>

<sup>2</sup> Поспелова Е.Б. Современная налоговая система Китая: налоги на доходы и имущество физических лиц// «Науковедение», Выпуск 6 (25), ноябрь – декабрь 2014. стр. 4-5

<sup>3</sup> Лю Юйчжо. Реформирование налоговой системы КНР// Пятнадцатая международная конференция молодых ученых-экономистов. Санкт-Петербург, 26-27 ноября 2009. СПб., 2009. С.40-41.

Zamonaviy sharoitda Xitoy Xalq Respublikasining soliq tizimi o'z transformatsiyasi jarayonida bir qancha muhim bosqichlarni bosib o'tdi. Ushbu bosqichlarning tahlili bir qator muhim xulosalarni chiqarish uchun imkon beradi.

**Birinchidan,** ushbu bosqichlarning barchasi Xitoy ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi muhim o'zgarishlar davrlari bilan bevosita bog'liq. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topgan XX asrning 50-yillari soliq transformatsiyasi jarayonidagi birinchi davri bo'lgan bo'lsa, uning keyingi etaplari bo'lmish – Xitoy iqtisodiyotida bozor relslariga o'tilishi boshlangan 1978 yil, yoki mamlakat iqtisodiyotida katta islohotlarning boshlanish davri bo'lgan, ta'siri hozirgacha sezilayotgan 1994 yil, qolaversa XXRning hozirgi lideri hokimiyat tepasiga kelishi bilan boshlangan Xitoy iqtisodiyotidagi yangi davr – 2012 yillar bilan bog'liqligi shundan dalolat beradi.

**Ikkinchidan,** XXR soliq transformatsiyasidagi har bir bosqich keyingi bosqich uchun o'ziga xos asos yaratganligi bilan bog'liq. Xususan, XXR soliq tizimidagi XX-asr 80-yillarning boshlarigacha davom etgan ilk davr mamlakat soliq sohasida ilk bor tizimlilikni kiritdi, soliq tizimida Xitoyning xususiyalarini o'zida ifodalagan mantiqiy asoslarini shakllantirdi, yangi soliqlarni mamlakatning barcha hududlarida bir xil va teng asosda undurilishini ta'minladi, shu bilan butun mamlakat hududini yagona soliq tizimiga tortdi. Den Syaopin boshchiligidagi boshlangan Xitoy iqtisodiyotini bozor iqtisodi asoslariga o'tkazish va soliq tizimini shu siyosatga moslashtirish borasidagi islohotlari o'tgan davrdagi ana shu tizimli ishlarga tayangan holda amalga oshirildi. 80-yillar boshlarida boshlangan ushbu chuqur islohotlar esa mana qariyb 40 yildan ziyod davr mobaynida Xitoydagi tub islohotlar tizimi uchun o'ziga xos asos xizmatini o'tab kelmoqda.

**Uchinchidan,** mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarning, u bilan baravar amalga oshirilgan soliq transformatsiyasidagi har bir davrning o'ziga xos mantiqi, o'z mafkurasi, maqsadi bo'lganligini, transformatsiyaning har bir bosqichi aynan shu mafkurani, maqsadni amalga oshirishga oid tizimli ishlarni ko'zda tutganligi va amalga oshirganligi bilan ajralib turganligini ko'rsatib o'tish lozim. Xususan, Mao Szedun rahbarligida o'tgan asr o'rtalarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar asosida “muvozanatlangan iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy tenglik” g'oyasi asosida amalga oshirilgan bo'lib, aynan iqtisodda muvozanatga erishish va aholining nochor qatlamlari iqtisodiy imkoniyatlarini ko'tarishga harakat qilish bu davr siyosatida muhim rol o'ynadi. Soliq vositalaridan esa ushbu maqsadlarga erishish yo'lida imkoniyat sifatida foydalanildi. O'tgan asrning 70-yillari oxirida Den Syaopin boshchiligidagi amalga oshirilgan boshlangan yangi siyosat Xitoyda “Islohotlar va ochiqlik siyosati” nomi bilan mashhur bo'ldi. Aynan shu siyosat mamlakat siyosiy tizimida eski tartiblarni saqlab qolgan holda mamlakat iqtisodiy hayotiga bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy qilishga, shu orqali soliq tizimida ham mutlaqo yangicha qarshlarning shakllanishiga asos yaratdi. Mamlakat soliq tizimidagi keyingi o'zgarishlar ana shu fundamentga asoslangan shaklda davom etmoqda.

**To'rtinchidan,** Xitoy soliq transformatsiyasini tahlil qilish jarayonida ko'zga tashlanadigan o'ziga xos holatlardan biri soliq tizimiga kiritilayotgan har bir yangilikning birdaniga emas, asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich joriy etilishi

amaliyotining qo'llanganligidir. Mamlakatda mavjud soliq turlaridan biriga kiritilayotgan o'zgarishlar dastlab mamlakatning bir yoki bir nechta provinsiyasida sinovdan o'tkaziladi. Faqat ushbu eksperimentning muvaffaqiyat bilan amalga oshirishiga soliqqa tortish tartibiga kiritilayotgan o'zgarishlarning butun mamlakat miqyosida tadbiriq etilishiga asos yaratadi.

**Beshinchidan,** XXR soliq tizimining doimiy rivojlanishda ekanligi. Mamlakat soliq tizimi transformatsiyasini o'rganar ekanmiz uning har bir bosqichi yana keyin amalga oshiriladigan yangiliklar uchun asosgina bo'lib qolayotgani, o'z holicha tugal ahamiyat kasb etmayotganligini ko'rish mumkin. Mana shu holatning o'zi XXRda hozir mavjud bo'lgan soliq tizimi ham o'zgarishi mumkinligidan dalolat beradi. Bu o'zgarishlarni doimiy o'rganib, mumkin bo'lgan rivojlanish yo'llarini bashorat qilish esa XXR bilan yaqin iqtisodiy hamkorlikda bo'lgan O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga egadir.

XXR soliq tizimi transformatsiyasidagi ayrim ijobiy jihatlar O'zbekiston uchun ham ahamiyatligini aytib o'tish lozim. Ayniqsa mamlakatimizda yangi soliq konsepsiyasi hayotga joriy etilayotgan bir sharoitda, qolaversa ushbu borada bir qator yangi yondashuvlar hayotga kiritilayotgan vaziyatda XXRning bu boradagi tajribasiga e'tibor berish o'rinli bo'ladi. Xususan, mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik sub'ektlariga katta e'tibor qaratilayotganligi, shuningdek iqtisodiy vaziyatni yangi darajaga olib chiqishda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish hamda chet el investitsiyalarini kengroq jalb qilish siyosatining yuritilayotganligi aynan shu yo'nalishlarga soliq imtiyozlari berish orqali manfaatdorlikni oshirishni maqsadga muvofiq qilib qo'yadi. Bunday siyosat Xitoy Xalq Respublikasida ham o'z iqtisodiyotini ochiqlik sari yo'naltirgan davrda juda katta ahamiyat kasb etgani va yuqori natijalar berganligini ko'rish mumkin.

XXR soliq tizimida O'zbekiston uchun ahamiyatli bo'lgan jihatlaridan yana biri, unda chet el investorlarining qo'llab-quvvatlash barobarida o'z soliq transformatsiyasining so'nggi davrida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ham katta e'tibor berila boshlanganligi, ularga ham chet el korxonalari bilan bir qatorda rivojlanish uchun soliq preferensiyalarini tizimli ravishda ko'zda tuta boshlaganligidadir.

Xitoy monetar siyosati xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

↳ Xitoyda pulning miqdoriylik nazariyasi Yevropadan 1500 yil oldin paydo bo'lgan va u "Guantzi" traktatida bayon etilgan. Keyinchalik u, Xitoy davlat monetar siyosatining nazariy asosiga aylandi;

↳ Xitoy – qog'oz pullar vatani (eramizdan avvalgi II asr) hisoblanadi;


↳ Inflyatsiya holati birinchi marotaba Xitoyda eramizdan avvalgi III asrda vujudga keldi;

↳ XIV asrgacha monetar siyosat Xitoyning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir etib kelgan;

↳ XV-XVI asrlardan boshlab, u mamlakat iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtiruvchi to'siq sifatida ta'sir ko'rsata boshladi;

Davlatning monetar siyosati – mamlakatdagi iqtisodiy tebranishlarni oldini olishga yo‘naltirilgan, antisiklik yoki iqtisodiyotni barqarorlashtirish siyosatidir. O‘z navbatida, monetar siyosat quyidagilarni ta‘minlashi lozim: (rasm 3.1.1.)

rasm 3.1.1<sup>1</sup>.



Shuni ta‘kidlash joizki, har bir davlat o‘z pul-kredit siyosatini amalga oshirishda muayyan dastaklardan foydalanadi. Aynan, Xitoy ham o‘zining monetar siyosatini quyidagi dastaklardan foydalangan holda amalga oshiradi: (rasm 3.1.2.)

Rasm 3.1.2.

### XXR monetary siyosatining asosiy dastaklari<sup>2</sup>



Xitoy an‘anaviy monetar siyosatining salbiy oqibatlari

- Mamlakatda kichik miq‘yosli agrar iqtisodiyotning mavjudligi;
- Davlat tomonidan milliy savdoni an‘anaviy tarzda bosimga olinishi;
- markazlashgan qattiq fiskal siyosat;
- Aniq pul standartining yo‘qligi.

1983 yildan boshlab, Xitoyda markazlashgan pul siyosati modelidan pul taklifini qo‘llab-quvvatlash siyosatiga o‘tish, keragidan ortiq pul massasini yo‘q qilish; qattiq pul siyosatidan ancha uning egiluvchan pul siyosatiga o‘tish; yuqori

<sup>1</sup> Sadibekova B.D. Xitoy iqtisodiyoti, o‘quv qo‘llanma, II-qism, “O‘zDAVMATBUOTLITI”, T., 43-44 b.

<sup>2</sup> O‘sha joyda, 44-45 b.



foiz stavkasi siyosatidan past foiz stavkasi siyosatiga o'tish hamda monetar va fiskal siyosatni birgalikda olib borish.

2008 yil inqiroz ostonasida – Xitoy 10 yillar mobaynida olib borgan “muvozanatlashtirilgan moliyaviy-monetar siyosat”dan “qisqartirilgan moliyaviy-monetar siyosat”ga o'ta boshladi.

Mazkur siyosatni joriy qilish tovarlar narxini oshishi va monetar kreditlashning tez o'sishida ko'rindi.

Jadval 3.1.8.

**Asosiy tovarlar kategoriyalari bo'yicha iste'mol narxlarining (CPI indexsi) indexsi**

| Ko'rsatkichlar                                                        | 2016 y.,%   | 2017 y.,%   | o'zgarish, p.p. |
|-----------------------------------------------------------------------|-------------|-------------|-----------------|
| Iste'mol narxlari indexsi                                             | <b>2,0</b>  | <b>1,6</b>  | <b>-0,4</b>     |
| <b>1. Oziq-ovqat mahsulotlari</b>                                     | <b>3,8</b>  | <b>-1,4</b> | <b>-5,2</b>     |
| Don mahsulotlari                                                      | 0,5         | 1,5         | +1,0            |
| yog'lar                                                               | 1,7         | -0,2        | -1,9            |
| go'sht va go'sht mahsulotlari, parranda                               | 11,0        | -5,0        | -16,0           |
| Shu jumladan: cho'chqa                                                | 16,9        | -8,8        | -25,7           |
| tuxumlar                                                              | -3,2        | -4,0        | -0,8            |
| Baliq, daryo mahsulotlari                                             | 4,6         | 4,4         | -0,2            |
| sabzavotlar                                                           | 11,7        | -8,1        | -19,8           |
| mevalar                                                               | -2,6        | 3,8         | +6,4            |
| Sut va sut mahsulotlari                                               | -0,1        | 0,1         | +0,2            |
| <b>2. Tamaki va alkogol</b>                                           | <b>2,3</b>  | <b>-0,1</b> | <b>-2,4</b>     |
| Tamaki mahsulotlari                                                   | 2,3         | -0,1        | -2,4            |
| alkogol                                                               | 0,4         | 2,2         | +1,8            |
| <b>3. Kiyim-kechak va poyafzal</b>                                    | <b>1,4</b>  | <b>1,3</b>  | <b>-0,1</b>     |
| Kiyim-kechak                                                          | 1,4         | 1,3         | -0,1            |
| poyafzal                                                              | 1,4         | 1,0         | -0,4            |
| <b>4. uy uchun texnika va jihozlar hamda ularga xizmat ko'rsatish</b> | <b>0,5</b>  | <b>1,1</b>  | <b>+0,6</b>     |
| Uzoq muddatli iste'mol tovarlari                                      | -1,2        | 0,4         | +1,6            |
| Mayishiy xizmat va ta'mirlash ishlari                                 | 4,4         | 4,2         | -0,2            |
| <b>5. Meditsina xizmati, sog'liqni saqlash vositalari</b>             | <b>3,8</b>  | <b>6,0</b>  | <b>+2,2</b>     |
| Xitoy lori-darmon vositalari                                          | 4,8         | 5,7         | +0,9            |
| Inport dorilar                                                        | 4,3         | 6,0         | +1,7            |
| Meditsina xizmati                                                     | 3,5         | 6,5         | +3,0            |
| <b>6. Transport va aloqa</b>                                          | <b>-1,3</b> | <b>1,1</b>  | <b>+2,4</b>     |
| Shahar transporti                                                     | -2,0        | -1,5        | +0,5            |
| Avtomobil yoqilg'isi va ehtiyot qismlar                               | -4,0        | 9,8         | +13,8           |
| Aloqa vositalari                                                      | -3,5        | -3,1        | +0,4            |
| aloqa                                                                 | -3,0        | -0,2        | +2,8            |
| <b>7. Ta'lim, madaniyat, hordiq</b>                                   | <b>1,6</b>  | <b>2,4</b>  | <b>+0,8</b>     |
| Ta'lim xizmati                                                        | 1,6         | 3,1         | +1,5            |
| turizm                                                                | 2,0         | 3,6         | +1,6            |
| <b>8. uy-joy-kommunal xizmati</b>                                     | <b>0,5</b>  | <b>2,6</b>  | <b>+2,1</b>     |
| ijara                                                                 | 2,8         | 2,9         | +0,1            |
| suv, elektr va yoqilg'i                                               | -0,5        | 1,9         | +2,4            |

Manba: XXR Davlat statistika boshqarmasi

Jadval 3.1.8.dan ko‘rinib turganidek, 2017 yilda 8 ta asosiy tovarlar va xizmatlar guruhidan oziq-ovqatlar (-5,2%) sezilarli o‘zgarishga yuz tutgan, uncha katta bo‘lmagan darajali pasayish dinamikasini tamaki va alkogol (-2,4%), kiyim-kechaklar va poyafzal (-0,1%) ko‘rsatdi. Qolganlari esa, ijobiy narxlar dinamikasi bilan tavsiflandi.

### **3.2. Xitoy sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanish dinamikasi**

XXR hukumati rahbari Si zhinpin shuningdek, aholining farovonligini oshirish va qashshoqlikka qarshi kurashda g‘olib bo‘lish zarurligini ta’kidladi. Shuningdek, u barcha xalqlar o‘rtasida islohotlar va ochiqlik samarasini adolatli taqsimlashni talab qildi. XKP rahbari ta’kidlaganidek, partiya o‘z ishiga, shu jumladan, chet ellik mutaxassislariga va nodavlat shaxslarga ko‘plab odamlarni jalb qilmoqchi.<sup>1</sup>

Shu o‘zgarishlar qatorida, ijtimoiy sohalarda ko‘pgina o‘z yechimini kutayotgan quyidagi muammolar ham ko‘payib bormoqda:

- bandlik muammosi;
- keksa kishilarni moliyaviy ta‘minlashga harajatlarning oshishi;
- ekin ekish maydonlarining qisqarib borishi bilan bog‘liq bandlik muammolari;
- ta’lim darajasini oshirish;
- ijtimoiy ta‘minot tizimini isloh etish (sug‘urta, nafaqa ta‘minoti, meditsina xizmati, ishsizlikni sug‘urtalash);
- aholi daromadlari darajasi orasidagi farq.

Umuman, aytish lozimki, XXR hukumati oldida ijtimoiy rivojlanish sohalari bo‘yicha hali yechimini kutayotgan muammolar ko‘pgina va bu yo‘nalishda mamlakat rahbariyati qator chora tadbirlar rejasi ustida ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Xitoyning byudjet harajatlari va daromadlari tarkibi, oldingi yillarga nisbatan o‘shish dinamikasini ko‘rib chiqdik. Bugungi kunga kelib, Xitoy byudjet samaradorligini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilab oldi:

- Islab chiqarishni mamlakatdan tashqariga ko‘chirish;
- Soliq stavkalarini kamaytirish;
- Faol investitsion faoliyat olib borish;
- davlat moliyasida monetar siyosatdan ko‘ra, fiskal siyosatga ko‘proq ahamiyat qaratish va hokazo.

Yo‘nalishlarning orasida dastlabkisi sifatida qaralgan ishlab chiqarishni xorijga ko‘chirish yo‘nalishida, Xitoy sanoat ishlab chiqarish sohalarini xalqaro hamkorlik tamoyillari asosida xorij mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqasiga ham ko‘chirib o‘tkazmoqda.

Shuni ta’kidlash joizki, turli mamlakatlar bilan davlatlararo savdo uylari barpo etish, Xitoy kompaniyanialari tomonidan boshqa davlatlarda iqtisodiy

---

<sup>1</sup>李珍 李 陈恩. 社会保障理论 Теория социального обеспечения. [M] 北京 Пекин : 中国劳动社会保障出版社  
Издательство труд и социальное обеспечение Китая, 2001.

xo'jalik faoliyati yuritish orqali byudjetga keladigan daromadlar oqimini ko'paytirishga harakat qilmoqda. Ushbu yo'nalish bo'yicha mamlakatimiz bilan iqtisodiy hamkorlik loyihalariga e'tabor qaratsak, 2016-yilga kelib, mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokida tashkil etilgan qo'shma korxonalar soni 650 ortiqni tashkil etadi.<sup>1</sup>

Xitoy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha "dunyo sexi" nomini olish bilan birgalikda, 1990-yillardan buyon, o'z investitsion faoliyatini ham kengaytirib bormoqda. Ayniqsa, 2008-yilgi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davridan so'ng, o'zining Xitoy investitsion faoliyati natijasida, jahonning yetakchi mamlakatlaridan biriga aylandi.

O'zbekistonning byudjet samaradorligini ta'minlash maqsadida, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va tezroq Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikni qo'lga kiritish, bu orqali turli ta'riflar va arzon import tovarlariga ega bo'lish hamda jahon iqtisodiyotida tobora o'z mustahkam o'rnini egallashi lozim.

Bundan tashqari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kichik biznesni qo'llab quvvatlash chora tadbirlari orqali kuchik va o'rta biznes sub'yektlari sonini orttirish hamda ularning faoliyati natijasida, davlat byudjetiga soliqlar tushumini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, mamlakatimiz byudjet tizimining asosiy yutuqlaridan biri - bu Xitoydan farqli o'laroq, so'nggi yillarda, byudjetning mamlakat YaIMga nisbatan, profitsit holatiga ega ekanligidir.

O'zbekiston byudjet tarkibidagi harajatlarning ko'proq qismi ijtimoiy sohaga yo'naltirilganligi, bu orqali aholi turmush farovonligini yanada oshirishga e'tibor qaratayotganligi diqqatga sazovordir. Xitoy ham byudjet tizimi harajatlarini ijtimoiy sohaga ajratilgan qismini (hajmining) ortishi va shu orqali aholi turmush farovonligiga erishish mumkinligi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XXR Davlat statistika qo'mitasi dastlabki makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida 2017-yildagi iqtisodiy o'sish darajasining pasayish tendensiyasi o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakat iqtisodiyoti 6,9%ga o'sdi, oldingi yilga nisbatan 0,4 foiz darajasiga oshdi<sup>2</sup>.

Yil yakunlariga ko'ra, XXR YaIM 82,71 trln. yuan (deyarli 12,71 trln. AQSH dollari)ga teng bo'ldi. Sohalar bo'yicha YaIM quyidagicha taqsimlandi:

a) birlamchi soha (qishloq, o'rmon va suv xo'jaligi) – 6 546,8 mlrd. yuan (+3,9%, +3,3% 2016-yilga nisbatan);

b) ikkilamchi soha (sanoat, energetika, qurilish) – 33 462,3 mlrd. yuan (+6,1%);


c) uchinchi soha (xizmatlar, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim) – 42 703,2 mlrd. yuan (+8,0%, +7,8% 2016-yilga nisbatan).

---

<sup>1</sup>[www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) O'zbekiston Xitoy:hamkorlikning yangi bosqichi-har tomonlama strategik sheriklik, 2016-yil 22-iyun

<sup>2</sup> "Годовой обзор:состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности КНР в 2017 году" Пекин, 2018 г., с.14

Diagramma 3.2.1.



Keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni anglash mumkinki, birlamchi va uchinchi sohalarda o'sish darajasi 0,6 va 0,2 foiz darajaga ko'tarilgan bo'lib, ikkilamchi soha esa, o'zining o'sish sur'atini saqlab qolgan.

Jadval 3.2.1.

**Xitoy YaIMning 2017-yilda sohalar bo'yicha bo'linishi<sup>1</sup>**

| Iqtisodiyot sohasi                        | Mlrd. Yuan    |           | 2016-yilga nisbatan o'sish (%) |         |
|-------------------------------------------|---------------|-----------|--------------------------------|---------|
|                                           | 4-ch. 2017-y. | 2017-y.   | 4-ch. 2017-y.                  | 2017-y. |
| YaIM                                      | 23 458,2      | 82 7122,0 | 6,8                            | 6,9     |
| Birlamchi soha                            | 2 423,9       | 6 546,8   | 2,9                            | 3,9     |
| Ikkilamchi soha                           | 9 617,7       | 33 462,3  | 6,1                            | 6,1     |
| Uchinchi soha                             | 11 416,7      | 42 703,2  | 8,3                            | 8,0     |
| Qishloq xo'jaligi                         | 2 515,4       | 6 800,9   | 4,5                            | 4,1     |
| Sanoat                                    | 7 820,5       | 27 999,7  | 6,2                            | 6,4     |
| Shu bilan birga qayta ishlab chiqaruvchi: | 6 813,1       | 24 270,7  | 6,8                            | 7,0     |
| Qurilish                                  | 1 828,8       | 5 568,9   | 3,1                            | 4,3     |
| Ulgurji va chakana savdo                  | 2 179,1       | 7 774,4   | 6,9                            | 7,1     |
| Transport, ombor xo'jaligi                | 997,2         | 3 680,3   | 8,6                            | 9,0     |
| Mehmonxona va restoran biznesi            | 410,9         | 1 459,4   | 7,0                            | 7,1     |
| Moliya                                    | 1 630,2       | 6 574,9   | 4,0                            | 4,5     |
| Ko'chmas mulk bozori                      | 1 486,0       | 5 385,1   | 4,8                            | 5,6     |
| Axborot texnologiyalari                   | 749,2         | 2 745,2   | 33,8                           | 26,0    |
| Ijara va boshqa tijoriy xizmatlar         | 625,2         | 2 216,3   | 11,8                           | 10,9    |
| Boshqa xizmatlar                          | 3 215,7       | 12 507,2  | 7,2                            | 7,1     |

Manba:XXR DSQ ma'lumotlari asosida

Birlamchi sohaning YaIMda ulushi 7,9% (2016-yilda 8,6%), ikkilamchi soha – 40,5% (38,8%), uchinchi soha – 51,6% (51,6%).

<sup>1</sup> manba: <http://ekd.me/2018/03/kitaj-2018-bolshoj-plan-bolshoj-ekonomiki/>

2017-yilda Xitoyda sanoatning o'sish sur'ati ko'p yo'nalishli ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi, tadbirkorlik sub'ektlari samaradorligi darajasining umumiy o'sishi kuzatildi.

Katta sanoat korxonalarining solishtirma narxlarda ishlab chiqarish qiymatlari 6,6% ga o'sdi, o'sish sur'ati 0,6 foiz darajaga o'sdi.

O'sish sur'atlarining ijobiy dinamikasi sanoatning 2 ta (uchdan) asosiy sohalarida kuzatildi, ishlab chiqarishda - 0,4 foiz darajasiga o'sib 7,2 %ga, elektr energiyasi, gaz, issiqlik va suv ta'minoti - 2,6 foiz darajasiga o'sib 8,1% ga yetdi. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarda (6,8 foiz darajasiga o'sib 13,4%ga) va mashinasozlikda (4,7 foiz darajasiga o'sib 1,3%) eng yuqori o'sish kuzatildi. Tog'-kon sanoati sohasida 0,5 foiz pasayish yuz berdi va -1,5% ni tashkil etdi, uning dinamikasi 2016-yilga nisbatan sekinlashdi, 2,7%o'sish "minus" 1,0% gacha pasayishi bilan almashdi.

Davlat korxonalari va ko'p aksiyasi davlatga qarashli bo'lgan korxonalarda 2017 yilda qo'shilgan qiymatning miqdori yiliga 6,5 foizga, kollektiv mulk korxonalarida - 0,6 foizga, aksionerlik jamiyatlarida - 6,6 foizga, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar (shu jumladan, Gonkong, Makao va Tayvandan) - 6,9% ga, xususi korxonalarda - 5,9% ga o'sdi.

Jadval 3.2.2.

### **Qo'shilgan qiymat miqdorining XXR sanoatida o'zgarish dinamikasi**

| Korxona shakllari                                                                    | 2017-yil, % | 2016-yil, % | O'sish, foiz darajasi |
|--------------------------------------------------------------------------------------|-------------|-------------|-----------------------|
| Sanoatda umumiy qo'shilgan qiymat                                                    | 6,4         | 6,0         | +0,4                  |
| Mulkchilik shakliga ko'ra                                                            |             |             |                       |
| Davlat korxonalari va ko'p aksiyasi davlatga qarashli bo'lgan korxonalar             | 6,5         | 2,0         | +4,5                  |
| Kollektiv korxonalar                                                                 | 0,6         | -1,2        | +1,8                  |
| Aksioner korxonalar                                                                  | 6,6         | 6,9         | -0,3                  |
| Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar (shu jumladan, Gonkong, Makao va Tayvandan) | 6,9         | 4,5         | +2,4                  |
| Xususi korxonalar                                                                    | 5,9         | 7,5         | -1,6                  |

Manba:XXR DSQ ma'lumotlari asosida

Geografik bo'linish bo'yicha, Xitoyning sharqiy viloyatlarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 6,7% ni (2016 yildagi 6,2%), markaziy - 7,9% ni (8,0% ga), g'arbda - 8,8% (7,6%ga nisbatan), shimolda - 6,4% ("minus" 0,9%ga nisbatan).

Yil oxiriga kelib, Xitoy sanoatining 41 (87,8%) sohasining 36 foizi (2016 yilga nisbatan 33), jumladan to'qimachilik (4,0%), kimyo (3,8%), metall bo'lmagan mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (3 , 7%), qora metallurgiya (0,3%). Bir qator sanoat tarmoqlari 10% dan oshdi, jumladan umumiy muhandislik (10,5%), avtomobil (12,2%), maxsus texnik (11,8%), elektromexanik asboblari va butlovchi qismlar (10,6%), shuningdek, elektron hisoblash uskunalari, telekommunikatsiya va boshqa elektron uskunalari (13,8%).

**XXR sanoati sohalari o'sish suratlarning taqqoslama jadvali**

| Sanoat sohalari                                                             | 2017-yil, % | 2016-yil, % | O'sish, foiz darajasi |
|-----------------------------------------------------------------------------|-------------|-------------|-----------------------|
| Tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish                                       | 4,0         | 5,5         | -1,5                  |
| Kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish                                       | 3,8         | 9,5         | -5,7                  |
| Nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish                                | 3,7         | 7,7         | -4,0                  |
| Qora metallar ishlab chiqarish                                              | 0,3         | 6,2         | -5,9                  |
| Umumiy mashinasozlik                                                        | 10,5        | 5,9         | +4,6                  |
| Avtomobilsozlik                                                             | 12,2        | 15,5        | -3,3                  |
| Kemasozlik, temir yo'l hamda boshqa transport mahsulotlari ishlab chiqarish | 10,6        | 3,2         | +7,4                  |
| Telekommunikatsiya, kompyuter va boshqa elektr jihozlari ishlab chiqarish   | 13,8        | 10,0        | +3,8                  |
| Issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish va tarqatish               | 7,8         | 4,8         | +3,0                  |

Manba:XXR DSQ ma'lumotlari

2017-yilda XXRda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining turlari bo'yicha 596 ta (71,6%, 4,7 foiz daraja) o'sishi natijasida 2016-yilga nisbatan ishlab chiqarish hajmi ijobiy tendentsiyani ko'rsatdi, shu jumladan elektr energiyasi ishlab chiqarish 5, to'qimachilik mahsulotlari - 9 foiz, avtomobillar - 3,2 foizga, rangli metallning o'n turi - 2,9 foizga, integral mikrosxemalar 18,7 foizga o'sdi.

**2017-yilda Xitoyda sanoat mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish hajmi va o'sishi**

| Mahsulot nomi      | O'lchov birligi     | Soni   | 2016-yilga nisbatan o'sish, % |
|--------------------|---------------------|--------|-------------------------------|
| Birlamchi energiya | mln. t              | 3590   | 3,6                           |
| ko'mir             | mln. t              | 3520   | 3,6                           |
| neft               | mln. t              | 191,51 | -4,1                          |
| tabiiy gaz         | mlrd. kub m         | 148,03 | 8,2                           |
| Shakar             | mln. t              | 14,71  | 1,9                           |
| Ip                 | mln. t              | 40,5   | 8,5                           |
| Mato               | mlrd. m             | 86,81  | -4,3                          |
| Ildiz              | mln. t              | 431,43 | -3,3                          |
| Oltinugurt kislota | mln. t              | 92,13  | 0,9                           |
| Sodali kostik soda | mln. t              | 33,65  | 5,1                           |
| Kimyoviy o'g'itlar | mln. t              | 61,84  | -6,7                          |
| Etilen             | mln. t              | 18,22  | 2,3                           |
| Kimyoviy tola      | mln. t              | 49,196 | 0,7                           |
| Sement             | mln. t              | 2340,0 | -3,1                          |
| Oyna               | mln. standart idish | 7902,4 | 3,5                           |

|                                                     |                |         |       |
|-----------------------------------------------------|----------------|---------|-------|
| Po'lat                                              | mln. t         | 710,76  | 1,8   |
| Temir                                               | mln. t         | 831,72  | 3,0   |
| Temir prokat                                        | mln. t         | 1049,59 | 0,1   |
| 10 turdagi rangli metallar                          | mln. t         | 55,01   | 2,9   |
| Qayta mis (elektrolitik mis)                        | mln. t         | 8,97    | 6,3   |
| asosiy alyuminiy (elektrolitik alyuminiy)           | mln. t         | 33,29   | 2,0   |
| Katta va o'rta o'lchamli traktorlar                 | ming dona      | 418,0   | -32,4 |
| Avtomobillar                                        | mln. dona      | 29,02   | 3,2   |
| Quvvatli uskunalar                                  | mln. kVt       | 118,30  | -9,8  |
| Uy muzlatgichlari                                   | mln. dona      | 85,48   | 0,8   |
| Uy konditsionerlari                                 | mln. dona      | 178,62  | 24,5  |
| Mobil telefonlar                                    | mln. dona      | 1889,82 | 2,2   |
| Mikrokompyuterlar                                   | mln. dona      | 306,78  | 5,8   |
| Telefonga o'rnatilgan sxemalar                      | mlrd. dona     | 156,46  | 18,7  |
| Rangli televizorlar                                 | mln. dona      | 159,33  | 1,0   |
| shu jumladan LCD                                    | mln. dona      | 157,56  | 1,0   |
| Mikrodastur asosida boshqariladigan kommunikatorlar | mln. dona      | 12,41   | -14,9 |
| Elektr energiyasi                                   | mlrd. kVt/soat | 6495,14 | 5,9   |
| IES                                                 | mlrd. kVt/soat | 4662,74 | 5,1   |
| GES                                                 | mlrd. kVt/soat | 1189,84 | 0,5   |
| AES                                                 | mlrd. kVt/soat | 248,07  | 16,3  |

Manba: XXR DSQ ma'lumotlari

Tayyor mahsulotlarning sotilish darajasi 2017-yilda 98,1% ni (-0,7 foiz daraja) tashkil etdi, uning eksporti 10,7% ga o'sdi va 12,32 trln. Yuan (taxminan 1,89 trillion dollar). Sanoat sohasida sanoat salohiyatidan foydalanish darajasi 2017 yil oxiriga kelib 2016-yilga nisbatan 3,7 foiz daraja ortib, 77,0 foizni tashkil etdi.

Yil oxiriga kelib, yirik korxonalarning operatsion faoliyatidan tushgan daromadlar 11,1% ga ortib, 118,8 trln. yuanning daromadi 21,0% ga (7,52 trillion yuan) oshdi. Qarz nisbati 55,5% ni tashkil qildi (0,6 foiz darajaga kamaydi).

Xitoy Xalq Respublikasi uchun qishloq xo'jaligi katta ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, undagi turli xil ekinlarni etishtirilishi orqali, mamlakatning jahon bozorida o'z yetakchilik o'rniga ega ekanligi, barchaga ma'lumdir. Xususan, XXRda 50 turdan ortiq poliz ekinlari, 80 dan ortiq sabzavotlar va 60dan ortiq mevalar yetishtirilib, ularni yetishtirishda esa, mamlakat aholisining deyarli yarmisi banddir.

Undan tashqari, mamlakat don yetishtirishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, u xususan, sholi (guruch) yetishtirish bilan tavsiflanadi.

Xitoy Xalq Respublikasining agrar sohasi, mamlakat iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismidir. Ushbu soha mamlakat aholisining iste'moli uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetqazib beradi. Bugungi kunda agrar sohada mamlakat mehnat resurslarining 45% i jamlangan bo'lib, u mamlakat yengil sanoati uchun xom ashyo yetqazib beruvchi asosiy tarmoq hisoblanadi.

Oxirgi 30 yil ichida aholining qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanib, u ham miqdoran, ham sifat jihatidan sezilarli

darajada oshdi. Mamlakat aholisining bunday o'zgarishlarga yuz tutishiga sabab, undagi olib borilgan agrar islohotlar natijasi bo'ldi.

Hozirda Xitoy, nafaqat, o'zini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlab qolmasdan, balki boshqa davlatlarga ham bu mahsulotlarni eksport qilmoqda. Xitoyda 50 turdan ortiq poliz ekinlari, 100ga yaqin xilma-xil sabzavotlar, 60 turdan ortiq mevalar, 700ga yaqin qo'ziqorin va giyohvand o'tlar mavjuddir. Undan tashqari, mamlakatdagi qulay tabiiy sharoitlar, yerning yetarli darajada namligi, unda qishloq xo'jalik ekinlaridan yiliga ikki va hattoki uch marotaba hosil olish imkonini beradi. Takror ekin ekishning o'rtacha koeffitsienti 1,4 ni, asosiy ekin ekiladigan joylarda esa, 3,3 ni tashkil etadi.

Hozirda, mamlakat bir qator qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda, yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, g'alla, paxta, turli xil o'simlik moyi, choy, guruch, go'sht, tuxum va h.k. Mamlakat qishloq xo'jalik mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha, dunyodagi belgilangan o'rtacha darajadan oshib ketdi. Uning qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi esa, unga bo'lgan umumiy talab va taklif muvozanatiga mosdir va hattoki, mamlakatda hosildorlik yuqori bo'lgan yillarda, umumiy taklifning ortib ketganligini ko'rish mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, Xitoy Xalq Respublikasining qishloq xo'jalik resurslari albatta cheksiz emas. Uning ustiga aholisining yildan-yilga ko'payib borishini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu resurslarning chegaralanganligini yana bir karra guvohi bo'lamiz.

Hozirgi davrda (2016 y.) Xitoy qishloq aholisining soni 613 608 million kishidan iborat bo'lib, u mamlakat aholisining deyarli 44,5% ni tashkil etdi. Ulardan 498 mln. kishi mehnatga layoqatli kishilarni tashkil etib, u mamlakat ishga layoqatli kishilarning deyarli 70% ni tashkil qilmoqda.

Xitoy ekin ekish maydonlarining yalpi hajmi ham yil sayin qisqarib bormoqda va hozirgi kunda uning yalpi hajmi 110 mln. Ga ni tashkil etmoqda. Ekin ekish maydonining Xitoy aholisi jon boshiga to'g'ri kelishi 0,1 ga ni, mamlakat mehnatga layoqatli qishloq aholisining jon boshiga to'g'ri kelishi esa, 0,26 ga ni tashkil etadi<sup>1</sup>.

Don mahsulotlaridan Xitoyda, asosan: bug'doy, guruch, makkajo'xori, batat va soyali no'xotlilar yetishtiriladi. Ularning ichida sholi – asosiy don mahsuloti bo'lib, uning mamlakat don mahsulotlarini yetkazib berishdagi salmog'i 38,7% ga tengdir. Xitoyning asosiy sholikorlik rayonlari Yanszi daryosi havzasi, Janubiy Xitoy va Yunnan-Guyjou tog' yon bag'irlari hisoblanadi.

Don mahsulotlarini yetqazib berishda bug'doyning ham ahamiyati kattadir. Uning don mahsulotlarini yetqazib berishdagi salmog'i 22%ni tashkil etadi. Bug'doy mamlakatning barcha hududlarida yetishtiriladi. Uni yetishtirish rayonlari, asosan, Xenan, Shandun, Anxoy, Shensi, Szyansu, Xubey, Sichuan provinsiyalari hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> <https://knoema.ru/atlas/%D0%9A%D0%B8%D1%82%D0%B0%D0%B9>



Undan keyingi o'rinni makkajo'xori egallab, uning don mahsulotlaridagi salmog'i 25,7% ni tashkil etadi. Makkajo'xori mamlakatning Shimoliy-Sharqiy, Shimoliy va Janubiy-G'arbiy rayonlarida yetishtiriladi.

Mana shu yuqorida ta'kidlagan muammolarga qaramasdan, Xitoy o'z aholisini nafaqat don mahsulotlariga bo'lgan iste'molini, balki oziq-ovqat mahsulotlari bilan ham to'la qondirib kelmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda texnik jihatdan muhim omillar sifatida irrigatsiya, mineral o'g'itlardan foydalanish va urug'lik fondining yangilanishi katta rol o'ynadi. Hozirgi kunda mamlakat agrar sohasida irrigatsiya inshootlaridan foydalanish koeffitsienti o'rtacha 40% ni tashkil qilmoqda, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarga qaraganda 25-30% ga past daraja hisoblanadi.

Undan tashqari, ekin ekish maydonlarini suv bilan ta'minlash ham yildan-yilga muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun, Xitoy hozirda suvni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqmoqda.

Xitoyda g'allachilik uchun ekin ekish maydonlari qisqarib, uning o'rniga texnik ekinlarni ekish maydoni ko'payib bormoqda. Ular jumlasiga paxta, yer yong'oq, raps, kunjut, shakar qamish, choy, tamaki, shoyi va turli xildagi mevali mahsulotlar kiradi. Xitoyning asosiy paxtachilik rayonlari Xuanxe xavzasi, Yanszi daryosining o'rta va quyi oqimi rayonlari va Sinszyan-Uyg'ur avtonom rayonidagi Manas havzasi hisoblanadi. Xitoy paxta yetishtirishda dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi.

Yer yong'oq yetishtiriladigan maydonlar Xitoyning Shandun provinsiyasida, Guandunda, Guansida va Lyaoninda joylashgandir. Raps esa, Xitoyning Yanszi xavzasida va Sichuanda yetishtiriladi. Shakar qamish Janubiy Xitoyda, qand lavlagi esa, Xeylunszyanda, Szilinda va Ichki Mongoliyada yetishtiriladi.

Xitoyda o'rmonlar 128,63 mln.ni tashkil etib, uning yirik massivlari mamlakatning Shimoliy-Sharqida, Kichik a Katta Xingan rayonlarida va Chanbayshin tog'larida joylashgandir. U yerlarda kedr, barglilar, chinor, teraklar, qayrag'och va sada daraxtlari o'sadi. Undan tashqari, ikkinchi darajali hajmdagi o'rmon massivlari Xitoyning Janubiy G'arbiy qismida joylashgandir. Bu yerlarda yunnan qarag'ayzorlari, archa va paxtazorlar mavjuddir. Shu bilan birga, qimmatli daraxtlar hisoblangan greypfrut, pterokarpus, santalinus, kamfora, febe nanmu va qizil daraxtlar ham mavjuddir. Ushbu o'rmonzorlardan olingan yog'ochlardan Xitoy o'zining ichki iste'moli uchun, ya'ni qurilish ishlarida va mebelsozlikda foydalanib kelmoqda<sup>1</sup>.

Xitoyning muhim qishloq xo'jalik tarmoqlaridan biri hisoblangan chorcachilik sohasi asosan, uning Ichki Mongoliyada, TyanShan va Oltoy tog' yon bag'irlarida, Sinszyanda va Sinxay-Tibet tog' yon bag'irlarida rivojlangandir. Mamlakatda 313,33 mln.ga teng qoramol va qo'ylarni boqishga mo'ljallangan cho'lu-biyobonlar va qir- adirlar mavjuddir.

<sup>1</sup>Обзор торговой и сельскохозяйственной политики...- FAO [www.fao.org](http://www.fao.org) wto\_comm Trade\_policy\_brief\_China\_RUS\_final

<sup>1</sup>中华人民共和国城乡规划法 Закон КНР о городском и сельском планировании.

[URL]:[http://www.gov.cn/ziliao/flfg/2007-10/28/content\\_788494.htm](http://www.gov.cn/ziliao/flfg/2007-10/28/content_788494.htm) Дата доступа:21.10.2014

Undan tashqari, Xitoyda 400 turdan ortiq uy hayvonlari mavjud bo'lib, ular jumlasiga cho'chqalar, yirik va mayda qoramollar, yilqilar, eshak va mollar, tuyalar, tovuqlar, g'ozlar, o'rdaklar, quyonlar va boshqalar kiradi. Bu soha 1979-yildan so'ng, ya'ni agrar islohotlar boshlangandan keyin, tez sur'atlarda rivojlana boshladi.

Xitoyning suv mahsulotlari xo'jaligi iqtisodiy islohotlargacha bo'lgan davrda, faqatgina o'zining ichki ko'llari va dengiz oldi tabiiy baliqchiligi bilan shug'ullanib kelgan. Uning chuchuk suv mahsulotlari va dengiz baliq mahsulotlari hajmi uncha katta bo'lmagan. 1978-yildan keyin esa, mamlakatda baliqchilik mahsulotlariga ahamiyat ortib bordi va bunda hovuzlarda baliqlarni ko'paytirishga urg'u berildi. Shular bilan bir qatorda, dengiz va okeanlarda baliqlarni ovlash ishlari ham avj ola boshladi. Ushbu mahsulotlarning o'rtacha yillik ovlash hajmi 2 mln.tonnadan oshib ketdi. Hozirgi kunda mamlakatda 20tadan ortiq okean baliqchilik xo'jaligi kompaniyalari va baliqchilik bo'yicha xorijiy va Xitoy qo'shma korxonalari mavjuddir.

Umuman olganda, Xitoy qishloq xo'jaligi sohasi orasidagi nisbat bir-biridan ancha farqlanadi. Ya'ni, umumiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'simlikshunoslikning salmog'i ancha katta bo'lib, u 47% ni tashkil etadi. Shu bilan birga, undagi chorvachilikning hissasi 17,4% ni, yordamchi xo'jaliklarning hissasi 29,8% ni, baliqchilikning salmog'i 3,1% ni va o'rmon xo'jaligi hissasi-2,5% ni tashkil etadi<sup>1</sup>.

Xitoyda agrar islohotlarni olib borishning asosiy mexanizmlari nimalardan iboratligini tahlil qilganimizda, quyidagilar amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin:

Birinchi bosqichda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash maqsadida, davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish narxlari 18 ta asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlariga narxlar bir muncha oshirildi. Bir vaqtning o'zida, qishloq xo'jalik mahsulotlari va yordamchi xo'jalik mahsulotlarining 65 %i bozor narxlarida sotila boshlandi. Qishloqdarda oilaviy pudrat va ijara munosabatlari aktiv joriy etila boshlandi. Shu bilan birga, taqsimlash tamoyillari ham, o'zgardi.

Ikkinchi bosqichda esa, (bu 1985-yil boshi) davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish tizimida prinsipial o'zgarishlar amalga oshirildi. Markazlashgan sotib olish tizimi oldi-sotdi shartnomalari bilan o'zgartirildi. Shu tariqa Xitoyda davlatga qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetqazib berish shartnomalari tuzila boshlandi. Davlat ekin ekish maydonlari hajmini va ishlab chiqarish hajmlarini rejalashtirishdan voz kechdi. Rejalashtirish asosi bo'lib, ikki va ko'p yoqlama shartnoma - bitimlar hisoblandi.

Natijada, raqobatlashish uchun sharoit tug'ildi. Dehqon xovlisi yoki kooperativlar, erkin holda, davlat tayyorlash tashkilotlari bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish uchun, belgilangan qattiq narxlarda, shartnomalar tuza

---

<sup>1</sup> Sadibekova B.D. Xitoy iqtisodiyoti, o'quv qo'llanma, I-qism, "O'zDAVMATBUOTLITI", T., 93-94 b.

boshladi. Bu ishlarning xarakterli tomoni shundan iboratki, shartnoma tuzishga o'tishda, bug'doy sotib olish hajmi kamaydi.

Agar, 1980-yillarda u 70 million tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1987-yillarga kelib, u 50 million tonnaga kamaygan. Bir vaqtning o'zida, dehqonlar tomonidan bozorda sotilgan donning ulushi 40% ga ko'tarildi. 1987-yilda shartnoma bo'yicha, bozor narxida sotilgan don, umumiy tovar xajmining 65 % ni tashkil etdi. Bozorlarda erkin tarzda poliz ekinlari, meva-sabzovotlar, go'sht, tuxum, balik va dengiz mahsulotlari sotila boshlandi. Ularning narxi talab va taklifdan kelib chiqib, shakllandi.

Umuman, xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, Xitoy agrar islohtlarining xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Islohotlar yuqoridan turib kuch va buyruq bilan joriy qilinishi emas, balki ularni qishloq xo'jaligini quyi qatlamlaridan boshlanganligidadir;

- Islohotlar jamiyat tizimini o'zgartirishni ko'zlamaydi, balki, aksincha, ular kamchiliklar va salbiy hodisalarni yo'qotish yo'li bilan jamiyatni yanayam rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgandir.

Endi Xitoy qishloqlaridagi ishlab chiqarish sharoitlari va qishloq xo'jalik resurslari xolatini taxliliga e'tibor qaratib, undagi hozirgi davr xolati bilan bog'liq bo'lgan mavjud sharoitlar ni jadval 3.2.5. orqali ko'rib chiqish mumkin.

Jadval 3.2.5.

**Xitoy qishloqlaridagi ishlab chiqarish sharoitlari va qishloq xo'jalik resurslari holati (2016 y.)<sup>1</sup>**

|                                                               |           |
|---------------------------------------------------------------|-----------|
| Xitoy Xalq Respublikasida aholining soni (10 mln.kishi)       | 1 382 080 |
| Xitoy qishloq aholisini soni (10 ming.k.)                     | 613 608   |
| Xitoy qishloq xonadonlarining soni (10 ming k.)               | 16584     |
| Xitoy qishloqlaridagi mehnatga layoqatlilar soni (10 ming k.) | 33748     |
| XXR ning ekin ekish maydonining hajmi (1000 ga.)              | 10837     |
| Suv resurslari (100 mln.kub/m.)                               | 26928     |
| Sug'oriladigan maydon hajmi (1000 ga.)                        | 54014     |
| Qishloq xo'jalik texnikasining quvvati (10 ming kvv.)         | 63729     |

Shunga yarasha, Xitoy Qishloq xo'jaligi vazirligi g'alla hajmini oshirish bo'yicha reja ishlab chiqib, uni bajarish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirdi va 2007-yilda mamlakatda 501 mln. tonna g'alla yetishtirildi.<sup>2</sup>

Shuni ta'kidlash joizki, 1979-2016 yillarda agrar sektorda Yalpi ichki mahsulotning o'rtacha o'sishi 5,1 % ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich esa, uning dunyo darajasidan ancha yuqoridir.

Xitoyda agrar ishlab chiqarishning yalpi ichki mahsulotdagi qiymati 16,4% ni, undagi qishloq mehnat resurslarining salmog'i esa, 42% ni tashkil qiladi. Mana shu ko'rsatkichlarni boshqa mamlakatlar bilan taqqoslasak, masalan, AQSh da ular 1,6% ni va 2,6% ni, Yaponiyada esa, 1,7% va 4,8 % ni tashkil qilmoqda. Ammo, shunga qaramay, Xitoy davlati bugungi kunda, o'z kuch va qudratiga tayangan

<sup>1</sup>Китай: факты и цифры, 2016 г., Пекин, 2017, с.12

holda, mamlakat aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini asosan qondirmoqda.


BMT ning (FAO) Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti xulosasiga ko'ra, mamlakatning oziq-ovqat ta'minoti xavfsizligi rezervi, uning mamlakat iste'mol darajasining 17-18% ni tashkil qilishi lozim. Xitoyda oziq-ovqat iste'molining yillik miqdori 480 mln. tonna bo'lsa, FAO tashkilotining ko'rsatmasiga binoan, mamlakatning don zahirasi 81,6 - 86,4 mln. tonnani tashkil etishi lozim. Bu ishlarni amalga oshirish uchun esa, Xitoy hukumati, qishloq xo'jaligida agrotexnikaning ilmiy-texnikaviy yutuqlaridan foydalanishni, bu sohaga ko'proq turli xil pul vositalarini jalb qilishni (assignatsiya) va agrar sektorga xizmat ko'rsatish hamda uni tashkil etishning turli shakllarini joriy qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mana shu islohotlar natijasida, hozirgi davrda, mamlakatdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish asosan, bozor orqali tartibga solinmoqda. Shu bilan birga, iste'mol va ishlab chiqarish omillarining ta'minotida ham bozor mexanizmlari ustunlik qilmoqda. Aynan shu qishloqlarda olib borilgan islohotlar mamlakat qishloq xo'jaligini rivojlanishini qo'llab quvvatlamoqda.

Soha mutaxassislarining fikricha, 2030-yilga kelib, Xitoy aholisining soni 1,6 mlrd. kishiga yetadi. Mana shu aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun esa, 681,8 mln.tonna don mahsulotlari kerak bo'ladi. Bu esa, mamlakatda g'alla o'stirishni 1,20% ga ko'paytirishni talab qiladi. Mana shularni e'tiborga olgan xolda, Xitoy hukumati bu yo'nalishda ko'pgina chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqda.

Diagramma -3.2.2.

### **Xitoyda asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish dinamikasi (1979-2018 yy.)**



Manba: Обзор торговой и сельскохозяйственной политики...- FAO [www.fao.org](http://www.fao.org) wto comm Trade\_policy\_brief\_China\_RUS\_final va Xitoy Qishloq xo'jalik Vazirligining 2017 y. ma'lumotlari asosida tuzildi.

Xususan, oxirgi 30 yil ichida mamlakatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini zahirasi va ular bilan muomola qilish sharoitlari yaxshilandi. Mamlakatda 1990-yildan boshlab, oziq-ovqat zahirasi tizimini tuzdi va uning hajmi hozirgi kunda 40 mln. tonnani tashkil etmoqda. Mahalliy don rezervlari esa, 10 mln. tonnadan iboratdir. Undan tashqari, xitoy dehqon xonadonlari zahiralarida 120 mln. tonna g'alla mavjuddir.

Chorvachilikda ham, ko'p hollarda, qo'l kuchi mehnatiga tayanib, ishlar olib borilar va bu xolatlar hattoki, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Mana shu

xolatlarini tushungan holda, Xitoy hukumati qishloq xo'jaligini ekstensiv tarzda rivojlantirish bilan birgalikda, uni intensiv, ya'ni ilmiy-texnikaviy jarayon yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish orqali rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Davlat tomonidan dehqonlarning mehnat qilishdan manfaatdorligini oshirish uchun bir qator tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, g'allaga kafolatli narxni belgilash siyosati ishlab chiqildi. Bu esa, o'z navbatida, g'allaning narxini juda ham past tushib ketishini oldini oladi. Undan tashqari, davlat tomonidan yana oziq-ovqat rezervi tizimi ishlab chiqilib, bunda omborlardagi saqlangan g'alla rezervi bozorlardagi g'alla narxini muvozanatini barqarorlashtirishga va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Xitoy qishloq xo'jaligida ilmiy-texnikaviy jarayon, asosan, quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

1. Qishloq xo'jalik fondini yig'ish va tasniflashda, ya'ni o'simlikshunoslik va chorvachilikda, ularning miqdorida hamda xilma-xilligida muhim rivojlanish va ilgarilash yuz berdi;

2. Mamlakatga chorva mollarining yangi nasllari va katta miqdorda o'simliklarning yangi turlari olib kelindi hamda keng miqyosda ishlab chiqarishga joriy etildi. Undan tashqari, Xitoyning o'zida ham katta miqdorda o'simliklarning va chorva mollarining yangi turlari yaratildi. 1949 yildan keyin, mamlakatda 5 marotaba asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining urug'lik fondi yangilandi. Gibriddi guruch 227 mln. mu maydonga ekildi. (1 mu = 0,0667 ga). Bu ko'rsatkich bo'yicha Xitoy dunyoda oldingi qatorlardan joy olmoqda.

Shular bilan bir qatorda, mamlakatda hosildorligi va sifati yuqori bo'lgan sholi, bug'doy, proteinli makkajo'xori, moyli makka, rapsning yangi turlari, transgenli gibriddi paxta va boshqalarning oliy navlari ekish uchun joriy qilindi. Ayniqsa, transgenli xashoratga chidamli paxtaning ikki valentli navi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etila boshlandi. Ushbu navli paxta, mamlakat paxta ekish maydonlarining 40% ga ekildi va oxirgi 5 yil ichida aynan mana shu navni yetishtirish natijasida dehqonlarning olgan daromadlari 5 mlrd.yu. ga ko'paydi.

Ekin ekish maydonlarini kapital aqrotexnik ko'rikdan o'tqazish sohasida ham mamlakat katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. O'simliklarni kultivatsiya qilish va chorvani boqishning standart usullari keng tarqala boshladi. Ayniqsa, qizil va sariq yerlarni yaxshilash hamda yer qatlamlarining eroziyalanishini nazorat qilish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. Bug'doy va sholini ekish texnikasi takomillashtirildi. O'simliklarni muvozanatli mineral o'g'itlar bilan to'yintirish texnikasi joriy etila boshlandi. Undan tashqari, 100 mln. mu maydonda, 40 dan ortiq ekin turlarini ekishda va yetishtirishda plastik qoplamalar bilan ishlash texnikasi qo'llanilmoqda.

Biroq, qishloq xo'jaligida ilmiy-texnikaviy jarayon natijalarini qo'llashda Xitoy va rivojlangan mamlakatlar orasida xali ham katta farq mavjuddir. Xitoy qishloq xo'jaligida ilmiy-texnikaviy omillar salmog'i 40% ni tashkil etadi. Bu esa, rivojlangan mamlakatlardagidan 30% ga kamdir. Xitoyning yalpi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan ilmiy izlanuvlarga ketgan sarf xarajati 0,53% ni tashkil etadi. Bu nisbat rivojlangan mamlakatlardagi o'rtacha darajadan, ya'ni 2,3% dan ancha

pastdir. Mamlakatda har 10 ming dexqonlarga atigi 15 ta agrotexnik mutaxassisi to'g'ri keladi. Bu esa, Xitoyda qishloq xo'jaligini ilmi-texnik darajasini ko'tarishda juda ham katta foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

2015 yilda oziq-ovqat mahsulotlariga belgilanlangan narxning oshishi natijasida, hukumatning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga bo'lgan e'tibori yanada ortdi. Hozirgi kunga kelib, Xitoy bu yo'nalishlarda islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqdi. Ular, ayniqsa, qishloq iqtisodiyotini doimiy ravishda rivojlantirishga va ularning xo'jalik mexanizmini o'zgartirishga qaratilgandir.

Qishloq iqtisodiyotini tartibga solishda xitoy hukumati "ko'proq berish, kamroq olish va katta erkinlik berish" tamoyillarini ishlab chiqdi. Ushbu tartibga solish kursi dehqonlarni ish bilan ta'minlash sohasini kengaytirishga, ilmiy-texnikaviy jarayonni tezlashtirishga, qishloqlarda islohotlarni chuqurlashtirishga, sarmoyalarni ko'paytirishga, qishloq xo'jaligiga kafolatlar berish va uni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgandir.

Ushbu olib borilayotgan kursning maqsadi, avvalambor, qishloq va shahar orasidagi tafovutlarni kamaytirish, dexqonlar va shahar aholisini daromadlari orasidagi farqni yo'qotishdan iboratdir. Bunga misol tariqasida, 2013-yilda Xitoy shahar va qishloq aholisini daromadlari orasidagi farqni taxlil qilsak bo'ladi. Ushbu farq 2,3:1 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich ko'p hollarda kamaytirib ko'rsatiladi. Chunki, Xitoy davlati iqtisodiy jihatdan bir tekis rivojlangan hudud emasdir. Uning ko'pgina qishloq joylarida dehqonlar oladigan daromadlari miqdori hali ham juda pastdir.

Mana shu oradagi farqni kamaytirish yoxud uni yo'qotish uchun, hukumat quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'ydi:

Birinchidan, 20 yil ichida qishloqlarda aholi daromadini o'rtacha jon boshiga 8000 yuanga yetqazishga erishish. Oxirgi 20 yil ichida, ya'ni 1980 yildan to 2000 yillargacha dehqon oilasining aholi jon boshi to'g'ri keladigan daromadi 4,5 baravarga oshdi va u 2000 yilda 2253 yuanni, 2005 yilda 3255 yuanni, 2007 yilda esa 4140 yuanni tashkil qildi<sup>1</sup>;

Ikkinchidan, butun kuch-g'ayratni to'plagan holda, g'alla yetishtiradigan rayonlarga uni yetishtirishda yordam ko'rsatish va uning natijasida qishloqlardagi dexqonlar daromadining o'sishiga ta'sir ko'rsatish. Mamlakatda, 2004 yildan boshlab, bir qator davlat bazalarini ta'kil etish loyihasi tuzildi. Ushbu loyiha bo'yicha, Xitoyda yirik g'alla yetishtiruvchi uezdlar va davlat fermalari tanlab olinib, ularda yuqori navli bug'doy va don mahsulotlari yetishtirilmoqda. Bu yerlarni sotib olish uchun davlat tomonidan maxsus fondlar tuzilgan bo'lib, ular yuqori hosil beruvchi, barqaror hosilli maydonlarga aylanmoqda. Bu esa, mamlakat g'alla yetishtirish salohiyatini oshirishga yordam beradi;

Uchinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatini oshirish bo'yicha har tomonlama chora-tadbirlar qabul qilindi. G'alla yetishtirish salohiyatini saqlash va uni oshirish uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini yuqori mehnat unumdorligi talabiga asoslanib, kengaytirish va chuqurlashtirish lozim. Shu bilan birga, qishloq

---

<sup>1</sup>[www.stats.gov.cn](http://www.stats.gov.cn)

xo'jaligida industrial va intensiv uslublarni qo'llash va uning samaradorligini oshirishda va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rentabelligini oshirishda tolmay yangi imkoniyatlarni ishga solish kerakdir;

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligini rivojlanishini industrial yo'lga qo'yish, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash. Xitoy hukumati qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini industrialashtirish borasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlab, bosh korxonalarga jalb qilinayotgan sarmoyalarni ko'paytirishni mo'ljallamoqda;

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni kuchaytirish va ilg'or agrotexnikani joriy qilish lozim. Buning uchun, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ilmiy izlanishlar ehtiyojiga ketadigan assignatsiyalarni sezilarli darajada ko'paytirish va agrotexnika yutuqlarini ishlab chiqarish kuchlariga aylantirish uchun sarflanadigan pul vositalarini ko'paytirish ko'zda tutilmoqda;

Oltinchidan, urbanizatsiya sur'atlarini tezlashtirish, ortiqcha qishloq ishchi kuchi oqimini shaharlar xo'jalik strukturasi joylashishini qo'llab-quvvatlash lozimdir;

Ettinchidan, mamlakat ekin ekish maydonlarini saqlab qolish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tarkibini tartibga solishni qo'llab-quvvatlash, qashshoq qishloqlarga maqsadli yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi davrda XXR qishloq xo'jaligi statistikasi quyidagi ko'rsatkichlardan iboratligini ko'rishimiz mumkin (3.2.6.-jadvalga qaralsin).

Jadval - 3.2.6

#### **XXR qishloq xo'jaligidagi asosiy ko'rsatkichlar (2016-2018 yy.)**

|    | ko'rsatkichlar                                                                                                          | 2016              | 2018        |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|-------------|
| 1. | Qishloq xo'jaligi yerlari hajmi                                                                                         | 5 277 330(kv.km.) | -           |
| 2. | Kishi jon boshiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligidagi qo'shimcha qiymat 2010-yildagi doimiy narhlarda (AQSh. doll.) | 3 442             | 3 830       |
| 3. | Oziq-ovqat yetishtirish indeksi                                                                                         | 139,0             | 140,1       |
| 4. | Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish indeksi                                                                        | 130,4             | 131,2       |
| 5. | O'simlikshunoslik mahsulotlarini yetishtirish indeksi                                                                   | 144,2             | 144,6       |
| 6. | Don mahsulotlarini yetishtirish indeksi, tonna m.                                                                       | 611 534 166       | 618 030 997 |
| 7. | Don mahsulotlari hosildorligi, 1 Ga dan kg.                                                                             | 6 052             | 6 093       |
| 8. | O'g'itlar iste'moli 1 Ga ekin ekish maydoniga kg                                                                        | 503,3             | 505,7       |
| 9. | Don ekishga mo'ljallangan ekin ekish maydonlari Ga                                                                      | 100 987 257       | 103 932 146 |

**Manba:** [knoema.ru](http://knoema.ru) atlas; Китай ma'lumotlari asosida tuzildi.

2017-yilda Xitoyning qishloq xo'jaligida, ayniqsa don tarkibida, vaziyat yaxshilandi. Don ishlab chiqarish 0,3% ga o'sdi (617,91 mln. tonna, 2016-yilga nisbatan, 1,66 mln. tonna). Shu bilan birga, yozgi hosilning umumiy hajmi 140,31 mln. tonnani (+0,8%), shu jumladan, erta (erta) guruchni ishlab chiqarish -31,74 mln. tonnani (-3,2%) tashkil etdi. Kuzgi hosilning umumiy hosil miqdori 0,4% ga



oshib 445,85 mln. tonnaga, shu jumladan, guruch -0,7% ga - 208,56 mln. tonnaga, bug'doy 0,7% ga -129,77 mln. tonnaga va makkajo'xori 1,7% gacha kamayib, 215,89 mln. tonnani tashkil etdi. Paxta ishlab chiqarish 5,49 million tonnaga etdi. (+3,5%). Yog 'ishlab chiqarish (+2,8%, 37,32 mln. tonna) va choy barglari (+6,0%, 2,55 mln. tonna) bir oz o'sdi.

Chorvachilikning ijobiy dinamikasi qayd etildi. O'tgan yil davomida 84,31 mln. tonna go'sht (parrandalar, shu jumladan parrandalar) ishlab chiqarildi, bu 2016-yilga nisbatan 0,8% ga ko'pdir. Shu bilan birga, cho'chqa go'shti ishlab chiqarish 0,8% ga 53,40 mln. tonnaga, 1,3% gacha 7,26 mln. tonna, qo'ziga -1,8% gacha 4,68 mln. tonna, parranda go'shti 0,5% ga 18,97 mln. Bundan tashqari, 35,45 million tonna sut (-1,6 foiz) va 30,70 million tonna tuxum (-0,8 foiz) ishlab chiqarildi.

Suv mahsulotlar ishlab chiqarish 69,38 mln. tonna (+0,5%), shu jumladan, 52,81 mln. tonna (+2,7%), baliq mahsulotlari 5,8% ga (16,56 million tonna).

2017-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tashqi savdosi 7,9 foizga oshib, 199,24 milliard dollarni tashkil etdi, shu jumladan, eksport - 75,1 milliard dollar (+2,9 foiz), import - 124,1 milliard \$ (+11,2%). Salbiy saldo miqdori 26,9% ga o'sib, \$ 49 mlrd., Eksport umumiy hajmida 3,32%, qishloq xo'jaligi mahsulotlari - 6,74% ni tashkil etdi<sup>1</sup>.

Jadval - 3.2.7

### 2010-2017-yillarda Xitoy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tashqi savdo aylanmasi

| Yil  | Qiymat, mlrd. AQSH dollari |         |        |               | O'sish, %       |         |        |               |
|------|----------------------------|---------|--------|---------------|-----------------|---------|--------|---------------|
|      | Tovar aylanmasi            | Eksport | Import | Savdo balansi | Tovar aylanmasi | Eksport | Import | Savdo balansi |
| 2010 | 120,8                      | 48,9    | 71,9   | -23,0         | 31,2            | 24,7    | 37,8   |               |
| 2011 | 154,0                      | 60,1    | 93,9   | -33,8         | 27,5            | 23,0    | 30,6   | 46,9          |
| 2012 | 173,9                      | 62,5    | 111,4  | -48,9         | 13,0            | 4,0     | 18,7   | 44,7          |
| 2013 | 185,0                      | 67,1    | 117,9  | -50,8         | 6,3             | 7,2     | 5,8    | 3,9           |
| 2014 | 192,8                      | 71,3    | 121,5  | -50,2         | 4,2             | 6,3     | 3,0    | -1,2          |
| 2015 | 186,1                      | 70,2    | 115,9  | -45,7         | -3,5            | -1,6    | -4,6   | -9,0          |
| 2016 | 184,6                      | 73,0    | 111,6  | -38,6         | -1,6            | 3,3     | -4,5   | -15,5         |
| 2017 | 199,2                      | 75,1    | 124,1  | -49           | 7,9             | 2,9     | 11,2   | 26,9          |

Manba:XXR DSQ ma'lumotlari

Shuni ta'kidlash lozimki, 2017-yilda don mahsulotlari eksporti 800 million dollar (+57,8 foiz) miqdorida 1,62 million tonna (+250 foiz), import - 25,6 million tonna (+16,4 foiz) 6,49 milliard dollar (+13,7 foiz) miqdorida belgilandi. Savdo balansida don savdosi 5,690 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Buni biz Jadval 3.2.8. orqali tahlil etamiz.

O'z navbatida 3.2.8.- jadval ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Xitoyning don mahsulotlari importiga bo'lgan qaramligi hukumat tomonidan oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid sifatida qaraladi va bu ko'rsatkichlar yuqori darajada qolishda davom etmoqda.

<sup>1</sup> Обзор торговой и сельскохозяйственной политики...- FAO [www.fao.org](http://www.fao.org) wto\_comm Trade\_policy\_brief\_China\_RUS\_final



**Don mahsulotlari import va eksporti haqida ma'lumot<sup>1</sup>**

| Mahsulot nomi | Eksport       |           | Import        |           |
|---------------|---------------|-----------|---------------|-----------|
|               | Soni, ming t. | O'sish, % | Soni, ming t. | O'sish, % |
| Guruch        | 1 196,78      | 147,0     | 3 993,1       | 13,0      |
| Makkajo'xori  | 85,1          | 2086,0    | 2 825,6       | -10,8     |
| Bug'doy       | 9,97          | -5,4      | 4 296,5       | 27,3      |
| Arpa          | 0,062         | 77,0      | 8 863,5       | 77,1      |

2017-yilda XXR xizmat ko'rsatish sohasidagi qo'shimcha qiymat 42,70 trln.yuanga (+8,0%) yetib, mamlakat YaIM 51,6%ni tashkil qildi. Mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda xizmatlar sohasining salmog'i 58.8% ga teng bo'lib, u sanoat ishlab chiqarish sohasini salmog'iga nisbatan, 22,5 pp.ga kattadir.

Endi, xizmatlar sohasini tahlil qiladigan bo'lsak, unda amalda xizmatlar sohasining deyarli barchasi, o'tgan yilga nisbatan, o'sganligini namoyish etdi (bundan, ko'chmas mulk va moliyaviy sektorlar mustasno). Mazkur davrda xizmat ko'rsatuvchi yangi korxonalar soni 4,79 mln.ga yetib (+7,5%), u yangi tashkil etilgan umumiy korxonalar sonining 78,9% ni tashkil etdi. Ushbu sohadagi mavjud asosiy fondlarga qo'yilgan sarmoyalar 9,5% ga ko'payib, uning hajmi 37,50 trln.yuanni (bu asosiy fondlarga qo'yilgan umumiy investitsiyalarning 59,5%i demakdir) tashkil etdi, bu esa, sanoatga qo'yilgan investitsiyalardan 6,3 p.p.ga ko'pdir.

Axborotlarni uzatish, dasturiy ta'minot va axborot texnologiyalari, tijorat xizmati va ijara, ilmiy ishlanmalar va texnologik xizmatlar sohalari rivojlanishning yoqori dinamikasini ko'rsatdi. Ularning o'sish sur'atlari 15,8%ga yetdi va tarmoq bo'yicha o'rtacha 7,8 p.p.ga o'sdi.

Ayniqsa, xitoy kasbiy muassasalari tomonidan "to'rt xitoy kashfiyoti", ya'ni: tezyurar temir yo'llar, mobil to'lov tizimi, elektron savdo va qo'shma iste'mol iqtisodiyotiga alohida e'tibor berilmoqda. Xitoyning yetakchi operatorlari o'z faolligini, nafaqat, ichki bozorda, balki, tashqi bozorlarda ham o'z "qiz" bo'linmalarini tashkil etib, ularda operatsion faoliyat bo'yicha to'plangan tajribalarni o'rtoqlashmoqdalar. Xususan, Xitoyning "Alipey" kompaniyasi Hindistonda, "Alibaba Grupp" kompaniyasi Tailandda, muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganligi va xitoyning "Mobike" xoldingi xalqaro ekspertlarning saholashicha, veloshering amaliyotini keng tarqatganligi uchun, 2017-yilda dunyoni o'zgartirgan 50 ta kompaniyaning biri deb tan olindi. Undan tashqari, qo'shma iste'mol iqtisodiyoti chegarasida, karshering ommaviy tus olib ketdi va ular bo'yicha tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2016-yilga nisbatan 42,6%ga o'sdi.

Shular qatorida, mamlakatda "yangi zamonaviy xizmatlar"<sup>2</sup> ham tez sur'atlarda rivojlanib bordi, jumladan, internet va raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq

<sup>1</sup> Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики 2017 году, Пекин, 2018 г.с.19-20.

<sup>2</sup> "yangi zamonaviy xizmatlar" turiga qiyidagilar kiradi: omborxonalarga joylashtirish; pochta xizmati; telekommunikatsiyalar, tele, radio va sputnik orqali ko'rsatish xizmatlari; internet va u bilan bog'liq xizmatlar;

xizmatlar. Internet tarmog'ining bir yillik chakana tovar aylanmasi 32,2%ga o'sdi, uning umumiy chakana savdodagi ulushi esa, 12,6 dan 15,0%gacha oshdi.

**Xitoyning transport sohasi** – uning iqtisodiyotini asosiy sektorlaridan va iqtisodiy o'sish omillaridan biri bo'lib, 2017-yilda ular mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida va ichki mintaqalararo aloqalarni mustahkamlashda sezilarli rol ni o'ynadi. 2017-yil natijasiga ko'ra, uning milliy yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 4,5%ni tashkil etdi.

2017-yilning soha ko'rsatkichlariga binoan, mamlakatdagi yuk tashish hajmi 9,3%ga ko'payib, 47,15 mlrd.tonnani tashkil etdi, shu jumladan, temir yo'llarda– 3,7 mlrd.tonnani (+11%), avtomobillarda–36,79 mlrd.tonnani (+10%), havo transportida – 7,05 mln.tonna (+6,0%), suv transportida – 6,65 mlrd.tonnani (+4%) tashkil etdi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, XXRda passajirlarni tashish bo'yicha ham, hozirgi holatni bilish uchun quyidagi jadval 3.2.9.ga murojaat qilamiz.

Jadval 3.2.9.

**XXRda passajir va boshqa transportlar orqali odamlarni tashish hajmi va 2017 yilda ularning o'sish sur'atlari**

| Ko'rsatkichlar                           | O'lchov birligi | Absolyut qiymati | 2016 yilga nisbatan o'sish, %da |
|------------------------------------------|-----------------|------------------|---------------------------------|
| <b>Passajir tashishning umumiy hajmi</b> | Mrld.k.         | 18,50            | -4%                             |
| Temir yo'l transporti                    | Mrld.k.         | 3,08             | 9%                              |
| Avtomobil transporti                     | Mrld.k.         | 14,59            | -6%                             |
| Suv transporti                           | Mln.k.          | 280,0            | 4%                              |
| Havo transporti                          | Mln.k.          | 550,0            | 13%                             |
| <b>Passajir aylanmasi</b>                | Mrld.k./km      | 3284,75          | 5%                              |
| Temir yo'l transporti                    | Mrld.k./km      | 1345,69          | 7%                              |
| Avtomobil transporti                     | Mrld.k./km      | 980,00           | -5%                             |
| Suv transporti                           | Mrld.k./km      | 7,78             | 8%                              |
| Havo transporti                          | Mrld.k./km      | 951,28           | 13%                             |

Manba: XXR Davlat statistika boshqarmasi

Endi, yuk tashishga kelsak, transportda yuk tashishning umumiy hajmida asosiy ulushga avtomobilda yuk tashish ega bo'lib, uning ulushi 78%ni tashkil etdi.

Shuni qayd etish lozimki, Xitoy hukumati transport majmuasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari chegarasida, aynan, transport infratizilmasini rivojlantirishga qo'yilayotgan sarmoyalarga katta ahamiyat berishmoqda. Ushbu maqsadlarga yo'naltirilgan sarmoyalar hajmi 320 mlrd,doll.ni tashkil etgan, 2018-yilda esa, bu mablag' 340 mlrd,doll.ga yetdi.

**Xitoy aloqa va telekommunikatsiya xizmatlari** sohasining rivojlanishi quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi (jadval 3.2.10.).

dasturiy ta'minot va axborot texnologiyalari; ijara;tijorat xizmatlari; ishlanmalar va sinov o'tqazish bilan bog'liq xizmatlar; maxsus texnologiyalar bilan bog'liq xizmatlar; ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanish va joriy etish.

<sup>1</sup> Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.21-23.

**2017-yilda Xitoy aloqa va telekommunikatsiya xizmatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari**

| <b>Xizmatlar</b>                                           | <b>O'lchov birligi</b> | <b>ko'rsatkich hajmi</b> | <b>o'sish, (%)</b> |
|------------------------------------------------------------|------------------------|--------------------------|--------------------|
| Pochta-telegraf operatsiyalari xizmatlarini umumiy qiymati | Mrld.yuan              | 662,26                   | 3,1                |
| Pochta xizmatlarini umumiy qiymati                         | Mrld.yuan              | 976,37                   | 32,0               |
| Pochta xizmatlaridan daromad                               | Mrld.yuan              | 65,39                    | 20,6               |
| Pochta korrespondensiyalarini umumiy hajmi                 | Mrld dona              | 3,15                     | -13,0              |
| Posilkalar                                                 | mln. dona              | 26,58                    | -4,9               |
| ekspres-korrespondensiyalar                                | Mrld dona              | 40,06                    | 28,0               |
| ekspres-korrespondensiyalar xizmatidan tushadigan daromad  | Mrld.yuan              | 495,7                    | 24,7               |
| Pul ot'qazmalari                                           | Mrld.yuan              | 374,3                    | -35,5              |
| Gazetalarga yozilish                                       | Mrld.yuan              | 17,71                    | -1,6               |
| Jurnallarga yozilish                                       | Mrld.yuan              | 0,79                     | -7,0               |
| Statsionar telefon egalari                                 | mln. k.                | 194,0                    | -20,6              |
| Uyali telefon egalari                                      | mln. k.                | 1418,2                   | 6,0                |
| 4G standartidan foydalanuvchilar                           | mln. k.                | 997,0                    | 31,0               |
| Tezkor internet foydalanuvchilari soni                     | mln. k.                | 772,0                    | 61,5               |

Manba: XXR sanoat va axborot vazirligi hamda XXR Davlat pochta boshqarmasi ma'lumotlari.

Xitoyda internetdan foydalanuvchilar soni 2017-yilda 40,7mln.k.ga ko'payib, ularning umumiy soni esa, 772 mln.k.ni tashkil etdi, shu jumladan, mobil internetdan foydalanuvchilar soni – 753 mln.k. (+57,3 mln.k.) dan iborat bo'ldi. .

**Xitoy turizm sohasining** rivojlanish holatini XXR turizm ishlari bo'yicha Davlat boshqarmasi ma'lumotlar asosida bilib olamiz. Mazkur ma'lumotlarga binoan, 2017-yilning 1-yarmida Xitoy ichki turizmi chegarasida 2,54 mlrd.kishi/maritabani (2016-yilga nisbatan, +13,5%ga o'sgan) tashkil etgan. Mazkur faoliyat turidan tushgan daromad 2,17 trln.yuandan iborat bo'ldi (+15,8%).

**Kirish turizmi.** Xitoyga kelgan turistlar soni 2017-yil bo'yicha 135 mln.kishini tashkil etib, undan tushgan daromad 120 mlrd.doll.dan iborat bo'lgan.

**Chiqish turizmi** – Mamlakatdan chiqqan turistlarning 2017-yildagi soni 5,1%ga o'sib, u 130 mln.k.ni tashkil etgan, bunda Evropa davlatlariga chiqayotgan turistlar oqimining ahamiyatli tarzda (+65%) o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

XXR Davlat turizm ishlari bo'yicha bosqarma va Xitoy turizm akademiyasining qo'shma bayonotiga binoan, turizmdan tushgan daromad 2017-yilda 5,3 trln.yuanni (802 mlrd.doll.) ni tashkil etib, 2017-yilga nisbatan, 13%ga o'sgan. Ichki va tashqi turizm hajmi esa 2017-yilda 5,1 mlrd.kishi/marta (+11%)ga yetgan<sup>1</sup>.

2017-yilda XXR ko'chmas mulk sektoridagi holat turli segmentlarda bir xil emasligi bilan tavsiflandi. Yil oxiriga kelib esa. ko'chmas mulk sektorining mamlakat YaIMdagi salmog'i 6,5%ni tashkil etdi. Mazkur sektorni rivojlantirishga

<sup>1</sup> Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.37-38.

kiritilgan investitsiyalar 10979,9 mlrd.yuanni tashkil etib (+7,0%), shu jumladan, sharqiy mintaqada – 5802,3 mlrd.yuanni (+7,2%), markaziy mintaqada – 2388,4 mlrd.yuanni (+11,6%), g‘arbiy mintaqada–2387,7 mlrd.yuanni (+3,5%), shimoliy-sharqiy mintaqada – 401,5 mlrd.yuanni (+1,0%) tashkil etdi. XXR ko‘chmas mulk sektori ob‘yektlaridagi qurilish ishlarini olib borishni umumiy hajmi 7814,84 mln.kv.m. (+3,0%) dan iborat bo‘ldi<sup>1</sup>.

XXR Davlat statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi davrda mamlakatda 90 mingdan ortiq rieltorlik kompaniyalari ro‘yxatdan o‘tqazilgan. Xitoy ko‘chmas mulk bozori ishtirokchilari assotsiyasiyasining bahosiga ko‘ra, ulardan, amalda to‘liq faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 10 ming atrofida ekan. 2017-yilda mamlakatdagi “birinchi chiziqdagi” shaharlardagi uy-joylar (kvartira) narhlari o‘shishni davom ettirdi, bu esa, mahalliy organ hokimiyatlarini bu yo‘nalishdagi mavjud cheklovlarni yanada kengaytirishga majbur qildi.<sup>2</sup>

Masalan, 2017-yilning fevral oyida mamlakatning bir qator yirik shaharlarida yolg‘iz yashaydigan va ajrashgan fuqarolar uchun yangi uy (xonadon) sotib olish bekor qilindi. Jismoniy shaxlar uchun uy sotib olishda o‘zi yashab turgan joyida 2 yil mobaynida yashaganligi to‘g‘risida tasdiqlovchi hujjat va ipoteka badali (vznosi) 60%gacha ko‘paytirildi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bunda asosiy urg‘u yangi uy-joyni sotib olishga cheklov qo‘yishga berildi va mana shu ob‘yektlarga egalik qilishning minimal muddati 2 yildan 5 yilgacha deb belgilandi. Quyida biz 2017-yil bo‘yicha tijorat qurilishi uchun moliyaviy manbalar tarkibini ko‘rib chiqamiz (jadval 3.2.11.)

Jadval 3.2.11.

#### 2017-yildagi tijorat qurilishi moliyaviy manbalarining tarkibi

| Moliyalashtirish manbalari                    | summa,<br>mlrd.yuan. | Umumiy moliyalashtirish<br>hajmidagi ulushi, %da | o‘shish sur‘ati,<br>% |
|-----------------------------------------------|----------------------|--------------------------------------------------|-----------------------|
| Bank kreditlari                               | 2524,2               | 16,2                                             | 17,3                  |
| Xorijiy investitsiyalar                       | 16,8                 | 0,1                                              | 19,8                  |
| Qurilish kompaniyalarining<br>o‘z mablag‘lari | 5087,2               | 32,6                                             | 3,5                   |
| Boshqa manbalar:<br>Shu jumladan              | 7977,0               | 51,1                                             | 8,6                   |
| Oldindan to‘lash                              | 4869,4               | 31,2                                             | 16,1                  |
| Inoteka kreditlari                            | 2390,6               | 15,3                                             | -2,0                  |
| Jami                                          | 15605,3              | 100                                              | 8,2                   |

Manba: XXR Davlat statistika boshqarmasi ma’lumotlari

Xullas, 2017-yilda Xitoyni 15ta “birinchi chiziqdagi” shaharlarida, “ikkinchi chiziqli” uning yetakchi shaharlarida hamda mamlakatning 70ta yirik va o‘rta shaharlarida ko‘chmas mulk narxini sekinlashuvi yuz berdi. Keyinchalik, bu vaziyat yanada chuqurlashib bordi va bugungi kunga kelib, mamlakatdagi yangi qurilgan uylarning katta qismi ularning narxi aholi imkoniyatlariga nisbatan, balanligi sababli bo‘sh qolmoqda.

<sup>1</sup> Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.38-39.

<sup>2</sup> O‘sha joyda.c 40-41

## **4-BOB: XITOYDA BANK, SUG'URTA SOHALARI VA BIRJA SAVDOSINI TARTIBGA SOLISH XUSUSIYATLARI**

### **4.1. Xitoyda bank, sug'urta sohalarini va birja savdosini davlat tomonidan tartibga solishning normativ-huquqiy bazasi**

Xitoyda bank sektorini faoliyatini asosiy qonunlar orqali tartibga solishda quyidagi qonunlar ahamiyatli rol o'ynaydi: "Xitoy Xalq Banki to'g'risidagi" qonun hisoblanadi. (mazkur qonun 27.12.2003 yildan boshlab yuritiladi); "Banklarni tartibga solish va nazorat qilish to'g'risidagi" XXR qonuni (31.10.2006); "Tijorat banklari to'g'risidagi" XXR qonuni (tahrirda 29.08.2015) va "XXRsi byudjeti to'g'risidagi" XXR (22.03.1994 yildagi va 31.08.2014 yildagi o'zgarishlar bilan, 01.01.2015 yildan faoliyatdagi).

Xitoyning ko'pchilik pul-kredit muassasalari davlat tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi. Hozirgi vaqtda mamlakatda bank sektorini boshqarishning quyidagi tizimi faoliyatdadir:

- Xitoy Xalq banki (XXB -The People's Bank of China)- davlat emission, kredit va hisob markazi bo'lib, u Markaziy bank vazifasini bajaradi va XXR Davlat kengashi rahbarligida faoliyat yuritadi. Bankning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: hukumat pul siyosatini amalga oshirish, yuanni emissiya qilish, davlat valyuta zahirasi va oltin fondini boshqarish, davlat g'aznachiligini olib boorish, qo'l ostidagi muassasaga rahbarlik qilish: XXR bank faoliyatini tartibga solish Komissiyasi va XXRsi Davlat valyuta nazoratini boshqarish:

- XXR bank faoliyatini tartibga solish Komissiyasi (China banking regulatory commission) – Xitoyning pul-kredit muassasalarini nazorat qilish markaziy organi.

Xitoy bank tizimi quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- Rivojlanish yoki "siyosiy" banklar (Xitoy Davlat rivojlanish banki-China Development Bank), Xitoy eksport-import banki (The Export-Import Bank of China) va Xitoy qishloq xo'jaligini rivojlantirish banki (The Agriculture Development Bank of China). Ular davlat siyosiy kursini amalga oshirishni moliya-kredit bilan ta'minlash, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun mablag'ni obligatsiyalarni chiqarish va ularni mamlakatning boshqa bank muassasalari orasida joylashtirish uchun tashkil etilgandir.

- Yirik davlat kredit tashkilotlari ("katta beshlik" banklari – Xitoy savdo-sanoat banki (Industrial and Commercial Bank of China), Xitoy Banki (Bank of China), Xitoy Qishloq xo'jalik banki (Agricultural Bank of China), Xitoy Qurilish banki (China Construction Bank) va Kommunikatsiya banki (Bank of Communication).

- Mamlakatbo'ylab umumdavlat filiallar tarmog'igaega bo'lgan yirik hissador tijorat banklari, (2016 yil oxirida 12 shunday tashkilot mavjud bo'lgan).<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup>Shunga o'xshash hisobot yili yakuni bo'yicha ma'lumotlar keyingi yilning ikkinchi yarmidan rejalashtiriladi

- Mahalliy (provincial va shahar) banklari – 2016 yil uchun Bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha Komissiyasining ma'ruzasiga ko'ra, XXR da 134 ta mahalliy bank faoliyat ko'rsatgan;

- Qishloq tijorat banklari (2016-yil yakuniga ko'ra mamlakatda 1114 ta qishloq tijorat banklari mavjud bo'lib, ular asosan, qishloq kredit tashkilotlarini o'zgartirish yo'li bilan tashkil etildi).

2017 yilda XKPning XIX s'ezdida va Umumxitoy 5-markaziy kengashini moliyaviy ishi bo'yicha oldindan qabul qilingan XXR moliyaviy sektorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari – “iqtisodiyotning real sektoriga xizmat ko'rsatish, moliyaviy tavakkalchiliklarni oldini olish, moliyaviy islohotlarni chuqurlashtirish” tasdiqlandi.

Mana shu strategiya chegarasida bank faoliyatini tartibga solish Komissiyasini 2017 yilning mart-aprel oylarida bank tarmog'I faoliyatining turli jabhalarida tartibga solish maqsadida bir qator hujjatlarni qabul qildi.

2017 yilning 29 martida “bank sektoridagi qonunga qarshi faoliyatni oldini olish ishlarini tashkil etish to'g'risida”gi va “Bank sektorida arbitraj operatsiyalarini tartibga solish bo'yicha maxsus kompaniyalarini amalga oshirish to'g'risida” gi xabarnomalar nashr etildi;

Shu yilning 7-aprelida “iqtisodiyotning real sektoriga bank operatsiyalari bo'yicha xizmatini ko'rsatishning samaradorligini oshirishda ko'rsatmalar berish” va “bank sektoridagi tavakkalchilikning oldini olish bo'yicha ishlarni tashkil etish borasida ko'rsatmalar berish” dagi kredit-moliya tashkilotlarini islohotlar vazifalari tarkibidagi takliflardan kelib chiqib va tijorat faoliyatlarini barqaror rivojlantirish hamda tavakkalchilikni nazorat qilish tamoyili asosida, o'zlarining bo'yniga olgan bevosita majburiyatlari bilan shug'ullanish, ya'ni iqtisodiyotning real sektoriga xizmat ko'rsatish, talablari qabul qilindi;

Shuningdek, mazkur yilning 10-aprelida bank sektorini umumiy xavfsiz va normal rivojlanishi qo'llab-quvvatlash, moliyaviy tavakkalni kengayishini oldini olish, bankni nazorat qilish tizimini va uning tartibga solish vazifasini takomillashtirishga yo'naltirilgan “Kamchiliklarni bartaraf etish va nazoratni hamda tartibga solish samaradorligini oshirish to'g'risida” gi xabarnomalar nashr etildi;

- 2017-yilning 26-aprelida tijorat banklarini garov predmetini reglamentatsiyalashni kuchaytirishga, lavozim majburiyatlarini detallashtirish, axborot tizimini va garov predmetini boshqarish muolajasini takomillashtirishga yo'naltirilgan “Tijorat banklarida garov predmetini tartibga solish bo'yicha ko'rsatmalar” chop etildi.

Mazkur yo'nalishni rivojlantirishda XXR Davlat kengashi qoshida 2017-yilning 8-noyabrida moliyaviy barqarorlik va rivojlanish bo'yicha komissiya (XKP MQ Siyosiy byurosi a'zosi Ma Kaya boshchiligida) tuzildi. Ushbu komissiyaga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va moliya sohasida quyidagi vakolatlarni amalga oshirish yo'li bilan rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish ishlarini olib borish topshirildi:

- Moliyaviy sohada XKP MQ va XXR Davlat kengashi qarorini bajarish;

- Moliyaviy islohotlar va rivojlantirish asosiy dasturlarini ko'rib chiqish;
- Moliyaviy islohotlar va rivojlantirish bo'yicha faoliyatga rahbarlik qilish;
- Pul-kredit va moliyaviy nazorat hamda tartibga solish chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;

- Sanoatlashtirish va moliya-byudjet siyosatini kelishilgan holda olib borish;

- Xalqaro va ichki moliyaviy ahvolning rivojlanish tendensiyasini taxlil etish va bashoratlash, xalqaro moliyaviy xavf-xatarlarga e'tibor qaratish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va tizimli moliyaviy xatarlarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- Joylardagi moliyaviy islohotlarni boshqarish va ularni amalga oshirishni nazorat qilish;

- Moliya organlari va mahalliy hukumat faoliyatlarini nazorat qilishni tartibga solish.

Xisobot davrida aytib o'tilgan holatlardan tashqari, Xitoy moliyaviy sektoriga xorijiy investitsiyalarni kirib kelishini kengaytirish va milliy bank sohasini ochiqqligini oshirish bo'yicha:

- 2017 yilning 10-martida bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha Komissiya xitoy bozorida xorijiy ishtirokidagi xitoy banklarini moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishni qo'llab quvvatlash uchun "Xorijiy ishtirokidagi bank o'z vazifalarini bir qismini amalga oshirishning ba'zi bir jihatlari to'g'risida xabar"ni chiqardi;

- Shu yilning 13-dekabrida "Bank sektorida ochiqqlik siyosatini amalga oshirishni faollashtirish to'g'risida axborot"i nashr etildi. Unda xitoy banklar va moliya aktivlarini boshqaruv bo'yicha kompaniyalarida xorijiy aksionerlarning ishtirokini cheklashning bo'shashganligi hamda umuman xitoy aksionerlariga belgilangan cheklovlar tenglashtirildi;

- Shuningdek, 28-dekabrda XXR bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha komissiyasining "Banklar tomonidan xorij ishtirokida turli litsenziyalash faoliyatini amalga oshirish tartibi" da loyiha o'zgarishlari nashr etildi. Unda bank sohasining ochiqqligini keyinchalik kengaytirish, ular vakolatlarini qayta ko'rib chiqish va tartibga solish, litsenziyalar olish muolajasini optimallashtirish, Xitoyda xorij istirokidagi banklar faoliyatlarini soddalashtirish;

- 2017 -yilning 10-noyabrida XXR moliya vaziri o'rinbosari Chju Guansyuan Xitoy va AQSh liderlari uchrashuvi yakunida XXRni rejalariga ko'ra, yirik miqyosli erkinlashtirish bo'yicha xorijiy investitsiyalarni Xitoy moliya sektoriga kiritish. Mazkur xorijiy investitsiyalarni fond va f'yuchers kompaniyalariga qo'yadigan ulushini 51% gacha oshirish mo'ljallanmoqda, 3 yildan so'ng esa, ushbu shart bekor qilishi mumkin, shular qatorida xitoy banklari va kompaniyalaridagi moliyaviy aktivlarni boshqarish bo'yicha xorijiy investorlarning ishtiroki salmog'i (25%) hamda bir xorijiy investorning maksimal ulushi (20%) bo'yicha amaldagi cheklovlar bekor qilinishi ko'zda tutildi. Undan tashqari, mazkur tuzilmadagi Xitoy va xorijiy aksionerlarning qatnashish shart-sharoitlarini tenglashtirish, 3 yil mobaynida esa, hayotni sug'urta qilish vazifasini

bajaruvchi xitoy sug'urta kompaniyalariga xorijiy investitsiyalar ulushini maksimal darajaga 51% gacha ko'tarish, 5 yil mobaynida esa, mazkur cheklovlarni umuman bekor qilish ko'zda tutildi.

2017 – yilda xitoy bank sektorini rivojlantirishdagi turli ahamiyatli holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Bank sektorini normal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida, mamlakatning ratsional pul-kredit siyosati asosida ikki elementli tartibga solish mexanizmini shakllantirish va konservativ makroiqtisodiy siyosatni olib borish;

- Internet kreditlashni tartibga solish, maktab va universitetlarda P2P kreditlash internet platformasi faoliyatini cheklash, yangi mikrokredit kompaniyalarini vaqtinchalik ro'yxatga olishni bekor qilish normativ-huquqiy bazasini kengaytirish;

- 2017 yilning may oyidan boshlab, barcha yirik va o'rta bank bo'limlarida, markazlashgan xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan kichik va o'rta korxonalar, innovatsion va tashabbushli tadbirkorlik, qishloqlarni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni yo'qotish bo'yicha loyihalar ishtirokchilari uchun imtiyozli moliyaviy dasturlarni tuzish;

- XXB, bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha komissiya va bir qator boshqa muassasalar tomonidan 23 iyunda mamlakatning 5ta mintaqasida (Tzyansi, Guychjoy, Guandun, Chjetzyan va SUAR) “yashil moliyalashtirish” nomli innavatsion pilot zonalarini tashkil etish;

- 2017 yilning 7-avgustida “Qarz majburiyatlarini kapitalizatsiyalash bo'yicha yangi tuzilgan tijorat banklari bo'limlarini tartibga solish qoidalari” loyihasi va qarzlarni kapitalizatsiyalash sohasidagi “Tzyansin” 1-maxsus kompaniyasini tashkil etish; (2017 yilning noyabr oyi yakunida mana shu yo'nalish bo'yicha mamlakatning 4 ta yirik Xitoy banklarida tuzilmaviy bo'limlar tashkil etildi);

- XXBning 29 sentyabrdagi “Imtiyozli moliyalash dasturi uchun rezerv koeffitsientini maqsadli pasaytirish to'g'risidagi xabari” bo'yicha bu ko'rsatkich, imtiyozli dastur bo'yicha kreditlashni amalga oshirayotgan tijorat banklari uchun pasaytirildi.

- Bank sektori va moliyaviy internet platformasining birlashishi.

XXR sug'utra bozori to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, Xitoy sug'urta bozori faoliyatini tartibga soladigan zamonaviy normativ-huquqiy bazani xitoy hikumatining “Sug'urtalash to'g'risida”gi qonunni (30.06.1995 va 2002 yilning oktyabr oyida, 2009-yilning fevral oyida unga to'ldirishlar kiritilishi bilan) tashkil etadi. Undan tashqari, “mulkni sug'urtalash bo'yicha tuziladigan kelishuvlar tartibi (1981)”; “Sug'urtalash kompaniyalarini boshqarish bo'yicha vaqtinchalik tartib (1985)”; “Shanghayda xorijiy kapitalli sug'urtalash kompaniyalarini boshqarish bo'yicha vaqtinchalik choralari (1992y.) va boshqa hujjatlar bilan ham ishlanadi.

Xitoy sug'urta bozori faoliyatini tartibga soluvchi uning zamonaviy huquqiy-normativ bazasini (2002 y. oktyabr va 2009-yilning fevral oylarida to'ldirilgan va qayta ishlangan) “Sug'urtalash to'g'risida” gi qonun tashkil etadi.



XXRda sug'urta sohasini tartibga solishni amalga oshirish ishlari bilan XXR sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi hay'at (China Insurance Regulatory Commission, CIRC) shug'ullanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tartibga solish normalarini ishlab chiqadi;
- sug'urta xizmatlarini rivojlantirish va ularni amalga oshirish;
- sug'urta biznesidagi jarayonlarni boshqarish;
- nolegal faoliyatni amalga oshirgani uchun sanksiyalar qo'llash;
- sug'urta bozorida adolatli raqobatni ta'minlash;
- tavakkalchilikni oldini olishni ogohlantirish va ularni kamaytirish maqsadida tavakkalni aniqlash tizimini tashkil etish.

Xitoyda sug'urtalash faoliyati litsenziyalanadi. Maxsus kompaniyalar tomonidan hayotni va mulkni sug'urtalashning asosiy turlarini taqsimlanish tamoyiliga ko'ra, amalga oshiriladi. .

Xitoyning quyidagi yirik sug'urta kompaniyalari mavjud: China Taiping Insurance Holdings Company Limited (CTIH), China Life Insurance Company Limited, China Pacific Insurance Group, PingAn Insurance (Group) Company of China, Ltd., hamda People's Insurance Company of China Holdings Company (o'zining PICC Property and Casualty Company Limited (PICCP&C) va PICC Asset Management Company Limited) qiz kompaniyasidagi biznesni amalga oshiruvchi davlat xolding sug'urta korporatsiyasi).

Xitoyda sug'urtani rivojlantirishda yangi texnologiyalar sezilarli darajada, katta ro'lni o'ynamoqda. Sug'urta strategiyasini aniqlash, savdo-sotiqni tashkil etish, harajatlarni kamaytirish, bozor ishtirokchilarining ko'pchiligi tomonidan tavakkalni boshqarishni katta ma'lumotlar, havoii havoii hisoblar, sun'iy intellekt texnologiyalaridan va boshqalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Soha ekspertlarining baholashicha, yaqin kelajakda texnologiyalar kapitalni tarmoqning asosiy rivojlanish omili sifatida siqib chiqaradi, sug'urta va yoqoritexnologik internet-kompaniyalarning qo'shilishi esa, ommaviy tus oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Xitoy fond bozorlari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normative-huquqiy hujjatlar quyidagilar hisoblanadi: XXRning "Kompaniyalar to'g'risidagi" qonuni va "Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi" qonun.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'lgan munosabatning qayta ko'rib chiqilishini talab qilayotgan bugungi kunda, ushbu kategoriyaning dolzarbligi ortib bormoqda. Chunki, aynan, qimmatli qog'ozlar, ko'p jihatdan, mulkchilik shaklining o'zgarishi, uni xususiy egalikka topshirish muammolarini yechishning kaliti hisoblanadi.

Mamlakatda to'la qonli qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, o'z navbatida, har bir davlatning bozorga o'tishidagi muhim tarkibiy qismini tashkil etadi, sababi u bevosita bozorning infratuzilmasi hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakat fond bozorining yana bir muhim yutug'i - bu fond boyliklarini tayyorlash va ularning muomalada bo'lishi bo'yicha davlatga amaldagi qonunchilikka rioya etilishini oldindan va undan keyin ham nazorat qilish imkonini beruvchi qimmatli qog'ozlarni saqlash hamda ular hisobini yuritishning umumdavlat depozitar tizimini barpo etilishini talab qiladi.

Moliyaviy bozor - bu mamlakatning jalpi pul resurslari hisoblanib, unda ushbu pul resurslari talab va taklif nisbatini iqtisodiyotning turli sub'ektlari tomonidan o'zgaruvchanligi ta'sirida doimiy xarakatda, taqsimlanishda va qayta taqsimlanishda bo'ladi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida eng ko'p resurslarga AQSh, Yevropa ittifoqi davlatlari, Yaponiya va Xitoy davlatlarining moliya bozorlari egadir.

O'zining tarkibiy tuzilishiga ko'ra, moliyaviy bozor uch o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turuvchi, ammo lekin, alohida faoliyat ko'rsatuvchi quyidagi bozorlardan iboratdir:

1. Muomaladagi naqd pullar bozori va shunga o'xshash qisqa muddatli to'lov vositalari vazifalarini bajaruvchi bozor (veksellar, cheklar va b.);

2. Ssuda kapitali bozori, ya'ni qisqa va uzoq muddatli bank kreditlari;

3. Qimmatli qog'ozlar bozori. U iqtisodiyotning barcha sub'ektlariga ularga zarur bo'lgan pul resurslarini olish yo'llarini kengaytiradi va yengillashtiradi. O'z navbatida, aksiyalarni chiqarish orqali ushbu pul resurslarini muddatsiz vaqtga olishga yordam beradi, ya'ni korxonalar faoliyati davrida, ushbu aksiyalarni chiqarish orqali banklarga, nisbatan yengilroq shartlarda kreditlarni olishni ta'minlaydi.

Avval boshdan, Xitoyda yetuk moliyaviy bozorni tashkil etish kursi mo'ljallanib, u kapital va ssuda pul vositalari aylanishining turli shakllari va kreditlash tizimining barcha turlarini o'z ichiga olishni ko'zda tutdi. Bunday bozor esa, o'z navbatida bir qator aniq sifatiy xarakteristikalarini o'z ichiga olib, ular orasida: pul mablag'larining tovar xususiyatiga ega bo'lishi; pul-kredit institutlarining o'zini-o'zi pul bilan qoplashi; kapital aylanishini foyda olishga yo'naltirish; kapitalga bo'lgan talab va taklifni shakllantirish erkinligi va ssudaga bo'lgan foiz stavkasining o'zgarishlari mavjuddir.

Xitoyda bank kreditlari o'zining miqyosiga, ob'ektiga, hisob stavkasiga qarab, reja va umumdavlat iqtisodiy siyosati talablari orqali qattiq reglamentlangan. Moliyaviy bozorning muhim yutuqlaridan biri - turli taraflarga sochilib ketgan pul mablag'larini bir yerga jamlab olish qobiliyati, iste'mol fondining bir qismini ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga yo'naltirishdan iboratdir.

O'z vazifalariga ko'ra, Xitoyda moliyaviy bozor - qisqa va uzoq muddatli bo'linadi. Ba'zi hollarda, qisqa muddatli moliyaviy bozorni - pul bozori va uzoq muddatli esa, kapital bozori deb atashadi. Mustaqil element sifatida, valyutani tartibga solish bozorlariga ajratiladi.

Xitoyda birinchi norasmiy fond bozori - 1914 yilda Shanghayda vujudga kelgan. 1920 yilda u, Shanghay fond birjasiga o'zgartirildi. Ushbu birjada asosan, davlatning qimmatli qog'ozlari aylanar edi. Keyinchalik, Xitoyning yana, ikki shahrida fond birjalari ochildi. 1949-yilda esa, mamlakatdagi barcha birjalar yopilib, ulardagi qimmatli qog'ozlar esa, yo'q qilindi. Mamlakatda iqtisodiy islohotlar boshlanishi natijasida, 1980 yilda Xitoyning qimmatli qog'ozlar bozori yana qaytadan tiklana boshladi.

1992-yilda mamlakatdagi tubdan o'zgarishlarning yuz berishi, hukumat rahbari Den Syaopinning ko'rsatmalariga binoan, mamlakat iqtisodiyotining bozor tipidagi o'zgarishlarga yuz tutishiga olib keldi. Mamlakatdagi qimmatli qog'ozlar

bozorining institutsional jihatdan shakllanishida yetarlicha rag'batlantiruvchi rolni Shanghai (1990y.) va Shenchjendagi (1991y.) qimmatli qog'ozlar birjasining rasmiy tarzda ochilishi o'ynadi.

Ulardan tashqari, mamlakatdagi mavjud moddiy ishlab chiqarish sohasiga qaraganda, moliyaviy sektorning ustunroq rivojlanishi, payli iqtisodiyotning miqdoran o'sishi, 1990-yillarda mamlakat iqtisodiyotining bozor yo'nalishiga o'tishi uchun qonuniy bazaga to'ldirilishlar kiritilishi va mustahkamlanishi ham, yetarli darajada katta ahamiyat kasb etdi.

Bor-yo'g'i uch yil ichida, Xitoy qimmatli qog'ozlar emissiyasining yig'indisi 400 mlrd.yuandan oshib ketdi va u 1981- 1991- yillardagi 261 mlrd.yu. dan - 663,7 mlrd.yu. ga yetdi hamda mamlakat YaMM ning 14,78% ni tashkil etdi.<sup>1</sup>

Xitoy qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi qanchalik murakkab va uzoq muddatli bo'lmagan, avvalo u, mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi va ayniqsa, uning pul-kredit va investitsion dastaklarini o'zgartirish hamda xo'jalikni xususiy shaklini rivojlantirishda o'z vazifasini oqladi.

Undan tashqari, mamlakatdagi yetarlicha, yirik miqyosli moliyaviy bozor, bevosita yoki bilvosita iqtisodiyotdagi ijobiy jarayonlarni keltirib chiqarishga ta'sir qildi.

Xitoy Xalq Respublikasiga va rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan sharoitda, ya'ni, mavjud "investitsion ochlikda" to'la qonli moliyaviy bozorni shakllantirish ob'ektiv tarzda qiyinlashgan bo'lib, uning tiklanish jarayoni, unga kerakli kadrlarning, axborot-texnikaviy va institutsional bazaning yetarli emasligi bilan beqaror sekinlashishga olib keladi.

Aksiyalarning uncha katta bo'lmagan qismigina Shanghai va Shenchjen birjalarida kotirovka qilinadi. Xususan, 1991-yilda - ularning 14 ta turi, 1992-yilda - 72ta, 1993- yilda -200 tadan ortiq va 1994-yil oxirida - 345 ta turi kotirovka qilindi.

Mamlakatdagi qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional jihatdan shakllanishida yetarlicha rag'batlantiruvchi rolni Shanghai (1990y.) qimmatli qog'ozlar bozorining rasmiy tarzda ochilishi o'ynadi.

Shanghai fond birjasi Xitoy mintaqasidagi yirik savdo maydoni bo'libgina qolmay, balki, butun Osiyoda yetakchi birjalardan biri hisoblanadi.XXR qimmatli qog'ozlar komissiyasi nazorati ostidagi notijorat tashkilot hisoblanadi.

Shanghai Xitoydagi aksiyalarning savdosi vaalmashinuviga guvoh bo'lgan birinchi shahar hisoblanadi. Shanghaydagi ilk aksiyalar savdosi 1860-yillar borib taqaladi.1891-yilga kelib, Shanghayda primitiv qimmatli qog'ozlar byurosi tashkil etiladi. 1930-yilga kelib esa, Shanghai Uzoq Sharqning moliyaviy markaziga aylandi vachet el va mahalliy investorlar diqqatini o'ziga jalb eta boshladi. Savdo veksellaridan aksept va diskont bo'yicha o'tqazilgan eksperimentlar, birinchi marotaba 1980-yilda Shanghayda, 1982-yilda - Chunsin, Shenyang va Xebey provinsiyalarida, 1985-yilda esa, butun mamlakat bo'ylab amalga

---

<sup>1</sup>Xitoy Markaziy bankining 1994 y. ma'lumotlari, Pekin, 1995

oshirildi. Shenghayda 1987-yildan boshlab, muomaladagi katta nominalli depozit sertifikatlari bilan operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Ular minimal 10 ming yuandan - maksimal 1 mln. yuangacha bo'lgan tezkor operatsiyalar hisoblanadi. 1990-yil 26-noyabrga kelib Shenghay Fond Birjasi (Shanghai Stock Exchange SSE) rasmiy ochildi va shu yilning 19-dekabrda o'zining rasmiy faoliyatini boshladi.

Oxirgi 20 yillikdagi mamlakat iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida, SSE o'zining rivojlanishidagi yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yildan-yilga o'zining fundamental sharoitlarini va izchil nazoratni yaxshilab bordi. Shu bilan bir qatorda, u o'zining texnologik yutuqlariga ham ega bo'la boshladi. Dunyoning eng so'nggi savdo sistemasini (NGTS) joriy etibgina qolmay, global yirik savdo markazini tashkillashtirdi. Shu bilan bir qatorda, SSEda real vaqt savdo monitoring ham yaratildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Shenghay birjasidagi qimmatli qog'ozlar savdosining tarkibiy tuzilishi, yildan-yilga tubdan o'zgarib bordi. Avval boshda, unda obligatsiyalar bilan bitimlar ustunlik qilgan bo'lsa, 1992 yildan boshlab, Xitoyda "aksiyalar kasali" yili bo'lib, undagi aksiyalar savdosi 30 marotabaga oshdi va uning umumiy bitimlardagi hajmi esa, ularning yarmiga yetdi.

1992 yildagi iqtisodiy o'sishni jadallashuvi mamlakatdagi ikki birjadagi aksiyalarning bozor qiymati solishtirma indeksining tezkor o'sishida o'zining aksini topdi. Agar, 1992 yilning aprel-may oylarida, ushbu indeks Shengxayda 400 ga, Shenchjenda 100-110 ga teng bo'lgan bo'lsa, 1993 yil fevral oyiga kelib, u o'zining yuqori cho'qqisiga yetdi, ya'ni Shengxayda u - 1537 punktga, Shenchjenda esa, u - 359 punktga teng bo'ldi.<sup>1</sup>

1994 yilda aksiya kursining pasayishi davom etib, Shengxay birjasida solishtirma indeksi shu yilning 4 yanvarida - 834 punktni, fevral oyi boshida - 755 punktni, aprelda - 699 punktni, mayda - 605 punktni, 1 iyunda - 545 ni, va nihoyat iyulda - 333 punktni tashkil etdi. Shenchjenda esa, ushbu muddatlarda ular: 230, 203, 174, 161, 139 va 96 punktlarni tashkil etdi.<sup>2</sup>

Aksiyalar qiymatining pasayishiga asosiy sabab - mamlakatdagi inflyatsiya darajasining yuqoriligi va markaziy hukumat pul-kredit siyosatining qattiqqligi bo'ldi. Bu vaziyatda, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiya olib borishni boshqarish va nazorat qilish Qo'mitasi boshqa tashkilotlar bilann hamkorlikda, aksiya bozorini barqarorlashtirish va keyinchalik, uni rivojlantirish bo'yicha qator maxsus tadbirlarni ishlab chiqdilar. 1994 yilning ikkinchi yarmida A turidagi yangi aksiyalarni ikkilamchi bozorlarga chiqarmaslikka qaror qilindi.

Shular bilan bir qatorda, 1996-yilning oxirgi oylarida, Xitoy aksiyalar bozorida savdogarlik tendensiyasining ko'payishi kuzatildi. Shengxaydagi aksiyalarning solishtirma indeks kotirovkasi, dekabr oyining birinchi dekadasida - 1200 punktdan, Shenchjenda esa, 4000 punktdan oshib ketdi. Bunda bir kunlik aksiyalarning sotilish hajmi o'zining yuqori cho'qqisiga, ya'ni, Shenghayda 19 mlrd.yuan, va Shenchjenda 17 mlrd.yu.ga yetdi.

---

<sup>1</sup>Sadibekova B.D. Xitoy Iqtisodiyoti. - T: Toshkent, O'zdamatbuotLITI, 2011. - b.185-187

<sup>2</sup>O'shajoyda, b.188-189

Birjalardagi "qizg'in holat" yana uning aksiyalarining solishtirma indeks kotirovkasining qiymati – Shaghxayda – 1800 punktga, Shenchenda - 6000 punktga ko'tariladi degan mish-mishlar bilan qizdirilib borildi. Buning oqibati birjalarning barbod bo'lishiga olib kelishini tushungan Xitoy hukumati, shu yilning 15 dekabrda bir savdo kunida aksiyalar qiymatining maksimal o'zgarishiga 10% dan iborat cheklovlar qo'ydi va aholi orasida bu yo'nalishda tushuntirish ishlarini boshlab yubordi. Bu esa, birjalardagi "qizg'in holat" ni bir oz yumshatishga yordam berdi. Qilingan ishlar natijasida, Shanghaydagi aksiyalarning solishtirma indeks kotirovkalari 865 punktga va Shenchjenda esa, - 2916 punktga tushdi, aksiyalar savdosi esa, Shanghayda -2,9 mlrd.yu., Shenchjenda 4,8 mlrd. yuanni tashkil etdi. Umuman olganda, aksiyalar savdosining hajmi 1995-yilga qaraganda, 1996-yilda, 5 marotabaga ortdi va 2133 mlrd.yuanni tashkil etdi.

1990-2007-yillar oralig'ida SSE trendlari sekin-asta o'sib borgan va o'rtacha punkti 2000 (RMB 100 mln.)ni tashkil etgan. Shu bilan birga, 1990-2007- yillar oralig'idagi eng yuqori ko'rstakich 2001-yilda qayd etilgan.Shundan so'ng esa, 2008-yilda eng katta (6000 (RMB 100 mln.) punktni tashkil etdi. 2008-2010-yillar davomida trendlar hatto 2000 (RMB 100mln.) punktga pasayib ketdi, bunga asosiy sabab – jahonda boshlangan moliyaviy-iqtosidiy inqiroz bo'ldi.

1992-yilda 5.21 da eng katta o'sish sur'ati 105.269% da 1266.490 punktini ko'rishimiz mumkin.1995-yil-5.23 da esa eng katta pasayish sur'atini -16.394% da 760.300 punktini kuzatishimiz mumkin. Mazkur ikki o'sish va pasayish % SSE tarixida eng katta hisoblanadi.Shu bilan birga, har ikkala jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, mazkur katta spekulativ ko'rsatkichlarning barchasi 1992-1995-yillar oralig'ida yuz bergan. SSE tarixidagi mazkur katta sakrash va pasayishlar bevosita fond birjasiga ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Chunki, fond birjasidagi aksiyalarning bahosiga har qanday axborot ta'sir o'tkazadi.Agarda aksiyalar bahosi ko'tarilsa bu mazkur aksiyalarni sotib olayotganidan dalolat beradi.Garchi aksiyalar bahosi tusha boshlasa, unda hamma aksiyalarni sota boshlaganidan dalolat beradi.

1990-2010-yillar mobaynida ko'rishimiz mumkinki, yildan-yilga SSE Composite listingidagi kompaniyalar soni oshib bormoqda. 1990-yilda 8 ta bo'lsa, 2000-yilda 572 ta va 2010-yilga kelib 894 taga yetdi. Mazkur sonlarning o'zi shundan dalolat beradiki SSE dagi kompaniyalar soni va salmog'i oshib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, bozordagi korxonalarning kapital miqdori ham 12.34(RMB 100 mln) dan 179007.24 (RMB 100mln) gacha oshdi. Bu esa SSE bozorida kapital aylanmasining yildan-yilga oshib borayotgani bilan bir qatorda investorlarni qiziqtirib kelayotganidan dalolat beradi. Bunga bir misol tariqasida U.Buffetning Xitoy neft va gaz kompaniyalarining qimmatli qog'ozlarini sotib olishini keltishimiz mumkin bo'ladi.

2010-yil 31-dekabr holatiga ko'ra,jami SSE savdo qiymati 30.4 trillion RMB ga teng bo'ldi va dunyo bo'yicha 3-o'rinni egalladi. Kunlik savdo qiymati esa, o'rtacha 125.7 mlrd.RMBni tashkil etdi.Bu ko'rsatkich bo'yicha u dunyoda 4-o'rinni qo'lga kiritdi.Shanghay fond birjasi SSE listingida 4 kategoriyaga bo'linadi: qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, fondler (funds) va kafolatlar(warrants).

Qimmatli qog'ozlar esa, o'z navbatida, 2 guruhga: SSE AShare toifa aksiyalar va SSE B Share toifa aksiyalar.

Obligatsiyalar SSE da g'aznachilik (T-bonds), mahalliy hokimiyat va korporativ yoki umumiy (corporate) obligatsiyalar ostida savdo qilinadi.

Shu bilan birga fondlar (Exchange Traded Fund-ETF) va kafolatlar (warrants) ham SSE savdo maydonlarida ishtirok etadilar.

**Shanxay fond birjasi qimmatli qog'ozlar indeksining tarkibi:**

SSE Composite birjada listing qilinuvchi barcha aksiyalar

SSE 180-180 "zangori fishkalar"

SSE A Share "A" kategoriyali aksiyalar


SSE B Share "B" kategoriyali aksiyalar

SSE Funds birjada sotiladigan, yopiq fondlar aksiyasi

Mamlakatdagi ushbu yirik miqyosli aksiyalar emissiyasining asosiy maqsadi, uning qator yirik korxonalar va birlashmalarga adresli moliyaviy yordami bo'ldi: 1997-yil avgust oyi oxirining holatiga ko'ra, Xitoy va Gonkong birjalarida o'zlarining aksiyalarini kotirovka qilgan korxonalar, o'z aksiyalarini sotishdan 256 mlrd. yuanlik foyda oldilar. 1997-yilda qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqqan yirik vao'rta korxonalar, yangi kompaniyalarning 70% ni tashkil etdi. A turidagi aksiyalar kotirovkasini amalga oshirayotgan kompaniyalar soni - 1996 yilda 520 taga, (ulardan Shanghaiyda 293 tasi va Shenchjenda 237 tasi faoliyat ko'rsatdi) 1997 yil oxirida esa, 720 taga (371tasi Shanghaida va 349 tasi Shenchjenda) yetdi.

**Diagramma 4.1.1.**

**XXR fond bozorlaridagi aksiyadorlarning turlari (%)<sup>1</sup>**



Yuqoridagi diagramma 4.1.1. dan biz Xitoy Xalq Respublikas ifond bozorlaridagi aksiyadorlar aksiyalari turlarini tahlil etishimiz mumkin bo'ladi.

<sup>1</sup>Manba: «Ежегодный статистический сборник Китая «2015». Изд-во китайской статистики. – Пекин, 2016

\*QFII-Qualified Financial Institutional Investor.

Fond birjalairda eng katta ulushni shak- shubhasiz yakka investorlar umumiy ulushning qarayib 46.86% ni egallab turibdilar. Keyingi o'rinlarda esa, 27% va 19.8% ulushlar bilan investitsion fondlar va institutsional investorlar egallab turibdilar. Ularning ulushlari yakka investorlarga nisbatan, ancha kamroqdir.<sup>1</sup>

Oxirgi yillarda, Xitoy iqtisodiyotining yuqori ko'rsatkichlar bilan rivojlanishi natijasida, uning fond bozorlaridagi "A" turidagi aksiyalari kotirovkalarining o'sishiga olib keldi. Oqibatda, ularning umumiy bozor kapitalizatsiyasi 500 mlrd. AQSh doll. dan oshib ketdi.

Qolaversa, XXR fond birjalarida qolgan aksiyadorlarga nisbatan, juda kam ulushga ega bo'lgan 3 guruhiga sug'urta kompaniyalar, fond kompaniyalar va malakali moliya – Institutsional investorlar 3.14%, 2.01% va 1.8% ulush bilan fond birjalarida qatnashib kelmoqdalar.<sup>2</sup>

Ma'lumki, Shanghai fond birjasi (Shanghai Stock Exchange, SSE, 上海证券交易所) – kontinental Xitoydagi ikki birjaning biri bo'lib, u dunyodagi yirik 5 talikka kiradi. Uning kapitalizatsiya darajasi 3,5 trln.doll.ni tashkil etib, u bu ko'rsatkich bo'yicha Osiyoda 2-o'rinni egallaydi<sup>3</sup>.

Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur notijorat tashkiloti Xitoy qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha hay'at tomonidan bevosita boshqariladi. Xitoy hukumati xorij ishtirokidagi kapital tomonidan o'tkazilayotgan operatsiyalarni juda qattiq nazorat qiladi. Aynan, shuning uchun ham, birja shu davrgacha xorijiy investorlarni bozorga to'liq kiritish imkoniyatiga ega emas.

SSE Composite (Shanghai Composite) indeksi Shanghai birjasida eng ko'p va tez-tez foydalanish ko'rsatkichi hisoblanadi. U, SSE sektorining bozor unumdorligini o'zida aks etadi. SSE Composite Indexsini tarkibi – bu Shanghai fond birjasida kotirovka qilinadigan barcha (B aksiyalar) aksiyalar hisoblanadi. Mazkur indeks 1991 yilning 15-iyulida ishga tushgan. 2006 yilda ushbu ko'rsatkich 2,675.47 punktga etdi. Ulardan boshqa Shanghai fond birjasidagi muhim ko'rsatkichlar – bu SSE 50 va SSE 180 Indexlari hisoblanadi.

Mazkur index tarkibiga yirik kapitalga ega bo'lgan quyidagi kompaniyalar kiradi:

- ❖ PetroChina (3,656.20 mln.yuan);
- ❖ Industrial and Commercial Bank of China;
- ❖ (1,417.93 mln.yuan), Sinopec (961.42 mln.yuan);
- ❖ Bank of China (894.42 mln.yuan);
- ❖ China Shenhua Energy Company (824.22 mln.yuan);
- ❖ China Life (667.39 mln.yuan);
- ❖ China Merchants Bank (352.74 mln.yuan);
- ❖ Ping An Insurance (272.53 mln.yuan);
- ❖ Bank of Communications (269.41 mln.yuan);
- ❖ China Pacific Insurance (256.64 mln.yuan).

---

<sup>1</sup> Хун С. Реформы открытости и развитие китайской экономики // Свободная мысль. - 2011. - N 4. - С.133-146.

<sup>2</sup>O'sha joyda, c.151

<sup>3</sup>Shanghai Stock Exchange, SSE, 上海证券交易所 [StockScreenercaifinance.google.com](http://StockScreenercaifinance.google.com) ma'lumotlari

Shanghai fond birjasida listingga quyidagi kompaniyalar ega: Agricultural Bank of China, Air China, Aluminum Corporation of China, Bank of Communications, Changhong, China Communications Construction, China Railway Construction, China Southern Airlines, China Unicom, Hainan Airlines, Industrial and Commercial Bank of China, SAIC Motor, Shanghai Airlines, Yanzhou Coal Mining, Циндао.

Shanghai fond birjasi (ShanghaiStockExchange - SSE) ningasosiydastaklari – aksiyalar, fond indikatorlari va obligatsiyalar hisoblanadi. SSE da g'aznachilik, korporativ va konvertlanadigan obligatsiyalar sotiladi. O'z navbatida, aksiyalar ikki kategoriyalarga, ya'ni A va B ga bo'linib, undagi A kategoriyasidagi aksiyalar - yuanda, ikkinchi (B)si esa-AQSh dollarida baholanadi.

SSEning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ sotuv maydonidagi ishlarni ta'minlash;
- ✓ qimmatbaho qog'ozlarni sotish uchun sharoitlarni yaratish;
- ✓ biznes qoidalarini ishlab chiqish;
- ✓ listingni tashkil etish va qabul qilish;
- ✓ qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalarni tashkil etish va nazorat qiliish;
- ✓ bozor haqida ma'lumotlarni nashr etish.

O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, 2016-yil yakunida SSE listingida umumiy bozor qiymati (kapitalizatsiya) 28,5 trln.yuan.dan iborat 1182ta kompaniyalar qatnashdi.

2016 yildagi umumiy aylanma miqdori 50,2 trln.yuanga, o'rtacha bir kunlik aylanma 205,6 mlrd.yuanga teng bo'ldi. Undagi obligatsiyalar bozori: umumiy qiymati 6,2 trln.yuandan iborat 8077 ta obligatsiyalar, ularning yillik aylanma miqdori esa - 224,7 trln.yuanni tashkil etdi. Derivativlar bozori: yillik aylanma miqdori 8,9 trln.yuandan iborat 137 ta fondlar kiradi.

Shanghai fyuchers birjasi tabiiy kauchuk va mis bo'yicha fyuchers kontraktlari savdosini hajmi borasida dunyoning yetakchi tovar birjalari qatoriga kiradi. Shanghai oltin birjasi esa, - qimmatbaho metallar savdosi bo'yicha Xitoydagi yirik birjalardan biri hisoblanadi.

2016 yil yakunida SSEo'zining Xitoyda sotiladigan aksiyalar hajmi bo'yicha yetakchiligini qo'ldan boy berdi. Mazkur yetakchilik maqomini u oxirgi 10 yil mobaynida ushlab turgan edi. Bloombergning habar qilishicha, bu maqomni Shenchjen fond birjasining bir bo'limi Shenzhen's Small and Medium Enterprise Board (SME Board) egalladi va unda nodavlat kompaniyalar aksiyalari ham sotuvga qoyildi.

Aytish lozimki, SME Board o'z faoliyatini 2004 yildan boshlagan bo'lib, uning birja aylanma miqdori 17 may 2016 yilda birinchi marotaba Shanghai aylanma miqdoridan birmuncha oshdi va shu davrdan boshlab, bu ikki birja ko'rsatkichlari deyarli bir xil, ya'ni teng ko'rsatkichni ko'rsata boshladi. Oxirgi 5 kunlik ko'rsatkichlar har ikki birjalarda tahminan \$27,1 mlrd.ni tashkil etdi<sup>1</sup>.

Ta'kidlash lozimki, oxirgi 12 oyda Shanghai fond birjasining aylanma hajmi

---

<sup>1</sup>Shanghai Stock Exchange, SSE, 上海证券交易所 [Stock Screener](http://www.sse.com.cn/stock_screener) [cajra finance.google.com](http://www.finance.google.com)



86%ga pasaydi. 2016 yilning 12 iyunidan boshlab, eng yoqori cho'qisi bo'lgan 5178,19 punktidan, SSE Composite indeksi pasaya boshladi, o'sha davrning uch haftasi ichida Shanghai va Shenchjen birjalari 30%ga pasaydi.

Shu vaziyatdan kelib chiqib, investorlar o'z moliyaviy strategiyasini qayta ko'rib chiqib, ular sarmoyalarini kichik va o'rta korxonalarga qoya boshladilar.

Shuningdek, investorlar SME Boardga, o'z nigohlarini qaratadi. Mazkur SME Boardda har birining bozor qiymati o'rtacha \$1,7 mlrd.dan iborat 790ta kompaniyalar aksiyalari sotildi.

2015 yilning avgust oyida boshlangan va 2017 yilgacha davom etib kelayotgan Xitoy fond bozoridagi "chayqalishlarning" yangi girdobini yengish mamlakat hukumati uchun oson bo'lmayapti. Mazkur holat fond bozorini tartibga soluvchi tashkilotlar ishining samarasizligini va undagi o'yinchilarning srekyativ kayfiyatlarining o'sishi evaziga sodir bo'lmoqda.

Ma'lumki, iqtisodiy islohotlarining yangi bosqichiga o'tish jarayoni, Xitoyning iqtisodiy o'sish sur'atining sekinlashuvi bilan kechmoqda. Shuningdek, mazkur holat Xitoyning asosiy tashqi savdi hamkorlari tomonidan xitoy mahsulotlariga bo'lgan talabning qisqarishini davomiyligi bilan yana ham qiyinlashmoqda. Agar, biz raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2015 yilda mamlakatning deyarli barcha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilda Xitoy YaIMning o'sish sur'ati 2014 yildagi 7.4% dan 6.9% ga pasaygan. Mamlakat YaIMning hajmi esa, 2015 yilda 67.8 trln.yuanni tashkil etdi (10.4 trln. AQSh doll.)<sup>1</sup>.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, XXRda fond bozorlarining ochilishi, xususan, Shanghai fond birjasi jahon iqtisodiyotiga qadam qo'yishning yana bir bosqichi bo'lib xizmat qildi. XXR si tashqi dunyoga ochiqlik siyosatini amalga oshirayotganligi ichun ham juda ko'p yutuqlarga erisha oldi. Mamlakatda yangi avlod korxonalari paydo bo'la boshladi va ularning qimmatli qog'ozlari ichki va tashqi bozorlarda qadrlana boshlanishi bilan bir qatorda, ularning mavqei ham osha bordi. Jahon bozoriga chuqurroq kirib borgani sari, ya'ni globallashev jarayoni kuchaya borishi sababli, qimmatli qog'ozlar ichki bozori ham erkinlasha boradi va fond kapitallarining erkin xarakati yuzaga keladi.

Shanghai fond bozoriga kelsak, uning dunyodagi mavqei kundan-kunga ortmoqda. SSE listingidagi kompaniyalar ro'yhati bilan birga, mazkur kompaniyalarning moliyaviy ko'rstakichlari ham parallel ravishda oshmoqda. Shanghai fond birjalaridagi ijobiy tendensiya esa, o'z navbatida, XXR moliyaviy rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Iqtisodiyotdagi yangiliklarni kuzatganimizda yirik kompaniyalar IPO jarayonini o'tkazayotganligi, kompaniyalar o'zining IPO aksiyalarini chiqarayotganligi to'g'risida axborotlarga duch kelamiz. IPO-xorijiy investitsiyalari o'zi nima? IPO-xorijiy investitsiyalari - bu ma'lum yirik kompaniyalar o'zining aksiyalarini birjaga, banklarga chiqarish bilan o'ziga uzoq muddatli kapitallarni jalb qiladi. Obligatsiyadan farqli ravishda, bu turdagi

---

<sup>1</sup>National Bureau of Statistic of China. Available at: <http://www.stats.gov.cn> (accessed 23.01.2016)

investitsiya qaytarilmaydi. Tabiiyki, uning soni va qiymati ham chegaralangan bo'ladi hamda, yana bir xususiyati, bozordagi asl qiymati va o'rnini begilab beradi.

Bugungi kunda Xitoy iqtisodiyoti dunyo miqyosida inkor etib bo'lmaydigan iqtisodiy salohiyat va rivojlanishga erishgan bir paytda, u mamlakat ichkarisida va chet elda ham birlamchi bozorni ommaviy tashkil etish sohasida ham, birinchi o'rinda turadi. Birgina "AlibabaGroupHolding" kompaniyasi 2019-yanvar oyidagi hisobotiga ko'ra, 21,77 milliard AQSH dollari qiymatidagi birlamchi ommaviy (IPO) takliflariga ega. Elektron bozor sohasida faoliyat olib boradigan bu kompaniya 2014-yildan beri dunyoda yetakchi va eng ko'p IPO chiqarayotgan kompaniya bo'lib kelmoqda. Shuningdek, dunyodagi eng yirik IPOlar salmog'ini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2014-yilda AQShning o'zida 275 ta asosiy sohasi tibbiyot xizmati va texnologiya sohalari bo'yicha kompaniyalar o'zlarining birlamchi ommaviy (IPO) takliflarini kiritdi<sup>1</sup>. 2018-yil bo'yicha, eng ko'p IPOlarni Xitoydagi ikki kompaniya taqdim etdi. Ulardan biri – yuqorida ta'kidlangan Alibaba bo'lsa, ikkinchisi dunyo reytingini o'zida to'qqizinchi o'rinda turgan Xitoy sanoat va tijorat banki 13,96 milliard dollarlik IPOlarni taqdim qildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Nyu-York qimmatbaho qog'ozlar birjasi Alibaba kompaniyasini AQShdagi eng ko'p IPO chiqarganligini alohida e'tirof etdi. Xitoy sanoat va tijorat banki Xitoyning o'zidagi Shanxay va Gongkong qimmatbaho qog'ozlar birjasida ro'yxatda turadi. Visa Amerika kompaniyasi 2008-yilda 17,86 milliard AQSh dollari qiymatidagi IPOlarni taqdim qilgan ommaviy takliflari bilan dastlabki o'rinlarni egalladi. Bular oxirgi o'n besh yillikdagi IPOlarni taklif qilgan kompaniyalar bo'ldi.

Endi, Xitoyni o'zini shu vaqt davomidagi IPO sohasidagi yutuqlari va kamchiliklarini tahlilini ko'rib chiqamiz<sup>2</sup>.

Xitoyning qimmatbaho qog'ozlar birjasidagi faoliyati unchalik uzoqqa cho'zilmaydi. Masalan, Shanxay 1990-yilda, Shenjen esa, 1991-yilda qimmatbaho qog'ozlar birjasini rasmiy tashkil etdi. O'shandan buyon davlatdagi qonunlarning amaldagi tadbir'i, davomiyligi va shuningdek, moliyaviy xizmatlardagi sifatni oshganligi hisobiga, Xitoyning qimmatbaho qog'ozlar birjasi sohasida mutloq rivojlanishiga erishildi. 2018-yil yakuniy hisobotlarga ko'ra, Shanxay va Shenjen qimmatbaho qog'ozlar birjasining o'zida, 3000 dan ziyod kompaniyalar ro'yxatga olinganligi ma'lum bo'ldi. "Morgan Stanley Capital International" Xitoy aksiyalarini o'zining bozor indeksiga qo'shdi.

Gongkong qimmatbaho qog'ozlar birjasi bilan bir qatorda, Shanxay va Shenjen qimmatbaho qog'ozlar birjasi, dunyodagi birjalar ichida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xitoy IPO bozorining kengayishi global qimmatbaho qog'ozlar birjasining o'sishiga bevosita ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Shunday ta'sir qilingan kompaniyalardan biri, Gonkongdagi China Tower Corporationning ijtimoiylashuvi 58,8 milliard AQSh dollari miqdorida sarmoya to'plagani bo'ldi va ushbu yilda dunyoda eng yirik ijtimoiylashuv qiymatiga ega bo'ldi. Yoqoridagi fikrlardan kelib

---

<sup>1</sup><https://www.statista.com/statistics/269343/worlds-largest-ipos/>

<sup>2</sup> Yung, C., Colak, G. and Wang, W., 'Cycles in the IPO market', Journal of Financial Economics, Vol. 89, 2008, pp. 192–208.

chiqib, biz quyida Xitoydagi kompaniyalarning 2018 yildagi IPO chiqarish bilan to'plagan sarmoyalarini tahlil qilamiz.

**Jadval 4.1.1.<sup>1</sup>**

**Xitoy kompaniyalarning 2018 yildagi IPO chiqarish orqali to'plagan sarmoyalari, mlrd.AQSh doll.da**

| Kompaniyalarning nomi       | To'plagan sarmoya (mlrd. AQSH doll.) |
|-----------------------------|--------------------------------------|
| Xiaomi                      | 4.7                                  |
| Foxconn Industrial Internet | 4.3                                  |
| Meituan Dianping            | 4.2                                  |
| IQIYI                       | 2.3                                  |
| Pinduoduo                   | 1.6                                  |
| Ping An Yaxshi Shifokor     | 1.1                                  |
| Nio                         | 1                                    |

4.1.1.-Jadvaldan ko'rinib turganidek, asosiy sarmoyalarni texnologiya, sanoat, ijtimoiy tarmoqlar va tibbiy xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar faoluyatlatiga yo'naltirilganligini ko'ramiz. Qolaversa, kompaniyalar erishayotgan ko'rsatkichlar davlat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir qilgan. Xususan, aynan, yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan kompaniyalar va tashkilotlar nomlari mos ravishda iqtisodiy o'sishni taqazo qilgan yo'nalishlarni o'zini ko'rsatib beraolgan. Shulardan ba'zilarini o'rganadigan bo'lsak, "Bloomberg" agentligining xabar berishicha, Xitoyning Xiaomi kompaniyasi 2018-yilda o'zini IPOlarini chiqarib 4,7 miliard AQSH dollarlik sarmoya yig'a oldi, lekin, kompaniya mazkur summani 6 millard bo'lishini kutgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Xiaomi kompaniyasi jami 2,18 milliard dona aksiya chiqarishga muvaffaq bo'lgan va har bir aksiyaning o'rtacha qiymati 17-22 Gongkong dollarlarida sotilgan<sup>2</sup>. O'zining mahsulotlarini 74 ta mamlakatda sotaoladigan bu kompaniya, jami aksiyalarning 108,98 milliontasini Xitoy investorlariga va 2,07 milliard donasini xalqaro investorlarga sotishni rejalashtirgan<sup>3</sup>.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, IPOni xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti, xususan, rivojlangan mamlakatlarning hissasiga ko'p qismi to'g'ri kelayotganidan ham ko'rishimiz mumkinki, bunday sarmoya yig'ish IPO taqdim qilayotgan kompaniya uchun alohida mavqe va mashxurlikni, shuningdek, investorlar orasida alohida ishonchni taqazo qiladi. Bu esa, rivojlanib kelayotgan va rivojlangan kompaniya, tashkilotlar uchun, o'z salohiyatini kengaytirish uchun qo'shimcha katta imkoniyatlarni beradi. Chunki, yoqorida ta'kidlab o'tildiki, IPOni o'ziga xos xususiyati, u qaytarilmaydigan kapital hisoblanadi. Shuningdek, izlanishlar shuni ko'rsatdiki, katta hajmda ijtimoiylashishni taklif qilayotgan kompaniya va tashkilotlar faoliyati davlat iqtisodiyotini yuksaltirayotgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga mutanosib ravishda, mos tushishi namoyon bo'ldi. Fikrimizcha, IPO ni iqtisodiy tizimiga alohida ta'sir ko'rsatishi va uni chuqur o'rganish davlat iqtisodiyoti va uning trendiga alohida ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liqdir.

<sup>1</sup><https://www.statista.com/topics/5215/chinese-ipos/>

<sup>2</sup>"South China Morning Post" jurnalidan olindi.

<sup>3</sup><https://www.vedomosti.ru/technology/news/2018/06/29/774175-xiaomi>

## **4.2. XXR bank, sug'urta va birja savdosi sohalaridagi zamonaviy o'zgarishlar**

2017-yilda Xitoy moliya bozoridagi holat barqaror bo'lib qoldi. XXR Davlat kengashi va Xitoyning Xalq banki tomonidan bank tizimidagi likvidlik ratsional darajada ta'minlandi. Uni amalga oshirishda an'anaviy pul-kredit dastaklariga, ya'ni: REPO va banklarning boshqa qisqa muddatli kreditlash variantlariga tayanildi.

Mamlakat iqtisodiyotining real sektorini moliyalashtirish ijobiy dinamikaga ega bo'ldi. Xitoy Xalq Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yil natijasiga binoan, AFRE (Aggregate Financing to the Real Economy)<sup>1</sup> agregati 19,44 trln.yuanga o'sdi (2016-yilga nisbatan, 1.63 trln.yuanga ko'p). Shunday qilib, umumiy moliyalashtirish jamg'arilgan umumiy hajm 2017 yil oxirida 174,6 trln yuanni tashkil etdi (+12,0%).

2017 yil natijasiga ko'ra, pul massasining va kreditlash hajmining o'sish sur'atlari os'z tendensiyasini saqlab qoldi. Mazkur yilda M2 pul taklifi agregatining "keng" hajmi 167,7 trln.yuanni tashkil etib, (+8,2% 2016-yilga nisbatan) bu o'sish sur'atining tarixiy minimumini ko'rsatdi. M1 pul taklifi agregatining "tor" hajmi esa, 11,8% ga ortib, 54,4 trln.yuanni tashkil etdi. Muomiladagi qolgan naqd pullar (M0 agregati) 7,1 trln.yuanga yetdi.

Xitoy Xalq Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yil natijasiga binoan, milliy va xorijiy valyutada berilgan kreditlar qoldig'i 125,61 trln.yuan ekvivalentidagi summani tashkil etdi.

Milliy va xorijiy valyutada berilgan kreditlarni umumiy hajmi 2017-yilda 7,13 trln.yuanni tashkil etib, ulardan qisqa muddatli kreditlar - 1,83 trln.yuanni, o'rta va uzoq muddatli kreditlar—5,3 trln.yuanni tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi moliyaviy muassasalar tomonidan yuanda berilgan kreditlarning umumiy hajmi 2017 yil oxiriga kelib, 15,0 trln.yuandan iborat bo'ldi. Barcha turdagi moliyaviy institutlar tomonidan berilgan iste'mol kreditlari bo'yicha jamg'arilgan qoldiq 31,5 trln.yuanni tashkil etib, xususan, qisqa muddatli kreditlar bo'yicha – 6,8 trln.yuanni, o'rta va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha—24,7 trln.yuanga yetdi (4,6 trln.yuanga o'sish).

Banklararo kreditlash hajmi, obligatsiyalar bilan bitimlar va REPO operatsiyalarini olib borish 2017-yilda 798,18 trln.yuangacha pasaydi. Banklararo qarz olish bozorlarda shu davrda o'rtacha oldindan belgilangan foiz stavkasi 2,91%ni tashkil etdi.

Mamlakatda valyuta sohasida yuanning dollarga nisbatan sezilarli mustahkamlanishi yuz berib, u XRB baholanishiga ko'ra, 6,72%ni tashkil etdi..

XXR DSQ sining ma'lumotiga binoan, 2017 yilda xitoy yuanning amerika dollar kursiga nisbati 6,5942 yuan - 1 AQSh doll.ga teng bo'ldi. Hozirgi davrda esa, (2020 y.) bu kurs ancha o'zgarishga yuz tutib, 1 AQSh doll. - 7,568 yuanga teng bo'ldi.

---

<sup>1</sup>Aggregate Financing to the Real Economy – показатель совокупного финансирования реального сектора экономики, включающий все формы банковского и небанковского кредитования.

XXB ning 24 oktyabr 2015 yildagi qarori asosida 2017 yil mobaynida Xitoy Xalq Banki (XXB) ning bazaviy hisob stavkasi o'zgarishsiz qoldirildi. Bu esa, davlat va nodavlat korxonalari uchun moliyalashtirish tannarxini, nisbatan past bo'lishini saqlashga yordam beradi. Quyida kreditlar va depozitlar bo'yicha asosiy stavkalarining dinamikasini ko'rib chiqamiz (jadval 4.2.1.).

Jadval 4.2.1.

Kreditlar va depozitlar bo'yicha asosiy stavkalar dinamikasi

| Kreditlar va jamg'armalar turlari       | 07.07. 2011 yildan | 07.06. 2012 y.dan | 05.07. 2012 y.dan | 22.11. 2014 yildan | 01.03. 2015 yildan | 24.10. 2015 y.dan 31.12 2017 yilgacha. |
|-----------------------------------------|--------------------|-------------------|-------------------|--------------------|--------------------|----------------------------------------|
| 1.1. kreditlarni muddati bo'yicha:      |                    |                   |                   |                    |                    |                                        |
| 6 oy                                    | 6,10               | 5,85              | 5,60              | -                  | 5,35               | -                                      |
| 1 yil                                   | 6,56               | 6,31              | 6,00              | 5,60               | 5,35               | 4,35                                   |
| 1 y.dan 3 yilgacha                      | 6,65               | 6,40              | 6,15              | 5,75               | 5,75               | 4,75                                   |
| 3 y.dan 5 yilgacha                      | 6,90               | 6,65              | 6,40              | 6,00               | 5,75               | 4,75                                   |
| 5 yildan ortiqroq                       | 7,05               | 6,80              | 6,55              | 6,15               | 5,90               | 4,90                                   |
| 1.2. uy-joy krediti bo'yicha (ipoteka): |                    |                   |                   |                    |                    |                                        |
| 5 yilgacha                              | 4,45               | 4,20              | 4,00              | 3,75               | -                  | 2,75                                   |
| 5 yildan ortiq                          | 4,90               | 4,70              | 4,50              | 4,25               | -                  | 3,25                                   |
| 2.1. jamg'armalar bo'yicha foizlar:     |                    |                   |                   |                    |                    |                                        |
| - joriy jamg'armalar bo'yicha           | 0,50               | 0,44              | 0,35              | 0,35               | 0,35               | 0,35                                   |
| 2.2. tezkor jamg'armalar bo'yicha:      |                    |                   |                   |                    |                    |                                        |
| 3 oylik                                 | 3,10               | 3,00              | 2,60              | 2,35               | 2,15               | 1,10                                   |
| 6 oylik                                 | 3,30               | 3,30              | 2,80              | 2,55               | 2,35               | 1,30                                   |
| 1 yillik                                | 3,50               | 3,50              | 3,00              | 2,75               | 2,55               | 1,50                                   |
| 2 yillik                                | 4,40               | 4,10              | 3,75              | 3,35               | 3,15               | 2,10                                   |
| 3 yillik                                | 5,00               | 4,65              | 4,25              | 4,00               | 3,75               | 2,75                                   |
| 5 yillik                                | 5,50               | 5,10              | 4,75              | -                  | -                  | -                                      |

Manba: Xitoy Xalq Banki ma'lumotlari.

XXRsi bank sohasini tartibga solish va nazorat qilish qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yil natijasiga binoan, milliy va xorijiy valyutadagi umumiy aktivlarning hajmi 252,0 trln/yuanni tashkil etib, u 2016 yilga nisbatan, 8,7% ga o'sgan. Bank muassasasining passivlari hajmi 233,0 trln.yuanni tashkil etdi, bu esa 2016 yilga nisbatan +8,4% ga o'sgan. Banklar aktivlarining daromadlilik ko'rsatkichi 0,92%ni tashkil etib, o'z kapitalining daromadliliigi – 12,56%ga teng bo'ldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, 2017 yil yaniga ko'ra, xitoy banklari tomonidan beriladigan "ishonchsiz" kreditlar hajmining o'sishi kuzatildi. "Ishonchsiz" kreditlarning koeffitsienti 1,74% darajasida saqlanib qoldi, alohida nazoratdagi (potensial "ishonchsiz" kreditlar) kreditlar bo'yicha qoldiq 3,41 trln.yuanni tashkil etdi (koeffitsient – 3,49%).

**XXRsi tashqi qarzining tarkibi**

| <b>Qarz turi</b>                      | <b>2016 yil oxiriga,<br/>mlrd.doll.</b> | <b>2017 yil oxiriga,<br/>mlrd.doll.</b> |
|---------------------------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------|
| <b>Hukumat muassasalarining qarzi</b> | <b>123,9</b>                            | <b>154,8</b>                            |
| <b>Qisqa muddatli qarzlar</b>         | <b>12,2</b>                             | <b>14,4</b>                             |
| Naqd valyuta va depozitlar            | 0                                       | 0                                       |
| Qarzli qimmatbaho qog'ozlar           | 12,2                                    | 14,4                                    |
| Kreditlar va zayomlar                 | 0                                       | 0                                       |
| Savdo kreditlari va zayomlar          | 0                                       | 0                                       |
| Boshqa qarz majburiyatlari            | 0                                       | 0                                       |
| <b>Uzoq muddatli qarzlar</b>          | <b>111,7</b>                            | <b>140,4</b>                            |
| Maxsus qarzlar                        | 0                                       | 0                                       |
| Naqd valyuta va depozitlar            | 0                                       | 0                                       |
| Qarzli qimmatbaho qog'ozlar           | 69,7                                    | 89,0                                    |
| Kreditlar va zayomlar                 | 42,1                                    | 51,4                                    |
| Savdo kreditlari va zayomlar          | 0                                       | 0                                       |
| Boshqa qarz majburiyatlari            | 0                                       | 0                                       |
| <b>Markaziy Bank</b>                  | <b>55,5</b>                             | <b>25,3</b>                             |
| <b>Qisqa muddatli qarzlar</b>         | <b>8,9</b>                              | <b>12,9</b>                             |
| Naqd valyuta va depozitlar            | 8,9                                     | 12,9                                    |
| Qarzli qimmatbaho qog'ozlar           | 0                                       | 0                                       |
| Kreditlar va zayomlar                 | 0                                       | 0                                       |
| Savdo kreditlari va zayomlar          | 0                                       | 0                                       |
| Boshqa qarz majburiyatlari            | 0                                       | 0                                       |
| <b>Uzoq muddatli qarzlar</b>          | <b>46,6</b>                             | <b>12,4</b>                             |
| Maxsus qarzlar                        | 9,4                                     | 9,9                                     |
| Naqd valyuta va depozitlar            | 0                                       | 0                                       |
| Qarzli qimmatbaho qog'ozlar           | 0                                       | 0                                       |
| Kreditlar va zayomlar                 | 0                                       | 0                                       |
| Savdo kreditlari va zayomlar          | 0                                       | 0                                       |
| Boshqa qarz majburiyatlari            | 37,2                                    | 2,5                                     |
| <b>Banklar</b>                        | <b>604,2</b>                            | <b>839,2</b>                            |
| <b>Qisqa muddatli qarzlar</b>         | <b>467,7</b>                            | <b>670,2</b>                            |
| Naqd valyuta va depozitlar            | 302,2                                   | 421,5                                   |
| Qarzli qimmatbaho qog'ozlar           | 46,0                                    | 68,3                                    |
| Kreditlar va zayomlar                 | 119,4                                   | 178,7                                   |
| Savdo kreditlari va zayomlar          | 0                                       | 0                                       |
| Boshqa qarz majburiyatlari            | 0                                       | 1,6                                     |
| <b>Uzoq muddatli qarzlar</b>          | <b>136,4</b>                            | <b>169,0</b>                            |
| Naqd valyuta va depozitlar            | 0                                       | 0                                       |
| Qarzli qimmatbaho qog'ozlar           | 80,0                                    | 104,0                                   |
| Kreditlar va zayomlar                 | 56,2                                    | 64,3                                    |
| Savdo kreditlari va zayomlar          | 0                                       | 0                                       |
| Boshqa qarz majburiyatlari            | 0,2                                     | 0,7                                     |
| <b>Boshqa sektorlar</b>               | <b>427,7</b>                            | <b>445,3</b>                            |
| <b>Qisqa muddatli qarzlar</b>         | <b>312,6</b>                            | <b>325,8</b>                            |
| Naqd valyuta va depozitlar            | 0,1                                     | 0,1                                     |
| Qarzli qimmatbaho qog'ozlar           | 0,4                                     | 2,1                                     |
| Kreditlar va zayomlar                 | 28,5                                    | 36,2                                    |

|                                                            |               |               |
|------------------------------------------------------------|---------------|---------------|
| Savdo kreditlari va zayomlar                               | 283,3         | 273,3         |
| Boshqa qarz majburiyatlari                                 | 0,4           | 14,1          |
| <b>Uzoq muddatli qarzlar</b>                               | <b>115,1</b>  | <b>119,5</b>  |
| Naqd valyuta va depozitlar                                 | 0             | 0             |
| Qarzli qimmatbaho qog'ozlar                                | 21,7          | 29,3          |
| Kreditlar va zayomlar                                      | 78,2          | 73,2          |
| Savdo kreditlari va zayomlar                               | 5,0           | 4,9           |
| Boshqa qarz majburiyatlari                                 | 10,1          | 12,1          |
| <b>To'g'ridan -to'g'ri investitsiyalar: korporativaro</b>  | <b>209,4</b>  | <b>215,4</b>  |
| Investorlar oldida korxonaning qarz majburiyatlari         | 155,3         | 156,2         |
| Korxonalar oldida investorlarning qarz majburiyatlari      | 1,8           | 3,5           |
| o'xshash sohalarda korxonalar oldidagi qarz majburiyatlari | 52,3          | 55,7          |
| <b>Umumiy tashqi qatz</b>                                  | <b>1420,7</b> | <b>1680,0</b> |

Manba: XXRsi davlat valyuta nazorati boshqarmasi ma'lumotlari

XXRsi moliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra, 2017 yil yakuniga kelib, markaziy byudjet davlat qarzining jamg'arilgan summasi 13 477,02 mlrd.yuanni (+12,3%),<sup>1</sup> tashkil etdi, bu esa UXXVM (Umum Xitoy xalq vakillari majlisi) tomonidan belgilangan limit (14 140,83 mlrd. yuanni) chegarasidan chiqmaganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, XXRsini umumiy davlat ichki qarzi 29 947,68 mlrd.yuanni tashkil etdi yoki mamlakat YaIM ni 36,2% ni qamrab oldi. Xalqaro amaliyotda bu ko'rsatkichning cheraviy darajasi 60%ni tashkil etadi.

XXRsi davlat valyuta nazorati boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yil yakuniga kelib, mamlakatning to'lov balansini xalqaro ko'rsatkichlari ikki baravar ijobiy saldo bilan tavsiflandi: joriy operatsiyalar hisobi va moliya hisobi orqali.

Jadval 4.2.3.

### 2017 yildagi XXRsi xalqaro to'lov balansini ma'lumotlari

| kategoriya                                                | Mrld.yuan      | Mrld.doll.   | Mrld. SDR    |
|-----------------------------------------------------------|----------------|--------------|--------------|
| <b>1. Joriy operatsiyalar hisobi</b>                      | <b>1 156,4</b> | <b>172,0</b> | <b>123,1</b> |
| olinishiga                                                | 18 310,5       | 2 714,5      | 1 950,4      |
| to'lanishiga                                              | -17 154,0      | -2 542,5     | -1 827,3     |
| <i>Tovarlarni va xizmatlar</i>                            | 1 444,2        | 215,0        | 153,7        |
| olinishiga                                                | 16 382,2       | 2 428,9      | 1 745,0      |
| to'lanishiga                                              | -14 938,0      | -2 213,9     | -1 591,3     |
| <i>tovarlar</i>                                           | 3 208,9        | 476,1        | 341,6        |
| olinishiga                                                | 14 948,5       | 2 216,4      | 1 592,3      |
| to'lanishiga                                              | -11 739,6      | -1 740,3     | -1 250,6     |
| <i>xizmatlar</i>                                          | -1 764,7       | -261,2       | -187,9       |
| olinishiga                                                | 1 433,7        | 212,5        | 152,8        |
| to'lanishiga                                              | -3 198,4       | -473,6       | -340,6       |
| <b>2. moliyaviy dastaklar va kapital bilan operatsiya</b> | <b>-48,7</b>   | <b>-9,1</b>  | <b>-5,2</b>  |

<sup>1</sup> Доклад Минфина КНР об исполнении центрального и местных бюджетов за 2017 г. на первой сессии ВСНП 13-го созыва (март 2018 г.).

| <b>hisobiga</b>                          |               |              |              |
|------------------------------------------|---------------|--------------|--------------|
| Kapital hisoblar operatsiyalari bo'yicha | -0,6          | <b>-0,1</b>  | <b>-0,1</b>  |
| moliyaviy dastaklar bilan operatsiyalar  | <b>-48,0</b>  | -9,0         | <b>-5,1</b>  |
| <b>3. Rezerv aktivlari</b>               | <b>-613,6</b> | <b>-91,5</b> | <b>-65,2</b> |

Manba: XXRsi davlat valyuta nazorati boshqarmasi ma'lumotlari

Shunday qilib, 16 may 2017 yildagi Xitoy Xalq Banki va Gonkongni davlat pul muomulasi boshqarmasi tomonidan qabul qilingan Xitoy va Gonkong orasida savdo yo'llaridagi 3-mexanizmnini ishga tushirish qarori - moliyaviy bozorni erkinlashtirishdagi muhim bosqich deb tan olindi.



## **5-BOB: XITOVNING ZAMONAVIY INNOVATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

### **5.1. Innovatsiyaning mohiyati va innovatsion siyosat**

Innovatsiya – bu asli inglizcha “innovation” soʻzidan olingan boʻlib, uning mazmuni “yangilik kiritish” degan maʼnoni anglatadi. Bunda yangilik – yangi tartib, yangi anʼana, yangi uul, kashfiyot, yangi hodisa sifatida namoyon boʻladi. Innovatsion soʻzining maʼnosi ingliz tilidagi «innovation» soʻzidan olingan boʻlib, yangilik va yangilik kiritish degan maʼnoni bildiradi. Ishlab chiqarish va mehant tashkilotlarining yangi shakli, xizmat koʻrsatish va boshqaruvda yangi texnologiyalar, mahsulot va xizmatlar turlari koʻrinishida yangiliklardan foydalanish. Innovatsiyaning tadqiqot obykti va predmetiga bogʻliq holda:

- jarayon:
- natija: innovatsion faoliyatning oxirgi jarayoni
- tizim:
- oʻzgarish:

Innovatsiya tushunasi oʻzi birinchi marotaba XIX asrdagi ilmiy tadqiqotlarda qoʻllanilgan. "Innovatsiya" tushunchasining yangi hayoti XX asrning boshlarida, avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter ilmiy ishlarida berila boshlangan. I. Shumpeterning taʼkidlashicha, innovatsiya bu tadbirkorlik ruhiyati bilan ragʻbatlantirilgan ishlab chiqarish omillarini yangi ilmiy-tashkiliy kombinatsiyasidir. Yangilik kiritishning mantiqiy asosi - bu iqtisodiy oʻsish jarayonini tezlashtirishdan iboratdir va innovatsiyalarning rivojlanishida 5 ta oʻzgarishni belgilab berdi:

- Texnologik jarayonlarda yoki ishlab chiqarishni yangi bozor sharoitlarida yangi texnikalardan foydalanish;
- Yangi sifatdagi mahsulotlarni joriy qilish;
- Yangi xom ashyo turlaridan foydalanish;
- Tashkilotlarda ishlab chiqarishni va uning moddiy-texnik taʼminotini oʻzgartirish;
- Yangi bozorlarni paydo boʻlishi.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ilmiy-texnikaviy va innovatsion rivojlanish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Koʻpchilik mamlakatlar samarali ilmiy siyosat, xorij tajribasi asosida innovatsion salohiyatni rivojlanishida mavjud kamchiliklarni tezda bartaraf etishni koʻzda tutadi. Xitoy institutsional va ijtimoiy-madaniy islohatlar, fanlar sifatini oshirishga, texnologiya va bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga, tadqiqot ishlanmalarining tez tijoratlashtirishga yoʻnaltirish boʻyicha eng munosib misol sifatida namoyon boʻlmoqda.

Jahon iqtisodiyotining globallashtirish davrida milliy innovatsion tizimlarning ahamiyati ortib bormoqda. Yangi va yuqori darajadagi ilmtalab, raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishda innovatsiyalardan foydalanmaslikni hech iloji yoʻq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, innovatsiyalar – bu raqobat kurashidagi samarali vosita hisoblanadi. Chunki, ular yangi isteʼmol mahsulotlarini yaratishga, mahsulot tannarxini pasayishiga, sarmoyalar oqimini kirib kelishiga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning imidji yoki reytingini oshirishga, yangi bozorlarning

egallanishiga va ochilishiga, shu jumladan, tashqi bozorlarning ham ochilishiga olib keladi.

Hozirgi davrda deyarli barcha mamlakatlar o'zida milliy innovatsion tizimni shakllantirmoqda. Mazkur tizim quyidagi asosiy belgilarga ega bo'lishi lozim:

1. asosiy e'tibor ilmiy bilimlarni olishga, yangi texnologiyalarni yaratishga va ularni amaliyotga tadbiq etishga qaratilishi zarur;

2. ilmiy-texnikaviy jarayonni rivojlanishini keng tarqatishni ta'minlovchi axborot infratuzilmasini tezlikda tashkil etish;

3. yangi va yuqori texnologiyalar asosida innovatsion jarayonni ilgari xarakatlantirish va ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish;

4. nafaqat, ishlab chiqarishda, balki, barcha boshqa sohalar faoliyatida, jumladan, madaniyatda ham, innovatsiyalarni keng tarqalishiga olib keluvchi ijtimoiy tarkibiy o'zgarishlarning mavjudligi;

5. o'qib o'rganayotgan va yuqori malakali professional kadrlar orasida doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirib borish

Innovatsion salohiyat va "innovatsionlik" darajasi kabi mamlakatlar iqtisodiyotini baholashni bir qator xalqaro tashkilotlar amalga oshirmoqdalar, Xususan, ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz. Ular orasida innovatsion strategiyaga ixtisoslashgan Informatsion texnologiyalar va innovatsiyalar bo'yicha Amerika fondi (The Information Technology & Innovation Foundation - ITIF) ni olsak, u har yili innovatsion siyosat bo'yicha mamlakatlarning integral indeksni (Global Innovation Policy Index-GIPT) nashr etadi. Unda asosan quyidagi mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillar hisobga olinadi:

- savdo va xorijiy sarmoyalar (17,5% o'lchamli koeffitsientida);
- ilm va ilmiy izlanish hamda tajriba konstruktorlik ishlari (IITKI) (17.5);
- ichki bozordagi raqobat (15.0);
- intellektual mulkni himoya qilish huquqi (15.0);
- axborot (informatsion) texnologiyalar (17.5);
- davlat buyurtmasi (10.0);
- yuqori malakali ishchi kuchining immigratsiyasi (7.5%)

Mazkur ITIF reytingi bo'yicha, ya'ni yuqori innovatsionlik indeksiga (samarali innovatsion siyosatli mamlakatlarga) binoan, unga Avstraliya, Kanada, G'arbiy, Shimoliy va Markaziy Yevropa mamlakatlari, AQSh, Yaponiya va Singapur kiradi. BRIKS mamlakatlari orasidan esa, o'rta darajadan yuqori bo'lgan indeksga - Braziliya va Xitoy kiradi va barcha BRIKS mamlakatlarida ushbu indeksni hisoblashda eng ko'p salmoqqa "ilm va IITKI" omili ega.

XXI asrning boshlarida mazkur innovatsion rivojlanish tipidagi davlatlar qatoriga 20 dan ortiq mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Finlyandiya va h.k.) asosan, ularga rivojlangan mamlakatlar kiritilar edi.

Undan tashqari, Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum) doimiy ravishda iqtisodiyotni global raqobatbardoshlik indeksini (Global Competiveness Index - GCI) hisoblaydi, uning tarkibida esa, innovatsion subindeks hisoblanadi.

Jahon innovatsion subindeksida Xitoyning o'rnini bilish uchun biz quyidagi jadval 5.1.1.ga murojaat qilamiz.

**Jahon innovatsion subindeksida Xitoyning o'рни GCI (2001-2017 yy.)<sup>1</sup>**

| mamlakatlar     | 2001-2002 |           | 2008-2009 |           | 2016-2017 |           |
|-----------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
|                 | o'рни     | subindeks | o'рни     | subindeks | o'рни     | subindeks |
| AQSh            | 1         | 6,42      | 1         | 5,60      | 6         | 5,12      |
| Finlyandiya     | 3         | 6,35      | 5         | 5,53      | 1         | 5,62      |
| Tayvan          | 4         | 6,19      | 8         | 5,26      | 11        | 5,06      |
| Shvetsiya       | 6         | 5,81      | 6         | 5,53      | 3         | 5,58      |
| Shveysariya     | 24        | 5,27      | 2         | 5,64      | 2         | 5,60      |
| Yaponiya        | 23        | 5,28      | 3         | 5,65      | 4         | 5,56      |
| Germaniya       | 15        | 5,49      | 4         | 5,54      | 5         | 5,55      |
| Isroil          | 26        | 5,21      | 13        | 5,10      | 7         | 5,43      |
| Niderdaniya     | 14        | 5,54      | 9         | 5,20      | 8         | 5,41      |
| Buyuk Britaniya | 10        | 5,56      | 17        | 4,91      | 9         | 5,36      |
| Avstriya        | 16        | 5,45      | 12        | 5,16      | 10        | 5,30      |
| XXR             | 54        | 4,05      | 32        | 4,18      | 48        | 4,25      |

Yuqoridagi jadval 1. dan ko'rinib turganidek, bu yo'nalishda yetakchilikni hech bir davlat bir tekisda ushlab turolmagan, bu esa, ilm-fanning doimiy ravishda taraqqiy etib borayotganini anglatadi.

Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, bu ko'rsatkichdagi yetakchi mamlakatlarning barchasi (Tayvan bundan istisno) rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi va bu pozitsiyada faqatgina AQSh ikki davr mobaynida o'z yetakchiligini ushlab turishga erishgan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi davrda esa, mazkur yo'nalishdagi bu xolat umuman o'zgarib ketganligini ko'rishimiz mumkin.

## 5.2.XXRning innovatsion siyosati

Ma'lumki, hozirgi davr iqtisodiyotida innovatsiyalarning roli ortib bormoqda. Yangi va yoqori darajadagi ilmtalab, raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishda innovatsiyalardan foydalanmaslikni hech iloji yoq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, innovatsiyalar – bu raqobat kurashidagi samarali vosita hisoblanadi. Chunki, ular yangi iste'mol mahsulotlarini yaratishga, mahsulot tannarxini pasayishiga, sarmoyalar oqimini kirib kelishiga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning imidji yoki reytingini oshishiga, yangi bozorlarning egallanishiga va ochilishiga, shu jumladan, tashqi bozorlarning ham ochilishiga olib keladi.

Ta'kidlash joizki, shu kunlarda XXR sining 2010-2020-yillarga mo'ljallangan fan va texnikani rivojlantirishning strategik rejasi amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda “sifat” o'zgarishlariga o'tish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, mamlakat YaIMda IKTning salmog'ini, yuqori texnologik korxonalarni sonini va

<sup>1</sup>Schwab K., Porter M., Sachs J. The Global Competitiveness Report 2001-2002. World Economic Forum, Gi 2001.P. 32-33 ([http://www3.weforum.org/docs/WEF\\_GlobalCompetitivenessReport\\_2001-02.pdf](http://www3.weforum.org/docs/WEF_GlobalCompetitivenessReport_2001-02.pdf)/ от 03.10.2012); Schw Porter M. The Global Competitiveness Report 2008-2009. P. 12-13([http://www3.weforum.org/docs/WEF\\_GlobalCompetitivenessReport\\_2008-09.pdf](http://www3.weforum.org/docs/WEF_GlobalCompetitivenessReport_2008-09.pdf)/ от 03.10.2012); Schwab K., Sala-i-Martin X. The Global Competitiveness Report 2012-2013. P. 14-15 ([http://www3.weforum.org/docs/WEF\\_GlobalCompetitivenessReport\\_2012-13.pdf](http://www3.weforum.org/docs/WEF_GlobalCompetitivenessReport_2012-13.pdf)/ от 03.10.2012).асосида муаллиф томонидан тузилди.

IKTning eksportdagi ulushini ko'paytirishga qaratilgan siyosat amalga oshirilmoqda.

2001 yilda, ya'ni Xitoy Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lgandan so'ng, narxlar omili evaziga, mamlakatning yetarlicha raqobatbardosh mahsulotlarini rivojlangan yuqori texnologik mahsulotlar bozoriga kirib kelishi uchun to'siqlar kamaytirildi. Uning natijasida, Xitoy birinchi marotaba 2006-yilda AQShni qoldirib, IKT mahsulotlari eksporti bo'yicha, dunyoning yirik eksorteriga aylandi. Hozirgi davrda Xitoy innovatsiyalar sohasida muhim ishtirokchiga aylanib, OESR ma'lumotiga ko'ra, mamlakatda ilmiy izlanish va ishlanmalar harajatlari bo'yicha, ustunlikni uning xususiy sektori egallagan bo'lib, uning hissasiga 62,4%, ilmiy tekshiruv institutlariga - 25,9%, oliy ta'lim muassasalari hissasiga - 10,5% harajatlar to'g'ri kelmoqda. Agar, ilgari mamlakat iqtisodiyoti faqat, tovar va xizmatlarni sonini ko'paytirishga yo'naltirilgan bo'lsa, endilikda u, xususiy sektorni innovatsion rivojlantirishga qiziqtirib, fan va biznes orasidagi integratsiyani ta'minlashga harakat qilmoqda.<sup>1</sup>

Aynan, shu maqsadlarni amalga oshirish uchun, Xitoy o'zida "Yuqori texnologik industrial parklar"ni va "Fan va texnikani rivojlantirish parklari"ni hamda texnoparklarni tashkil etdi.

Xitoy texnoparklari boshqa mamlakatlardagi texnoparklardan quyilagilar orqali farqlanadi:

- ✓ ular, odatda, industrial zonalardan tashqarida joylashib, yirik ilmiy va injener markazlar atrofida yig'ilgandir;
- ✓ mazkur parklar mintaq va shaharlarga yaxshi integrallashgan bo'lib, ular mahalliy ma'muriyat bilan uzviy bog'liqlikda faoliyat ko'rsatadilar;
- ✓ davlat jiddiy siyosiy rahbarlikni taxminlaydi, moliyaviy tomondan qo'llab-quvvatlaydi va ularni boshqaradi;
- ✓ ular xorijiy investorlarni jalb qiladigan ustuvorliklarga va soliq imtiyozlariga egadir;
- ✓ ularda sotsialistik ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan tadbirkorlik menedjmentiga o'tish holatlari ko'payib bormoqda.

Xitoy yuqori texnologik sektorining rivojlanish jarayoni evolyutsion va kompleks xarakterga ega bo'lib, u ilg'or tarmoqlarni rivojlantirishda, ilmtalab korxonalar sonini ko'paytirishda, iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda, mamlakat YaIM ni va xalq farovonligi hamda Xitoy iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Xitoyda xususiy va davlat sektorining ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlariga qo'yayotgan sarmoyalari 70ga 30 nisbatida bo'ldi. Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi xodimlar soni, ularning maoshlari va moddiy-texnik ta'minot yaxshilandi. Mamlakatda texnoparklar markaziy shahar va shimoliy-sharqiy provinsiyalarni hisobga olgan holda, butun mamlakat bo'ylab, amaliyotga tadbic

---

<sup>1</sup> <http://russian.people.com.cn/31521/6565896.html> va Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г

etilmoqda Ularda tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish faoliyati bilan band bo'lgan 16,5 mingga yaqin korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

2020-yilga kelib, XXRda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va yangi izlanishlarga qo'yiladigan kapital mablag'lar ulushini Xitoy YaIM da 2,5 % gacha o'sishi; bundan tashqari, fan va texnikaning iqtisodiyotdagi o'rnini belgilovchi koeffitsienti 60 % gacha o'sishi; tashqi, texnik qaramlik 30 % gacha pasayishi ko'zda tutilgan. Xitoy hukumati tomonidan ishlab chiqilgan "2006-2020 yillarda fan va texnika sohasida o'rta hamda tez su'ratlarda rivojlanish davlat rejasining asosiy holatlari"da innovatsion va ilmiy faoliyatning keyingi taraqqiyotini kuchaytirish lozimligi o'ta muhim masala sifatida belgilandi<sup>1</sup>.

Xitoy iqtisodiyotining dinamik rivojlanishida va mamlakatga innovatsion resurslarning kirib kelishida erkin iqtisodiy hududlar salmoqli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, ulardagi soliq imtiyozlari va preferensiyalarining mavjudligi.

Xitoy innovatsion rivojlanishida, ayniqsa, kichik innovatsion biznesni rivojlanishiga quyidagi holatlar ta'sir etdi:

- Innovatsion ishlab chiqarishda arzon ishchi kuchini ishlatish siyosati;
- Xorijiy kompaniyalarning ishlab chiqarish faoliyatiga va ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatiga muayyan imkoniyatlarni berilishi;
- Jahon bozori talablariga tezroq javob bera oladigan kichik innovatsion biznesga davlat tomonidan muayyan sharoitlarning yaratilishi.

Xitoy Yaponiya va Janubiy Koreyalardan farqli o'laroq, texnologiyalarni import qilish bilan birga, ularni tez o'zlashtiradi va uning asosida yangi mahsulotlarni yaratadi. 1 yuan sarf etilgan texnologiyalar importini o'zlashtirish va uning texnik innovatsiyasiga, Xitoy atigi 0,07 yuan sarflaydi. Yaponiya va Janubiy Koreya esa, industrial o'sish davrida 5 dan 8 yuangacha sarflangan.<sup>2</sup>

Shuni ta'kidlash joizki, Xitoyda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni moliyalash yildan-yilga ko'payib bormoqda. Agar, 2002 yilda mazkur sohani moliyalashtirish hajmi mamlakat YaIM ning 1.06%ni tashkil etgan bo'lsa. 2017 yilga kelib, uning hajmi 2,12% ga ko'paygan (\$18,8 mlrd.dan \$257,3 mlrd.gacha, ya'ni 13,6 marotabaga oshdi)<sup>3</sup>.

Ta'kidlash joizki, Xitoy xususiy kompaniyalari davlatning ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalari bilan faol hamkorlik qilib, ularning ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy qilish jarayonida hamda ularni moliyalashtirishda davlat orqali ishtirok etadilar. Ya'ni, davlat sanoat ishlab chiqarishidagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun xususiy sarmoyalarning katalizatori vazifasini bajaradi, innovatsion sohada tadbirkorlik sektorini rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, ularga kerakli infratuzilmalarni barpo qilishga yordam beradi, soliq imtiyozlarini taqdim etadi, kadrlar muammosini hal qilishda ishtirok etadi, davlat ta'lim tizimi doirasida ilmiy xodimlar va kerakli mutaxassislarini tayyorlab beradi.

---

<sup>1</sup> Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г

<sup>2</sup> Cao C. China innovation challenge. Nottingham university, 2010.

<sup>3</sup> Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatdagi davlat va tijorat banklari tomonidan kichik va innovatsion biznes hamda xususiy tadbirkorlikka, xususan ularning modernizatsiyalash va texnologik yangilanishiga moliyaviy ko'mak berish, zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini yanada kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholining bandligini ta'minlanishida, ichki iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarining ko'payishiga va minglab oilalar daromadlarini ortishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### 5.3.Xitoyning zamonaviy innovatsion rivojlanish xususiyatlari

Xitoyning bu soha bo'yicha egallayotgan o'rniga kelsak, aytish lozimki, mazkur yo'nalishdagi mamlakatning o'rni 1-va 3-davrlar bo'yicha, deyarli o'zgarishga yuz tutmaganligini va 2-davrdagina Xitoy biroz ilgarilaganligini ko'ramiz.

Shu o'rinda aytish lozimki, Osiyo mamlakatlari orasida mazkur ko'rsatkichning eng tez o'sish sur'atlari Xitoy Xalq Respublikasida kuzatilmoqda.

Agar, 1996-yilda bu ko'rsatkich atigi 0,6% o'sgan bo'lsa, 2009-yilda 1,65% ni va 2014-yilga kelib esa, u 1,9%ni tashkil etgan. Undan tashqari, mana shu fundamental va amaliy ilmiy izlanishlar hamda ishlanmalarga sarf-harajatlarni ko'paytirish xitoy sanoatidagi yuqori texnologik tarmoqlardagi yaratilgan qo'shimcha qiymatning tez o'sishi uchun imkon yaratdi. Agar, 1998-yilda u 25 mlrd.doll.bo'lgan bo'lsa, 2010-yilga kelib, u 10 barobardan ortiqqa o'sdi, ya'ni, 265 mlrd. doll.ga yetdi.

Birinchi navbatda, u personal komp'yuterlar (PK) va ularning ehtiyot qismlari hamda ofis texnikasini ishlab chiqarish yutuqlari bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur sohada Xitoyning jahon ishlab chiqarishidagi ulushi deyarli 50%ga yetdi.

Diagramma 5.3.1.

#### Xitoyni IITKI ga yo'naltirilgan sarf-harajatlarini jahon umumiy harajatlaridagi ulushi, %da<sup>1</sup>



<sup>1</sup>Schwab K., Porter M., Sachs J. The Global Competitiveness Report 2001-2002. World Economic Forum, Gi 2001. P. 32-33 ([http://www3.weforum.org/docs/WEF\\_GlobalCompetitivenessReport\\_2001-02.pdf](http://www3.weforum.org/docs/WEF_GlobalCompetitivenessReport_2001-02.pdf) от 03.10.2012); Schw Porter M. The Global Competitiveness Report 2008-2009. P. 12-13([http://www3.weforum.org/docs/WEF\\_GlobalCompetitivenessReport\\_2008-09.pdf](http://www3.weforum.org/docs/WEF_GlobalCompetitivenessReport_2008-09.pdf) от 03.10.2012); Schwab K., Sala-i-Martin X. The Global Competitiveness Report 2012-2013. P. 14-15 ([http://www3.weforum.org/docs/WEF\\_GlobalCompetitivenessReport\\_2012-13.pdf](http://www3.weforum.org/docs/WEF_GlobalCompetitivenessReport_2012-13.pdf) от 03.10.2012).асосида муаллиф томонидан тузилди.

Xitoyda ekologik toza texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish hamda ularni yo'lga qo'yish bo'yicha barqaror chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Soha ekspertlarining fikricha, Xitoy 2020 yilga kelib, jahonda energiya samaradorligi va uni tejash ko'rsatkichlari bo'yicha 7-o'ringa chiqishi mumkin.

Mamlakatda yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish ularning hajmini ortishi va ular eksportining kengayishi bilan kechdi. Oxirgi 10 yil mobaynida mazkur yuqori texnologik mahsulotlarni eksporti 8 marotabaga ortdi. Bunda uning jahon umumiy eksportidagi ulushi 7.6% dan 22.5%ga o'sdi, ya'ni deyarli 3 barobarga o'sgan.


Xitoy hozirgi davrda yuqori texnologik mahsulotlarni eksport qiluvchi dunyoning yetakchi mamlakatlari qatoridan joy olishga jadal harakat qilmoqda. Oxirgi paytlarda Xitoy hukumati "keng ko'lamdagi ichki bozorni ilg'or texnologiyalar bilan to'ldirish" siyosatini amalga oshirmoqdalar. Faqatgina, Xitoy hukumati arzon narx siyosati bilan innovatsion sohada ilgarilab ketish murakkabligini anglab, yangi standartlar, patentlar, litsenziyalar va boshqa intellektual aktivlar ustida ish olib bormoqdalar.

"2006-2020 yillarda fan va texnika sohasida o'rta hamda tez su'ratlarda rivojlanish davlat rejasining asosiy holatlari"da innovatsion va ilmiy faoliyatning keyingi taraqqiyotini kuchaytirish lozimligi o'ta muhim masala sifatida belgilandi.

Xitoyning Fan va texnika Vazirligi 2020 - yilga kelib, Xitoyni innovatsion tipdagi mamlakatlar qatoriga kelib qo'shilishini taxmin qilmoqda. Bularga xususan, AQSh, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Finlyandiya kiradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda innovatsion faoliyat taraqqiyotining bir butun ilmiy-texnik tizimini yaratish orqali ta'minlanadi. Endlikda, XXR ning ilmiy-texnik sohasiga 38,5 mln. kishi jalb etilgan bo'lib, uning Fan-texnika sohasidagi bandlar soni bo'yicha yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olishini ko'rsatmoqda.

Diagramma 5.3.2.

**Xitoyning dunyo yetakchi mamlakatlari orasida YaIM dagi ITTKI sarf-harajatlarning o'sish istiqbollari, % da<sup>1</sup> (bashorat)**



<sup>1</sup>A.V.Vaxobov, D.A.Tojiboyeva, Sh.X.Xojibakiyev. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'lliqma/i.f.d. A.V.Vaxobovning umumiy tahriri ostida.-T.:Moliya,2011. asosida muallif tomonidan qayta ishlandi.




Diagramma 3.dan ko'rinib turganidek, ITTKI lari bo'yicha jahonda yetakchilikni Yaponiya qoldan boy bermay kelishiga asosiy sabab, u ertangi kunda ham innovatsion rivojlanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va bu yo'nalishni hanuzgacha hech bir davlatga berishni hayoliga keltirmaydi. Chunki, uning yetakchi sohasi – bi yoqori texnologik mahsulotlar va robot texnikasini ishlab chiqarishdan iboratdir.

Mana shulardan kelib chiqqan holda, biz endi dunyo yetakchi mamlakatlarining YaIM dagi ITTKI sarf-xarajatlarining o'sishi va uning kelajak istiqbollarini tahlil etadigan bol'sak, ular quyidagi holatlarni keltirib chiqishini bashorat qilish mumkin.

Undan tashqari, dunyo yetakchi mamlakatlarining ITTKIlarini moliyalashtirishdagi ulushini o'zgarish tendensiyalarini ham hisoblab chiqish mumkin

Diagramma 5.3.3.

**Dunyo yetakchi mamlakatlarining ITTKIni moliyalashtirishdagi ulushini o'zgarish istiqbollari, %da<sup>1</sup>**



Demak, dunyo yetakchi mamlakatlarining ITTKIni moliyalashtirishdagi ulushini o'zgarish istiqbollariga murojaat qiladigan bo'lsak, unda AQSh pozitsiyasini intensiv ravishda o'sib borishini va 2030 yilga kelib esa, u Xitoy bilan tenglashish ehtimoli mavjudligini kuzatish mumkin. Shular qatorida yana bir ko'rsatkichni yodga olish o'rinli bo'lib, u dunyo yetakchi mamlakatlari YaIM da ITTKIga ajratilgan xarajatlarining ulushi hisoblanadi. Bu yo'nalishda yetakchilikni yana Yaponiya va AQSh mamlakatlariga berishga to'g'ri keladi va hatto ularning kelajakda ham (bashorati) mazkur pozitsiyadagi o'z o'rinlarini saqlab qolish ehtimoli juda katta ekanligiga shubha yoqdir.


Xitoy yuqori texnologiyalar sohasidagi ishlarini amalga oshirish niyatida, o'zining maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etib, ular orasidagi Shenchjen zonasi aynan, yuqori va yangi texnologik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi xudud deb belgilandi. Soha ekspertlarning fikricha, mana shu MIZlarni tashkil etish iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga butunlay o'zgartirishga yordam beradi va dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan tezlikda joy olishga olib keladi. Bu fikrlar poyonida, ko'proq ijobiy natijalar yotadi albatta, lekin ular MIZlardagi o'ziga xos muammolarni ham mavjudligini tan olmoqdalar.

<sup>1</sup>O'sha asosida muallif tomonidan qayta ishlandi.



Diagramma 5.3.4.

**Xitoyning dunyo yetakchi mamlakatlari orasida YaIMdagi ITTKI ga  
ajratilgan harajatlarini ulushi va bashorati, %da<sup>1</sup>**



XX asr oxirida Xitoy hukumatining eng yirik masalalaridan biri – bu mamlakatni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda fan va ta’limga tayanishdan iboratdir. Mana shu masalani hal yetishda hukumat ilmiy-texnikaviy yo’nalishda umumiy rejalashtirishni fan va texnikani rivojlantirishning quyidagi uch darajadan tashkil topgan modelini ishlab chiqdi. Bu modelni amalga oshirish uchun esa, asosiy ijtimoiy rivojlanish va iqtisodiy qurilish plasdarmiga xizmat qiluvchi innovatsion ilmiy izlanishlar, yuqori va yangi texnologik industriyani yaratish va rivojlantirish hamda mamlakatda fundamental ilmiy izlanishlarni kuchaytirish ishlarini amalga oshirish belgilanib olindi. Mamlakat ilmiy izlanishlarning deyarli hamma sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Ta’kidlash joizki, shu kunlarda XXR sining 2010-2020-yillarga mo’ljallangan fan va texnikani rivojlantirishning strategik rejasi amalga oshirilmoqda. Bu yo’nalishda “sifat” o’zgarishlariga o’tish ko’zda tutilgan. Shu bilan birga, mamlakat YaIMda IKTning salmog’ini, yuqori texnologik korxonalarni sonini va IKTning eksportdagi ulushini ko’paytirishga qaratilgan siyosat amalga oshirilmoqda.

Xitoy birinchi marotaba 2006-yilda AQShni qoldirib, IKT mahsulotlari eksporti bo’yicha, dunyoning yirik eksorteriga aylandi. Hozirgi davrda Xitoy innovatsiyalar sohasida muhim ishtirokchiga aylanib, OESR ma’lumotiga ko’ra, mamlakatda ilmiy izlanish va ishlanmalar harajatlari bo’yicha, ustunlikni uning xususiy sektori egallagan bo’lib, uning hassasiga 62,4%, ilmiy tekshiruv institutlariga - 25,9%, oliy ta’lim muassasalari hissasiga - 10,5% harajatlar to’g’ri kelmoqda. Agar, ilgari mamlakat iqtisodiyoti faqat, tovar va xizmatlarni sonini ko’paytirishga yo’naltirilgan bo’lsa, endilikda u, xususiy sektorni innovatsion

<sup>1</sup>A.V.Vaxobov, D.A.Tojiboyeva, Sh.X.Xojibakiyev. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O’quv qo’llanma. T.:Moliya, 2011.asosidamualliftomonidanqaytaishlandi.

rivojlantirishga qiziqtirib, fan va biznes orasidagi integratsiyani ta'minlashga harakat qilmoqda.<sup>12</sup>

Xitoyda innovatsion faoliyatni tartibga solishning asosiy aktlari quyidagi qonunlar orqali amalga oshiriladi:

- “Ilmiy va texnologik yutuqlarni amaliyotga joriy etish” (15.05.1996y. va 2015 y.da yangilangan);

- “Fan va texnikani ommaviylashtirish” va “Kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash” (29.06.2002 y.).

Undan tashqari, 2017 yil mobaynida Xitoy iqtisodiyotining alohida tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha turli hujjatlar ishlab chiqildi. Xususan:

- ✓ “Iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi kuchli drayverlarini shakllantirish, eski va yangi o'sish drayverlarini almashtirishni jadallashtirish, xizmat ko'rsatishni yaxshilash, innovatsion boshqarish to'g'risida” gi XXR Davlat kengashining № 4-sonli 13.01.2017yildagi farmoni;

- ✓ “Innovatsion qishloq infratuzilmasini investitsiyalashning institutsional mexanizmi to'g'risida”gi XXR Davlat kengashi kanselyariyasining 06.02.2017 yildagi rahbarlik ko'rsatmasi;

- ✓ “Uezd darajasida innovatsion o'sishni rivojlantirish to'g'ridida”gi XXR Davlat kengashi kanselyariyasining 11.05.2017 yildagi № 43 sonli ko'rsatmasi;

- “Ikkinchi navbatdagi namunali Innovatsion faoliyat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlarini qurishni tashkillashtirish to'g'risida”gi XXR Davlat kengashi kanselyariyasining 15.06.2017 yildagi № 54 sonli ko'rsatmasi;

- “Innovatsion institutsional mexanizm asosida ekologik qishloq xo'jaligini rivojlantirish to'g'risida”gi XKP MQ kanselyariyasining 2017 yilning sentyabr oyida qabul qilingan ko'rsatmasi;

- “Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini kengaytirish to'g'risida” gi XXR Davlat kengashi kanselyariyasining 07.09.2017 yildagi №80 – sonli xabarnomasi (XXRda 8ta pilot zonalarini tashkil etish to'g'risida)

- “Innovatsion rivojlantirishni jadallashtirish va mahsulotlarni yetqazib berish zanjirini faol qo'llash to'g'risida”gi XXR Davlat kengashi kanselyariyasining 05.10.2017 yildagi №84-sonli ko'rsatmasi.

Mamlakatda XXR Davlat kengashi bosh vaziri Li Ketsyan tomonidan ilgari surilgan innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha “innovatsion faoliyat va tadbirkorlikni ommaviylashtirish” konsepsiyasiga yangi impuls berildi.

2017-yilda XXR Davlat kengashi mazkur konsepsiyani amalga oshirishni davom ettirib, 27.07.2017-yilda “Innovatsion rivojlanish va tadbirkorlikni ommaviylashtirish strategiyasini jadal amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma”ni ishlab chiqdi. Unda innovatsion va ommaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 5ta yo'nalish ko'rsatib o'tildi.

---

<sup>12</sup><http://russianpeoplecom.cn/31521/6565896.html>

vaГодовойобзорсостоянияэкономикииосновныхнаправленийвнешнеэкономическойдеятельностиКитайской НароднойРеспубликив 2017 году, Пекин, 2018 г

Xitoy tadbirkorlari uchun innovatsion sohalardan biri – bu maishiy elektronika sohasi bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Passiv komponentlarni qayta ishlagan holda, asosiy materiallardan foydalana olish imkoniyati;

- Asosiy materiallar, komponent hamda texnologik nuqtai nazaridan, Multi-Level Cell Texnologiyasi Pecearch (turli darajadagi texnologik tadqiqotlar) asosida ish yuritish;

- Yuqori sifatli tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish moduli;

- Chip komponentlari, yangi elektrik komponentlar, yuqori chastotali komponentlar, yangi litiy-ioniy batareyalar, yangi plat hamda elektron komponentlar ishlab chiqarish;

- Zararli moddalarni bartaraf etish hamda atrof-muhitni himoya qilish;

- Dala tranzistorlari, yuqori darajali tranzistorlar, kichik chip rezistorlari, kondensatorlar, rele va h.k.

Xitoy innovatsion rivojlanish strategiyasi 2020 yilgacha bo‘lgan davrda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Milliy innovatsion tizimni shakllantirish;
- Innovatsion yo‘naltirilgan jamiyatga aylanish;
- Ilg‘or innovatsion iqtisodiyotni yaratish;
- Endogen innovatsiyalarga o‘tish.

Ta’kidlash joizki, Xitoy xususiy kompaniyalari davlatning ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalari bilan faol hamkorlik qilib, ularning ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy qilish jarayonida hamda ularni moliyalashtirishda davlat orqali ishtirok etadilar. Ya’ni, davlat sanoat ishlab chiqarishidagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun xususiy sarmoyalarning katalizatori vazifasini bajaradi, innovatsion sohada tadbirkorlik sektorini rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, ularga kerakli infratuzilmalarni barpo qilishga yordam beradi, soliq imtiyozlarini taqdim etadi, kadrlar muammosini hal qilishda ishtirok etadi, davlat ta’lim tizimi doirasida ilmiy xodimlar va kerakli mutaxassislarni tayyorlab beradi.

Xitoy o‘zida xalqaro hamjamiyat e’tirof etadigan “yashil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish” tizimini yaratdi. Mamlakatda yanada barqaror o‘sishni ta’minlash maqsadida, hukumatning “Innovatsion texnologiyalar” strategiyasi ishlab chiqildi. 2009-yilda mazkur dasturda ko‘zda tutilgan ishlarni amalga oshirishga kirishdi. Unga ko‘ra quyidagi 4ta asosiy tarmoqlarni rivojlantirish lozimdir:

- ✓ energiya tejovchi iqtisodiyotni shakllantirish uchun energiyani qayta ishlab, undan yangi toza energiyani barpo qilish;

- ✓ ekologik toza transport tarmoqlarini yaratish, yashash sifatini yaxshilash va atrof-muhitni himoya qilish uchun toza suv zahirasi yaratish;

- ✓ uglerod chiqindilarini kamaytirish, suv resurslarini himoya qilish;

- ✓ samarali energiya iste’mol qiluvchi texnologiyalar va sanoat uchun yangi texnologiyalarni yaratish.

Xitoy hukumati “ekologik” kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni jiddiy ravishda kengaytirish bilan shug‘ullanib, mamlakatda “Yashil tarmoqli” vechur kompaniyalarning soni 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 40%ga oshdi.

Hozirda mamlakatda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, banklar tomonidan kreditlarni berish osonlashtirildi va davlat banklari kredit uchun qo'shimcha 14 mlrd.yuan ajratilib, ularning umumiy hajmi 68 mlrd.yuanga etkazildi. Nodavlat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarni kafolatlash uchun qo'shimcha 12 mlrd.yuan mablag' ajratildi.<sup>1</sup>

Innovatsion maqsadli yo'nalishlarning biri –bu toza ko'mirni iste'mol qilish, okean bioresurslaridan, bio yonilg'i ishlab chiqarish; quyosh energiyasidan foydalanish, kislorodni angidriddan tozalash, yangi avlod muqobil energiya manbalarini izlab topish, atom energetikasini rivojlantirish ko'zda tutildi.

Xitoy hukumatining elektronika tasnifidagi elektron tadbirkorligi shiddat bilan rivojlanmoqda.Xitoy bugungi kunda mamlakatning qishloq joylarida uy xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshqarishning 4 yillik strategik rejasini ilgari surib, elektronika tadbirkorligi uchun inkubatorlarga o'xshash sanoat ishlab chiqarish parklarini bosqichma-bosqich yaratib, ularga doimiy ravishda moliyaviy yordamlarni ko'rsatmoqda.

Xitoy iqtisodiyotining dinamik rivojlanishida va mamlakatga innovatsion resurslarning kirib kelishida erkin iqtisodiy hududlar salmoqli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, ulardagi soliq imtiyozlari va preferensiyalarining mavjudligi.

Xitoy innovatsion rivojlanishida, ayniqsa, kichik innovatsion biznesni rivojlanishiga quyidagi holatlar ta'sir etdi:

- Innovasion ishlab chiqarishda arzon ishchi kuchini ishlatish siyosati;
- Xorijiy kompaniyalarning ishlab chiqarish faoliyatiga va ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatiga muayyan imkoniyatlarni berilishi;
- Jahon bozori talablariga tezroq javob bera oladigan kichik innovatsion biznesga davlat tomonidan muayyan sharoitlarning yaratilishi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatdagi davlat va tijorat banklari tomonidan kichik va innovatsion biznes hamda xususiy tadbirkorlikka, xususan, ularni modernizatsiyalash va texnologik yangilanishiga moliyaviy ko'mak berish, zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini yanada kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholining bandligini ta'minlanishida, ichki iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarining ko'payishiga va minglab oilalar daromadlarini ortishida muhim rol o'ynaydi.

---

<sup>11</sup>China Customs Service & Ministry of Knowledge Economy.

## II-BO‘LIM: GLOBALLASHUV JARAYONIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI TURLI OMILLARNING XITOIY TASHQI SAVDOSIGA TA’SIRI

### 6-BOB: JAHON IQTISODIYOTIDAGI ZAMONAVIY O‘ZGARISHLARNING XITOIY IQTISODIY RIVOJLANISH MODELIGA TA’SIRI

#### 6.1. Globallashuv jarayonida jahon iqtisodiyotidagi zamonaviy o‘zgarishlarning Xitoy iqtisodiy rivojlanish modeliga ta’siri

Xitoy o‘z «Ochiqlik va iqtisodiy islohotlar» jarayonini amalga oshira borib va bu yo‘nalishlarda tug‘ilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, o‘z iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini barqaror tarzda ushlab turishga muvaffaq bo‘ldi. Agar, XXRsi YAIMning hajmi 1979- yilda 404 mlrd. yuandan iborat bo‘lgan bo‘lsa, u 2018 yilda 13,28 trln. AQSH doll.ni tashkil etib, deyarli 3,3 marotabaga oshdi.

Shu bilan birga, hozirgi davrda (2018y.) mamlakat tashqi savdo aylanmasining hajmi 4623,0 mlrd.doll. gacha o‘sdi (1978 yildagi 20,6 mlrd doll.ga solishtirganda, taxminan, 224,4 baravarga ko‘paydi va uning o‘rtacha yillik o‘sishi 13% atrofida bo‘ldi.). Xalqaro savdodagi mamlakatning ulushi ham 0,7 % dan 13,4% ga ko‘payib, 32-o‘rindan, 2-o‘ringa chiqib olishga muvaffaq bo‘ldi.

XXRsi hattoki, 2006-yilda 14%lik o‘sish sur‘atlarini ko‘rsatib kelgan. Ammo, 2008 -yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davridan boshlab, u o‘z barqarorligini yoqota boshladi. 2010-yilda

Xitoy iqtisodiy rivojlanish **modeliga** o‘zgarishlar kiritilishi sababli, u oxirgi yillargacha (2012 y.dagi 8% dan) doimo 1-darajali mamlakat bo‘lib kelgan bo‘lishiga qaramay, 2013-yildan boshlab, uning sur‘atlari biroz pasaya bordi va hozirgi kunga kelib, u 2019 yil ma’lumotiga binoan, 6,1%gacha pasaydi.

Oxirgi besh yilda XXRsi jahon iqtisodiyotining taxminan 1/3 qismini barqaror ta’minlab kelmoqda, xususan, 2016 yilda bu ko‘rsatkich 33,2%ga, 2017 yilda esa, 35,2%ga o‘sgan, Xitoy iqtisodiyotining o‘zi esa, 2,3 trln.doll.ga ko‘payishi<sup>1</sup> kutildi, ammo, u amalda 1,7 trln.doll.gagina ko‘paydi xolos

Mavjud bashoratga binoan, 2017–2019-yillarda global iqtisodiyot hozirgi 75 trln.doll.dan yana qo‘shimcha 6,5 trln.doll.ga ko‘payishi (\$81,5 trln.) kutilmoqda. Ammo, lekin, jahon iqtisodiyoti hamda Xitoydagi iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini sekinlashuviga qaramasdan, mamlakatning jahon YaIMga qo‘shgan hissassi sezilarli darajada bo‘lmoqda<sup>2</sup>.

Xitoyning “Qattiq qo‘nim” imkoniyatlaridan xavfsiragan g‘arb ekspertlari, agarda, u amalga oshirilsa, jahon iqtisodiyotining barbod bo‘lishiga olib kelishi mumkinligini ta’kidlamodalar. Mavjud ma’lumotlarlar hisob-kitobiga qaraganda,


<sup>1</sup>URL:<http://www.imf.org/en/News/Articles/2017/08/15/pr17326-china-imf-executive-board-concludes-2017-article-iv-consultation>(01.09.2017)

<sup>2</sup> Roach S. Why China is central to global growth // World Economic Forum. 2016.September URL: <https://www.weforum.org/agenda/2016/09/why-china-is-central-to-global-growth> (дата обращения: 01.09.2017). экономика

XXR o'sish sur'atining 1%ga pasayishi, Jahon iqtisodiyoti YaIMini o'sish sur'atini 0,2 %li punktga qisqartirishi mumkin<sup>1</sup>.

Rasm 6.1.1.

**Jahon YaIMda XXRning ulushi % da (PPS -SOQPda), (2019 y.)\***



\*Манба: Рейтинг стран по ВВП 2019 года основан на данных Международного валютного фонда и Focus Economics asosida tuzildi.

Ma'lumki, ko'p mamlakatlar uchun Xitoy yirik savdo hamkori va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar manbai hisoblanadi. Xitoy iqtisodiyotida bo'layotgan o'zgarishlar ko'pgina tovar va xom ashyo bozorlari holatiga mintaqaviy va jahon iqtisodiyoti nobarqarorligini kuchaytirish orqali ahamiyatli tarzda ta'sir qiladi. Shuning uchun, Xitoyning barqaror rivojlanishini global iqtisodiyotni mustahkam o'sishini qo'llab-quvvatlovchi muhim bir omil sifatida qarash lozim.

XXR uchun tashqi omil juda muhim hisoblanadi, chunki, Pekin uchun, mamlakatning imidjini mos ravishda, qo'llab - quvvatlash, nisbatan yoqori o'sish sur'ati va barqarorlikni saqlash zarur hisoblanadi. Undan tashqari, Xitoy xorijda o'zi qabul qilayotgan globalizatsiya va jahon moliyaviy bozorlari bilan integratsiya qilish chegarasidagi qadamlariga "ishonch votumi" ni oshirishdan juda ham manfaatdordir. Shuningdek, mamlakat uchun, nisbatan, yoqori o'sish sur'ati va barqarorlik hamda miqyosli ichki ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish juda ham muhim hisoblanadi.

XKPsining XVIII s'ezdida XKPni 100 yilligi (2021 yilgacha) munosabati bilan o'z oldiga mamlakatda o'rtamiyona "syaokan" jamiyatini qurish maqsadi qo'yildi. Bu esa, mamlakat YaIM hajmini va daromadning aholi jon boshiga to'g'ri kelishini 2010-yilga nisbatan, 2 barobarga ko'paytirishni ko'zda tutadi. Bunda Pekin mazkur maqsadga erishishning asosiy ahamiyatiga urg'u bermoqda, chunki, o'rta sinf qatlamining ko'payishi (600 mln.kishiga yetkazish) ichki talabning oshishiga yordam beradi va iqtisodiyot o'sishini yangi manbalariga o'tqazishga javob beradi.

<sup>1</sup> Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г

Mana shunaqa vazifalarni o'z oldiga qo'yish, XXR iqtisodiy siyosatini prinsipial o'zgarishiga olib keladi. Amalda, u islohotlarning birinchi yillarida bo'lib o'tgan, qanday qilib bo'lsa ham, iqtisodiyotning jadal sur'atlarda rivojlanishidan voz kechish va keyinchalik, hayotga tadbiq etila boshlagan, "innovatsion, yashil, ochiq va inklyuziv rivojlanish" konsepsiyasida o'z aksini topadi va u muvozanatli, hartaraflama o'sishga o'tadi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, dunyo mamlakalari makroiqtisodiy siyosatlarini amalga oshirishda birinchi o'ringa adolatni va odillikni qaror toptirishni qo'yadilar va unga eng muhim tamoiil sifatida qarashadi. Barcha dunyo mamlakatlari o'z kuch-qudratlarini muvofiqlashtirishni maqsad qilib, unda quyidagi tamoillarga asoslanadi:

- makroiqtisodiy siyosatlarini amalga oshirishda birinchi o'rinda adolatni va odillikni qaror toptirish;

- xalqaro moliyaviy institutlarga a'zo bo'lishni jadallashtirish va xalqaro moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish;

- xalqaro valyuta tizimini takomillashtirish, proteksionizm siyosatiga qarshi chiqish va savdo hamda investitsiya siyosatlarini amalga oshirishda erkin va ochiq muhitni ta'minlash.

Xalqaro hamjamiyat rivojlanoayotgan mamlakatlarga yordam berish va qo'llab quvvatlashga keng e'tibor qaratishi talab qilinadi. Bu yo'nalish bo'yicha XXRning quyidagi sa'yi-harakatlarini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin:

- XXR hukumati jahon moliyaviy inqirozi davrida, ShHTga a'zo mamlakatlari 1 mlrd AQSH dollarini kredit sifatida ajratdi va shu harakati bilan, mazkur mamlakatlarga inqiroz ta'siridan chiqib ketishga ko'maklashdi;

- XXR faol tarzda xalqaro moliya kompaniyalarining savdo va moliya loyihalarida ham ishtirok etadi va Xalqaro valyuta fondi kvotasini o'sishiga o'zining hissasini qo'shib keladi;

- Shuningdek, u ko'plab turdagi investitsiyalarini AQSH, Yevropa ittifoqi mamlakatlari va ShHT mamlakatlari kiritishi bilan xalqaro maydonda o'z o'rniga egadir.

Hozirgi davrda Xitoy Xalq Respublikasi o'zining YaIM ni hajmi bo'yicha dunyoning 2-iqtisodiyoti hisoblanib (AQShdan keyingi), u oxirgi 40 yil ichida o'z iqtisodiy rivojlanishining yo'qori sur'atlari bilan butun dunyoni lol qoldirib kelayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, 2007-2018 yillarda mamlakat iqtisodiyotidagi 3-sektorning (xizmatlar sohasi) ulushi 43% dan 52,3% ga o'sdi. Shu bilan birga, ikkilamchi sektorning (sanoat va qurilish) ulushi mana shu davrda 47% dan 39,8 %gacha qisqardi. Oxirgi yillarda xizmatlar sohasining mamlakat YaIM dagi ulushi 50%dan ortib, u Xitoy iqtisodiyotining muhim o'sish manbayiga aylanmoqda. Agarda, mazkur tendensiya saqlanib qoladigan bo'lsa. Uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi roli yanada ortadi. Xitoy ijtimoiy fanlar

---

<sup>1</sup> Full text of President Xi's speech at opening ceremony of BRICS Business Forum .

akademiyasining bashoratiga ko'ra, 2020-yilga kelib, uchinchi sektorning ulushi 59 %gacha va 2030-yilga kelib esa, 72 %ga yetqazish mo'ljallanmoqda<sup>1</sup>.

Xitoyning iqtisodiy o'sish sur'atlari keyingi yillarda, ya'ni, 2015-2018 yillar natijalariga ko'ra, pasayib bordi va ular, mos holda: 6,9; 6,7; 6,9 va 6,6% larni tashkil etdi, ular orasidagi (oxirgi 25 yil ichidagi eng past ko'rsatkich) 2018-yildagi 6,6%ni tashkil etdi<sup>2</sup>.

XXRsi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning XIII-besh yillik rejasiga binoan, (2016-2020yy.) o'z iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga, jiddiy o'zgartirishlar kiritildi. Xitoy xalq respublikasi o'z YaIM (yalpi ichki mahsulot) ning umumiy miqdoriy ko'rsatkichlari (PPS-SOQP) bo'yicha, AQSHni quvib o'tib, jahonning birinchi iqtisodiyotiga aylandi. Ammo, miqdoriy o'sish resurslar yetishmasligi, ekologiyaning yomonlashuvi va qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Xitoy hukumati iqtisodiy islohotlar yillarida, erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, iqtisodiy rivojlanishning yangi strategiyasini ishlab chiqishga kirishdi.

Shuningdek, Xitoy hukumati banklarning qarz berish qobiliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'z monetar siyosatni olib bordi va shu orqali uy xo'jaliklari iste'molini o'sishini ta'minladi. Ushbu qilingan ishlar Xitoy mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin kamayish xavfini anchayin bartaraf etdi. Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari, shu jumladan AQSH, yilni salbiy iqtisodiy o'sish bilan yakunlagan bir davrda, Xitoyni YAIMi 2008 – 2009-yillarda, mos ravishda, 9.6% va 9.2% ga o'sdi<sup>3</sup>. 2010-yilga kelib esa, u iqtisodiy inqirozdan oldingi davrdagi o'zining eksport salohiyatini tikladi va uning YAIM hajmi 10.4%ga o'sdi<sup>4</sup>.

Xitoy hozirgi davrda erkin savdo zonolari bo'yicha 15 ta kelishuvlar ishtirokchisi, savdo-iqtisodiy munosabatlar bo'yicha, 2ta kelishuvlar (XXR-Gonkohg va Xitoy-Aomen) qatnashchisi va XXRni kontinental qismi va Tayvan orasidagi 1ta chegaralangan iqtisodiy hamkorlik kelishuvi ishtirokchisi hisoblanadi. Shuningdek, Xitoy 2001 yildan boshlab, Jahon savdo tashkiloti (JST) a'zosi hisoblanib, unga a'zolik davridan buyon, Xitoyda tarif va bojlar pasaytirildi, korxonalar o'z tashqi savdo operatsiyalarini mustaqil amalga oshirishlari uchun mabjud chegaralar bekor qilindi. Xususan, mana shu yillar davomida XXRning import tovarlariga belgilangan bojxona tariflarini umumiy darajasi 15,3% dan to 9,8%gacha pasaydi.

Aytish lozimki, XIII-besh yillikda (2016–2020) Xitoy oxirgi iste'molini YaIMni o'sishiga qo'shgan hissasi 65%dan ortiqroqqa oshishi kutilmoqda, bu esa uni mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy omilga aylantiradi.

XXRning eng asosiy kuchlari hamda ularni iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qilayotgan omillar haqida to'xtalib, swot tahlil jadvaliga e'tiborimizni qaratamiz.

---

<sup>1</sup> XXR Fanlar Akademiyasining bashorat ma'lumotlari.

<sup>2</sup> [www.ereport.ru](http://www.ereport.ru) va *World Economic Situation and Prospects 2019*. NewYork, 2019.R. 158

<sup>3</sup> China Outlook 2015 [kpmg.com/cn](http://kpmg.com/cn) [kpmg.com/globalchina](http://kpmg.com/globalchina), -P. 23

<sup>4</sup> O'sha joyda, -P. 25



XXR bo'yicha swot tahlil<sup>1</sup>

|                                                   | XXR                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|---------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| eng asosiy kuch-lari                              | 1.Investitsiyalar;<br>2.Eksport; va 3.provinsiylarning raqobatbardoshligi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| muammolari                                        | to'la qonli innovatsion emasligi, ekstensiv va yuqori darajada resurstaqligi hamda ekologik jihatdan juda ham iflosligi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| Iqtisodiy rivojlanishiga halaqit beruvchi omillar | 1.Resurslar tanqisligi; 2.Ishchi kuchining yetishmasligi va uning qiymatining o'sishi;<br>3.Mamlakatga kapital oqimini kirib kelishini pasayishi va eksport mahsulotlarining qimmatlashishi;<br>4.Investitsiyalar samaradorligining pasayishi;<br>5.Ekologik muammo;                                                                                                                                                                                                      |
| Ustinliklari                                      | 1.Investitsiyalar hajmi bo'yicha Osiyo mintaqasida yetakchi ekanligi;<br>2.dunyo bo'yicha 1-eksporter davlat;<br>3.aholisini soni bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turishi;<br>4.Jahon iqtisodiyotida YaIM hajmi bo'yicha, AQShdan keyingi 2-o'rinda turishi (\$14,4 trln.);<br>5. kapitalni infratuzilmalarga qazib olish sanoatiga kiritishi;<br>6.mamlakat jamg'arma normasining 50% dan oshib ketganligi.                                                                   |
| o'ziga xosligi                                    | 1.Ijtimoiy ehtiyojlarga harajatlarning ortishi;<br>2.Iqtisodiyotdagi nomutanosibliklarning ortishi (tengsizliklarni chegaralanganligi va barqarorlikni ushlab turish uchun inflyatsiya ustidan qattiq nazoratning mavjudligi;<br>3.“Tug'lishni rejalashtirish dasturi”ni oqibatlari ishchi kuchini defitsitini vujudga keltirib, uning natijasida, iqtisodiy o'sishda pasayishlar ro'y berdi;<br>4.Eksportga yo'naltirish modelidan, ichki iste'molni qondirishga o'tish. |

XVF ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda XXRning global iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasi 30%<sup>2</sup>ni tashkil etdi va u 100dan ortiq davlatlarning yirik savdo hamkoriga aylandi. Ularning umumiy YaIM - jahon YaIMning 80%ini tashkil


<sup>1</sup> Гринин Л. «Китайская и индийская модели экономического развития и перспективы мирового лидерства», Мировые тренды и российские шансы. Экономический рост без демократии ADB (Asian Development Bank). Key Indicators for Asia and the Pacific 2012 NIC (National Intelligence Council). Global Trends 2030: Alternative Worlds; <http://russian.doingbusiness.org/rankings; asosida tuzildi>.

<sup>2</sup> Jahon Bankining ma'lumotiga ko'ra, 2012-2016 yillarda AQSh, EI va Yaponiya davlatlarining global iqtisodiyotga qo'shgan hisssasi, mos holda, 10%, 8% va 2% larni tashkil etgan, XXR niki esa, 34%ga yetgan.

qilib, xalqaro tovarlarni yetqazib berish zanjirida yetakchi o‘rinlarni egallaydi va iste’molni o‘shirish sur’ati bo‘yicha o‘z o‘rnini jahonning yetakchi mamlakat sifatida mustahkamlashga erishdi.

Xitoyning huquqiy tizimi – fuqarolik huquqiy modeliga asoslangan sotsialistik huquqiy tizim hisoblanadi. Xitoy Konstitutsiyasida ko‘rsatilganidek, siyosiy hukumat mahalliy darajadan boshlab, provinsial va milliy darajalarda xalq tomonidan amalga oshiriladi. Xitoyning fuqarolik huquqiga sobiq sovet ittifoqi va kontinental evropa fuqarolik tizimi o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Rasm 6.1.2.



Manba: Гринин Л. «Китайская и индийская модели экономического развития и перспективы мирового лидерства», Мировые тренды и российские шансы. Экономический рост без демократии ADB (Asian Development Bank). Key Indicators for Asia and the Pacific 2012 NIC (National Intelligence Council). Global Trends 2030: Alternative Worlds; <http://russian.doingbusiness.org/rankings; asosida tuzildi>

XKP sining XVIII s'ezdida XKP ni 100 yilligi (2021 yilgacha) munosabati bilan o'z oldiga mamlakatda o'rtamiyona "syaokan" jamiyatini qurish maqsadi qo'yildi. Bu esa, mamlakat YaIM hajmini va daromadning aholi jon boshiga to'g'ri kelishini 2010 yilga nisbatan, 2 barobarga ko'paytirishni ko'zda tutadi. Bunda Pekin mazkur maqsadga erishishning asosiy ahamiyatiga urg'u bermoqda, chunki, o'rta sinf qatlamining ko'payishi (600 mln.kishiga yetkazish) ichki talabning oshishiga yordam beradi va iqtisodiyot o'sishini yangi manbalariga o'tqazishga javob beradi. Mana shunaqa vazifalarni o'z oldiga qo'yish XXR iqtisodiy siyosatini prinsipial o'zgarishiga olib keladi. Amalda u islohotlarning birinchi yillarida bo'lib o'tgan qanday qilib bo'lsa ham, iqtisodiyotning jadal sur'atlarda rivojlanishidan voz kechish va keyinchalik hayotga tadbqiq etila boshlagan, "innovatsion, yashil, ochiq va inklyuziv rivojlanish" konsepsiyasida o'z aksini topadi va u muvozanatli, har taraflama o'sishga o'tadi.

Shuni ta'kidlash joizki, Xitoy hanuzgacha o'zining tashqi savdo hajmlari va jahon YaIMdagi ulushi (PPS-SOQP) bo'yicha, o'z yetakchiligini saqlab kelmoqda va dinamik rivojlanishni davom etmoqda.

Undan tashqari, Xitoy turli sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha ham jahonda o'z yetakchiligini saqlab kelmoqda, xususan, bu sohalar:

avtomobilsozlik, po'lat prokati, sement, radioelektron mahsulotlar hisoblanadi. Shular qatorida ta'kidlash joizki, 2014-yildan buyon, XXR qurol-aslahalarni eksporti bo'yicha dunyoda AQSH va Rossiyadan keyingi, 3-o'rinni egallab kelmoqda. XXR iqtisodiy rivojlanishining va iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Iqtisodiy o'sishning yangi modelini shakllantirish (unda eksportning muhimligini saqlab qolgan holda, ichki iste'mol talabini oshirib borish);
- Sanoat ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya qilish;
- Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish;
- Kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- Milliy va mahalliy eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Shuni ta'kidlash lozimki, sanoat ishlab chiqarishining 60%i va mamlakat tashqi savdosining 38%i XXR davlat sektori hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatda hozirgi davrda 112 ta davlat monopoliyasi mavjud bo'lib, 277 ta hissadorlik kompaniyalari ham davlatning nazoratidadir. Undan tashqari, mamlakatdagi kapitalning asosiy qismi bank aktivlarida yig'ilgan bo'lib, ularning 80%i davlat banklari hisoblanadi.

Undan tashqari, Xitoy Umumjahon intellektual mulk tashkiloti (UJIM - BOIC) a'zosi bo'lib, rezidentlari tomonidan olingan patentlari bo'yicha 2010 yildan buyon 1-o'rinni egallab kelmoqda (801 ming ariza 2014 y.). 2017 yilda Jahon Banki tomonidan tuzilgan Doing business reytingi bo'yicha, Xitoyning "xalqaro savdo" pozitsiyasi 96-o'ringa chiqdi.

Hozirgi kunda (2018y.) Xitoyda ekin ekiladigan yerlarning umumiy maydoni 108 mln.ga. (gektar) ga teng bo'lib, uning asosiy qismiga dehqonchilik rayonlari hisoblangan mamlakatning shimoliy-sharqiy va shimolida joylashgan tekisliklar hamda Yanszi daryosi bo'ylari kiradi. Mamlakatning shimoliy-sharqiy qismida bug'doy, jo'hori, qand lavlagi, dukkakli ekinlar ekiladi. Shimoliy Xitoy tekisligida esa, paxta, don ekinlari va hosildorligi yuqori bo'lgan jo'hori navlari ekiladi.

XKPsi XIX s'ezdida ko'tarilgan masalalardan yana biri bu – XXR tashqi iqtisodiy faoliyatining ustivor maqsadlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- "Bir tasma - bir yo'l" (BTBY)<sup>1</sup> tashabbusini ilgari surish;
- yuanni internatsionalizatsiyalash (baynalminallashtirish);
- monetary siyosatni erkinlashtirish;
- investitsion iqlimni takomillashtirish.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun va "Xitoy orzusi"ni amalga oshirish uchun tinch xalqaro holat va ularning ishonchli mexanizmlarini ta'minlash lozimdir. Bu yo'nalishda Xitoy mamlakatning siyosiy va iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash ustida ishlamoqda.

2017-2018 yillarda mana shunday yondoshuvlarni amalga oshirish chegarasida va milliy rivojlanish masalalarini hal etishda o'z faolligini namoyish etib bordi. Mazkur harakatlarning jadallashuvi va yo'nalishlar diapozonining kengligi murosasiz xarakterga ega bo'ldi, uning natijasida Xitoy ko'p sohalarda sezilarli yutuqlarga erishishga yordam berdi.

---


<sup>1</sup> To'liq nomi «Экономический пояс Шелкового пути» и «Морской Шелковый путь 21-asr».

**XXRning JSTga a'zo bo'lgandan so'nggi davrdagi tashqi savdo aylanmasining o'sish dinamikasi (2001-2018 yy.)<sup>1</sup>**

| Yillar | Tashqi savdo aylanmasi |           | Eksport     |          | Import      |          | Saldo (qoldiq) |
|--------|------------------------|-----------|-------------|----------|-------------|----------|----------------|
|        | Mrld .doll.            | O'sish, % | Mrld. doll. | O'sish,% | Mrld. doll. | O'sish,% | Mrld. doll.    |
| 2001   | 509,7                  | 7,5       | 266,1       | 67,8     | 243,6       | 8,2      | 22,6           |
| 2005   | 1421,9                 | 23,2      | 762,0       | 28,4     | 660,0       | 17,6     | 102,0          |
| 2010   | 2972,8                 | 35,0      | 1577,0      | 31,3     | 1394,8      | 38,7     | 183,1          |
| 2015   | 3954,5                 | -8,4      | 2274,5      | 2,8      | 1680,0      | -14,1    | 594,5          |
| 2017   | 4104,4                 | 11,4      | 2263,4      | 7,9      | 1840,9      | 15,9     | 422,5          |
| 2018   | 4623,0                 | 11,2      | 2487,4      | 10,9     | 2135,6      | 11,6     | 351,8          |

Xitoy iqtisodiyotini rivojlanishining zamonaviy (joriy) tendensiyalari undagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini 6,5–6,0%lar oralig'ida to'xtab, u o'zining asosiy sekinlashuv bosqichiga o'tganligi ko'rsatmoqda. Bu holat esa, Xitoy hukumati uchun iqtisodiy islohotlar jarayonini chuqurlashtirish va moliyaviy yo'qotish hamda tavakkallarni qisqartirish imkoniyatini tug'diradi. Xitoy iqtisodiyotida yuz berayotgan tartibga solish va nazorat qilish jarayonlarini e'tiborga olgan holda, aytish lozimki, unda iqtisodiy nobarqarorlikni va tartibga solib bo'lmaydigan iqtisodiy o'sishni sekinlashuv tavakkalligi chegaralanganlik ehtimoli nisbatan ancha kichikdir.

**XXRsining eksport hamkorlari (2018 y.)**



Manba: India – China Political Relations [Electronic resource] // Embassy of India in Beijing, China. – Mode of access: <http://indianembassybeijing.in/political-relation.php> (date of access: 04.11.2018) asosida tuzildi.

Xitoyning oxirgi yillardagi iqtisodiy o'sish dinamikasi shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan sekinlashuv jarayonini boshqariladigan jarayon ekanligi hamda

<sup>1</sup> Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г <http://russian.china.org>. asosida qayta ishlandi.

hattoki, rivojlanishning yangi modeliga o'tish bosqichida ham mamlakat hukumatini imkon qadar o'sishni muvozanatlashtirish. Ular bilan birga, o'tgan yillardagi iqtisodiyotda yig'ilib qolgan disbalanslarning o'rni, uning tizimiy qayta qurilishi, moliyaviy sektorning barqarorligi yetarlicha kattadir. Shu sababli Xitoy uchun hozirgi davrda quyidagi 3 ta eng dolzarb vazifalar hisoblanadi:

- 1.yetarlicha yoqori o'sish sur'atlarini ushlab turish;
- 2.xalq xo'jaligini isloh qilish va tizimiy o'zgartirish;
- 3.iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash.

Lekin, mavjud ichki iqtisodiy muammolar va yoqori darajadagi tashqi noaniqliklarning mavjudligi sharoitida mazkur kompleks masalalarni bir vaqtda hal etish oson emasdir. Xitoy iqtisodiy rivojlanishining yangi fazasi "yangi normal holat" degan termin bilan yuritila boshlandi.

Koronavirus tufayli XXRning o'zi birgina tashqi savdosida 17% qiaqarishiga olib keldi. Xorijiy investitsiyalar oqimi pasayib bormoqda yoki, ba'zi holatlarda to'xtab qoldi; Davlatning o'zi Koronavirushga qarshi chora tadbirlar ishlab chiqdi va 1 trln.doll.dan ortiq mablag' ajratdi

2020 yildagi salbiy omillar ta'sirida davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromad qismini shakllantirishda jiddiy xatarlar bo'lishi kutilmoqda. QQS, importdan olinadigan aktsiz solig'i, Xitoydan keltirilayotgan import tovarlaridan (uskunalar, butlovchi qismlar, tayyor iste'mol tovarlaridan) olinadigan bojlarning kamayishi natijasida, byudjet tushumlari qisqardi.

Bundan tashqari, Xitoydan xomashyo va butlovchi qismlarni oladigan korxonalarda ishlab chiqarish hajmining pasayishi va mahalliy yirik korxonalar faoliyatining to'xtab qolishi natijasida soliqlar va tushumlardan ham yo'qotishlar bo'lmoqda.

Barcha yirik soliq to'lovchilar Moliya vazirligi, DSQ, Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga soliqlar bo'yicha 2020 yilgi yangi prognozlarni jo'natishi va buni ta'minlash uchun davlatdan qanday yordam kerakligini ko'rsatishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

O'z navbatida, qisqa muddat ichida ichki va tashqi tovar bozorlarida paydo bo'lgan bo'shliqlarni aniqlash va ularni mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar egallashini ta'minlash zarur. Mutasaddi tashkilotlar esa barcha xo'jalik sub'ektlari uchun adolatli raqobatni shakllantirishga va ularga zarur yordamni berishga kuch sarflashi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, 2020-2025 yillar davomida xususiylashtirish rejalashtirilgan davlat ulushiga ega korxonalar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish kerak. Dunyo iqtisodiyotidagi murakkablashib borayotgan vaziyat sharoitida mamlakat aholisi (milliy xavfsizlikni, farovonlik darajasini oshirishni, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashni, ta'lim va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarni ta'minlaydigan) ijtimoiy rentadan mahrum bo'lmasligi lozim.

Koronavirus va boshqa xavfli infektsiyalar, kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni o'z vaqtida ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatdan kelib chiqib, do'stona Xitoyning iqtisodiyoti va aholisini (ayniqsa koronavirusdan zarar

ko'rganlarni) qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish ham maqsadga muvofiq.

O'z navbatida, yangi model, ichki iste'molni kengaytirishga, innovatsiyalarni joriy etish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga asoslangandir; Mazkur murakkab vazifalarni hal etish esa, Xitoy hukumatidan mamlakatda har taraflama islohotlarni amalga oshirishni va iqtisodiyotning muvozanat darajasini oshirishni talab qildi. Bu yo'nalishdagi Pekinning ushbu vazifalarni mamlakatdagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini haddan tashqari pasayishiga yo'l qo'ymasdan va jiddiy moliyaviy tebranishlarsiz hal etish qobiliyati jahon iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Xitoy tashqi savdosining rivojlanishiga sezilarli tarzda jahon iqtisodiyotining jonlanishi, umumiy talabning ortishi va asosiy tovar bozorlarida jahon narxlarining o'sishi ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, eksportni qo'llab-quvvatlashga va importni ratsionallashtirishga qaratilgan tashqi savdoni qattiq ma'muriy tartibga solish saqlanib qoldi. Tashqi savdoning milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish bilan birga, Xitoyni jahon iqtisodiy tizimidagi pozitsiyasi ham mustahkamlanib bordi. Xitoy o'zining jahon savdosidagi (17,08%) ulushi orqali u islohotlar davrida dunyoning savdo qiluvchi yetakchi davlatiga aylandi. U dunyo eksportida 1- o'rinni, dunyo importida esa, 2- o'rinni egallamoqda.

2015-2019 yillarda XXR-AQSh savdo aloqalaridagi muammolarning yuzaga kelishi va ularning kuchayib ketishi, Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelining o'zgarishiga, ya'ni uning eksportga yo'naltirishdan, savdo oqimini ichki iste'molga yo'naltirish lozimligi bilan (jahon bozorida xom ashyo va tovarlar narhini o'shishi oqibatida, Xitoy tovarlari va xizmatlariga bo'lgan talabning pasayishi) bog'liq bo'ldi.

## **6.2.Xitoy mintaqalari rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash**

Oxirgi yillarda XXRda mintaqalarni muvofiq ravishda rivojlantirish kursi amalga oshirila boshladi. Mazkur kura esa, "13-besh yillikda Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish" rejasining IX bobida belgilab qo'yilgan bo'lib, XXR Raisi Si Zinpin 2017 yilning 18-20 dekabr kunlari Pekindagi iqtisodiy ishlar bo'yicha kengash majlisida 3 ta asosiy vazifalarni qo'yadi:

1.Barcha Xitoy mintaqalarida istiqomat qiladiganlar uchun bir xilda ta'lim olish, yu-joylar va ish o'rinlari bilan, ijtimoiy, meditsina xizmati va madaniy-sport xizmatlari bilan ta'minlash va mehnatga layoqati bo'lmagan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash. Hozirgi davrda mazkur masalalar tegishli ravishda hal qilinmagan.

2.Asosiy infratuzilmalar bilan ta'minlanish masalasida ko'proq muvozanatga erishish;

3.Mintaqalarda aholining yashash farovonliklarini tekislash (ularni daromadlaridagi farqlarni yo'qotish, mehnat natijalarini baholash va taqsimlash, qashshoqlikka qarshi kurash). 2020 yilda "qashshoq uyezd" terminidan voz kechish rejalashtirildi.

2017-yilning mart oyida XXR Davlat Kengashi “13-besh yillikda Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish” rejasini tasdiqladi. Ushbu hujjat 81 ta asosiy ijtimoiy xizmatlar ro‘yhatini o‘z ichiga oladi va ularning har biri muayyan qatlamlar uchun mo‘ljallangan.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilmalarning o‘zgargarishlarga mos ravishda va aholining mehnat tanlovining o‘zgarganligi sababli, bandlikning tarmoqlararo tarkibi o‘zgardi, qishloq xo‘jaligida bandlar ulushi qisqarmoqda va xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandlarning soni, nisbatan o‘tib borishi aniqlandi.

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida, davlatning ijtimoiy siyosati, faqat jamiyat a‘zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo‘lmasdan, balki mavjud ishchi kuchlarining ish bilan bandligini ta‘minlashni ham o‘zichiga oladi. Ayniqsa, aholining o‘sishi yoqori sur‘atlar bilan borayotgan va o‘ziga xos aholi tarkibiga ega bo‘lgan respublikamizda ishchi kuchining ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

XXRda XIII-besh yillikda asosiy umumiy xizmatlarni ko‘rsatish sohasini rivojlantirish ko‘rsatkichlariga kelsak, ularni biz jadval 6.2.1.dan ko‘ramiz:

Jadval 6.2.1

**XXRda XIII-besh yillikda asosiy umumiy xizmatlar sohasini  
rivojlantirish ko‘rsatkichlari\***

| Ko‘rsatkichlar                                                                                                                                                     | 2015 y. | 2020 y. | Jami             |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|---------|------------------|
| <b>Asosiy umumiy ta‘lim</b>                                                                                                                                        |         |         |                  |
| 9 yillik majburiy ta‘limning qamrov ko‘effitsienti (%)                                                                                                             | 93      | 95      | -                |
| <b>Korxonalaridagi asosiy bandlik</b>                                                                                                                              |         |         |                  |
| Shaharlardagi bandlar sonining o‘sishi                                                                                                                             | -       | -       | >50 mln. k..     |
| Qishloq joylaridan kelgan ishchi migrantlarning kasbiy malakasini oshirish                                                                                         | -       | -       | 40 mln. k./marta |
| <b>Asosiy ijtimoiy sug‘urtalash</b>                                                                                                                                |         |         |                  |
| Asosiy nafaqani sug‘urtalashda ishtiroki, (%)                                                                                                                      | 82      | 90      | -                |
| Asosiy meditsinani sug‘urtalashda ishtiroki, (%)da                                                                                                                 | -       | >95     | -                |
| <b>Asosiy meditsina va sog‘likni saqlash</b>                                                                                                                       |         |         |                  |
| • tug‘ayotgan ayollar orasidagi o‘lim ko‘effitsienti (1/100 ming)                                                                                                  | 20,1    | 18      | -                |
| • bolalar o‘limi ko‘effitsienti (‰)                                                                                                                                | 8,1     | 7,5     | -                |
| • 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasidagi o‘limi ko‘effitsienti (‰)                                                                                                  | 10,7    | 9,5     | -                |
| <b>Asosiy ijtimoiy xizmatlar</b>                                                                                                                                   |         |         |                  |
| • Katta yoshdagi kishikar uchun kasalxonalardagi 1 kishi uchun joyning kasalxonalardagi umumiy joylardagi nisbati (%)                                              | -       | 30      | -                |
| • Aholining alohida juda ham ehtiyojmand qatlamiga (juda ham nochor va qarashga muhtij) ijtimoiy yordam berishni tashkillashtirish ko‘effitsienti (%) <sup>2</sup> | 31,8    | 50      | -                |
| <b>Asosiy uy-joy bilan ta‘minlanish</b>                                                                                                                            |         |         |                  |

|                                                                                                        |          |          |                |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|----------|----------------|
| • Shahar va posyolkalardagi, haroba uylarni rekonsntruksiya qilish                                     | -        | -        | 20 mln.xonadon |
| • Qishloq joylaridagi avariya holatidagi uylarni rekonsntruksiya qilish                                | -        | -        | 5,85 mln.uylar |
| <b>Asosiy umumiy madaniyat va sport</b>                                                                |          |          |                |
| • Kutubxonalardagi kitobxonlarning yillik oqimi (kishi/marta)                                          | 589 mln. | 800 mln. | -              |
| • Madaniy markazlar ishtirokchilarni yillik oqimi (kishi/marta)                                        | 507 mln. | 800 mln. | -              |
| • Televideniye va radio tarmoqlari qamrovi (%)                                                         | >98      | >99      | -              |
| • Kitobxon fuqarolarni umumiy darajasi (%)                                                             | 79,6     | 81,6     | -              |
| • Muntazam sport bilan shug'ullanuvchi kishilar soni                                                   | 364 mln. | 435 mln. | -              |
| <b>Nogironlarga asosiy ijtimoiy xizmat ko'rsatish</b>                                                  |          |          |                |
| • og'ir nogironlik shaklidagi kishilarda ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlash qamrovi koeffitsienti (%) | -        | >95      | -              |
| • asosiy rehabilitatsiya bo'yicha nogironlarga xizmat ko'rsatish qamrovi koeffitsienti (%)             | -        | 80       | -              |

\*Manba: Социально-экономическое развитие Китая в цифрах 2017-03-01 21:10:14 | Russian.News.Cn

Aholining kam ta'minlangan qatlami orasidagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan, o'rtacha daromad 5 958 yuanni, o'rta sinfda – 22 495 yuanni, yuqori darajada ta'minlangan qatlamniki – 64 934 yuanni tashkil etdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha harajatlar darajasi 18 322 yuanni (+7,1%, narx omilini hisobga olgan holda esa, – 5,4%) tashkil etib, shahar aholisining o'rtacha harajatlar darajasi 24 445 yuandan iborat bo'ldi (+5,9%, narx omilini hisobga olgan holda esa, – 4,1%). Qishloq aholisining o'rtacha harajatlar darajasi to 10 955 yuangacha kopaydi (+8,1%, narx omilini hisobga olgan holda esa, – 6,8%)<sup>1</sup>.

2017 yilda Xitoydagi Engel koeffitsienti 29,3% (-0,8 p.p.) ni tashkil etdi, shu jumladan, shahar uy xo'jaligida u 28,6%ga, qishloqda esa, – 31,2%ni tashkil etdi.

Bazaviy pensiya tizimiga kiritilgan ishlayotgan fuqorolar soni shu davrda 22,7 mln.k.ga ko'payib, ular 401,99 mln.k.ni tashkil etdi, shaharlar va qishloqlardagi bazaviy pensiya tizimiga kiritilgan aholining soni 512,55 млн.k.ga ko'paydi (+4,08 mln.k.), ulardan bazaviy meditsina sug'urtasi tizimida qatnashayotganlar soni – 1176,64 mln.k.ni (+432,72 mln.k.) tashkil etdi. Ishsizlik

<sup>1</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.23-24; World Economic Situation and Prospects 2019. New York, 2019.R. 158



bo'yicha sug'urtalash tizimidagilar soni - 187,84 mln.k. (+6,95 mln.k.) dan iborat bo'ldi<sup>1</sup>.

Mana shu davr mobaynida Xitoyda mintaqaviy siyosatni amalga oshirish uchun muvofiq ravishda mantiqiy chora-tadbirlar qabul qilindi. Undan tashqari, mana shu faoliyat doirasida 10-besh yillikka mo'ljallangan va keng miqyosli Xitoy Garbiy hududlarini o'zlashtirish dasturi amalga oshrila boshladi. Bir yil mobaynida mazkur hududda umumiy hajmi 494,1 mlrd.yuanlik investitsiya orqali 17 ta yangi yirik ob'yektlar qurilishi boshlandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xitoyning sharqiy mintaqasida innovatsion faoliyat kuchayib, yil yakuniga ko'ra, ITTKI harajatlari uchun YaIMning 4,13%i sarflandi va mintaqada 3193 ta davlat darajasidagi yangi yoqori texnologik kompaniyalar tashkil etildi.

---

<sup>1</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.23-24; World Economic Situation and Prospects 2019. New York, 2019.R. 159

## **7-BOB: XXRNI INVESTITSION SIYOSATI VA UNING ALOHIDA IQTISODIY ZONALARI**

### **7.1. Investitsiyaning mohiyati va davlatning investitsion siyosati**

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib «qoʻyish», «mablagʻni safarbar etish», «kapital qoʻyilmasi» maʼnosini beradi. Keng maʼnoda investitsiya mablagʻni koʻpaytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Koʻpgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obʼektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy neʼmatlar hamda ularga doir huquqlar tarzida taʼriflanadi. Investitsiya tushunchasiga yangi kapitalni barpo etish uchun sarflangan harajat sifatida ham taʼrif berish oʻrinli. Investitsiyalar – bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, yaʼni yangi kapitalni barpo etishga ketgan harajatlardir. Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qoʻyilgan kapitaldir.

Davlat xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

- 1) moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlar berish; kreditlarni sugʻurtalash va kafolatlash;
- 2) nomoliyaviy: yer uchastkalari ajratish; zaruriy infrastruktura bilan taʼminlash; texnik yordam koʻrsatish.

Xorijiy investitsiyalar (XI)- bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir. Xorijiy investitsiyalar - ichki investitsiyalardan farqli holda, tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi va ularga taʼsir etuvchi omillar 2 ga boʻlinadi, ular:

1) **iqtisodiy omillar:** ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy oʻsish surʼatlarining bir maromda ushlab turilishi; jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti taʼsiri ostida olib borilishi); ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi; jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini oʻsib borishi; ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi; xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.

2) **siyosiy omillar:** kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy xududlar (EIX), offshor xududlari va boshqalar); rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish; iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash); bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

#### **Investitsiyalarni quyidagi turlari mavjud**

**Moliyaviy investitsiyalar** tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qogʻozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi

**Moddiy investitsiyalar** tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi

**Aqliy (intellektual)** investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Tarkibiy tuzilishiga ko'ra investitsiyalar yalpiva sof investitsiyalarga ajratiladi.

**Ijtimoiy investitsiyalar** jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi. Xorijiy investitsiyalar ko'lamiga qarab xalqaro doiradagi ko'rinishiga ham ega bo'ladi. Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o'rtasida harakatda bo'lgan investitsiyalardir.

**Kapital investitsiya** jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi. Innovatsiya investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

**Investitsion jozibadorlik** – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror bir korxonaning jalb qilinadigan investitsiyalardan foydalanishi natijasida maksimal darajada daromad olish imkoniyatlarining mavjudligi, rivojlanish va eksport salohiyatini oshirish istiqbollari, investitsion xavf darajasi nuqtai nazaridan umumlashtirgan holda baholash ko'rsatkichi hisoblanib, u erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini intensiv xarakterga keltiruvchi asosiy omil va kuchdir.

• Investitsion salohiyat makroiqtisodiy xususiyatlar, xududning ishlab chiqarish omillari bilan to'yinganligi, aholining xaridorgir talablari va boshqalarni hisobga oladi. Investitsion xavf darajasining yuqoriligi investitsiya va undan keladigan daromadni yo'qotish ehtimolini ko'rsatadi. Investitsion muhitni aniqlovchi turli xil omillar statistik, faktologik va axborot materiallarini o'rganish, tahlil qilish asosida aniqlanadi. Investitsion muhitga baho berishda uchta asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin.

**Investitsion muhit** - bu investitsion munosabatlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar va qo'layliklar majmuasini o'zida aks ettirgan makondir. Investitsiya iqlimi keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi.

Investitsion muhitga ta'sir qiluvchi salbiy omillarni umumlashtirgan holda, quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq, ular:

1. Investorlar uchun yaratilgan imtiyoz va afzalliklardan foydalanishdagi to'siqlar.
2. Soliq, bojxona, bank sohalarida, shuningdek, investorlarga yer ajratish bilan bog'liq muammo va to'siqlar.
3. Tadbirkorlik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan asossiz tekshiruvlarning ko'pligi.

4. Mavjud infratuzilmalar sub'ektlari xizmatlaridan foydalanish-dagi muammolar (elektr energiya, gaz, suv, issiqlik manbai va b.).

5. Xududdagi investorlarga yaratilgan shart-sharoitlar va ularga bo'lgan munosabatlarning yetuklik darajasi.

6. Mahalliy hokimliklar tomonidan u yoki bu masalalarni hal etishga oid qarorlarning tezkorlik bilan qabul qilinmasligi, byurokratik to'siqlarning mavjudligi.

**Investitsion iqlim** muayyan mamlakat yoki mintaqaning turli tarmoqlariga uzoq yoki o'rta muddatli kapital qo'yilmalarni joylashtirish uchun shart-sharoitlardir. Investitsion iqlim – keng qamrovli tushuncha bo'lib, u siyosiy holat, iqtisodiy rivojlanish darajasi, huquq, mafkura, madaniyat va boshqa jihatlarni o'z ichiga oladi. Investitsion iqlim qanchalik yomon bo'lsa, investor o'zining tadbirkorlik xatarini shunchalik yuqori baholaydi, investitsiya qo'yish ehtimoli ham shunchalik past bo'ladi. Ma'lumki, xalqaro amaliyotda mamlakat investitsion iqlimining umumiy ko'rsatkichlari, muayyan vaqt davomidagi uning holatidan kelib chiqqan holda, ballar orqali baholanadi

• **Portfel investitsiyalar** to'g'ri investitsiyalardan maqsadlariga ko'ra farq qiladi, ya'ni ular kapital qo'yilgan ob'ektni nazorat qilish huquqini bermaydi, faqatgina "portfel"dagi sotib olingan ulushga mos ravishda daromad olish huquqini beradi, foyda bu ulush xalqaro amaliyotda 10 foizdan oshmaydi. Aniq bir kompaniyaning investitsiya "portfel" an'anaviy aksiyalardan tashqari, obligatsiyalar, depozit sertifikatlaridan tashqari, yana garov guvohnomalari, sug'urta polislari, vauger kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Portfel investitsiyalarining harakati ko'proq davlat yoki xususiy kompaniyalar tomonidan u yoki bu ko'rinishdagi qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalaridagi farq miqdoriga bog'liq hisoblanadi.

## **7.2. Xitoyga kirib kelayotgan chet el sarmoyalar hajmi va oqimini yo'nalishlari**

Shuni ta'kidlash lozimki, chet el investitsiyalari Xitoyning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynaydi, iqtisodiy rivojlanishida shunga guvohlik beradiki, XXR bugungi kunda jahonda investitsiyalar jalb qilish bo'yicha yetakchi davlatlardan hisoblanadi. BMT konferensiyasidagi "Jahondagi investitsiyalar haqidagi dokladi" ga muvofiq, savdo-sotiq va rivojlanish holati, XXR so'nggi 9 yilida chet el investitsiyalari ko'lamiga ko'ra rivojlanayotgan davlatlar ichida yetakchi o'rinda turadi.

Chet el investitsiyalari jalb qilinishi XXR da kompleks qonunchilik aktlari orqali tartibga solinadi:

➤ XXR ning "Xitoy va Chet el kapitali hamkorlikdagi faoliyat to'g'risida" gi qonun ( 1979 yil 1 iyulda qabul qilingan);

➤ XXR ning " Kelishilgan hamkorlikdagi faoliyat to'g'risida" gi qonun (1988 yil 13 aprelda qabul qilingan);

➤ XXR ning "100% chet el kaptali asosidagi faolityat to'g'risida" gi qonun ( 1986 yil 12 aprel);

➤ XXR Davlat Kengashining chet el investitsiyalarni rag'batlantirish to'g'risidagi belgilangan vazifalari (1986 yil 11 oktyabr);

➤ XXR ning "Tashqi savdo sotiq to'g'risida"gi qonuni (1994 yil 12 may da qabul qilingan);

➤ Chet el investitsiyalari uchun tarmoqlar xatologi ( 2007 yil noyabr oyidagi nashr) <sup>1</sup>

Shu bilan birga XXR Konstitutsiyasi va XXR Davlat Kengashining qonuniy hujjatlari.

XXR konstitutsiyasi Xitoy qonunchilik tizimida birinchi darajali qonuniy hujjat hisoblandi: XXR Konstitutsiyasining 18-moddasida Xitoy qonunchiligi asosida chet el investitsion faoliyatini kengaytirish , har xil ko'rinishdagi investitsion faoliyatni tashkil etish aytib o'tilgan, shu bilan birga chet el investorlari haq-huquqlari va majburiyatlari va ularning investitsiyalari XXR qonunchiligi himoyasida bo'lishi belgilab qo'yilgan. Chet el investitsiyalarni himoyalaniishi konstitutsiyada tasdiqlangan, bundan tashqari chet el investitsiyalari doirasida qonunchilik tizimi va mintaqaviy, hududiy qonunchilik organlari faoliyatni tartibga soluvchi vazifasini bajaradi.

XXR qonunchiligiga asosan, quyidagi chet el kapitali ko'rinishidagi investitsiyalar jalb qilinadi:

- 100% chet el kapitaliga asoslangan faoliyat;
- Xitoy va chet el kapitali hamkorligida tashkil etilgan faoliyat;
- Kelishilgan hamkorlikdagi faoliyat;

Hozirgi kunda XXR da investitsion faoliyat uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Shu bilan birga qo'llab quvvatlaniladigan, chegaralanadigan va umuman faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lmagan investitsion sohalar ham mavjud. Bunday cheklovlar XXR davlat kengashi tomonidan belgilanadi.

XXR da qonunlar bilan bir qatorda chet el kapitali uchun qator imtiyozlar yaratilmoqda;

- Soliq siyosati doirasida ( chet el kapitali asosida yaratilgan faoliyat uchun uning 10 yil muddatda yuritgan faoliyati, faoliyat natijasida yaratilgan tovarlarning eksport qilingan sharoitda, foyda solig'i kamaytiriladi; Xitoyda faoliyat ko'rsatuvchi chet el fuqarosi chet eldan investitsiyalar jalb qilgan sharoitda qator imtiyozlar beriladi. Bundan tashqari beriladigan imtiyozlarga, mol-mulk uchun to'lovlar, transport to'lovlari va boshqalar uchun kiradi.)

- Yerdan foydalanish doirasida, yerdan foydalanish muddatining cho'zilishi, 5 yil muddatga qishloq xo'jaligi solig'i soliqlaridan ozod etilishi kabilar)

- Valyuta nazorati ( paralel valyuta kursi tizimi, chet el kapitali orqali amalga oshiriladigan kirim chiqibda yaratiladigan imtiyozlar, chet el investorlari foydani qayta Xitoy milliy pul birligi - yuanda investitsiyalashda, valyuta investitsiyalari uchun Xitoyda chet el banklarini rivojlantirish.)

- Kommunal qurilish doirasida ( biror bir provinsiyaga chet el investitsiyasi kiritilayotganda hududiy qonunchilik organi bilan kelishgan holda kommunal

---

<sup>1</sup> О предприятиях китайско-иностранного совместного капитала: Закон КНР 1 июня 1979 года // <http://www.asia-business.ru/private/?p=3/>

qurilish uchun to'lovlarni kamaytirish, qo'yiladigan rejani kamaytirish, ba'zi to'lovlardan ozod etish kabi imtiyozlar.)

Chet el kapitali uchun beriladigan soliq imtiyozlari shuni ko'rsatadiki, Xitoyda 24 ko'rinishdagi soliq to'lovlari mavjud bo'lib, chet el kapitali asosidagi korxonalar, chet el korxonalri vakolatxonalari va Xitoyda ishlovchi chet ellik fuqarolar shu soliqlardan faqatgina 14 ta ko'rinishdagi soliqlarni to'laydilar.

Investitsion qonunchilikning asosi yaratilgan bo'lsada, bu qonunchiliklar qo'shimcha normalar va yangi qonunchiliklar yordamida takomillashtirildi. Bularga misol qilib, 2011-2012 yillarda, Xitoyda investitsion faoliyat doirasida yangi normativ aktlar qabul qilingan. Unga ko'ra 2013 yilga va yaqin kelajak uchun rivojlantirish masalari belgilandi, shu bilan birga investitsion yo'nalishlar belgilandi.

Xitoyda investrlar uchun tizim (2011y.) mavjud bo'lib u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Ruxsat beriladigan;
2. Qo'llab quvvatlanadigan;
3. Chegaralandigan;
4. Taqiqlanadigan.

Chegaralanadigan ba'zi turdagi oziq ovat maxsulotlari ishlab chiqarish, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish, neftni qayta ishlash, tibbiy mahsulotlar ishlab chiqarish, kimyoviy maxsulotlar ishlab chiqarish, konteyner, har xil turdagi extiyot qismlar, og'ir texnika ishlab chiqarish, xarqaro avtomobillar, telekommunikatsiya xizmatlari, aksiyalar ishlab chiqarish va boshqalar.

Taqiqlanadigan umumiy olganda 35ta yo'nalishda, misol uchun noyob turdagi hayvon va o'simlik turlari ustidan tajriba o'tkazish, gebrit o'simliklar yetishtirish, dengiz mahsulotlari va baliqchilik, qazib chiqarish, radiaktiv rudalar qazilmasi, xitoy choyi va xitoy tibbiyoti mahsulotlarini qayta ishlash, qurol yaroq ishlab chiqarish,

XXR investitsion siyosatining yutuqlarini tan olgan holda, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, u o'z rivojlanishida investitsiyalasj va jamg'arishning yuqori normalariga tayanishni davom etmoqda. Hozirgi davrda shakllangan va shu sharoitlardagi investitsion jarayonning mustahkam bo'lishi uchun quyidagi holatlar zarurdir:

1. yuan kursining barqarorligi;
2. yuqori bo'lmagan inflyatsiya ( 10% dan past);
3. investitsion resurslar sifatining yuqori bo'lishi;
4. zamonaviy texnika va texnologiyalarni hamda yangi materiallarni yetqazib berish;
5. gorizontal va vertikal tomondan ko'p kanalli kapital manbalar va zamonaviy bilimlar.

Shu o'rinda, yillar davomida (2001-2016 yy.) BXIlarni jalb etuvchi jahonning eng yirik mamlakatlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz va diqqatingizni quyidagi 7.2.1-jadvalga qaratamiz.

**2001-2016 yillarda bevosita xorijiy investitsiyalar jalb etuvchi eng yirik mamlakatlar**


| Mamlakatlar     | Bevosita xorijiy investitsiyalarning o'rtacha yillik miqdori mlrd.doll. | Jahon bevosita xorijiy investitsiyalaridagi salmog'i, % |
|-----------------|-------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|
| AQSh            | 236,2                                                                   | 26,6                                                    |
| Buyuk Britaniya | 82,5                                                                    | 9,3                                                     |
| Germaniya       | 68,9                                                                    | 7,8                                                     |
| Xitoy           | 57,6                                                                    | 7,5                                                     |
| Fransiya        | 41,8                                                                    | 4,7                                                     |
| Niderlandiya    | 36,1                                                                    | 4,1                                                     |
| Belgiya         | 30,2                                                                    | 3,4                                                     |
| Kanada          | 29,6                                                                    | 3,3                                                     |
| Gonkong         | 20,5                                                                    | 2,3                                                     |
| Braziliya       | 18,8                                                                    | 2,1                                                     |

manba: Total, Equity and Debt Instruments Inward Direkt Investment

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, XXRda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yillik umumiy hajmi 2014 yilda 119,56 mlrd.dollardan oshib ketdi. (2013 yilda 117,58 mld.dollar) to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning asosiy va yirik korporatsiyalarning shahobchalari va sho'ba korxonalari, shuningdek, 10 foizdan 50 foizgacha xorijiy kapital ulushiga ega bo'lgan aksiyadorlik kapitallari, boshqa qo'shma korxonalari nizom kapitaliga qo'yilgan mablag'lari hisoblanadi. Agar, XXRsimi qayta ishlash sanoatiga jalb etilgan sarmoyalarni tahlil qilsak, unda 1970-2016-yillar mobaynidagi sarmoyalar hajmining o'sish dinamikasini kuzatish mumkin

Rasm - 7.2.1.

**Yillar davomida Xitoy qayta ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mln yuan)**



• 亚马孙, 中华人民共和国 黑色冶金行业标准 - 图书 - 中国发展出版社, 2017.

“XXR ning qo‘shma korxonalardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risidagi qonuni”; “Qo‘shma korxonalarda mehnat munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risidagi qonun”; “XXR ning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy shartnomalar tuzish to‘g‘risidagi qonuni” va boshqalar. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, XXR ning tashqi savdo aylanmasi hajmi 2014 yil yakuniga ko‘ra, 2008 -yilga nisbatan - 7,9%ga pasaydi va u 4 trln.16,3 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etdi. Xususan, bunda eksport hajmi 2008-yilga nisbatan, 2 trln.211,1 mlrd.AQSh doll.gacha, import hajmi esa, 1 trln.9,63 mlrd. AQSh doll.tashkil etdi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Xitoyning jahon savdosidagi ulushi - 2008 yilda 6% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda uning ulushi 17% dan oshib ketganligini guvohi bo‘ldik. Demak, yaqin kelajakda ham, Xitoy o‘z tashqi savdo aylanmasining hajmini orttirib borishga xarakat qiladi va hozirgi kunda o‘z eksportining eng raqobatbardosh mahsulotlari hisoblangan oyoq-kiyim, kiyim-kechaklar va o‘yinchoqlarni sifatini yaxshilashga va ular narxini optimallashtirishga e’tiborini qaratadi.

Quyida biz 1970-2016-yillarda XXR va dunyoning yetakchi mamlakatlarida ichki investitsiyalarning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishini 7.2.2 - jadvaldan ko‘rib chiqamiz.

Jadval-7.2.2.

**1970-2016 yillarda Xitoy va dunyoning yetakchi mamlakatlarida ichki investitsiyalarning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi (ming AQSH doll.).**

| yillar | Germaniya | AQSh   | Yaponiya | Xitoy  |
|--------|-----------|--------|----------|--------|
| 1970   | 882.8     | 810.4  | 783.1    | 37.2   |
| 1980   | 3238.1    | 2303   | 3010.2   | 108.3  |
| 1990   | 5418.9    | 3903.7 | 8247.8   | 121    |
| 2000   | 5566      | 7146.2 | 9447.9   | 328.8  |
| 2010   | 8025.6    | 6728   | 8554     | 2102.7 |
| 2013   | 8562.6    | 8273.7 | 8105.2   | 3166.4 |
| 2014   | 8432.2    | 8347.2 | 8230.2   | 3191.0 |
| 2015   | 8374.4    | 8286.6 | 8110.1   | 3192.1 |
| 2016   | 8568.6    | 8475.5 | 8123,1   | 3218.1 |

Total, Equity and Debt Instruments Inward Direct Investment

Hozirgi paytda investitsiyalashning o‘ziga xos belgilari quyidagilar sanaladi:

- foydani qayta investitsiyalash rolining kuchayishi (ayniqsa, yirik korporatsiyalar ichida);
- investitsiya aksiyalarini davlat tomonidan tartibga solishning erkinlashtirilishi.

XXR Tijorat Vazirligi statistikasiga ko‘ra 2017 yilda mamlakat hududida xorijiy kapital ishtirokida 35652 ta korxona tashkil etildi. Bu esa, 2016 yilga nisbatan, 27,8%ga ko‘pdir. Mamlakatga jalb etilgan amaldagi investitsiyalar hajmi 877,5 mlrd.yuanni tashkil etdi, bu 7,9%ga o‘sganligini ko‘rsatadi (131,04



mlrd.doll+4,0%). Investitsiyalarning 3/4 qismi Xitoyga Gonkong orqali kirib keladi.

O‘z o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, shu yillar mobaynida, ASEAN mamlakatlari investorlari tomonidan mamlakatda 5,2 mlrd.doll.lik investitsiya bilan 1287ta korxonalar tashkil etildi (+11,0%). Shu bilan birga, 28 ta EI mamlakatlari tomonidan 8,8 mlrd.doll.lik investitsiya bilan 1873ta korxonalar tashkil etildi (+7,6%), “Bir belbog’ bir yo‘l” mamlakatlari 5,56 mlrd.doll.lik investitsiyalari bilan 3857ta korxonalar tashkil etildi (+32,8%)<sup>1</sup>.

Shular qatorida, Yanzi daryosi iqtisodiy belbog’ida 57,42 mlrd.doll.lik investitsiyalar bilan 11984ta yangi korxonalar tashkil etildi (+2,6%) Markaziy Xitoy rayonlari va provinsiyalariga 56,1 mlrd.yuanlik investitsiyalar (+22,5%) jalb etildi, bu esa, XXRsi mintaqalari orasidagi eng yoqori o‘shish sur’ati hisoblanadi. Garbiy Xitoyda endigina yangi tashkil etilgan korxonalar 43,2% ga o‘shib, 11ta eksperimental erkin savdo zonalarida umumiy hajmi 103,9 mlrd.yuanlik investitsiyalar bilan 6841ta qo’shma korxonalar (QK) tashkil etildi (+18,1%).

XXRsi iqtisodiyotining yoqori texnologik sohasiga jalb etilgan kapitalning miqdori 61,7%ga o‘shib, uning umumiy jalb etilgan investitsiyalar hajmidagi ulushi 28,6%ga (+9,5p.p.) yetdi. Undagi foydalanilgan investitsiyalar hajmi 66,6 mlrd.yuanni tashkil etdi (+11,3%), shu jumladan: elektron va telekommunikatsiya uskunalarini ishlab chiqarishda 7,9%ga, meditsina jihozlari bo‘yicha 71,1%ga, kom’pyuter va orgtexnika 28%ga o‘shishi kuzatildi.

Undan tashqari, Xitoy yoqori texnologik sektorining xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 184,6 mlrd.yuanga yetdi (+93,2%), shu jumladan: axborot va ilmiy-texnik xizmatlar ko‘rsatish segmentida, va atrof-muhitni himoya qilish sohasida monitoring hamda boshqaruv masalalarini yechishda 162%ni, mos holda: 41% va 133%larni tashkil etdi<sup>2</sup>.

Ta’kidlash lozimki. 5 yil mobaynida (2012-2017yy.) XXRsi sanoatining yoqori texnologik tarmoqlariga jalb etilgan sarmoyalar hajmi, uning mamlakatga jalb etilgan umumiy investitsiyalaridagi ulushi 14,5%ga o‘sganligini ko‘ramiz. Shuni aytish joizki, garchi mamlakatda xorijiy kapitalli korxonalar soni uncha ko‘p bo‘lmasada (ular Xitoydagi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning atigi 3%ni tashkil etadi), ularning mamlakat tashqi savdosidagi ulushi deyarli 50%ga yetganligini e’tirof etamiz.

2017-yilda XXRsigam jalb etilgan xorijiy sarmoyalar mamlakat iqtisodiyotining quyidagi tarmoqlariga yo‘naltirildi:

1. Qayta ishlash sohasiga (sanoat) – \$33,5 mlrd. (u 2016-yilga nisbatan, 5,6%ga pasayib, uning salmog‘i– 25,6%ni tashkil etdi);
2. Axborotlarni uzatish, axborot-texnik xizmatlar va dasturiy ta’minot– \$20,92 mlrd. (16,0%);
3. Ko‘chmas mulk – \$16,85 mlrd. (-14,3%, 12,9%);
4. Tijorat va lizing xizmatlari– \$16,74 mlrd. (+3,7%, 12,8%);

---

<sup>1</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г.с.123-124; World Economic Situation and Prospects 2019. New York, 2019.R. 154

<sup>2</sup> o’sha joyda, c.151.

5. Ulgurji va chakana savdo – \$11,48 mlrd. (-27,7%, 8,8%);
6. Moliya, pul muomulasi– \$7,92 mlrd. млрд. (-23,1%, 6,0%);
7. Ilmiy izkanishlar, texnik xizmatlar va geologiya qidiruv ishlari – \$6,84 mlrd. (5,2%);
8. Transport, omborxona xizmatlari, pochta – \$5,58 mlrd. (4,3%).

2017 yilda 10ta yirik investor mamlakatlarning Xitoyga jalb etilgan investitsiyalari hajmi 124,6 mlrd.doll.ni tashkil etdi (+5,2%), bu esa umumiy hajmning 95,1% ga to'g'ri keldi. Endi, mazkur yilda XXRsi iqtisodiyotiga jalb etilayotgan yirik TOP-10ga kiruvchi investorlarni quyidagi jadval 7.2.3. dan ko'rib chiqamiz.

**Jadval 7.2.3.**

**2017 yildagi XXR iqtisodiyotining yirik sarmoyadorlari <sup>1</sup>**

| O'rni | Mamlakat/xudud      | Investitsiya hajmi, mlrd.doll. | Ulushi, %da |
|-------|---------------------|--------------------------------|-------------|
| 1.    | Gonkong             | 98,92                          | 75,4        |
| 2.    | Singapur            | 4,83                           | 3,6         |
| 3.    | Tayvan              | 4,73                           | 3,6         |
| 4.    | Koreya Respublikasi | 3,69                           | 2,8         |
| 5.    | Yaponiya            | 3,27                           | 2,4         |
| 6.    | AQSH                | 3,13                           | 2,3         |
| 7.    | Niderlandiya        | 2,17                           | 1,6         |
| 8.    | Germaniya           | 1,54                           | 1,1         |
| 9.    | Buyuk Britaniya     | 1,50                           | 1,1         |
| 10.   | Daniya              | 0,82                           | 0,6         |

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jadval 7.2.3.dan ko'rinib nurganidek, Xitoyning eng asosiy investori – bu Gonkong hisoblanadi (75,4%).

Shunday qilib, ta'kidlash lozimki, yoqoridagi 2017-yil bo'yicha Xitoy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish dinamikasining tahlili shuni ko'rsatdiki, sarmoyadorlarning mamlakatdagi xitoy qazib olish va qayta ishlash sanoatiga qiziqishlarini parayishi kuzatamilmoqda.

### **7.3.Xitoyning investitsion siyosati xususiyatlari va undagi alohida erkin iqtisodiy zonalarining faoliyatlari**

2017-yildagi XXR Bojxona statistilasi ma'lumotlariga binoan, xorijiy kapitalli kompaniyalarning umumiy tashqi savdo hajmi \$1839,13 mltd.ni tashkil etib, u 2016-yilga nisbatan, 9,0%ga o'sgan, shu jumladan: eksportda – \$977,56 mltd,ni. import – \$861,57 mlrd.ni tashkil etdi (+11,8%)

Xorijiy kapitalli kompaniyalar XXRsi umumiy tashqi savdo hajmining 44,8%ni ta'minladi (unda eksport - 43,1%ni, import - 46,7%ni ashkil etdi). Endi, 2017 yilda Xitoyga jalb qilingan investitsiyalar hajmi va ularni joylashtirish ob'yektlarini quyidagi 7.3.1. –jadvalidan ko'rib chiqamiz.

<sup>1</sup> Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики 2017 году, Пекин, 2018 г.с.127-132; World Economic Situation and Prospects 2019. New York, 2019.R.

**2017 yilda Xitoyga jalb etilgan investitsiyalar hajmi va ularni  
joylashtirish ob'yektlari**

| Sarmoyalarni jalb etish ob'ektlari                 | Xorijiy kapitalli yangi kompaniyalar soni |         |             | Jalb etilgan xorijiy sarmoyalarning amaldagi hajmi, mlrd.doll |        |              |
|----------------------------------------------------|-------------------------------------------|---------|-------------|---------------------------------------------------------------|--------|--------------|
|                                                    | 2017 y.                                   | 2016 y. | O'sishi,%da | 2017 y.                                                       | 2016y. | O'sishi, %da |
| 1.Bevosita xorijiy investitsiyalar (BXI)           | 35652                                     | 27900   | 27,78       | 131,03                                                        | 126,0  | 3,99         |
| Xitoy va xorijiy kapitalli qo'shma korxonalar      | 8364                                      | 6662    | 25,55       | 29,74                                                         | 30,2   | -1,53        |
| Xitoy va xorijiy kapitalli kooperatsion korxonalar | 124                                       | 126     | -1,59       | 0,8                                                           | 0,83   | -2,97        |
| Xorijiy kapitalli korxonalar                       | 27007                                     | 21024   | 28,46       | 91,34                                                         | 86,12  | 6,06         |
| Xorijiy kapitalli hissadorlik korxonalar           | 125                                       | 86      | 45,35       | 6,47                                                          | 8,84   | -26,77       |
| Qo'shma (birgalikda) o'zlashtirilishi              | 2                                         | 0       | 0           | 1,18                                                          | 0      | 0            |
| boshqalar                                          | 0                                         | 2       | -100        | 0                                                             | 0      | 0            |
| 2.boshqa xorijiy sarmoyalar                        | 0                                         | 0       | 0           | 0                                                             | 0      | 0            |
| Xorijda aksiyalar chiqarish                        | 0                                         | 0       | 0           | 0                                                             | 0      | 0            |
| Xalqaro lizing                                     | 0                                         | 0       | 0           | 0                                                             | 0      | 0            |
| Jami:                                              | 35652                                     | 27900   | 27,78       | 131,03                                                        | 126,0  | 3,99         |

Manba: XXR Davlat savdo boshqarmasi ma'lumotlari

Shuni aytish lozimki, xorijiy kapitalli korxonalarni tashqi savdo aylanmasini 47,5%i xom ashyoni qayta ishlash operatsiyalariga (давальческой) (undan, 58,9%i eksportga va 34,6%i importga) to'g'ri keldi.

"Xitoyda ishlab chiqarilgan 2025" yoki (中国制造2025) "Made in China 2025" dasturi Xitoy sanoatini har tomonlama yangilashga qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga qaratilgan tashabbusdir. Ushbu tashabbus dastlab birinchi marta 2011 yilda muhokama qilingan va undan keyin, 2013 yilda qabul qilingan. Xitoylik ishlab chiqaruvchilarning samaradorligi va sifati juda noaniq bo'lgani sababli, Xitoyning harakatlari ancha kengroq bo'lib, Xitoy yangi paydo bo'lgan va arzon narxlardagi ishlab chiqaruvchilar tomonidan qisqarib qolmaslik uchun juda ko'p vaqtni qisqa vaqt ichida bartaraf etish kerak edi. "Xitoyda ishlab chiqarilgan" 2025 yilgi rejaga oid va Davlat Kengashining hujjatiga asosan, aniq tamoillar, maqsadlar, vositalar va sektorning yo'naltirilganligi mavjud.Uning rahbarlik printsiplari ishlab chiqarishni innovatsion asosga ega bo'lish, mahsulot miqdori bo'yicha sifatga urg'u berish, yashil rivojlanishga erishish, Xitoy sanoati tarkibini optimallashtirish va inson iste'dodini tarbiyalashdir. 国发展出版社 · 2017

Maqsad - Xitoy sanoatini har tomonlama yangilash, uni yanada samarali va integrallashtirib, global ishlab chiqarish zanjirlarining eng yuqori qismlarini egallashi mumkin. Rejada asosiy tarkibiy qismlar va materiallarning mahalliy tarkibini 2020 yilga kelib 40 foizga va 2025 yilga kelib 70 foizga etkazish maqsadini belgilaydi. Davlatning moliyaviy va moliyaviy vositalardan foydalanish va yaratishni qo'llab-quvvatlash uchun umumiy asosni ta'minlashda muhim rol o'ynashiga qaramasdan, (2020 yilga - 15 va 2025 yilga qadar–20-25) innovatsion markazlarni yaratish, shuningdek, bozor institutlariga tayanib, kichik va o'rta biznes (SME) uchun intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va intellektual mulk (IP) biznes strategiyasida va firmalarning o'zlarining texnologiya standartlarini mustaqil ravishda e'lon qilishlariga va xalqaro standartlarga muvofiq ravishda ishtirok etishlariga yordam berishiga imkon beradi. Maqsad sanoat mahsulotini kengaytirish uchun mo'ljallangan bo'lsada, rejada 10ta ustuvor tarmoqlar tasdiqlanadi:

- 1) yangi ilg'or axborot texnologiyalari;
- 2) Avtomatlashtirilgan dastgohlar va robotlar;
- 3) aerokosmik va aviatsiya texnikasi;
- 4) Dengiz uskunolari va yuqori texnologik yuk tashish;
- 5) zamonaviy temir yo'l transporti vositalari;
- 6) Yangi energiya vositalari va uskunalar;
- 7) elektr jihozlari;
- 8) qishloq xo'jaligi texnikasi;
- 9) yangi materiallar;
- 10) Biofarma va ilg'or tibbiy mahsulotlar.

Undan tashqari, 2017-yildagi XXRning o'zining bevosita to'g'ridan-to'g'ri nomoliyaviy xorijiy investitsiyalarini tahlil etadigan bo'lsak, ularni tarmoqlar kesimida quyidagi 7.3.2.- jadvalidan ko'rishimiz mumkin.

Jadval 7.3.2.

**2017 yildagi XXRning bevosita to'g'ridan-to'g'ri nomoliyaviy xorijiy investitsiyalari**

| Sohalar                                                                                | hajmi,<br>mlrd.doll. | 2016 yilga nisbatan<br>o'sish, %da | ulushi, %da |
|----------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|------------------------------------|-------------|
| <b>Jami</b>                                                                            | 120,1                | -29,4                              | 100,0       |
| Shu jumladan: qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik xo'jaligi | 2,2                  | -25,3                              | 1,8         |
| Qazib olish sanoati                                                                    | 8,3                  | -4,4                               | 6,9         |
| Qayta ishlash sanoati                                                                  | 19,1                 | -38,4                              | 15,9        |
| Elektr energiyasi, gaz ishlab chiqarish va yetqazib berish hamda suv ta'minoti         | 3,2                  | 26,5                               | 2,6         |
| Qurilish                                                                               | 7,3                  | 37,5                               | 6,0         |
| Uljurji savdo                                                                          | 24,9                 | -9,6                               | 20,7        |
| Transport, omborxonalar, pochta xizmati                                                | 3,0                  | -16,9                              | 2,4         |
| Axborot va soft-xizmatlari                                                             | 10,3                 | -49,3                              | 8,5         |
| Ko'chmas mulk                                                                          | 2,2                  | -79,6                              | 1,8         |
| Lizing                                                                                 | 34,9                 | -17,3                              | 29,0        |

Manba: XXR Tijorat vazirligi ma'lumotlari

Ya'ni, masalan, eng yiriklari, tijorat xizmatlari va ijaraga - 29,1%, chakana va yetqazib berish savdosiga –20,8%, qayta ishlash sanoati va telekommunikatsitaga–15,9% qo'yilganligini guvohi bo'lamiz.

Shunday qilib, XXR si hukumati tomonidan chiqish sarmoyalarini qisqartirish yoki chqgalash chora-tadbirlariga binoan, ko'chmas mulk va sport hamda turli xil tomosha industriasiga sarmoyalar qisqartirildi.

Xitoydagi Maxsus iqtisodiy hududlar (MIH)ga doir qonunchilikka qaraydigan bo'lsak, XXR da MIH uchun yagona bo'lgan qonun mavjud emas, MIH larning qonunchiligi esa qonun osti qonunlar asosida shakllantiriladi. Xitoy Maxsus iqtisodiy hududlarning o'ziga xosligi shundaki, ular bozor mexanizmlariga asoslangan holda mustaqil iqtisodiy rivolanib boradi; u asosan chet el kapitaliga tayanadi; Ishlab chiqarishning yangi tarmoqlari orqali shakllantiriladi; yaratilgan mahsulotning keng miqdorda eksportga chiqarilishi, unga kerak bo'ladigan hom ashyo va texnologiyalar chet eldan import qilinadi; Mahsus iqtisodiy zonalar orqali boshqa hududlarni rivojlantirish ko'zda tutiladi; soliq tizmining aynan Maxsus iqtisodiy hududlar orqali deversifikatsiya qilinishi.

XXR ning MIH lani tashkil etishdan ko'zlangan maqsad:

- Chet el kapitalini jalb ertish;
- Chet eldan texnika texnologiyalar jalb qilish;
- Boshqaruv tajribasini oshirish;
- Milliy kadrlarni tayyorlash;
- Eksportdan keladigan foydaning oshirilishi;
- Davlatni iqtisodiy rivojlantirilishini yanada oshirish;
- Davlat ichiga chet eldan yangi texnologiyalar jalb qilish va ularni boshqarish tajribasini oshirish;
- XXR ning moliyaviy holatini butun jahonga ko'rsatish.

Xitoydagi MIH da chet el kapitaliga asoslangan firma va tashkilotlarga quyidagi imtiyozlar beriladi:

- Foyda solig'i 15% ga qisqartiriladi;
- 10 yildan ko'proq muddatga faoliyat ko'rsatishni rejalashtirilayotgan korxonga va firmalar uchun, dastlabki ikki yil ichida foyda solig'idan ozod etiladi, uchunchi yilda foyda solig'i 50% gacha qisqargan miqdorda to'lanadi;
- Eksport uchun tovar ishlab chiqarishni rejalashtirayotgan korxonalar uchun texnika-texnologiyalarni bojxona soliqlarisiz olib kirish;
- Korxona yoki tashkilotni registratsiya qilish, rasmiylashtirish holatining qulaylashtirilganligi.<sup>1</sup>

Jahon Bankining ma'lumotlariga muvofiq, «Doing business» bo'yicha, 2017-yil yakunlariga ko'ra, biznes yuritish uchun qulaylik darajasiga binoan, 190ta davlat orasida Xitoy 78-o'rinni egallaganligini navbatdagi 7.3.3.- jadvalidan yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Закон Китая (КНР) «О подоходном налоге с предприятий с участием иностранного капитала и иностранных предприятий». Вступил в силу 1 июля 1991 года // <http://www.asia-business.ru/private/?p=3/>

**2017-yil yakunlariga ko'ra, Doing business» bo'yicha Xitoyning,  
biznes yuritish uchun qulaylik darajasi va o'zgarishi**

| <b>Indikatorlar</b>                                | <b>reyting<br/>2017 y.</b> | <b>reyting<br/>2016 y.</b> | <b>O'zgarishi</b> |
|----------------------------------------------------|----------------------------|----------------------------|-------------------|
| Korxonalarni ro'yxatdan o'tqazish                  | 93                         | 134                        | +41               |
| Qurilish uchun ruxsat olish                        | 172                        | 175                        | +3                |
| Elektr ta'minoti tizimiga ulanish                  | 98                         | 92                         | -6                |
| Mulkni ro'yxatdan o'tqazish                        | 41                         | 42                         | +1                |
| Kreditlash                                         | 68                         | 78                         | +10               |
| Investorlar huquqini himoya qilish                 | 119                        | 118                        | -1                |
| solliqqa tortish                                   | 130                        | 127                        | -3                |
| Xalqaro savdo                                      | 97                         | 94                         | -3                |
| Shartnomalarni bajarishni ta'minlash               | 5                          | 4                          | -1                |
| to'lov qobiliyatiga ega emaslikka<br>ruxsat berish | 56                         | 53                         | -3                |

Oxirgi yillarda Xitoy iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xususiy investitsiyalar hajmining qisqarishi yuz bermoqda. Agar, 2005–2007-yillarda ular yiliga 23–25%ga o'sgan bo'lsa, keyinchalik esa, ularning o'sish sur'atlari sekinlashib, 2016-yilda 3,2%gacha qisqarganligini ko'rish mumkin. Davlat investitsiyalarining miqyosli o'sishi asosida xususiy kapital jamg'armalari o'sishining ahamiyatli tarzda sekinlashuvi 10 yil mobaynida birinchi marotaba umumiy investitsiyalar hajmida xususiy investitsiyalar ulushining qisqarishiga olib keldi. Bu esa, Xitoy iqtisodiyotidagi davlat sektorining ustuvorligi saqlanib qolayotgan muammolarni o'zida aks ettiradi.

2016-yilda xususiy kapital jamg'armalarini pasayishi sharoitida iqtisodiyotning o'sishi uchun yetishmayotgan investitsion mablag'lar davlat kompaniyalari evaziga to'ldirildi. Oxirgi yillarda muayyan qisqarishlarga qaramay, mamlakatning umumiy kapital jamg'armasi hajmidagi xususiy investitsiyalarni ulushi yetarlicha yuqori darajada (60%dan ortiqroq) qolmoqda. Garchi, 2017 yilda xususiy investitsiyalar hajmi sekin-asta tiklanib borayotgan bo'lsa ham, bu sohadagi ilgari to'planib qolgan salbiy tendensiyalarning keskin o'zgarishi to'g'risida gapirish hali ertadir. 2017 yilning 1-yarim yillik natijalariga ko'ra, Xitoyda hanuzgacha ham davlat investitsiyalarini o'sishi (+12,0%) xususiy investitsiyalar (+7,2 %) hajmi o'sishidan ko'proqni ko'rsatmoqda<sup>1</sup>.

2017 yilda XXR Davlat kengashining navbatdagi majlisida xususiy investitsiyalarni keyinchalik ham qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar e'lon qilindi. Xususiy investorlar uchun investitsion loyihalarni tasdiqlash muolajasini va qarz olishni soddalashtirish maqsadida hamda xususiy korxonalar uchun kreditlash reytingini olish mexanizmini takomillashtirish ko'zda tutildi.

<sup>1</sup>Проблемы национальной стратегии № 6(45)См.:Chart: Where is Global Growth Happening? // Visual capitalist. 2017. June 2.URL: <http://www.visualcapitalist.com/chart-global-growth-happening/> (дата обращения: 01.09.2017).

Xitoy hukumati “Xitoyda ishlab chiqarildi - 2025” dasturida va texnologik modernizatsiyalash loyihalarida hamda davlat xususiy hamkorligi (DXH) chegarasida ishtirok etgan xususiy investorlarni qo'llab-quvvatlaydi<sup>1</sup>.

Bank of America Merrill Lynch tadqiqotlari ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda davlat xususiy hamkorligi (DXH) chegarasida berilgan loyihalarning qiymati 19,5 trln.yuanga yetdi, ammo, lekin, mazkur loyihani amalga oshirish uchun qabul qilingan loyihalar miqdori 4,1 trln.yuanni tashkil etdi, ya'ni bu taklif etilgan hajmning 21%i demakdir<sup>2</sup>.

Davlat xususiy hamkorligini (DXH) rivojlantirishga halaqit berayotgan asosiy muammolar orasida xususiy investorlar taklif etilayotgan loyihalarning past daromadlilikini, ularni moliyalashtirishni murakkabligini, mahalliy hukumat organlari tomonidan tuzilgan bitimlar shartlarini buzilishini va investorlar huquqini himoyalash tartibiga rioya qilish to'g'risida havotirlanish kabilarni atab o'tishmoqda. Mazkur muammolarni hal etishni XXR davlat kengashi darajasida qo'yish, xitoy iqtisodiyotini rivojlanishi uchun xususiy kapitalni jalb qilish masalasi ahamiyatining yoqoriligi va dolzarbligini ko'rsatadi.

Oxirgi yillarda xususiy investitsiyalarning qisqarishi quyidagi umumiy omillar evaziga yuz berdi:

- Xitoy iqtisodiyotini isloh qilinishi;
- mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atining sekinlashuvi;
- 2016 yildagi yuan kursining AQSh dollariga nisbatan 6,5% pasayishi (1994 yildan boshlab kursning eng maksimal yillik pasayishi) va yoqori devalvatsion kutish;
- kapital oqimining ahamiyatli tarzda chiqib ketishi;
- xususiy kapitalni qo'yishni ishonchli va manfaatliroq manbalarini izlab topish.

Ular harakatlarini natijasi, xorijdagi xitoy investitsiyalarining ahamiyatli o'sishi bo'ldi. Ular esa, oxirgi 2 yilda XXRga kirib kelayotgan bevosita xorijiy investitsiyalardan ortib ketdi va mamlakat rahbariyatini jiddiy o'ylanishga majbur qildi. Bu holat natijasida, 2016 yil oxirida hukumat tomonidan xitoy kapitalini xorijga olib chiqish shartlarini yanada qiyinlashtirish to'g'risida kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilishga olib keldi. 2017 yilning avgust oyida Pekin investitsiyalarni tashqariga chiqarish borasida yangi cheklovlarni kiritdi. Xususan, “mamlakatdan chiqib ketayotgan noratsional investitsiyalar”ni oldini olish maqsadida, xitoy kompaniyalari tomonidan mulk, mehmonxona biznesi,

---

<sup>1</sup>New wave of measures to boost private investment // The State Council of the People's Republic of China., 2017. August. URL: [http://english.gov.cn/policies/policy\\_watch/2017/08/02/content\\_281475766966710.htm](http://english.gov.cn/policies/policy_watch/2017/08/02/content_281475766966710.htm).

<sup>2</sup>China's Public-Private Projects Pose State Debt Risks // Bloomberg. 2017. February URL: <https://www.bloomberg.com/news/articles/2017-02-22/china-ppp-stimulus-risks-tipping-balance-toward-more-state-debt>.

o'yin-tomosha industriyasi va sport sohalaridagi xorijiy aktivlarni sotib olishga cheklovlar qo'yish<sup>1</sup>.

Mazkur kapital harakati ustidan o'rnatilgan qattiq nazoratga kompleks yondashuv natijasida, kapital oqimining mamlakatdan chiqib ketishini ushlab turishga erishildi. Xitoy iqtisodiyotining barqarorligi moliyaviy tavakkalni qisqartirish bo'yicha choralar bilan birgalikda, xorijiy investorlarning xitoy yuaniga bo'lgan ishonchini tiklashga va milliy valyutaga bo'lgan bosimni pasayishiga yordam berdi. 2016 yildagi kabi, yuanni mustahkamlash va kapitalni mamlakatdan chiqib ketishi asosida milliy valyutani qo'llab-quvvatlash uchun, mamlakat valyuta zahirasiidan katta hajmlarda mablag'larni ishlatish zaruriyati qolmadi. Natijada, ilgari shakllanib bo'lgan valyuta zahiralarini qisqarish tendensiyasini to'xtatishga erishildi. Xitoy o'zining 2014 yildagi 3,99 trln.doll.dan 2017 yilda uning maksimal darajasiga 2,998 trln.doll.gacha pasaydi va yil oxiriga kelib, u 3,15 trln.doll.ga yetdi. (ya'ni, deyarli 1 trln.doll.)<sup>2</sup>

Jadval 7.3.4.

Xitoy iqtisodiyotining 2013-2017-yillardagi investitsion ko'rsatkichlari  
(o'lchamlari)<sup>3</sup>

|                                     | 2013 .      |                   | 2014 .      |                 | 2015        |                  | 2016 .      |                | 2017        |                |
|-------------------------------------|-------------|-------------------|-------------|-----------------|-------------|------------------|-------------|----------------|-------------|----------------|
|                                     | O'sish ,%da | Jami , trln. yuan | O'sish ,%da | Jami trln. yuan | O'sish ,%da | Jami, trln. yuan | O'sish ,%da | Jami trln yuan | O'sish ,%da | Jami trln yuan |
| Investitsiyalar, jami               | 43,65       | 19,6              | 50,20       | 15,7            | 55,16       | 10,0             | 59,65       | 8,1            | 28,06       | 8,6            |
| xususiy                             | 7,48        | 3,1               | 32,16       | 18,1            | 35,40       | 10,1             | 36,52       | 3,2            | 17,02       | 7,2            |
| davlat                              | 14,40       | 16,3              | 16,16       | 13,0            | 17,89       | 10,9             | 21,31       | 18,7           | 10,20       | 12,0           |
| Xususiy investitsiyalar ulushi,% da | 63,0        |                   | 64,1        |                 | 64,2        |                  | 61,2        |                | 60,7        |                |
| Infratuzilmalarga investitsiyalar   | 8,67        |                   | 1,5         |                 | 0,13        | 7,2              | 1,89        | 7,4            | 5,94        | 21,1           |

2017 yilning 1-yarmi natijalariga ko'ra, Xitoyda bevosita xorijiy investitsiyalar (BXI) o'tgan yilning shu davriga nisbatan, 0,1%gagina qisqardi, bu esa, mazkur sohada barqaror rivojlanish mavjud deyishga asos yaratadi. Unda

<sup>1</sup>China Foreign Reserves Rise a Seventh Month Amid Yuan Strength // Bloomberg.2017. September URL: <https://www.bloomberg.com/news/articles/2017-09-07/chinaforeign-reserves-rise-a-seventh-month-amid-yuan-strength>.

<sup>2</sup>Manba: National Bureau of Statistics of China. Press Releases "Investment in Fixed Assets", "Private Investment in Fixed Assets" (заоответствующиепериоды). URL: <http://www.stats.gov.cn/english/pressreleas>



ishlab chiqarish va xizmatlarning yoqori texnologik sektorlariga qo'yilgan xorijiy investitsiyalar yoqori sur'atlarda o'sishni davom ettirmoqda. 2017 yilning 1- yeti oyida ular mos holda, 8,3 va 16,8 % ga o'sdi<sup>1</sup>.

Shular bilan bir qatorda, Xitoy iqtisodiyotini o'rta muddatli istiqbollariga nisbatan ishonchini ortib borishiga qaramay, xorijiy investorlar XKPni XIX s'ezdidan so'ng, mamlakat iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, kutish pozitsiyasini egallamoqdalar.

2016-yil yakuniga ko'ra, Xitoy iqtisodiyoti 6,7%li o'sishni ko'rsatdi va u oxirgi 25 yil ichida eng past minimal ko'rsatkich hisoblendi. Bir qarashda mazkur tendensiyaning haqiqatan sekinlashuv deb hisoblash mumkin. Lekin, baribir, mana shu o'tgan davrda xitoy iqtisodiyoti, nisbatan kattalashdi. Shuning uchun mamlakat YaIM o'sishining har bir foizli punkti 5 yil oldingi 1,5 foizli punktga o'sish o'zida shu qo'shimcha mahsulot hajmi sifatida yig'adi.

Xitoy hukumati 2017 yil uchun iqtisodiyotni o'sishini maqsadli ravishda 6,5% deb belgiladi, lekin, shu yilning yarmidayoq mamlakat YaIM 6,9% ga ko'paydi. Natijada, esa, amalda uning yillik o'sish sur'ati, 6,7% ga teng bo'ldi.

XXR Ijtimoiy Fanlar Akademiyasi ekspertlarining baholashicha, 2017 yildagi xitoy iqtisodiyotidagi ijobiy siljishlar saqlanib qoldi. Umumiy iste'molning o'sishi 10%ga, infratuzilma loyihalaridagi investitsiyalar esa, 20%ga o'sishi mo'ljallandi<sup>2</sup>.

Undan tashqari, Xalqaro tashkilotlar va jahonning yirik investitsion banklari ham Xitoy iqtisodiy o'sish istiqbollarini optimistik baholashmoqda. Xususan, 2017-yilning avgust oyida Xalqaro valyuta fondi (XVF) uchinchi marotaba o'zining bashoratini (2018-2020-yillar uchun) o'rtacha yillik o'sish sur'atini 6% dan 6,4%ga o'zgartirdi<sup>3</sup>.

Shuningdek, G'arbning yetakchi banklarini tahliliy bo'linmalari ham Xitoy iqtisodiyoti uchun yoqori o'sish sur'atlarini 6,6% dan 6,7% darajasini berdilar (Morgan Stanley, Societe Generale, UBS, JPMorgan). Citibank tahlilchilari esa, iqtisodiyotning asosiy drayverlari bo'lgan iste'mol va investitsiyalarning ijobiy dinamikasiga qarab, 2018-yil uchun 6,5% ga o'sadi degan bashoratni berdi. Moody's reyting Agentligi ham mazkur yillar uchun prognozni 6,3 dan 6,4%gacha deb o'zgartirdi<sup>4</sup>.

2017-yilning avgust oyi o'rtasida Xitoy mamlakatga xorijiy capital uchun asta-sekinlik bilan cheklovlarini va to'siqlarni kamaytirishga yo'naltirilgan xorijiy

---

<sup>1</sup>China Codifies Crackdown on 'Irrational' Outbound Investment // Bloomberg. 2017. August 18. URL: <https://www.bloomberg.com/news/articles/2017-08-18/china-further-limit-overseas-investment-in-push-to-reduce-risk>.

<sup>2</sup>MOFCOM Department of Foreign Investment Administration Comments on China's Assimilation of Foreign Investment in January-July // Ministry of Commerce People's Republic of China. 2017. August

<sup>2</sup>URL: <http://english.mofcom.gov.cn/article/newsrelease/policyreleasing/201708/20170802628440.shtml> .China's GDP likely to grow 6.8 pct in Q3: think tank // The Xinhua News Agency.2017. July 24. URL: [http://news.xinhuanet.com/english/2017-07/24/c\\_136468373.htm](http://news.xinhuanet.com/english/2017-07/24/c_136468373.htm) .IMF Executive Board Concludes 2017 Article IV Consultation with the People's Republic of China // International Monetary Fund. 2017. August

<sup>3</sup>China's GDP likely to grow 6.8 pct in Q3: think tank // The Xinhua News Agency.2017. July 24. URL: [http://news.xinhuanet.com/english/2017-07/24/c\\_136468373.htm](http://news.xinhuanet.com/english/2017-07/24/c_136468373.htm) .IMF Executive Board Concludes 2017 Article IV Consultation with the People's Republic of China // International Monetary Fund. 2017. August

<sup>4</sup>China's GDP likely to grow 6.8 pct in Q3: think tank // The Xinhua News Agency.2017. July 24. URL: [http://news.xinhuanet.com/english/2017-07/24/c\\_136468373.htm](http://news.xinhuanet.com/english/2017-07/24/c_136468373.htm) .IMF Executive Board Concludes 2017 Article IV Consultation with the People's Republic of China // International Monetary Fund. 2017. August

investitsiyalarni jalb qilish va uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi choralarni e'lon qildi.<sup>1</sup> Xususan, iqtisodiyotning 12ta sohasi uchun yo'l xaritalarini tayyorlash, shu jumladan, yangi energiya manbayiga asoslangan avtomobillarni, kemalarni ishlab chiqarish, bank va sug'urta sohalarini hamda qimmatbaho qog'ozlar bozorini loyihalashtirish. Mazkur sohalarga xorijiy investorlar birinchi marotaba kiritiladi va ularni Xitoyda biznes yuritish uchun imkoniyatlari kengaytiriladi. Undan tashqari, 2017- yilning iyul oyidan xorijiy investorlar uchun yopiq sektorlarni to'liq ro'yxati 36 tadan 28 taga qisqardi.

Shunday qilib, Xitoy oxirgi vaqtlarda, mamlakatga xorijiy capital oqimini kirib kelishini sezilarli tarzda qo'llab-quvvatlash bo'yicha harakatlarini jadallashtirdi. Bu esa, xitoy iqtisodiyotini investitsion jozibadorligini oshirishga harakat qilayotganidan dalolatberadi hamda Pekinni xorijiy investorlar uchun ichki bozorni sekin-asta ochish siyosatini olib boprayotganligin iko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash joizki, Xitoyning moliyaviy sohasida ham muammolar yig'ilib qolgan. Iqtisodiyotning ko'p yillar davomida kreditlar bilan ta'minlanishi oqibatida shakllangan, uning o'sishini qo'llab-quvvatlash vazifasi va qarz yukini qisqarishi orasidagi qarama-qarshiliklar moliyaviy tavakkalchilikni o'sishiga olib keldi. Asosan, ular korporativ va munitsipal yoqori ustun darajada yig'ilib qolgan kredit qarzlarini, bank tizimidagi "yomon qarzlar"ning o'sishi hamda nolegal bank biznesini keng miqyosda tarqalishi orqali asoslanadi.

Xalqaro bank hisoblari (BIS) ma'lumotlariga ko'ra, 2016- yilda Xitoyning kredit qarzdorligi miqdori 27,49 trln.doll.ni yoki mamlakat YaIMni 257% ni tashkil etdi<sup>2</sup>. Garchi, bu ko'rsatkich boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan, (Yaponiyada—371%, Buyuk Britaniyada—280%, evrozona bo'yicha o'rtacha—265,8%) past bo'lsada, xitoy qarzining o'sish sur'atini tezlikda o'sib borishi xavf-hatarni tug'dirdi. 2015-yilda u 245%ni, 2008-yilda esa, mamlakat YaIMning 141%dan ortig'ini tashkil etdi, Bunda qarz yukini ko'payishi asosan, eng avvalo, davlat korxonalarini va korporativ sektorni keng miqyosli krediti orqali qo'llab-quvvatlash hisobiga amalga oshirildi<sup>3</sup>.

Shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (XVT, Jahon banki - JB, Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish tashkiloti - IHRT) ni Xitoyning o'sib borayotgan qarzi bo'yicha havotirga tushishi, nafaqat, qarzlarini ko'payish sur'ati, balki, keyinchalik ham qarzlarini ko'paytirishi bilan asoslanadi.

Xitoy bo'yicha tuzilgan asosiy bashoratga ko'ra, XVF analitik ekspertlarining fikriga ko'ra, XXR oldindan e'lon qilingan iqtisodiy o'sishning maqsadli parametrlariga yetishi mumkin, biroq, u davlat va xususiy qarzning keyinchalik o'sishi evaziga amalga oshirilishi mumkin. Bu esa, xitoy iqtisodiyoti uchun o'rta muddatli tavakkalni o'sishiga sabab bo'ladi. Bunda XXRni nomoliyaviy

---

<sup>1</sup> URL: <http://www.imf.org/en/News/Articles/2017/08/15/pr17326-china-imf-executive-board-concludes-2017-article-iv-consultation>. 23. Citigroup expects China's GDP up 6.8 % in 2017 // China Daily. 2017. July 28. URL: [http://www.chinadaily.com.cn/business/2017\\_07/28/content\\_30283755.htm](http://www.chinadaily.com.cn/business/2017_07/28/content_30283755.htm).

<sup>2</sup> Moody's: China's 2017 GDP forecast revised up to 6.8 % // China News Service(CNS). 2017. August 31. URL: <https://www.ecns.cn/business/2017/08-31/271564.shtml>

sektorining umumiy qarzi, 2016-yildagi 242%dan, 2022-yilga kelib, to 300%ga yetishi mumkin<sup>1</sup>. Xitoyning o'zida bu muammoni, ya'ni qarz miqyosi muammosini juda yaxshi tushunishadi va shu sababli, mamlakat rahbariyati tomonidan iqtisodiyotdagi qarz yukini qisqarishi mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bu holatda Xitoydagi moliyaviy tavakkalchilikning keyinchalik ham ko'payib borishi bir qancha omillari yoki ularning yig'indisi bilan asoslanadi:

–korxonalar moliyaviy holatini yomonlashuvi, daromadlarni qisqarishi va xizmat ko'rsatishdagi hamda eski qarzlarni qayta moliyalashdagi muammolarni ko'payib borishi va ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish uchun yangi qarzlarni jalb qilishni qimmatlashuvi iqtisodiyotning ahamiyatli tarzda sekinlashuvi bilan kechadi. Oxir oqibatda, korxonalar yangi qarzlarni eski qarzlarga xizmat qilishi uchun (qoplash) foydalanadi va ularning barchasi XXRsini qarzlar chuqurligiga olib kelishi mumkin. Natijada, umumiy qarzдорlik o'sib boradi, ammo, mahsulotning umumiy hajmi o'smaydi, bu esa, olingan kreditlarni qaytarilish ehtimolini va bank sektori aktivlarini sifatini pasaytirgan holda, uning uchun tavakkallik darajasini oshiradi;

-iqtisodiyotni moliyalash manbalari va iqtisodiy o'sish drayverlari bilan uzoq muddatlarda qo'llab-quvvatlash muammoga aylanishi mumkin. Bunda eski tarmoqlar o'z raqobatbardoshligi va daromadlilikini yoqotadi, yangilari esa, hali rivojlanishi darkor hamda aynan, shuni, qayta tuzish uchun vaqt va ahamiyatli moliyaviy mablag'lar kerak bo'ladi. Undan, no-rentabel (daromadsiz) korxonalar faoliyatini bosqichma-bosqich to'xtashi va haddan ortiq quvvatlarning qisqarishi, bank sektoridagi ishlamayotgan kreditlarni ko'payishi, bank aktivlari sifatining yomonlashuvi, Xitoy moliya sektorini nobarqarorligini oshiruvchi defolt va bankrotlikni o'sishiga olib keladi hamda ijtimoiy silkinishlar tavakkalligini keltirib chiqaradi;

– qarzдорlik holatining yomonlashuvi va banklarni muammoli kreditlarini o'sishi bilan birgalikda, ya'ni “domino” samarasi moliyaviy tizimni mustahkamligiga va xitoy bozori volatilliligini oshishiga o'zaro salbiy ta'siriga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, u yuanga bo'lgan bosimini kuchaytiradi va XXR rahbariyatini ahamiyatli tarzda yuan kursini devalvatsiya qilinishiga majburlaydi;

– umumiy likvidlilikni va investitsion talabni toraytirishga olib keluvchi, moliyaviy faoliyat sharoitlarini qiyinlashtirish bankrotlik va defoltlar to'liqini keltirib chiqaradi. Kreditlashni o'sishini sekinlashuvi va moliyalash qiymatini oshishi iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni hamda o'sishning asosiy o'lchamlariga erishishni ahamiyatli tarzda qiyinlashtirishi mumkin.

2016-yilning oxiriga kelib, xitoy hukumati moliyaviy tartibga solishni sekin-asta kuchaytira boshladi va kreditlash hajmini nazorat qilishni amalga oshirishda iqtisodiyotdagi qarz vositalarini yoqori ulushini pasaytirish jarayoni uchun (deleveridja) monetary siyosat dastaklaridan foydalanish lozimligini tushunib

---

<sup>1</sup>China to promote foreign investment growth // The State Council of the People's Republic of China. 2017. August URL [http://english.gov.cn/policies/latest\\_releases/2017/08/17/content\\_281475795611082.htm](http://english.gov.cn/policies/latest_releases/2017/08/17/content_281475795611082.htm)

yetadi. Mana shu qarz yukini ahamiyatli ravishda qisqartirish maqsadida, hukumat quyidagi kompleks choralarni amalga oshira boshladi:

- restrukturizatsiyalash;
- korxonalar aksiyasiga banklar qarzini almashtirish;
- davlat korxonalarini isloh qilishni amalga oshirish;

Xitoydagi qarzдорlik holatining prinsipial farqi – milliy valyutada qabul qilingan 90%ga ichki qarzдорlikdan iborat ekanligidir. Xitoy iqtisodiyotining spetsifikasini hisobga olgan holda, ta'kidlash joizki, Pekin o'z navbatida, qarzдорlikni tartibli qisqarishini sezilarli moliyaviy va ijtimoiy silkinishlarsiz amalga oshirish imkoniyatiga ega. Xitoy qarzдорlik holatini nazorat ostida ushlab turish qobiliyatiga ega ekanligini uzoq vaqt davomida, hattoki, iqtisodiyotning sekinlashuvi sharoitida ham namoyish etdi va hozirgi davrda ham uni davom ettirmoqda.

Hozirgi davrda Xitoy hududida quyidagi imtiyozli tartibdagi asosiy ma'muriy-iqtisodiy tashkiliy tizimi faoliyat ko'rsatmoqda:

– 5ta maxsus iqtisodiy zona: Shenchjen, Chjuxay, Shantoy, Syamen, Xaynan;

– 219 ta davlat darajasidagi texnik-iqtisodiy rivojlanish zonalari: Pekin, Shanghai, Guanjoy, Tyanzin, Dalyan, Xarbin, Urumchi, Uxan, Chunsin, Xanchjou, Shenyang, Chanchun, Inkoy va boshqa yirik shaharlardagi zonalar;

– 146 ta yangi va yuqori texnologik zonalar;

– 12 ta Tyanzin, Dalyan, Guanjoy, Ninbo, Chjanzyagan, Xaykoy, Syamen, Fuchjoy, Sindao, Shantoy, Chjuxay va Shenchjen shaharlaridagi erkin bo'jxona zonalari;

– 16 ta Xeyxe, Suyfenxo (Xeylunzyan provinsiyasidagi), Manchjoyli, Erlyan (Ichki Mongoliya avtonom rayonidagi), Xunchun (Szilin provinsiyasidagi), (Lyaonindagi) Dandun, Inin, Bole, Tachen, Zimunay (SUARda), Pinsyan, Dunsin (Guansi-Chjuan avtonom rayonida), Juyli, Vantin, Xokoy, Linsan (Yunnan provinsiyasi) gi davlat darajasidagi chegaraoldi iqtisodiy hamkorlik zonalari;

– 11ta markazga bo'ysunuvchi shaharlar Pekin, Shanghai, Tyanzin va Chunsin shaharlarida hamda Guandun, Futzan, Lyaonin, Chjesyan, Xenan, Xubey, Sichuan, Shansi provinsiyalaridagi erkin savdo eksperimental zonalari.

Xitoy hukumati kuchli erkin (maxsus) iqtisodiy zonalarini tashkil etar ekan, erkin iqtisodiy zonalar rivojlanishining strategax yo'nalishlarini belgilab berdi, ular oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'ydi va ularni amalga oshirdi. Bu maqsad va vazifalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

• **Birinchidan,** MIZlar zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirish va Xitoy tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri - " tashqi dunyo uchun ochish" tamoyilini hayotga tatbiq etishga yordam berdi;

• **Ikkinchidan,** EIZlar siyosiy va iqtisodiy tomonidan, barcha mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning sezilarli darajada o'sishiga kuchli turtki bo'ldi va "Xitoy sotsialistik bozor iqtisodiyoti - jahsn iqtisodiyoti" zanjirida o'ziga xos muhim xalqaga aylandi.

• **Uchynchidan**, xorijiy investorlar uchun ochiq hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar nafaqat, yuqorida qayd etilgan xududlar, balki Markaziy, Shimoliy-G'arbiy va Janubiy-G'arbiy rayonlarga xorijiy investitsiyalarni, zamonaviy texnologiya va uskunalarini jalb etish bilan bog'liq tashqi iqtisodiy siyosatning muxim yo'nalishini amalga oshirishda katta rol o'ynadi.

• **To'rtinchidan**, MIZlar rivojlangan mamlakatlar kabi fan va texnikaning eng yangi natijalaridan, yuqori va unumli mehnatdan, zamonaviy ishlab chiqarish munosabatlaridan, xo'jalik yuritishning yangi shakllaridan foydalanadigan o'ziga xos laboratoriya vazifasini bajardi.

• **Beshinchidan**, MIZlar qulay geoiqtisodiy joylashuvidan, boy tabiiy-iqtisodiy resurslaridan, shu xududda istiqomat qilayotgan axolining malakali mehnatidan samarali foydalanishi, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishi sharoitida qisqa muddatlarda yuqori iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga, ushbu xududda istiqomat qilayotgan axolining farovonligini muttasil oshirib borishga erishdilar.

• **Oltinchidan**, MIZlar Xitoyning qoloq xududlari uchun ijobiy namuna, ichki muvaffaqiyatlarni ko'rsatuvchi o'ziga xos rasta, shuningdek, Xitoy iqtisodiyotini oldinga yetaklovchi lokomotiv vazifasini bajardilar;

**Yettinchidan**, xorijiy investorlar uchun ochiq bo'lgan MIZlar eksportga yo'naltirilgan sanoat ishlab chiqarish turlari barpo etiladigan xudud hisoblanadi. Mazkur korxonalar mahsulotlari Xitoyning barqaror xalqaro savdosini kengaytirish, uning jahon iqtisodiyotidagi mavqeni mustahkamlash bilan bog'liq muammolarni hal etishga yordam berdi;

2017 yilda MIZlardagi tashqi savdoning umumiy hajmi 2016 yilga nisbatan, 7,4% ga o'sib, u 3,8 trln.yuanga teng bo'ldi, jumladan, eksport - 2,2 trln.yuanni (+5,9% o'sish), import -1,6 trln.yuanni (+9,6%) tashkil etdi. Xitoy umumiy tashqi savdo aylanmasida MIZlarning ulushi . 13,7% (-1%)dan iborat bo'ldi.

Jadval 7.3.5.

#### 2017 tilda XXR sidagi MIZlarni tashqi savdosi

| Maxsus iqtisodiy zonalar | Qiymati, mln \$ |         |         | o'sish, %       |         |        |
|--------------------------|-----------------|---------|---------|-----------------|---------|--------|
|                          | Tovar aylanmasi | eksport | import  | Tovar aylanmasi | eksport | import |
| Shenchjen                | 2801146         | 1653357 | 1147789 | 6,4             | 5,5     | 7,9    |
| Syamen                   | 581604          | 325365  | 256239  | 14,3            | 5,2     | 28,4   |
| Chjuxay                  | 299012          | 188298  | 110714  | 8,6             | 4,4     | 16,4   |
| Shantou (yanvar-noyabr)  | 52382           | 39195   | 13188   | 2,5             | 1,2     | 6,7    |
| Xaynan                   | 70237           | 29566   | 40671   | -6,5            | 110,4   | -33,4  |
| Jami                     | 3804381         | 2235781 | 1568601 | 7,4             | 5,9     | 9,6    |

manba:XXR davlat Bojxona boshqarmasi ma'lumotlari

Shunday qilib, Xitoyda xorijiy sarmoyalarni loyihalarga qo'yish uchun tasdiqlangan limit hozirgi davrda \$50 mln.ni tashkil etadi va ular sarmoyalarning ulushi ustav kapitalining 25% idan kam bo'lmasligi lozim deb belgilangan.

## **8-BOB: XXRDA KICHIK VA O'RTA TADBIRKORLIK SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI**

### **8.1.Xitoyda kichik va o'rta tadbirkorlik sohasining zamonaviy rivojlanish holati tahlili**

1986 yilning mart oyida Xitoy hukumati tomonidan fan va texnikani rivojlantirish Davlat "863 Dasturi" qabul qilindi<sup>1</sup>. Ushbu dasturda fanga oid sohalarnirivojlantirishda ustun bo'lgan yo'nalishlar etib quyidagilar belgilandi:

- mikroelektronika va informatika;
- aerokosmik;
- gen injeneriyasi va biotexnologiya;
- yangi, energiya tejovchi texnologiyalar;
- atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida xavfsizlik texnika va uskunalari;
- tibbiy uskunalar.

Qishloq iqtisodiyotini rivojlantirish uchun, ilmiy-texnika yutuqlarini qo'llash asosida, xuddi shu yildan "Uchqun" Davlat dasturini amalga oshirish boshlandi. So'ngra, 1988 yilda "Mash'al" nomli asosiy, hal qiluvchi dastur ishlab chiqarishga, imkon qadar tezroq mamlakatdagi ilg'or ishlanmalarni olib kirishga yo'naltirildi. Ushbu dastur doirasida yuqori texnologik tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga turtki bo'luvchi innovatsion ishlanmalarni kommersializatsiya qilishda tashkilotlarga ko'mak berildi. Kichik va o'rta biznes (KO'B) sektorida innovatsion faoliyatni yanada jonlantirish maqsadida, 1987 yilda Xitoy ilmiy-texnik tashkilotlarning inkubatorlarini yarata boshladi. Maqsad esa, yoqori texnologik KO'B ni yaratish orqali innovatsion loyihalarni izlash, qo'llab-quvvatlash va amalda tatbiq etishdir.

Xitoyning ilmiy-texnik taraqqiyotidagi keyingi bosqich - 1988 yilda mamlakatning yirik texnologik parklaridan bo'lgan yangi va yo'qori texnologiyalarga asoslangan Pekin tajriba zonasining yaratilishi bo'ldi. Uning 100 kv.km hududida o'nlab o'quv dargohlari, 130 ta ilmiy-tadqiqot institut va lobaratoriyalari faoliyat ko'rsatadi. Bu yerga 1000 dan ortiq mutaxassislar jalb etilgan. Kengligi jihatidan Xitoyning 2-texnoparki - "Nanxu" Shanyan shahrida joylashgan bo'lib, u 22 km<sup>2</sup> maydonni egallaydi. U yerda 12 ta oliy o'quv yurtlari, 30 ta ilmiy-tadqiqot institutlari, 220 ta yoqori texnologik tashkilot va muassasalar, shuningdek, 7 mlrd. AQSh dollarida xorij kapitali ishtirokidagi 30 ta kompaniyalar faoliyat ko'rsatadi.<sup>1</sup>

1990 yilda 1-navbatda ilmiy-texnik yutuqlarni jalb etish bo'yicha davlat rejasi amal qila boshladi. Ushbu rejaning moliyalashtirish manbai sifatida asosan davlat kreditlari, kapital investitsiyalar, tashkilotlar va muassasalarning xususiy mabdag'lari, jamoatchilik jamg'armalari, soha mablag'lari xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, sezilarli darajada amaldagi va yaratilayotgan texnoparklarda innovatsion tadbirkorlikning rivojiga turtki bo'ldi. Endilikda, Xitoyda texnoparklar markaziy shahar va shimoliy-sharqiy provinsiyalarni hisobga olgan holda, butun mamlakat bo'ylab amal qilmoqda va ularda tadqiqot hamda ishlab chiqarishga

---

<sup>1</sup>Карлусов В.В. Частное предпринимательство в Китае М. Изд.фирма «Вост. Лит.» РАН,2005. 384с

joriy etish faoliyati bilan band bo'lgan 16,5 mingga yaqin korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Aslida texnoparklar hududiy va tashkiliy jihatdan maxsus iqtisodiy xududlar bilan kesishadi. Bu esa texnoparklarga xorij kompaniyalari bilan ancha samarali hamkorlik olib borishga va dunyo miqyosida ilmiy-texnik ayirboshlashda ishtirok etish imkonini beradi. Davlatning homiyligi natijasida 1990 yildanoq Xitoyda "Yuqori texnologiyalar hududi" nomi ostida texnoparklar yaratila boshlandi. Xitoy fan va texnika Vazirligi 120 ta turli darajadagi yoqori va yangi texnologiyalar o'zlashtirilganligi to'g'risida xabar beradi. Shulardan 53 tasi davlat ahamiyatiga molik hisoblanadi. Markaziy hukumat tomonidan joriy etilgan imtiyozli shartlardan tashqari hudud ishlarini boshqarish bo'yicha mahalliy ma'muriyat va qo'mitalar ham mamlakat hamda xorij investorlarini jalb etish va rag'batlantirish maqsadida qo'shimcha imtiyozli holatlar ishlab chiqmoqdalar. Masalan, Xarbin shahrida yangi va yoqori texnologiyalarni o'zlashtirish bo'yicha hududdagi korxonalar quyidagi qo'shimcha imtiyozlardan foydalanadilar:<sup>1</sup>

1. Korxona (akkreditatsiya muddatidan boshlab) birinchi 3 yil oralig'ida daromad solig'idan ozod etiladi, ikkinchi 3 yil uchun 50 % soliq (7,5 % tarifi bo'yicha) to'lanadi va 7 - yildan boshlab, ular daromad solig'ini (15 % tarif bo'yicha) to'liq miqdorda to'lashadi;

2. Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish qiymati uning yillik yalpi mahsulotidan 50 % dan oshganda mazkur tashkilotva firmalar to'liq miqdorda (15 % tarifi bo'yicha) daromad solig'ini to'lashadi;

3. Mahalliy sanoat ishlab chiqarishi bilan shug'ullanmaydigan, tadqiqot o'tkazish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan va ularni import qilinuvchilar (asbob-uskunalar) bojxona import bojidan ozod etiladi;

4. Tashkilotlar hudud maydonida kapital qurilishini olibborishda bir qancha imtiyozli shartlardan foydalanadilar.

1992 yilda Xitoyda Hukumat qaroriga binoan, "KO'B ni ishlab chiqarish bo'yicha qo'llab-quvvatlash markazlari" tashkillashtirila boshlandi. 1995 yil mamlakatda "Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash markazlari" milliy assosiatziyasi tashkil etildi va KO'Bni rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlashda barcha tarmoqlarning manfaatlarini aks ettirishga qaratildi. Mazkur Markazlarning faoliyati KO'B sektori korxonalarining unumdorligi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Hozirda Xitoyda bu kabi 1218 ta markaz tashkil etilgan hamda ular mamlakatning barcha mintaqa va ko'pgina shaharlarda amalda ishlamoqda. Mazkur markazlar mashinasozlik, metallurgiya, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, aerokosmik texnika, yengil sanoat va h.k. ga maxsuslashtirilgan. Bunday markazlar konsultativ xizmatlar ko'rsatish, yangi texnologiyalarni joriy etish, sinovdan o'tgan mahsulotlarni amalda qo'llash, KO'B ni axborot xizmati bilan ta'minlash, yangi kichik tadbirkorlik (KT) ni ko'paytirish uchun joylar taqdim etish kabilarni amalga oshiradi. Qolaversa, o'quv mashg'ulotlari olib borib, turli korxonalarda ishlash uchun davlat byudjetidan har yili 12,5 mln. AQSh dollari

---

<sup>1</sup><http://www.sme.gov.cn/> – Официальный сайт государственной поддержки малого бизнеса Китая.



ajratiladi. Bu markazlarda 200 mingga yaqin mutaxassislar o'qitildi va 92 ming KO'B sektoriga konsultatsiyalar taqdim etildi<sup>1</sup>.

1996 yilda turmush sifatini oshirish va turar joyni yaxshilash, insonlarning tabiat bilan munosabatini uyg'unlashtirish va ijtimoiy hayotda ilmiy-texnik taraqqiyotga ko'mak berishga yo'naltirilgan 2010 yilgacha mo'ljallangan ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy-texnik dasturi amalga oshirila boshlangan edi. Mazkur dastur sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalikni mukammallashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitni yaxshilash va tabiiy ofatlardan himoya qilishni o'z ichiga qamrab oladi.

1998-yilda 3 yil davomida 600 mln. AQSh dollari ajratilgan "Yangi bilimlarning bunyod bo'lishi" loyihasi bo'yicha davlat tashabbusi tomonidan tajriba ishi boshlandi. Loyihaning maqsadi intellektual novatorlikning funksional mexanizmini yaratish va xalqaro bilim markazlarini tashkil etish edi. Xuddi shu yili XXR hukumati tavakkal investitsiyalar mexanizmini yaratish va real ishlab chiqarishga ilmiy-texnik yutuqlarni transformatsiya qilish uchun mo'ljallangan "Fan-texnikaga ixtisoslashgan o'rta va kichik korxonalar Fondi"ni tashkil etish uchun 120 mln. AQSh dollari ajratdi. Bu bilan jahon bozorlarida ancha yuqori talabga ega murakkab mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi KO'B ning tez su'ratlarda texnologik taraqqiyotini ta'minlash ko'zda tutilgan edi.

Muhim bosqich sifatida KO'B sektorining ilmiy-texnik potensialini oshirishga ko'mak beruvchi innovatsion faoliyatni rivojlantirish milliy tizimining yaratilishi bo'ldi. Bu quyidagilarga asoslanadi:

1. Innovatsion KO'B ga nisbatan umumiy strategiyani ishlab chiqish;
2. KO'B sektorida innovatsion faoliyatni koordinatsiya qilish bo'yicha ma'muriy tashkilotning yaratilishi;
3. Modernizatsiyalanuvchi KO'B uchun soliq preferensiyalarini taqdim etish;
4. Innovatsion taraqqiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlashtirishni yaratish;
5. Innovatsion KO'B ga axborot, konsultatsion va texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlash;
6. Tez su'ratda rivojlanayotgan KO'B ni qo'llab-quvvatlash uchun biznes-incubator, texnopark va maxsus texnologik hududlarni tashkil etish;
7. KO'B uchun ventur fondlarini tashkillashtirishga ko'makberish.

2003 yilda XKP (Xitoy kommunistik partiyasi) XVI s'ezdida 2020 yilga qadar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi tasdiqlangan bo'lib, undan maqsad 2050- yilga qadar Xitoy iqtisodiyotini tubdan modernizatsiyalashga, uni boy, demokratik va madaniyatli davlatga aylantirishni ta'minlashga qodir asos yaratishdan iboratdir.

2010 yilda YaIMni 2001 yilga nisbatan 2 baravarga oshirish ko'zda tutilgan, shu jumladan XXRning jahon iqtisodiyotidagi ishtirokini kengaytirish yo'li orqali ham. Xalq xo'jaligi tarkibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish orqali Xitoyda yo'qori xayot darajasini ta'minlash maqsadida 2020-yilga kelib YaIM darajasini 2000 yilga nisbatan 4 baravarga oshirish va mahsulotlarning iqtisodiy qudratini va raqobatbardoshligini mustaxkamlash vazifasi qo'yilgan.

---

<sup>1</sup>Карлусов В.В. Частное предпринимательство в Китае М. Изд.фирма «Вост. Лит.» РАН,2005. 384с



Milliy iqtisodiy rivojlanish dasturida keyingi o'n besh yil (2006-2020 yy.) ichida asosiy e'tibor 11 ta asosiy sektorga, shu jumladan, telekommunikatsiya va AT-sohasini rivojlantirishga qaratishni nazarda tutadi<sup>1</sup>.

2020 yidga kelib, Xitoy xizmat ko'rsatish sohasining YaIM umumiy hajmidagi ulushi hozirgi 33 foizdan 50-60 foizga oshirishni mo'ljallanmoqda. Belgilangan muddatda, ya'ni 2010 yilda, mamlakat YaIM \$5 trilliondan oshdi va uning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi, taxminan \$3,8 mingga yetdi, bu esa, aholi daromadi o'rtacha darajada bo'lgan davlatlar ko'rsatkichiga tengdir<sup>2</sup>.

XXR ning rivojlangan mamlakatlardan ilmiy-texnik jihatdan qolokligining oldini olish maqsadida 1982-yildayoq ijtimoiy-iqtisodiy sohada ilmiy parklar tashkil etish g'oyasi asosida inno-vatsiyalar dasturi qabul qilindi. Iirik innovasion va ilmiy-texnik larklarni amalga tatbiq etishning dolzarbligini anglagan holda, hukumat eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni ta'minlash uchun ilmiy parklar, biznes-inkubatorlar va maxsus texnologik xududlar tashkil etish bo'yicha yirik dasturni boshladi. 1985 yilda Gonkong-dan uzoq bo'lmagan Shenchjen shahrida hukumat birinchi ilmiy parkni yaratish bo'yicha beminnat yerlar (316 ga) ajratib, bu borada qilinayotgan barcha ishlarni moliyalashtirdi. Parkda joylar faqat ilg'or yoki yangi texnologiyalarga va ularni tatbik egish imkoniyatiga ega bo'lgan firmalargagina takdim etilardi. Shuningdek, mahsulot-ning bozorda o'z o'rniga egaligi va ishlab chiqarishning eksportga yo'naltirilganligi ham shartli jihatlardan biri edi. Ushbu firma-larga XXII hukumati sezilarli imtiyozlar (soliq bo'yicha tanaf-fuslar, ek-sport va import soxasida imtiyozlar, ilmiy-texnik grant-lar va h.k.) takdim etdi. Ishtirokchi firmalarga kreditlar davlat bankpari tomonidan kam foizlarda ajratilar edi. "Shenchjen" parkining 10 yillik faoliyati davomida ko'pchiligimi jahon e'ti-rof etgan 90 dan ziyod yangi texnologiya va mahsulotlar ishlab chiqa-rildi. Natijada mamlakatda maxsus texnologik hududlarni hisobga olgan holda 53 ta ilmiy-texnik parklar yaratildi.

2004 yilda mamlakatda 500 ga yaqin biznes-inkubatorlarfaoliyat ko'rsatlgan va ular orasida 200 dan ortiq turli "ilmiy-texnik korxona inkubatorlari" mavjud edi. Shu bilan birga, 109 ta biznes-inkubator KO'B ni qo'llab-quvvatlash sertifikatlashtirilgan milliy markazlar hisoblanadi. Shular qatorida 24 tasi dasturiy ta'minotga maxsuslashgan va yana 58 tasi universitet hamda kolledjlar qoshidagi ilmiy-texnik markazlar hisoblanadi. Mamlakatdagi butun KO'B ning deyarli 25 % ni tashkil etgan 3 mln. ga yaqin KO'B joylashgan hududlar, ya'ni 1515,1 mln. kv.m. ishlab chiqarish va ofis maydonlarini egallaydi.<sup>3</sup>

Hukumatning inkubatorlarni boshqarish agentligiuning fan va texnika vazirligi tarkibiga kiradi. Shuning uchun Xitoyning ko'pgina inkubatorlari texnologiyalar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarga xizmat ko'rsatadi. Inkubatorlarning asosiy qismi yirik shaharlarda joylashgan. Masalan, Shanxayda 30 dan ortiq inkubatorlar mavjud. Ulardan eng kattasi 300 ta kompaniyaga xizmat ko'rsatadi. Ko'pgina innovatsion kompaniyalarning xodimlari xorijda ma'lumot

---

<sup>1</sup><http://www.sme.gov.cn/> – Официальный сайт государственной поддержки малого бизнеса Китая.

<sup>2</sup>O'sha joyda. <http://www.sme.gov.cn/>

<sup>3</sup>Карлусов В.В. Частное предпринимательство в Китае М. Изд.фирма «Вост. Лит.» РАН,2005. 384с

olib vataniga qaytib kelgan "qaytgan olimlar" tomonidan yangi kompaniyalarni tashkil etish maqsadida yaratilgan.

2008 yilda mamlakatda 7298 ta'lim va tadqiqot tashkilotlari faoliyat ko'rsatardi. Unda ishlovchi tadqiqotchilar soni bo'yicha Xitoy Yaponiya va Rossiyani ortda qoldirib, AQShdan keyingi 2-o'ringa chiqdi. Xorij investitsiyalarini mamlakatga jalb etish bo'yicha Xitoyda tashkil etilgan injener markazlarning soni oxirgi 4 yil ichida 200 dan 750 gacha ko'tarildi. Ilmiy-texnik tashkilotlar, texnopark va injener markazlarini davlat tomonidan nazorat qilish, avvalambor, tadqiqot yo'nalishini aniqlash va yuqori-texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek, strategik muhim ishlanmalarni byudjet bilan moliyalashtirishda namoyon bo'ladi. Texnologik park va biznes-inkubatorlar rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar, ayniqsa, kichik biznes sohasida innovatsion faollikning tez su'ratlarda kengayishiga turtki bo'ldi. Bu esa o'z navbatida, XXR da venchur kapital bozorining shakllanishiga kuchli ta'sirini o'tkazdi.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda mamlakatda 180 dan ziyod umumiy kapital mablag'lari deyarli 30 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan venchur investitsion kompaniyalar (90 %-davlat, 8 % - xorij, qolgan 2 %i esa – qo'shma korxonalar) amal qilmoqda.

Jadval 8.1.1.

#### **Xitoyda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi<sup>2</sup>**

| yillar | YaIM da KO'B<br>ningulushi, %da | individual<br>tadbirkorlar, mln.k | KO'B<br>dagibandlarsoni, %<br>da |
|--------|---------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------|
| 2005   | 39                              | 28                                | 70.1                             |
| 2008   | 37                              | 24                                | 69,8                             |
| 2011   | 55                              | <b>33</b>                         | 80,0                             |
| 2012   | 55,8                            | <b>37</b>                         | 80,3                             |
| 2013   | 56,1                            | <b>39</b>                         | 80,4                             |
| 2015   | 56.7                            | <b>42</b>                         | 80.9                             |
| 2017   | 57.1                            | <b>90</b>                         | 82.1                             |

Mamlakatda innovatsion KO'B ni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat va jamoat homiyligi samarali tarzda amal qilmoqda. Xozirgi vaqtda ekspertlar XXR biznesining o'ziga xos xususiyatlariga o'z e'tiborini qaratib, Xitoy misolida kichik biznesni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqmoqdalar.

Xitoy xukumati kichik va o'rta korxonalarni iqtisodiy o'sishning, bozorni jonlantirishning va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishning eng muhim rag'batlantiruvchi omili deb hisoblaydi. Oxirgi 20 yil davomida kichik va o'rta biznes sektori Xitoy iqtisodiyotinig ajralmas qismiga aylanib, xozirda ko'p ish o'rinlarini tashkil etmokda va yangi innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirmoqda.

<sup>1</sup>.<http://www.sme.gov.cn/> – Официальный сайт государственной поддержки малого бизнеса Китая.

<sup>2</sup><http://russian.people.com.cn/31518/6539609,6540410.Htm> lasosidamualliftomonidantuzildi.

Dastlabki park 1985- yilda Gonkong yaqinida joylashgan Shenchjen shahrida tashkil etilgan. Mazkur parkka mahalliy universitet va mamlakatning barcha milliy markazlari ilmiy-texnik ko'mak ko'rsatgan. Parkda faqat ilg'or yoki yangi texnologiyalarga asoslangan va ularni joriy etish imkoniyatiga ega bo'lgan firmalar joy takdim etilgan. Shuningdek, mahsulot bozorda o'z segmentiga ega bo'lishi hamda ishlab chiqarishni eksportga yo'naltirish majburiy bo'lgan. Ilmiy park tasischilari Shenchjen munisipaliteti, XXR Fanlar akademiyasi hamda "Guandun provinsiyasi xalqaro trast va investitsiya korporatsiyasi" hisoblanadi.

XXR xukumati parkka 316 gektar yerni bepul berdi hamda muhim imtiyozlar (soliq ta'tili, eksport va import sohasida imtiyozlar, xukumatning ilmiy-texnik grantlaridan foydalanish imkoniyati va b.)ni taqdim etdi. Ishtirokchi firmalarga kreditlar davlat banklari tomonidan past foizlarda ajratildi.

«Shenchjen» parkida o'n yillik faoliyati davomida 90 tadan ortiq yangi texnologiya va mahsulotlar ishlab chiqilib, ulardan ba'zilari, masalan, xitoy integratsiyalashgan «Chjuchjen» kompyuter tizimi, dunyoda eng yaxshi ixcham «Xenton» rengen moslamasi xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etildi.

Kichik va o'rta biznes sektorida innovatsiya faoliyatini yanada faollashtirish maqsadida Xitoy 1987 yilda "ilmiy-texnik korxonalar inkubatorlari"ni (ular, shuningdek, rivojlantirish hamda yo'qori va eng yangi texnologiyalarni o'zlashtirish markazlari deb ataladi) tashkil etishni boshladi. Mazkur inkubatorlar yo'qori texnologiya kichik va o'rta biznes korxonalarini tashkil etish yoli bilan texnik va ilmiy innovatsiyalarni izlash hamda qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

Xitoyning ilmiy-texnik rivojlanishining keyingi bosqichida 1988 yilda Pekin yangi va yoqori texnologiyalar eksperimental hududi tashkil etilib, u mamlakatning eng yirik texnologik parkiga aylantirildi. Uning 100 kvadrat km. maydonli xududida o'nlab o'quv muassasasalari (shu jumladan, Pekin davlat universiteti), 130 ta ilmiy-tadqiqot instituti va laboratoriyalar faoliyat yuritib, ularda yuz ming nafardan ortiq mutaxassis ishlaydi.

Xitoyning keyingi o'rindagi «Nanxu» texnoparki Shenyang shahrida joylashgan bo'lib, 22 kvadrat km. maydonni egallaydi. U yerda 12 ta oliy o'quv muassasasi, 30 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 220 ta yoqori texnologik korxonalari, jumladan, 7 mlrd. AQSh dollar miqdorida xorijiy kapital ishtirokidagi 30 ta kompaniyalar mavjud. Xitoy bugun butun dunyoga mashhur iqtisodiy jihatdan ilgarilab ketgan, yorib o'tishni amalga oshirdi va bunda kichik biznesning o'rni beqiyosdir. Bugunda Xitoyning kichik va o'rta biznes sektori hissasiga patentlarning 65 foizi, texnik yangiliklarning 75 foizi va xitoy yangi mahsulotining 80 foizidan ortig'i to'g'ri keladi. Mamlakatdagi soliq tushumlarining 46,2 foizi hamda Xitoy umumiy eksportining 62,3 foizini kichik va o'rta biznes ulushi tashkil etadi. Shuning bilan birga, kichik korxonalar toifasiga band bo'lganlar soni 100 nafargacha kishini tashkil etgan, qarayib 99 foiz korxona kiradi va band bo'lganlar soni 101 dan 999 nafargacha kishini tashkil etganlarning atigi 0,6 foizigina o'rta korxonalar toifasiga kiradi<sup>1</sup>.


---

<sup>1</sup><http://www.sme.gov.cn/> – Официальный сайт государственной поддержки малого бизнеса Китая.

Innovatsion jarayonlar tarkibi va tavsifiy tuzilmasi tahlili, kichik innovatsion korxonalar yangi g'oyalarni shakllantirish, tajriba-konstruktorlik (kamroq – ilmiy-tadqiqot ishlarida), bozorga joriy etish bosqichlarida nisbatan faol bo'ladilar, ommaviy ishlab chiqarish bosqichida esa nihoyatda kam faollik ko'rsatadilar, degan xulosaga olib keldi. Mohiyatiga ko'ra, IT institutini mukammallashtirish ITni rivojlantirish asosi bo'lib hisoblanadi, u esa innovatsion infratuzilmani shakllantirish, davlatning tartibga solish va innovatsion tuzilmalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va vositalarini yaxshilash negizida uning yaxlitligini tiklashga yordam beradi. Aynan innovatsion jarayonning o'zi ham ITni rivojlantirish dasturlari va ularga yordam ko'rsatish hisobiga davlat tomonidan maqsadli tartibga solish ob'ekti bo'lishi kerak.

Rasm- 8.1.1.

### XXR tadbirkorlarining innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishdagi hissalari<sup>1</sup>



Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish iste'molchilar tomonidan innovatsiyalarga talab bo'lishiga, milliy iqtisodiyotning rivojlangan ilmiy-texnik salohiyatiga, xatarli innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi venchur firmalar va investorlarning faoliyat ko'rsatishiga bog'liq. Innovatsiyalarni rivojlantirish dasturlari bo'lib, birinchi navbatda, bozor raqobati hisoblanadi. Bozor sharoitida mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar yoki xizmatlarni ko'rsatuvchilar doimiy ravishda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish yo'lini izlashga va yangi iste'mol bozorlariga chiqishga majburlar.


Xitoy tadbirkorlari innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishda faol qatnashmoqdalar. Masalan, patentlarning 65%i va mamlakatda ishlab chiqarilgan yangi mahsulotlarning 80% dan ortiqrog'i Xitoy kichik korxonalariga to'g'ri keladi. Xitoydagi soliq tushumlarini deyarli yarmi va eksport hajmining 60%i kichik biznesga to'g'ri keladi. Hozirgi davrda Xitoyda deyarli 110 mln. dan ortiq mutaxassislar band bo'lgan 6 mln.ga yaqin ilmiy-texnik vositachi tashkilotlar amal qilmoqda. 2009- yilda davlat tomonidan "Innovatsion tashkilot" maqomi joriy etildi. Ushbu maqom o'zining xususiy brendiga ega bo'lgan 90 ta tashkilotga berildi. Ular o'zlarining texnik novatorligi evaziga jahon bozorlarida yoqori raqobatbardoshlikka ega.

<sup>1</sup><http://russianpeople.com.cn/31518/6528002.html> asosidamualliftomonidanishlandi.

Eksport-import faoliyati miqyosining toraytirilishi, xitoy iqtisodiyotining internatsionalizatsiyalashuv darajasini pasayishiga olib keldi. Bunday tendensiyalar bo'lishiga qaramasdan, tashqi savdo hajmi sezilarli darajada o'sgan bo'lsada 1952-1954 yillarda 23,04 mlrd.yuandan, 1976-1978 – yillarda 89,16 mlrd. yuangacha, bu degani 3,9 martaga o'sgan, lekin, uning sanoatda va qishloq xo'jaligida yalpi mahsulotlar qiymatidagi ulushi 8,16%dan 5,89% ga, ya'ni 2,27% ga kamaygan<sup>2</sup>.

XKP MK ning 3-plenumi 11-chaqirig'ida (1978-yil dekabr) Xitoyning tashqi dunyoga ochiqligi e'lon qilingan va xitoy jamiyatining iqtisodiy islohatlarga qadam qo'yishni boshlagan. Ochiqlik g'oyasi ("dui wai kai fan") juda muvaffaqiyatli bo'lgan va asosiy uzoq muddatli tashqi iqtisodiy siyosat edi. Bu islohotlar boshlangandan so'ng, hukumat iqtisodiy rivojlanishda tashqi iqtisodiy omillarning o'rnini qaytadan chuqur ko'rib chiqdi. 1968-70-yillarda mashhur bo'lgan "o'z kuchiga tayanish" ("zi li gen shen") tamoili – iste'mol tovarlarini, texnika va texnologiyalarni importini, turli ko'rinishdagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni qisqartirish yoki ularni umuman jalb qilmaslik, "ochiqlik" siyosati bilan almashtirildi.

1980-yilning iyun oyida Den Syaopin chet el delegatsiyasi bilan uchrashuvida birinchi bora "Tashqi dunyoga ochiqlik" atamasini, Xitoyning tashqi dunyoga nisbatan iqtisodiy siyosatini asosi sifatida ishlatgan va "Xitoy xalqaro munosabatlarda ochiqlik siyosatini amalga oshiradi, xalqaro arenaga chiqish yo'llarini kengaytiradi, rivojlangan mamlakatlar bilan tajriba almashadi, milliy rivojlanishni qo'llab quvvatlash uchun xorijiy kapitalni va texnikalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratadi" deb e'lon qildi.

---

<sup>1</sup>Экономика Китая, Ван Менкуй и др.2005,феврал.78 с

<sup>2</sup>Мировая экономика: глобальные тенденции за 100 лет. / Под ред. И.С.Королева. – М.: Юрист, 2003. –604 С

1982-yilning dekabr oyida XXR Konstitutsiyasining yangi tahririda tashqi ochiqlik siyosatini amalga oshirish mamlakatning muhim faoliyati sifatida belgilab qo'yildi.

Ochiqlik g'oyasi bir ovozdan partiya va jamiyat doirasida qo'llab-quvvatlandi deb bo'lmaydi, chunki, xitoy iqtisodiyoti aktiv holda ochiqlik siyosatining yutuq va kamchiliklari haqida, xitoy xalqi uchun olib kelishi mumkin bo'lgan xavfli tomonlari haqida baxs va munozaralar olib borilgan. Ba'zilar bu ochiqlik g'oyasiga qarshi edi. Baxs-munozaralar oqibatida tashqi iqtisodiy ochiqlik konsepsiyasi deyarli to'liq shakllandi, unga munosabat, konyuktura sifatida emas, balki, uzoq muddatli strategiya sifatida, qoloqlikni yengib o'tishning asosiy dastagi sifatida, ilg'or mamlakatlarga yetib oluvchi mamlakatlar qatoriga kirish va tashqi savdo hamda tashqi iqtisodiy faoliyatda yetakchilar qatoriga kirishning bir yo'li sifatida mustahkamlana borgan.

Xitoy maksimal darajada ichki rezervlarni ishga solib, XXI asrda tashqi savdo bo'yicha, o'sib borayotgan jahon iqtisodiyotining globallashuvida jahon liderlik pozitsiyasiga erishdi.

Xitoyning ochiq iqtisodiyot konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi xitoy modelining qurilishi "sotsializm xitoy spetsifikasi bilan ikki ma'noga ega, bir tomondan, bu XXRning asosiy tashqi iqtisodiy siyosatini strategik asosi bo'lib, u jahon liderlari pozitsiyasi va iqtisodiy-ijtimoiy sakrash uchun, rivojlangan mamlakatlarni turli xil ko'rinishdagi iqtisodiy yutuqlaridan foydalanishga qaratilgan. Ikkinchi tomondan, ochiqlik bu odamlar ongining barcha yangi, zamonaviy, innovatsion narsalarga ochiqligi, sotsializmning boshlang'ich qurilishida yig'ilgan, "to'rtlik bandasi" bilan bog'liq, turli xil dogmalardan voz kechish".

Xitoyning ochiqlik konsepsiyasi, o'z ichiga quyidagi holatlarni qamrab oladi:

- mamlakatning umumiy boshqaruvi ostida, borgan sari ko'proq bozor mexanizmlari asosida faoliyat olib boruvchi, xalq xo'jaligi kompleksining butunligi. Bunda xalq xo'jaligi kompleksi tartibiga ko'ra jahon xo'jaligi va Xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimiga integratsiyalashishi zarur;

- xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatning qiyosiy ustunligidan samarali foydalanish;

- milliy iqtisodiyot manfaatlaridan kelib chiqqan holda, balanslashgan, ichki bozorni xorijiy tovarlar, kapital, bilim, texnologiya va axborot oqimiga ochiqligi;

- Xitoy tashqi savdosini rivojlanish strategiyasining evolyutsiyasi.

Tashqi savdoning rivojlanish strategiyasi eksport va import qilinadigan tovarlarning nisbatan narxini o'zgartirib, ayrim tarmoqlarning ishlab chiqarish va savdosini rag'batlantirish siyosati hisoblanadi. Xitoyning tashqi savdo strategiyasining evolyutsiyasi 2001 yilda Jahon Savdo Tashkilotining tarixiy ishtiroki bilan ikki asosiy bosqichga bo'linishi mumkin edi. "JST oldin ishtirok etish" bosqichida Xitoyning savdoni rivojlantirish strategiyasi 1980 yildan 2001 yilgacha to'rt bosqichga aylandi, (1984-1990), "eksportni rivojlantirish va marginal savdoni liberallashtirish" (1991-1993) va "radikal savdoni liberallashtirish" (1994), "import o'rnini bosish va marginal eksportni rag'batlantirish" (1980-1983-2001).

Ular markaziy hukumatning iqtisodiy institutsional islohot va ochiq eshiklar siyosati uchun savdo hamda sanoat siyosati strategiyasini ochib beradi.

"JSTga kirishdan keyingi bosqich" ga kelsak, Xitoy import o'rnini bosadigan yoki eksportni rag'batlantirishga yo'naltirilgan savdoni rivojlantirish yangi strategiyasini barqaror rivojlanish uchun qulay, ichki va tashqi talabni kelishilgan holda, import va eksportning savdo balansidagi strategiyasiga aylantirdi. Shu bilan birga, umumiy iqtisodiy rivojlanish rejasi doirasida 2001 yildan boshlab, Xitoyning savdo siyosati jihatidan uchta bosqichga o'tadi, ya'ni "Jahon Savdo Tashkilotiga kirish uchun majburiyatlarni bajarish va savdoni liberallashtirishni davom ettirish" (2001-2005), "savdo siyosatini tartibga solish va uni o'sish sur'atini o'zgartirish" (2006-2008), "global moliyaviy inqirozdan xalos bo'lish va uni tiklash" (2008 yildan hozirgi kunga qadar).

Tashqi savdo mamlakatning iqtisodiy hamkorlikda va raqobatda qatnashishini asosiy shakli va kanali, tashqi dunyoga ochiqlikni muhim tarkibi va boshlang'ich punktidir. Savdoni rivojlantirish va isloh qilish davlatning tartibga solish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Tashqi savdo aloqalarini davlat tomonidan tartibga solinishi – bu mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga davlat organlari va xizmatlari tomonidan ishlatiladigan shakllar, usullar va dastaklar, shuningdek, davlat va milliy manfaatlar, maqsadlar va vazifalar yig'indisi. Davlat tomonidan tartibga solish qonun va boshqa davlat aktlari, qarorlar va bayonnomalarni qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Har qanday davlatning tashqi savdo siyosati hukumatning umumiy iqtisodiy yo'nalishining muhim tarkibiy qismi sanaladi, yanada torroq ma'noda esa, eksport-import, tovar oqimlari hajmi, tovar tarkibi va juhforiy yo'nalishini tartibga solish bilan bog'liq byudjet-soliq faoliyati sohalaridan biridir. Tashqi savdo siyosati xo'jalik rivojlanishining ichki jihatlari bilan uzviy bog'liq bo'lganligi uchun, uning bosh vazifasi mamlakat ichkarisida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va milliy boyliklarni ko'paytirish uchun zarur bo'lgan qulay tashqi iqtisodiy sharoitlarni shakllantirish hisoblanadi.

Erkin savdo siyosati (yoki Fritidyerlik – inglizcha free trade) iqtisodiy hayotning bir hodisasi sifatida XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Uning nazariy jihatdan asoslanishida A.Smitning mashhur asari – "Xalqlar boyligi, tabiati va sabablari" hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Fritidyerlik nazariyasi boshqa bir ingliz iqtisodchisi D. Rikardo asarlarida rivojlantirildi va deyarli nihoyasiga yetkazildi. D. Rikardo Adam Smitning raqobat sharoitida erkin tadbirkorlik ahamiyati va mamlakat iqtisodiyotini "ko'rinmas qo'l" hukmronligiga, ya'ni bozorning o'z-o'zini boshqarish qonunlari ixtiyoriga topshiruvchi jamiyatning "tungi qorovuli" sifatidagi davlat roli haqidagi g'oyalarini rivojlantirdi.

Erkin savdo siyosatining klassik namunalarini XIX asrning ikkinchi yarmidagi ingliz-sakson mamlakatlari, ayniqsa, Buyuk Britaniya va uning dominionlari (1947-yilgacha Britaniya tarkibiga kirgan, rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan davlatlar) iqtisodiyotida kuzatish mumkin. Iqtisodiy nazariyada, odatda, erkin savdo proteksionizm siyosatiga (inglz. protection – himoya, homiylik), ya'ni milliy iqtisodiyotning ichki va tashqi bozor tamoillarini salbiy ta'sirlaridan

himoyalash maqsadida, davlat tomonidan joriy etiladigan iqtisodiy va ma'muriy chora-tadbirlar tizimi qarama qarshi qo'yiladi.

Proteksionizm ilk davlatlar shakllangan paytdan buyon mavjuddir. Bu siyosatning tamoyillarini nazariy jihatdan amerakilik davlat arbobi A. Gamilton (XVIII asrning o'rtalari) o'z asarlarida ishlab chiqqan. Biroq, proteksionizm amaliy chora-tadbirlar seriyasi sifatida sayyoramizda so'1 (SSSR) va o'ng ("Uchinchi reyx" – fashistlar Germaniyasi) siyosiy oqimlarining totalitar rejimi davrida o'z kulminatsion nuqtasiga yetgan. Bu mamlakatlarda savdo sohasida davlat monopoliyasi mavjud edi.

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solinishi xalqaro shartnomalar, mamlakatning qonun va boshqa normativ huquqiy aktlari orqali amalga oshiriladi:

- bojxona – ta'riflari orqali tartibga solish;
- notarif tartibga solish;
- tashqi savdo xizmatlari va intellektual mulkni taqiqlash va chegaralash

Tashqi savdoni tartibga solishning ikki usuli mavjud. bular: valyuta va moliyaviy xarakterga ega bo'lgan tartibga solish usullari hisoblanadi.

Ma'lumki, deyarli barcha mamlakatlarda tovarlarga nisbatan, chegaralarda bojxona solig'iga tortish qo'llaniladi. Uning maqsadi, birinchi o'rinda, xorijiy va milliy ishlab chiqarish tovarlariga bir xil soliq tizimini yaratishdir. Bunday usullarga aksiz soliqlar, boshqa tenglashtiruvchi soliq va yig'imlar, shuningdek, litsenzion yig'im, ro'yxatdan o'tish uchun yig'imlar kiradi.

Iqtisodiy va ma'muriy xarakterga ega bo'lgan tartibga solish usuli;

Valyuta va moliyaviy xarakterga ega bo'lgan tartibga solish usuliga xorijiy valyutani ishlatishga turli xil cheklovlar qo'yish kiradi: valyuta kurslarining ko'pligi, xorijiy valyuta bilan operatsiyalarga soliqlar, foizsiz garovlar. Valyuta kurslarining ko'pligi deganda kelishuv, hamkor va tovarning turiga qarab milliy valyutani xorijiyga qayta hisoblashni differensial kursini joriy qilish tushuniladi. Qator rivojlanayotgan mamalakatlarda xorijiy valyuta operatsiyalari uchun soliqlar, kiritilayotgan tovarlar narxining 50-60% ini tashkil qiladi<sup>1</sup>.

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ularni tovar oqimlariga ta'siri tabiatiga ko'ra, bir-biridan jiddiy farq qiluvchi ikkita asosiy tiplarga ajratish mumkin: iqtisodiy va ma'muriy.

Iqtisodiy, ya'ni tarifli usullar tovar narxiga bevosita ta'sir qiladi. Bu usullar davlatlar tashqi savdo amaliyotida eng keng tarqalgan, chunki, ular birdaniga uchta vazifani hal qilish imkonini beradi:

1. fiskal – byudjet uchun qo'shimcha mablag'larni olish;
2. rag'batlantiruvchi – xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni rivojlantirish;
3. proteksionistik – milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish.

Tashqi savdoni tarifli tartibga solish usullari qatoriga bojxona bojlari, bojlar, yig'imlar, shuningdek, boshqa bilvosita soliqlar, masalan, aksizlar kiradi.

Tarifsiz usullar – tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni

---

<sup>1</sup>Ни Сяолин. Расширять внутреннее потребление! //Китай, №9 (47), 2009. С.32.

bildiradi. Ular ko'proq rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarga xosdir.

Advalor (lot. – ad valorem - qiymatdan) bunda bojxona boji sotuvchi tomonidan qayd etilgan. Tovar qiymatidan foiz ko'rinishida bo'ladi.

Aralash – bunda maxsus va advalor bojlar birgalikda qo'llaniladi. JSTga a'zo bo'lgandan so'ng, Xitoy bojxona tarifini 15%dan 12%ga pasaytirdi, keyin esa, 9,5%gacha yetkazdi.

Jadval 9.1.1.

XXR import tariflariga bojxona stavkalari kategoriyasi<sup>1</sup>

|                                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| RNB stavkalari                                       | JSTga a'zo mamlakatlar tovarlariga, Xitoy bilan bojxona preferensiyalari haqida ikki tomonlama kelishuvga ega mamlakatlar va XXR bojxona hududlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| Hududiy kelishuv doirasida qo'llaniladigan stavkalar | Xitoy bilan, imtiyozli bojxona tartibini ko'zlovchi, hududiy kelishuvlarda qatnashuvchi mamlakatlar tovarlari uchun: ASEAN mamlakatlari (Brunej, Kambodja, Indoneziya, Malayziya, Laos, Myanma, Singapur, Tailand, Vetnam) no'l stavkalar qo'llaniladi, ammo 2005-yilning 20-iyulidan Xitoy bilan hududiy kelishuvda qatnashuvchi ASEANning 6ta mamlakatlari uchun (Brunej, Myanma, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand) 137 ta tovar pozitsiyalariga RNB stavkalariga mos keluvchi stavkalar qo'llaniladi.<br>Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari kelishuvida (J.Koreya, Shri- Lanka, Bangladesh, Hindiston, Laos) 982ta tovar pozitsiyalariga; Xitoy-Pokiston preferensial savdo haqidagi kelishuviga ko'ra Pokistonda import qilinuvchi, imtiyozli stavkalar 2244ta tovarga kengaytirildi. Gonkong va Makao (2003-yilda yanada torroq savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish rejalari asosida bu hududlar bilan "no'l stavkalari"ni o'rnatilishi). |
| Oddiy stavkalar                                      | 143 ta import bojxona pozitsiyalari bo'yicha, o'simlik yog'i, kimyoviy xom ashyo, avtomobillar va ularga qo'shimcha qurilmalar kabi tovarlar guruhiga kiruvchilarga stavkalar pasaytirilgan.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| Maxsus kombinatsiyalangan stavkalar                  | 55 ta tovar pozitsiyalari bo'yicha, xususan, go'sht, tovuq, pivo, xom neft, foto va kinotasma, videotexnika. Bundan tashqari, XXR va Pokiston va ASEANning 6ta mamlakatlariga shuningdek kombinatsiyalashgan bojlar undiriladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| Maxsus preferensial bojlar                           | Xitoy bilan maxsus bojxona imtiyozlari o'rnatgan mamlakatlar tovarlari uchun qo'llaniladi (Kambodja, Myanma, Laos va Bangladesh) – import qilinuvchi tovarlar uchun no'l darajadagi bojxona bojlarini anglatadi, faqat ma'lum bir baliq mahsulotlari, tekstil tolalari, elektrik mashinalar va uskunalar bundan mustasno. Sudan va Xitoy tomonidan nisbatan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar deb tan olingan 26 ta Afrika mamlakatlari uchun 2005-yil yanvar oyidan "no'l stavkalar"i o'rnatilgan.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| Axborot texnologiyalar                               | 2006 yilning bojxona tarifi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |

Shu bilan birga, Xitoy AQShdan unga, (2010-yilgacha) o'tish davri berilishiga erishdi<sup>2</sup>. Yoqoridagi jadval 1.dan ko'rinib turibdiki, Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotida tashqi savdoning davlat tomonidan tartibga solinishi, alohida e'tiborga loyiqdir. Bunda bojxona tarif stavkalari muhim rolni o'ynaydi. Har bir tovar turlariga nisbatan alohida bojxona tarif stavkalari joriy qilingan.

<sup>1</sup>Государственное регулирование во внешней торговле Китайской Народной Республики - <http://www.russchinatrade.ru/ru/useful-info/cn-foreign-trade-regulation>

<sup>2</sup>Бергер Я.М. Экономическая стратегия Китая.-М.: Магистр, 2009.- 574 С.



Bunda, asosan, tovar, mahsulotlarning turlari, mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati hamda mazkur tovar-mahsulotlarning mamlakatda mavjud yoki yo'qligi hisobga olingan.

Hududiy kelishuvlarga ko'ra, ayrim davlatlar bilan boshqacharoq bojxona tarif stavkalari joriy etishgan, ba'zi tovarlarga nisbatan oddiy tarif stavkalari saqlanib qolingan. Maxsus mahsulotlar uchun esa, kombinatsiyalashgan bojxona tarif stavkalari joriy qilingan. Xitoy bilan maxsus bojxona imtiyozlari o'rnatgan mamlakatlar tovarlari uchun maxsus preferensial bojlar mavjud bo'lgan.

AQShning hozirgi prezidenti Tramp Xitoyni do'st sifatida qabul qilganligini bildirdi, AQShning Xitoy tufayli duch kelgan tijoriy kamomadini nazorat qilib bo'lmaydigan darajaga yetganligi sababli, chora ko'rishga majbur ekanligini tilga oldi. Trampning aytishicha, Xitoyga tadbiiq etiladigan qo'shimcha boj solig'i va tovar importi bo'yicha cheklovlarning qiymati 60 mlrd dollarni tashkil qiladi. Oq uy tomonidan e'lon qilingan hujjatga ko'ra, Tramp Xitoyga nisbatan qo'shimcha boj solig'i va tovar importi bo'yicha cheklovlarni belgilash vazifasini AQSh xazina vazirligi bilan savdo tashkilotiga topshirdi.

2006 va 2008 - yillarda Xitoy va uning savdo hamkorlari o'rtasidagi savdosotiqni taqiqlash tobora jiddiylashdi. Xitoy bilan JST o'rtasida kelishmovchiliklarni hal qilish mehanizmida, himoyachi sifatida, 12ta ish mavjud edi. AQSh, Evropa Ittifoqi, Kanada, Meksika va boshqa mamlakatlar Xitoyning avtomobil qismlarini import qilish, soliq imtiyozlari va mahalliy kompaniyalarning bevosita subsidiyalari, IPR qonunchiligi va ovoqli-tasviriy mahsulotlar, savdo va tarqatish huquqi, imtiyozli kreditlar va boshqa rag'batlantirish choralari bo'yicha maslahat so'radi. Aksariyat hollarda, Xitoy JST a'zolarining qarorini qabul qildi va JSTga muvofiq bo'lmagan siyosatni qayta ko'rib chiqdi va bekor qildi. .

Bir tomondan, Xitoy eksportni barqarorlashtirish va savdoni moliyalashtirishni rag'batlantirish, eksportni nazorat qilishni qisqartirish va eksportga QQSni oshirish bo'yicha choralar ko'rdi. Xitoyning valyuta kursi rejimi AQSh dollariga o'tish uchun avvalgi tizimga qaytarildi va hokimiyat 2005-yildan buyon davom etayotgan RMBning qadrsizligini to'xtatdi. Chegara RMB-dan imtiyozli pilot dastur va valyuta almashtirishni tartibga solishni 2009-yil aprel oyidan amalga oshirildi. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish erkinlashtirildi va uni tasdiqlash jarayoni soddalashtirildi.

Boshqa tomondan, Xitoy moliyaviy inqirozining bufer zarbalariga qarshi, importni himoya qilishning vaqtinchalik harakatlarini amalga oshirdi. Ayrim tovarlar bo'yicha imtiyozli tariflar vaqtinchalik bekor qilindi. Hukumat import tovarlarining avtomatik litsenziyalash ro'yxatini kengaytirdi. Savdo bo'yicha chora-tadbirlar avvalgiga nisbatan, tezroq boshlandi. Mahalliy mahsulot va xizmatlarni ma'muriy ko'rsatmalar bilan harid qilish uchun katta fiskal stimulda davlat haridlari amalga oshirildi. Mahalliy tarmoqlarni himoya qilish uchun bir nechta yangi qonunlar va qoidalar e'lon qilindi (masalan, mahalliy pochta jo'natmalarini himoya qilish uchun yangi pochta qonunlari qabul qilindi). Xitoyning savdo siyosatiga oid tuzatishlar unga global inqirozni bartaraf etishda va ayniqsa, inqirozning boshida savdo ish faoliyatini yaxshilashda yordam berdi.

Jahon iqtisodiyoti va tashqi talabning asta-sekin tiklanishi bilan, Xitoyning tashqi savdosi 2010-yil noyabr oyida ijobiy o'sishga aylandi va 2011-yildan buyon, jadal sur'atlarda o'smoqda.

2015-yil yanvar-mart oyida Xitoy tashqi savdo hajmi oldingi yilning birinchi choragiga nisbatan, 6 foizga pasaydi va 5,54 trln. yuanni yoki 902,3 mlrd. AQSh dollarni tashkil qildi. 2015-yilning birinchi choragida import va eksportning umumiy hajmi 5,54 trln. yuan.ni tashkil qildi. Xususan, eksport 3,15 trln. yuanni tashkil qildi va 4,9%ga o'sdi. Import 2,39 trln yuanga yetdi va 17,3%ga pasaydi. Savdo balansining ijobiy saldosi bu yilning birinchi uch oyi ichida 6,1 marta 755,3 mlrd. yuanga oshdi<sup>1</sup>. 2015-2018-yillarda Xitoy tashqi savdo aylanmasi o'rtacha 8,8%ga oshdi, 2018-yilda esa, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan 12,6% ga o' sdi (9.1.2.-jadval).

Jadval 9.1.2.

**Xitoy tashqi savdo aylanmasi dinamikasi 2015-2018 - yillarda<sup>2</sup>**  
**mlrd.doll.va %da**

| Yillar | Tashqi savdo hajmi | O'sish, %da |
|--------|--------------------|-------------|
| 2015   | 3904,1             | -10,9       |
| 2016   | 4089,3             | 13,5        |
| 2017   | 4104,47            | 11,4        |
| 2018   | 4620.0             | 12,6        |

XXR tijorat vazirligining hisobotiga ko'ra, 2015-yilda Xitoy tashqi savdosi o'rta yoki past sura'tlarda o'sdi. "2015-yil bahor – Xitoy tashqi savdosidagi ahvol haqidagi hisobotida", bu yili jahon iqtisodiyoti o'rtacha tiklanish tendensiyasini saqlab qoladi, jahon bozoridagi raqobat yanayam qattiqlashishi ta'kislab o'tildi. Xitoy tashqi savdosi, tashqi talabning sustligi, tashqarida cheklovlarning ko'payishi, an'anaviy raqobatbardoshlikni pasayishi va boshqa shu kabi muommolar bilan to'qnash keladi. Hisobotda aytilishicha, Xitoy hukumati tashqi savdo uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratish, tashqi savdoda Xitoyni yangi ustunliklarini aktiv rivojlantirish uchun, moliyaviy xizmatlarni yaxshilash va tashkilotlarga jahon bozorlarini o'zlashtirishga yordam berish va qo'llab-quvvatlash uchun chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

"Xitoy iqtisodiyoti rivojlanishning yangi omillariga o'tishida, mamlakat tashqi savdosida sifat ko'rsatkichlarining oshishiga olib boruvchi o'zgarishlar kuzatilmoqda". Hisobotda, 2014-yilda eksport hajmi 6,1%ga o'sgani va 2,34 trln. doll. tashkil qilgani ko'rsatib o'tilgan. Import esa, 1,96 trln. doll.ni tashkil qilgan, bu esa, 2013-yilga nisbatan 0,4%ga o'sganini ko'rsatadi<sup>3</sup>.

XXR tijorat vazirligining tashqi savdo boshqarmasini boshlig'ining o'rinbosari Tzyan Veyning fikricha, importning nminimal darajada oshishi qator faktorlarga bog'liq bo'lgan:

- "Birinchidan, bir necha oylar davomida Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlarining sekinlashuvi kuzatilmoqda;

<sup>1</sup>Ли Сяхуэй, Чжан Пик, Чжан Сяозцин. Экономический рост в годы реформы и изменения структуры. М.:Шанхай, 2008, С.24.

<sup>2</sup> World Economic Statistics – Economic Supply & Demand

<sup>3</sup> China Statistical Yearbook 2016. Beijing: China Statistics Press, 2016.

- Ikkinchidan, xitoy sanoatida importni qoplovchi ishlab chiqarish rivojlanayotgani kuzatilmoqda;

- Uchinchidan, mamlakatda mehnat talab ishlab chiqarishni sekinlashuvi ro'y bermoqda, ular esa, mamlakatda importni oshishiga an'anaviy yordam berar edi;

- To'rtinchidan, tabiiy resursklarga narxlarning pasayishi, ayniqsa, neftga, ko'rsatkichlarni qisqarishiga qo'shimcha sabab bo'ldi", - deb Tzyan Vey ta'rif berdi. Iqtisodiyotining o'sish sur'atlari 7,7%gacha sekinlashdi, 2014-yilda esa, 7,3%ni tashkil qildi<sup>1</sup>.

2014-yilda Xitoyning tashqi savdo hajmi 3,4%ga o'sdi – 4,3 trln. dollarni tashkil qildi. Bu haqida 2015-yil 13-yanvar kuni XXR Bosh bojxona boshqarmasining hisobotida e'lon qilindi<sup>2</sup>. Ammo, lekin, 2015-yildan boshlab, bu tendensiya pasayib bordi (jadval 9.1.3. ga qaralsin).

Jadval 9.1.3.

1980 - 2018-yillarda XXR eksport va import hajmining o'sish dinamikasi  
,%da<sup>3</sup>

| Yillar | Import kvotasi (%) | Eksport kvotasi(%) |
|--------|--------------------|--------------------|
| 1980   | 6,57               | 5,97               |
| 1985   | 13,95              | 8,97               |
| 1990   | 13,78              | 16,0               |
| 1995   | 18,18              | 20,48              |
| 2000   | 18,78              | 20,8               |
| 2005   | 29,62              | 34,19              |
| 2010   | 23,21              | 26,24              |
| 2014   | 20,38              | 24,35              |
| 2017   | 15,9               | 7,9                |
| 2018   | 21,4/15,8          | 21,4/9,9           |

Xitoy tashqi savdosining xususiyati – bu uzoq davrlargacha saqlanib kelgan uning eksportini ahamiyatli tarzda importidan ortiqroq bo'lishidir. Biroq, 2001 yildan so'ng, mamlakat import hajmining ortib borish tendensiyasi kuzatila boshladi. Bu esa, XXR sini jahon ishlab chiqarish jarayoniga chuqur kirib borishi va o'z iqtisodiyotini ehtiyojlarini import orqali qondirishning zarurligi bilan va jahon bozorida narxlarning o'sishi bilan kuchayib bordi. Biroq, 2005 yilga kelib, import hajmining pasayish tendensiyasi kuzatildi va ko'pgina tarmoqlarda eksportning hajmi ortdi hamda bu jarayon 2006 yilda ham saqlanib qoldi.

Xitoy iqtisodiyoti an'anaviy ravishda, tashqi savdodan bog'liqligi yoqori darajada bo'lganligi bilan tavsiflanadi. XXR tovarlar eksporti hajmi bo'yicha, dunyoda 1-o'rinni egallaydi, xorijga tovar yetqazib berishda davlat valyuta daromadlarining 80%iga yaqinini ta'minlaydi. Mamlakat eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 mln.k.ga yaqin aholi band bo'lib, jahon xorij bozorlariga 50 ming turdagi sanoat va qishloq xo'jalik yalpi mahsulotlarining deyarli 20%i eksport qilinadi. Xitoy iqtisodiyotining tovarlar eksportiga bog'liqlik darajasi 2017 yilda 18,5%ni tashkil etdi (2016 yilda – 19,4%).

<sup>1</sup> World Economic Statistics

<sup>2</sup> XXR Bosh bojxona boshqarmasi

<sup>3</sup> World Economic Statistics – Economic Supply & Demand

XXRsi hozirgi davrda dunyoning 233 ta mamlakat va mintaqalari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirmoqda. Xitoyning asosiy savdo hamkorlari rivojlangan mamlakatlar bo'lib, birinchi navbatda, EI, AQSh, Yaponiya hisoblanadi va mamlakat tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko'prog'i ular hissasiga to'g'ri keladi.

XXR ning JST ga a'zo bo'lgandan keyingi (2001y.) davrda, u o'z zimmasiga mazkur tashkilot doirasidagi bitimlar ijrosini oladi. Undan tashqari, eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha, 2004 yilda "Tashqi savdo to'g'risida"gi qonun ishga tushdi. Ushbu qonun sanoat alohida tarmoqlarini davlat subsidiyalar va rejimlar orqali tartibga soladi. XXRda legitimlik asosida milliy eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmi tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatmoqda.

XXRsi eksport strategiyasini amalga oshiruvchi asosiy muassasa – bu XXR Tijorat vazirligi hisoblanib, eksport va importni qo'llab-quvvatlash vazifalarini amalga oshiruvchi bo'linma – tashqi savdo departamenti va uning tarkibidagi bir qator tarmoqlar bo'linmalari faoliyat ko'rsatmoqda.

XXR Tijorat vazirligi vakolatiga xorijdagi savdo maslahatchilari kanselyariyasi faoliyatlarini muvofiqlashtirish kiradi. Xorijdagi xitoy elchixonalari tarkibida 216ta vakolatxonalar faoliyat yurgizadi. Ular xorijiy mamlakatlarda tijorat kompaniyalari va boshqa tashkilotlariga xizmat ko'rsatadi.

Eksportni qo'llab-quvvatlash institutlari tizimida muhim o'rinni Xitoy xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi va xitoy tadbirkorlar davlat birlashmasi egallaydi (KKCMT).

Undan tashqari (KKCMT), mahalliy eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash ishlarida, Xitoy xalqaro savdo-sanoat palatasi ham faol qatnashmoqda (China Chamber of International Commerce – CCOIC – 1988y.tashkil etilgan).

Tarifli tartibga solish bo'yicha, Xitoyning asosiy normativ holati har yili nashr etiladigan "XXR Bojxona eksport-import tarifi"da aks etadi. 2017 yildagi tarifda 2016 yilga nisbatan, quyidagi o'zgarishlar mavjud:

- Tovar qatorlari miqdori sezilarli tarzda qisqardi va ularga nisbatan eksportni tartibga solish choralari qo'llanildi (Interim duty rate special and special duty rate on export goods). Agar, 2016 yilda eksport solig'i solinadigan 250 ta tovarlar qatorlari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017 yilga kelib, ularni soni 213 qatorga kamaytirildi;

- 40% li maksimal tarif stavkasi qo'llaniladigan (11ta) qatorlar 2016 yildagi darajada qoldi;

- 49 ta pozitsiyalar bo'yicha "no'l" vaqtinchalik stavka 2016 yildagi darajada qoldi.

XXRda qo'llaniladigan eksportni notarif tartibga solish kvotalash va litsenziyalashni o'z ichiga oladi.

Kvotalash – 2017 yilda Xitoyda eksportni kvotalash tartibi xom ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun qo'llanildi.

Litsenziyalash – Eksportni litsenziyalash tartibi 2008 yildagi 28-sonli XXR Tijorat vazirligi instruksiyasi orqali aniqlangan.

Xitoyda milliy eksportni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmi quyidagi 4 ta bazaviy elementlardan tashkil topgan:

- Kreditlash orqali qo'llab-quvvatlash;
- Sug'urtani ta'minlash;
- Soliq preferensiyalari;
- Milliy valyutada tashqi savdo hisoblarini amalga oshirish.

Kredit berish orqali qo'llab-quvvatlash - eksportni kreditlash orqali qo'llab-quvvatlash Xitoy eksport-import banki orqali amalga oshiriladi (Eksimbank) va u 1994 yilning aprel oyida ishga tushirildi hamda bank bevosita XXR Davlar Kengashiga qaraydi (uning bosh ofisi Pekinda joylashgandir).

Sug'urtali ta'minlashda barcha kreditlar Eksim bank tomonidan sug'urtalangan bo'lishi kerak (Sinasure). U 2001 yilning 18 dekabrda tashkil etilgan bo'lib, u Xitoy xalq sug'urta kompaniyasi qoshidagi eksport kreditlarini sug'urtalash departamenti (PICC) va Xitoy eksim bankining birlashuvi natijasida vujudga keldi.

Sinasure sug'urta kompaniyasi davlat maqomiga ega bo'lib, u yoqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni eksport qilish va bu boradagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun muhim dastak ro'lini bajaradi. Uning kapital manbayi – davlat byudjeti evaziga shakllanadigan eksport kreditlarini sug'urtalaydigan tavakkal fondi hisoblanadi.

Soliq preferensiyalari (yengilliklari) - Xitoyda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmidagi, tovarlarni eksport qilishda QQSni qaytarish mexanizmi shaklidagi soliq preferensiyalari muhim o'rinni egallaydi.

QQSni qaytarish siyosati Xitoyda 1985 yildan qo'llanilib kelinadi. Bu juda eguluvchan mexanizm bo'lib, u xalqaro bozorlar kon'yukturasi va jahon iqtisodiy holatiga qarab tovarlarni eksport qilishda QQSni qaytarish koeffitsientini o'sishi yoki pasayishida qo'llaniladi.

XXR soliq qonunchiligiga binoan, mamlakatda eksport qilish uchun, QQSni olishda 3 darajali stavka tasdiqlangan bo'lib, unda asosiy stavka 17%ni, ba'zi mahsulotlar turi uchun imtiyozli stavka (asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun) – 11%; uncha katta hajmda bo'lmagan mahsulotlar uchun (katta miqdordagi kichik korxonalar uchun) – 6% deb belgilangan.

QQS ni qaytarib olish "avvaliga, eksport qilish chog'ida QQS ni to'lash, keyin esa, uni qaytarish" tamoyili asosida amalga oshiriladi. XXR bojxona organlari eksport mahsulotlari uchun QQS qaytarish summasini hisoblashda quyidagi formulani qo'llashadi:

$$\boxed{\text{Qaytarishgamo'ljallan gansoliqsummasi}} = \boxed{\text{FOB shartidagi eksport tovarlari narxi}} \times \boxed{\text{Yuan kursining xorijiy valyutaga nisbati}} \times \boxed{\text{QQSniqaytari shstavkasi}}$$

Milliy valyutadagi tashqi savdo hisob-kitoblari. Yuan umumiy kursini baynalminallashtiruv chegarasida Xitoy hukumati tomonidan olib borilayotgan transcargaraviy savdoning milliy valyutadagi tashqi savdodagi hisoblarni bosqichma-bosqich joriy etilish mexanizmi – milliy eksporterlarni moliyaviy

qo'llab-quvvatlashning muhim dastagi bo'lib xizmat qildi. Hozirgi davrda XXRda transchegaraviy to'lovlarni amalga oshirishda milliy pul birligidan foydalanishning samarali tizimi shakllandi va u o'z ichiga quyidagilarni qamrab olgan:

Transchegaraviy to'lovlarni amalga oshirishda tovarlar va xizmatlar savdosi

1. O'zaro hisob-kitoblar svop-kelishuvlarini amalga oshirishda milliy valyutadan foydalanish

1. XXR iqtisodiyotiga transchegaraviy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritish.

2. Mamlakat tashqarisiga xitoy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yuanda kiritish.

Xitoy Xalq Bankining ma'lumotiga ko'ra, 2017 yilda yuandagi transchegaraviy savdo hisob-kitoblarining umumiy hajmi 4,36 trln.yuanni tashkil etdi, bu esa, 2016 yilga nisbatan 16,6% ga qisqargan. Investitsion faoliyat chegarasidagi transchegaraviy hisob-kitoblar hajmi 1,64 trln.yuanni tashkil etdi<sup>1</sup>.

2016 yil yakunlari bo'yicha Xitoyning tashqi qarz miqdori, uning ichki qarziga nisbatan uncha katta emas, ya'ni 1,43 trln.doll.ni tashkil etib, u o'tgan yilga nisbatan 2,7% ga o'sgan. Uning umumiy miqdorini 61%i qisqa muddatli qarzlar ulushiga to'g'ri keladi. Unda qarzdorlikning asosiy indikatorlari xalqaro qabul qilingan standartlar chegarasidadir. Tashqi qarzning mamlakat YaIMga nisbati 13%ni tashkil etib, uning qisqa muddatli tashqi qarzini valyuta zahirasi ga nisbati esa, 29% atrofidadir<sup>2</sup>.

Xitoy rahbariyati moliyaviy tavakkalchilikni oldini olishni o'zining ustuvor masalalaridan biri deb qaraydi va shuningdek, XXRsi mamlakatda moliyaviy barqarorlik holatini saqlash va undagi tavakkalchilikni nazorat qilishga qodir ekanliklari haqida ko'p marotaba rasmiy e'lon qilishgan. Shu bilan birga, bir qator tavakkalchiliklar o'ziga juda katta e'tibor talab qiladi<sup>3</sup>. Bu esa, bank tizimidagi qaytarilmas kreditlar hajmi, likvidlilik muammosi, qora banking miqyosi, tashqi silkinishlar, ko'chmas mulk bozoridagi noqulay tendensiyalar, iqtisodiyotdagi ahamiyatli qarzdorlik miqdori hamda internet-moliya sohasidagi holat bilan asoslanadi<sup>4</sup>.

Yaqin kunlarga mavjud bo'lgan Xitoyning moliyaviy tizimini tartibga solish fragmentar xarakteriga ega bo'lib, tartibga solishning ba'zi sohalarida bo'shliqni yaratdi, tekshiruv sohasidan tashqarida turli operatsiyalarni amalga oshirishga imkon berdi, va natijada mamlakatning tez o'sayotgan moliyaviy tarmog'i uchun nobarqaror tavakkalni ko'payishiga olib keldi.

<sup>1</sup>Государственное регулирование во внешней торговле Китайской Народной Республики - <http://www.russchinatrade.ru/ru/useful-info/cn-foreign-trade-regulation>

<sup>2</sup>Credit to the non-financial sector // Bank for International Settlements. BIS Statistical Bulletin. 2017. June 6. URL: [http://www.bis.org/statistics/tables\\_f.pdf](http://www.bis.org/statistics/tables_f.pdf) .Resolving China's Corporate Debt Problem // IMF Working Paper. 2016. October 14. URL: [http://www.imf.org/~media/Websites/IMF/imported-fulltextpdf/external/pubs/ft/wp/2016/\\_wp16203.ashx](http://www.imf.org/~media/Websites/IMF/imported-fulltextpdf/external/pubs/ft/wp/2016/_wp16203.ashx);

<sup>3</sup>Global watchdog warns over China's debt levels // Financial Times. 2016. September 19. URL: <https://www.ft.com/content/fc825300-7e44-11e6-8e50-8ec15fb462f4>.

<sup>4</sup>China's Economic Outlook in Six Charts // International Monetary Fund. IMF Country focus. 2017. August 15. URL: <http://www.imf.org/en/News/Articles/2017/08/09/NA081517-China-Economic-Outlook-in-Six-Charts>. экономика China outstanding foreign debt falls to \$1.42 trillion at end-2016 /Reuters. 2017. March 31/. URL: <http://www.reuters.com/article/us-china-economy-foreign-debt/chinaoutstanding-foreign-debt-falls-to-1-42-trillion-at-end-2016-idUSKBN17212G?il=0>

2017 yilning mart oyi o'rtalarida Pekinda yopiq formatda beshinchi Moliya masalalari bo'yicha milliy kengash (National Financial Work Conference) bo'lib o'tdi va unda keying 5 yilda moliya sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Uning natijasi sifatida XXR Davlat kengashi qoshida moliyaviy rivojlanish va barqarorlik maxsus qo'mitasi (Financial Stability and Development Committee) tashkil etildi. Unga XXR moliyaviy sohasini tartibga solish va takshiruvni muvofiqlashtirish vazifasi yuklatildi. Shunday qilib, mazkur kengashning natijalari Xitoyni tavakkalchilikni nazorat qilishga va iqtisodiyotning moliyaviy tarkibini mustahkamlash va barqarorlashtirish maqsadida, uni tartibga solishni murakkablashtirishni ko'rsatmoqda.

Xitoy iqtisodiyotini rivojlanishining zamonaviy (joriy) tendensiyalari undagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini 6,5–6,7%lar oralig'ida to'xtatib, u o'zining asosiy sekinlashuv bosqichiga o'tganligi ko'rsatmoqda. Bu holat esa, Xitoy hukumati uchun iqtisodiy islohotlar jarayonini chuqurlashtirish va moliyaviy yo'qotish hamda tavakkallarni qisqartirish imkoniyatini tug'diradi.

Xitoy iqtisodiyotida yuz berayotgan tartibga solish va nazorat qilish jarayonlarini e'tiborga olgan holda, aytish lozimki, unda iqtisodiy nobarqarorlikni va tartibga solib bo'lmaydigan iqtisodiy o'sishni sekinlashuv tavakkalligi chegaralanganlik ehtimoli nisbatan ancha kichikdir<sup>1</sup>.

Umuman olganda, Xitoy o'z iqtisodiy rivojlanishida mamlakat ichkarisidagi ko'pgina murakkab muammolarga va global darajadagi noaniqliklarning o'sib borish jarayoniga to'qnashib qolgan bo'lishiga qaramay, u mamlakatdagi keng miqyosli iqtisodiy islohotlarni davom ettirishga va barqaror iqtisodiy o'sishni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyoti islohotlar tarkibi sohasida ijobiy o'zgarishlarni va tavakkalni nazorat ostida ushlab turish qobiliyati mavjudligini ko'rsatdi. Natijada esa, ularni umumlashtirganda, bu holatlar XXRsiga kelajakda jahon iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan yirik mamlakat bo'lib qolishiga yordam bermoqda.

SWIFT (global axborot-kommunikatsiya to'lovlar va hisob-kitoblar tizimi) da hisobga olingan barcha to'lov operatsiyalar umumiy hajmidagi yuanning ulushi 2017 yilda 1,61%ga teng bo'ldi, 2016 yilda esa bu ko'rsatkich 2,31%ga teng edi. (AQSH dollari, evro, funt sterling, yapon ienasidan keyingi 5-o'rin yuanga to'g'ri kelmoqda).

Demak, 2017- yildagi Xitoy Xalq Bankining ma'lumotiga ko'ra, xitoy regulyatori dunyoning 36ta mamlakati bilan o'zaro to'lov va hisob-kitoblarni yuanda amalga oshirish bo'yicha tuzilgan kelishuvlar hajmi 3,3 trln.yuan (498 mlrd.doll.)ni tashkil etdi. Dunyoning 23 mamlakatlari bilan (JanSHO, Evropa, Yaqin Sharq, AQSh, Afrika va Okeaniya) yuanda operatsiyalarni amalga oshirish uchun kliring xizmati ishga tushirildi.

---

<sup>1</sup>New committee to coordinate financial reform, regulation // The State Council of the People's Republic of China. 2017. July 18. URL: [http://english.gov.cn/news/top\\_news/2017/07/18/content\\_281475737061826.htm](http://english.gov.cn/news/top_news/2017/07/18/content_281475737061826.htm). Indices of Gross Domestic Product // National Bureau of Statistics of China. National China outstanding foreign debt falls to \$1.42 trillion at end-2016 // Reuters. 2017. March 31. URL: <http://www.reuters.com/article/us-china-economy-foreign-debt/chinaoutstanding-foreign-debt-falls-to-1-42-trillion-at-end-2016-idUSKBN17212G?il=0>

## **9.2.XXR tashqi savdosining zamonaviy rivojlanish holati va dinamikasi**

2017 yil yakuniga ko'ra, Xitoy tovarlar tashqi savdosi hajmi bo'yicha, o'zining dunyodagi 1-o'rnini qaytib oldi (2016 yilda u mazkur ko'rsatkich bo'yicha o'z o'rnini AQShga bo'shatib bergan edi).

XXR Davlat Tojorat Boshqarmasining 2017 yil ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yilda Xitoyning tashqi savdo aylanmasi 4 104,47 mlrd.doll.ni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 11,4% ga ko'paydi, shu jumladan: eksport 7,9% ga o'sib, 2 263,49 mlrd.doll.ni, import esa, 15,9% ga o'sib, 1 840,98 mlrd.doll.ni tashkil etdi. JSTning ma'lumoniga ko'ra, Xitoyning jahon savdosidagi ulushi 2016 yildagi 13,0% lik darajada qoldi.

2017 yilda Xitoyning tovarlar tashqi savdosiga 2016 yilga nisbatan 0,6 p.p.ga pasayib, 33,6%ni tashkil etdi, shu jumladan, eksportdan 18,5% (-0,9 p.p.) pasaygan, importdan esa, - 15,1% (+0,3 p.p.)<sup>1</sup>

2017 yildagi Xitoy tashqi savdosi rivojlanishining farq qiluvchi belgilari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 2015-2016-yillarda tovar aylanmasi qiymatining pasayishi bilan bog'liq bo'lgan salbiy trendni yengish;

- Iqtisodiy o'sish sur'ati ko'rsatkichini ikki raqamli ijobiy zonaga kiritish;

- Importning haddan tashqari o'sish tendensiyasining kuzatilishi hamda tashqi savdo disbalansini qisqarishining davom etishi.

2017-yil yakuniga ko'ra, savdo balansining ijobiy saldosi 422,54 mlrd.doll.ni (-17,1%) yoki umumiy tovar aylanmasining 10,29%ni tashkil etdi (2016-yildagi 13,85% ga nisbatan).

2017-yil yakuni bo'yicha, XXR tovar aylanmasining tarmoq tarkibi, uning umumiy eksportda tayyor sanoat mahsulotlari (TSM) ulushining amalda o'zgarishligi bilan tavsiflanadi – 94,79%, (absolyut qiymatda 2 145,81 mlrd. doll., +7,6%) bu esa, 2016 y.dagi 94,76% ga nisbatan 0,03%ga ko'pdir.

Undan tashqari, XXRni umumiy eksporti tayyor sanoat mahsulotlarida mashina-traktor mahsulotlarining ulushi (1 082,91 mlrd. doll., +9,9%) ham barqarorlikni namoyish qildi, ya'ni 2017 yilda u – 50,46% (2016 yilga nisbatan 0, +24 p.p. ni tashkil etdi) teng bo'ldi, shu jumladan, mamlakat umumiy eksporti tayyor sanoat mahsulotlarida yuqori texnologik mahsulotlarning ulushi (787,42. mlrd. doll., +18,4%) 36,7%ni tashkil etdi, bu esa, 2016-yilga nisbatan 33,4% ga tengdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakat eksport tarkibida mahsulotni birlamchi qayta ishlash (MBQI) ulushi 2017-yilda 5,21% ni tashkil etdi, bu esa, 2016-yilga nisbatan 5,24%ga teng bo'lgan.

XXR importi tarmoq tarkibida ham mahsulotni birlamchi qayta ishlash ulushida ham biroz o'zgarishlar yuz berdi, ya'ni 2016-yildagi 27,72%dan 2017-yilda 31,35%ga o'sdi. XXRga kirib keladigan importning mahsulotni birlamchi qayta ishlash ulushining qiymatli ko'rsatkichi 577,06 mlrd.doll.ni tashkil etdi

---

<sup>1</sup> <http://russian.people.com.cn/31521/6565896.html> va Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г, с.157



(+31,1%). Import tarkibidagi tayyor sanoat mahsulotlari ulushi 2016-yildagi 72,28%dan 2017-yilda 68,65%ga pasaydi. Mamlakatning TSM hajmini qiymati 1263,92 mlrd.doll.ni (+10,2%).tashkil etdi.

Geografik nuqtayi nazaridan, 2017-yilda XXRning yetakchi tashqi savdo hamkorlari – Osiyo mamlakatlari bo‘ldi va hissasiga xitoy tovar aylanmasining 2 125,72 mlrd.doll. (+9,1%) to‘g‘ri keldi. Undan keyingi o‘rinda Evropa mintaqasi bilan Xitoyning savdo hajmi turadi va u 755,89 mlrd.doll.ni (+11,6%) tashkil etdi, Shimoliy Amerika bilan– 635,72 mlrd.doll.ni (+12,4%), Lotin Amerikasi bilan – 257,85 mlrd.doll.ni (+19,1%), Afrika bilan – 169,99 mlrd.doll.ni (+14,0%) va Okeaniya bilan– 158,94 mlrd.doll.ni (+24,3%) tashkil etdi.

Jadval 9.2.1.

Xitoy va dunyoni asosiy mintaqalari orasidagi tovar aylanmasi hajmining o‘shishi, %da<sup>1</sup>

| Mintaqalar          | Xitoy tovar aylanmasidagi ulushi,% |         | Xitoy eksportidagi ulushi,% |         | Xitoy importidagi ulushi, % |         |
|---------------------|------------------------------------|---------|-----------------------------|---------|-----------------------------|---------|
|                     | 2016 r.                            | 2017 r. | 2016 r.                     | 2017 r. | 2016 r.                     | 2017 r. |
| Osiyo               | 52,85                              | 51,78   | 49,67                       | 48,43   | 57,05                       | 55,91   |
| Evropa mamlakatlari | 18,37                              | 18,41   | 18,57                       | 18,95   | 18,12                       | 17,75   |
| Shimoliy Amerika    | 15,34                              | 15,48   | 19,66                       | 20,37   | 9,62                        | 9,47    |
| Lotin Amerikasi     | 5,87                               | 6,28    | 5,42                        | 5,77    | 6,46                        | 6,89    |
| Afrika              | 4,04                               | 4,14    | 4,39                        | 4,18    | 3,58                        | 4,08    |
| Okeaniya            | 4,14                               | 3,87    | 2,26                        | 2,26    | 5,06                        | 5,84    |

Yoqoridagi, jadval 9.2.1.dan ko‘rish mumkinki, XXRsi umumiy tovar aylanmasining mintaqaviy tarkibi unda Osiyo mamlakatlari ulushini biroz kamayishi (2016-yilga nisbatan-1,07%ga). bilan tavsiflanadi. XXRning boshqa mintaqalar bilan savdo pozitsiyalarini, ahamiyatli tarzda o‘zgarmaganligini kuzatishimiz mumkin.

XXRnixaqlaromintaqaviytashkilotlarvabirlashmalarchegarasidagisavdosiquy idagichako‘rinishgaegabo‘ldi: ATESbilan - 2 670,98 mlrd.doll. (+10,4%), Elbilan - 616,92 mlrd.doll. (+12,7%), ASEANbilan - 514,76 mlrd.doll. (+13,8%)<sup>2</sup>.

2017-yil yakuniga ko‘ra, XXRning tovar aylanmasi hajmida uning asosiy savdo hamkorlari bilan aloqalarida o‘shish tendensiyasi kuzatildi. Bundan faqat, Gonkong istisnodir (-5,7%). BRIKSga a‘zo mamlakatlar bilan esa, XXRning Tovar aylanmasi hajmi tez sur‘atlarda o‘shib borib, kuchli tiklanish trendini namoyish etdi.

2017-yilda XXRni oddiy savdo hajmi 2 312,85 mlrd.doll.ni (+13,9%) tashkil etdi, bu esa umumiy savdoning 56,3%i demakdir. Bunda eksport 8,75% ga o‘shib, u 1230,1 mlrd.doll.ni tashkil etdi. Import esa, 20,35%ga o‘shib, 1082,76

<sup>1</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г .с.89

<sup>2</sup> <http://russian.people.com.cn/31521/6565896.html> va Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г. 95 b.

mlrd.doll.dan iborat bo'ldi. Savdo balansining bu shakldagi aktiv saldosi 147,24 mlrd.doll.ni (-36,5%) tashkil etdi.

Jadval 9.2.2.

**2017-yildagi XXRning asosiy tashqi savdo hamkorlari bilan tovar aylanmasi<sup>1</sup>**

| Mamlakatlar         | Qiymati, mln.doll. |            |            | O'sishi, %      |         |        |
|---------------------|--------------------|------------|------------|-----------------|---------|--------|
|                     | tovar aylanmasi    | eksport    | import     | Tovar aylanmasi | eksport | import |
| Jami                | 4104474,58         | 2263490,05 | 1840984,53 | 11,4            | 7,9     | 15,9   |
| AQSh                | 58370140           | 429758,19  | 153943,20  | 12,3            | 11,5    | 14,5   |
| Yaponiya            | 302986,64          | 137333,74  | 165652,90  | 10,1            | 6,1     | 13,7   |
| Gonkong             | 286607,85          | 279291,99  | 7315,86    | -5,7            | -2,8    | -56,2  |
| Koreya Respublikasi | 280281,85          | 102774,41  | 177507,43  | 10,9            | 9,7     | 11,7   |
| Tayvan              | 199389,35          | 43991,41   | 155397,94  | 11,3            | 9,3     | 11,9   |
| Germaniy            | 168098,96          | 71145,44   | 96953,52   | 11,1            | 9,0     | 12,6   |
| Avstraliya          | 136263,54          | 41441,88   | 94821,66   | 25,9            | 11,0    | 33,7   |
| V'etnam             | 121266,98          | 70938,65   | 50328,33   | 23,4            | 16,1    | 35,4   |
| Malayziya           | 96027,06           | 41724,82   | 54302,24   | 10,5            | 10,8    | 10,2   |
| Braziliya           | 87543,38           | 28958,12   | 58585,26   | 29,1            | 31,8    | 27,8   |
| Hindiston           | 84410,90           | 68066,86   | 16344,03   | 20,3            | 16,5    | 38,9   |
| Rossiya             | 84071,09           | 42876,04   | 41195,05   | 20,8            | 14,8    | 27,7   |
| Tayland             | 80288,92           | 38708,72   | 41580,19   | 6,0             | 4,1     | 7,9    |
| Singapur            | 79245,17           | 45021,86   | 34223,30   | 12,4            | 1,1     | 31,6   |
| Buyuk Britaniya     | 79031,94           | 56718,03   | 22313,91   | 6,2             | 1,8     | 19,4   |
| Niderlandiya        | 78381,80           | 67138,18   | 11243,62   | 16,5            | 16,8    | 14,6   |
| Indoneziya          | 63317,88           | 34765,51   | 28552,36   | 18,3            | 8,2     | 33,3   |
| Fransiya            | 54464,08           | 27669,42   | 26794,65   | 15,4            | 12,1    | 19,1   |
| Kanada              | 51756,51           | 31385,11   | 20371,39   | 13,3            | 14,8    | 11,1   |
| Italiya             | 49597,63           | 29171,48   | 20426,15   | 15,1            | 10,5    | 22,2   |

XXRning tolling chegarasidagi tashqi savdo aylanmasi 1025,61 mlrd.doll.(-7,8%), yoki umumiy tovar aylanmasining 24,98% ni tashkil etdi. Unda eksport 5,1%ga qisqarib, u 679,0 mlrd.doll., import esa -12,6%ga qisqarib 346,61 mlrd.doll.ni tashkil etdi. Mazkur savdo shakli chegarasida 332,4 mlrd.doll.summadagi ijobiy saldo (+4,23%) yuzaga keldi.

Shuni ta'kidlash joizki, 2017-yilda xitoyning asosiy eksport tovarlari mashina-texnik mahsulotlari - 59,15% (+8,63 p.p.), kimyo sanoati tovarlari 12,0% (+3,43 p.p.), tekstil va trikotaj mahsulotlari 7,6% (-0,59 p.p.) bo'ldi<sup>2</sup>.

Xitoyning asosiy import tovarlariga: mashina va uskunalar – 56,5% (+9,6 p.p.), kimyo mahsulatlari – 13,26% (+3,89 p.p.), mineral energiya resurslari – 7,2% (-4,05 p.p.) kiradi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup>XXR Davlat bojxona boshqarmasi ma'lumotlari

<sup>2</sup>Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году, Пекин, 2018 г., ilova № 2, b.157.

<sup>3</sup>O'sha joyda, ilova № 3. b.158.

XXR xizmatlar tashqi savdosining hajmiga kelsak, 2017-yilda u 4699,1 mlrd.yuanni tashkil qilib, o'tgan 2016-yilga nisbatan, 6,8%ga o'sdi, jumladan, eksport– 1540,7 mlrd.yuanni, import – 3158,4 mlrd.yuanni tashkil etdi. Undagi salbiy saldo 1617,7 mlrd.yuanni tashkil etib, u 2016-yildagi o'z darajasini saqlab qoldi. XXR xizmatlar tashqi savdosining hajmi bo'yicha, 4 yil davomida AQSh dan keyingi 2-o'rinni egallamoqda.

XXR xizmatlar tashqi savdosi 2017-yilda quyidagi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- Eksportning o'sish sur'atlari (+10,6%) 7 yil mobaynida birinchi marotaba import o'sish sur'atlaridan oshdi (+5,1%);

- Savdo tarkibini optimallashtirish davom ettirildi. Texnologiyalar, brendlar va sifatga asoslangan yangi tarmoqlardagi operatsiyalar hisyasi 1460,1 mlrd.yuanga yoki 31,1% (+1,2 p.p.) ga to'g'ri keldi. Unda xizmatlar savdosining o'sish sur'atlari tarmoq bo'yicha o'rtacha 4,3 p.p. ga yoqori bo'lib, 11,1%ni tashkil etdi. An'anaviy xizmatlar sektori hisoblangan turizm, yuk tashish va qurilish sohaları 1,2 p.p.ga qisqargan;

- Yangi xizmat tarmoqlaridagi import hajmi 727,1 mlrd.yuanni tashkil etib, u 10,6% ga o'sdi; eksport esa – 732,8 mlrd.yuandan (11,5%ga o'sdi) iborat bo'ldi. Undagi importning o'sish sur'atlari telekommunikatsiya va axborot xizmatlari, intellektual mulkdan foydalanish uchun o'tkazmalar, personal madaniy-ko'ngilochar xizmatlari sohalarida mos holda, 54,9%, 21,0% va 30,6%ni tashkil etdi, eksportning o'sish sur'atlari esa, intellektual mulkdan foydalanish uchun o'tkazmalar, moliyaviy xizmatlar va servis xizmatlari segmentlarida mos holda, 30%, 18,2% va 15,7%larni tashkil etdi.

- Mamlakatning mahkaziy va g'arbiy mintaqalaridagi tashqi savdo hajmi uning 8%li o'sish saur'ati bilan (+1,2 p.p.) 657,6 млрд. yuanni tashkil etdi, unda eksportni o'sish saur'ati 23,5%ga yetdi. XXRning 11ta dengizoldi provinsiyalari tarmoqdagi umumiy savdo hajmining 85,9%ni ta'minladi va u 3998,7 mlrd.yuanni tashkil etdi. Birinchi 3lik pozitsiyalarini Shanghai (1020,0 mlrd.yuan), Pekin (967,7 mlrd.yuan) shaharlari va Guandun provinsiyasi (831,6 mlrd.yuan) egalladilar;

- Bir yil ichida autsorsing chegarasida ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha tuzilgan shartnomalar hajmi 26,8%ga o'sib, 1218,2 mlrd.yuanni tashkil etdi. Amalda bajarilgan shatnomalar summasi record darajaga, ya'ni, 850,2 mlrd.yuanga yetdi (+20,1%). Shu jumladan, offshor autsorsing xizmatlari bo'yicha shartnomalar 749,6 mlrd.yuanni tashkil etdi (+18,3%), ulardan amalda bajarilgan shatnomalar summasi – 537,0 mlrd.yuandan iborat bo'ldi (+14,7%). Offshor autsorsing xizmatlari hissasiga yangi xizmatlar tarmog'i eksporti umumiy hajmining 73,3%i to'g'ri keldi, ularning eksportni ta'minlashdagi hisyasi 46%ga yetdi;

- Autsorsing xizmatlarini amalga oshirishdagi "Tasma va yo'l" loyihasi ishtirokchilari mamlakatlari bilan axborot texnologiyalari, sanoatni loyihalashtirish, injener texnologiyalari sohalaridagi hamkorliklar hajmi birinchi marotaba 100 mlrd.yuandan oshib ketdi va u 102,9 mlrd.yuanni tashkil etib, bu esa 27,7%ga o'sganligidan dalolat beradi.

Shunisi qiziqqi, XXRsi xizmatlar eksporti hajmining dinamik o'sishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida yuz bermoqda. Garchi, avvalgi davrlarda mamlakatda xizmatlar savdosi salbiy saldoga ega bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, ular sekin-asta qisqarmoqda. Soha ekspertlarining fikricha, mazkur tendensiyaning saqlanib qolsa, 2035-yilga kelib, XXR raqamli iqtisodiyoti 16 trln.doll/ni tashkil etishi mumkin, bu esa, Xitoyning xizmatlar eksporti bo'yicha dunyoda yetakchi mamlakatlar qatoriga qo'shilishiga yordam beradi.

XXRning ilmiy izlanishlar va ishlanmalar sohasidagi salohiyati o'sishda davom etib, 2017-yilda XXRsi IITKIdagi quyilmalari hajmi bo'yicha, faqatgina AQShdan keyingi o'rinni egalladi. Lekin, XXR mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan va ilmiy izlanishlarga jalb etilgan personalning soni hamda patent uchun berilgan arizalar soni bo'yicha yetakchilik qilmoqda. 2017-yilda mana shu yo'nalishga moliyaviy mablag'larni ajratish hajmi bo'yicha XXRning mamlakatning 15ta yirik kompaniyalari qatoriga kiruvchi, internet-gigantlari hisoblangan «Huawei», «Alibaba», «Tencent» va «Baidu»lar yetakchilik qilmoqda. Shuni aytish lozimki, xizmatlar sohasidagi ishlab chiqarish autorsingini ham, tez sur'atlarda rivojlanmoqda; ular jumlasiga: ishlanmalar, loyihalashtirish, servis xizmatlari kiradi.

XXRni xizmatlar savdosi sohasidagi asosiy muammo - bu uning mamlakat YaIMdagi ulushining yetarli emasligi, turizm va boshqa sohalarda salbiy saldoning mavjudligi, hududiy nomutanosiblik, xizmatlar sohasini rivojlanish jarayonining noratsionalligi va boshqalar.

XXR tashqi savdo faoliyatini bojxona tariflari orqali tartibga solish o'z ichiga quyidagi kompleks chora-tadbirlarni qamrab oladi: bojxona bojlari, notarib tartibga solish dastaklari, qoida va muolajalar. Eksport va import bojlari stavkalari XXR Davlat soliq boshqarmasi va XXR Davlat Bojxona boshqarmasi tomonidan har yili "XXR eksport-import bojxona tarifi"da nashr etiladi.

Ma'lumki, notarib tartibga solishning asosiy uslublari – kvotalash va litsenziyalash hisoblanadi. Eksport va importni kvotalash masalalari bilan XXR Davlat islohotlar va rivojlanish qo'mitasi (IRQ) va XXR Tijorat vazirligi, litsenziyalash bilan esa XXR Tijorat vazirligi shug'ullanadi. Har yili XXR Davlat islohotlar va rivojlanish qo'mitasi va XXR Tijorat vazirligi kvota va litsenziyalar chegarasida eksport va importni amalga oshirishda tovarlar turlari ro'yxatini (asosan, qishloq xo'jaligi va xom ashyoga) nash etadi.

XXR Davlat islohotlar va rivojlanish qo'mitasi (IRQ) tomonidan tasdiqlangan import kvotalari va kirish bojlari uchun 2017 yildagi ro'yxat 2016 yilga nisbatan o'zgarishsiz qoldirilgan.

XXR da importni notarib tartibga solish dastaklari orasida turli texnik to'siqlar (majburiy sertifikatlash), yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga sanitar va fitosanitar talablari, antidemping choralari hisoblanadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, XXR tashqi savdosining zamonaviy rivojlanish holatini tahlili bizga bu yo'nalishda, (ba'zi bir yillar bundan istisno) dinamik rivojlanish mavjudligini ko'rsatmoqda.

## **10-BOB: XXRNING KO'P TOMONLAMA XALQARO VA MINTAQAVIY IQTISODIY TASHKILOTLARDAGI ISHTIROKI**

### **10.1.XXRning JSTda va boshqa xalqaro tashkilotlardagi faoliyati.**

JST ning ustavi «milliy tizim» ni nazarda tutgan bo'lib, unda davlat faqat mahalliy yoki xorijiy sarmoyadorlarni rag'banlantirishi ta'qiqlanadi, ya'ni ularga muayyan chegara qo'yib bo'lmaydi. 1980-yillarda, Xitoyda tashkil qilingan maxsus, erkin iqtisodiy zonalar, aynan, xorijiy tadbirkorlik uchungina, turli-tuman moliyaviy-iqtisodiy imtiyozlar ustiga «qurilgan» edi. Ularning, XXR eksport daromadidagi ulushi 90-yillar oxiriga kelib, 1988-yilga nisbatan, 2 barobar oshib ketdi va 25% ni tashkil etdi. Bundan tashqari, ularning Xitoy tayyor sanoat mahsulotlari eksportidagi ulushi 40% ni tashkil etdi.

Xitoyning JST ga a'zo bo'lish uchun qilgan harakatlarini 2 bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich – 1984-yildan to 1994-yilgacha bo'lgan davr;

2-bosqich – 1995-yildan to 2001-yilgacha;

**Birinchi bosqichda**, ya'ni bu tashkilot GATT deb nomlangan davrdan boshlab, bu masala bo'yicha tuzilgan ishchi guruhining 19 ta majlisi bo'lib o'tdi. Ushbu majlislar chegarasida, ishchi guruh XXR sining iqtisodiy siyosatini muhokama qildilar. Undan tashqari, ikki va ko'p tomonlama olib borilgan kelishuvlarda yana mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, Xitoyning tashqi savdo siyosati va bojxona tarif va bojlari masalalari muhokama qilindi va bu yo'nalishda Xitoy oldida qanday muammolarni hal etishi kerakligi ko'rib chiqildi.

**Ikkinchi bosqich**, unda olib borilgan kelishuvlarning qiyinlashuvi bilan xarakterlanadi. Bu davrda tashkilotni nomi o'zgartirilib, u Jahon Savdo Tashkilotiga aylandi. Ushbu bosqichda, Xitoyning xizmat ko'rsatish sohasi, ya'ni, bank, moliya, sug'urta sektorlari, ulgurji va chakana savdo va intellektual mulk huquqi masalalari ko'tarildi. Shu bilan birga, uning soliqlar siyosati va Xitoy EIZ laridagi imtiyozli (preferensial) soliqlar stavkasi masalalari ham muhokama qilindi. O'z navbatida, Xitoy tashqi dunyo uchun o'z bozorlarini ochib berish va savdoni erkinlashtirish bo'yicha qator majburiyatlarni oldi. Natijada, uzoq davom etgan kelishuvlar poyonida, 11-dekabr 2001-yilda, XXR si JST ning 143-a'zosi bo'ldi.

Xitoy o'z iqtisodiy islohotlarini davom ettirish va tashqi aloqalarni kengaytirish niyatida, tashqi dunyo uchun, 1980-yildan boshlab, o'zining 5ta maxsus, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etdi. 1984-yilda, Xitoy hukumati bu ishlarni davomi sifatida yana, 14ta dengiz bo'yi shaharlarini ochiq deb e'lon qiladi. Ushbu zonalarda turli xil sanoat - savdo, texnopolislar, texnoparklar barpo etildi.

1990-yilda esa, Xitoy hukumati Shanxayda, yangi Pundun rayonining ochish va rivojlantirish bo'yicha qaror qabul qildi, keyinchalik Yanszi daryosi havzasida bir qancha erkin portlarni ham tashkil qildi. 1992-yildan boshlab, Davlat kengashi qaroriga binoan, ushbu zona ishga tushirildi. Keyinchalik, mamlakatda, yana 15ta soliqsiz zona, 32ta texnik-iqtisodiy o'zlashtirish zonalar va 53ta davlat ahamiyatidagi yangi, yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish zonalar tashkil qilindi.

**Uchinchi bosqichda<sup>1\*</sup>** XXRsi JST tomonidan qo'yilgan talablarga javob berishga xarakat qila boshlab, o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va ularning xalqari andozalarga to'g'ri kelishi ustidan nazoratni kuchaytirdi.

Keyingi yillarda esa, mamlakat tashqi savdosida eksportning tez sur'atlarda ortib borishi savdo balansida ijobiy saldoni saqlanishiga olib keldi. Eksportni rekord darajasiga erishishga 1994 yil boshida yuanni devalvatsiya qilinishi (yuanning uni real sotib olish qobiliyatidan past darajaga tushirilishi) va uning natijasida, yuanni yagona boshqaruvchan kursga keltirilishi hamda hukumatning xorijiy valyutani tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha qator tadbirlari, shu bilan birga uning moliya-kredit siyosatini yumshoqroq olib borilishi natijasida yuz berdi. Mamlakatning ichki bozor kon'yunkturasi omili ham aynan, ushbu yo'nalishda harakatlandi. Xitoyda investitsion talab va kapitalni jamg'arilishini ushlab turish siyosatini olib borish natijasi, u ishlab chiqargan mahsulotlarining sotilishini qiyinlashtirdi.

Mamlakatning "ochiq" tashqi iqtisodiy siyosati - uning tashqi savdo geografiyasini kengayishiga olib keldi. Hozirgi davrda Xitoy dunyoning 200dan ortiq mamlakatlari va hududlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirmoqda. XXRni geografik tarkibining muhim xususiyatlari shundan iboratki, u iqtisodiy islohotlarning birinchi kunlaridan boshlab, dunyoning sanoati rivojlangan davlatlari bilan, ya'ni AQSh, Yaponiya va Evropa Ittifoqi davlatlari bilan tijorat aloqalarini o'rnatishga yo'naltirildi. 1980-1990 yillardagi XXR tashqi savdo aylanmasining 55% i ushbu davlatlar ulushiga to'g'ri keldi. Keyinchalik, mazkur ko'rsatkich pasayib bordi va 1990 yillar o'rtalariga kelib u 46,5% ni tashkil etdi. Natijada, Xitoy birmuncha iqtisodiy bog'liqlikka yuz tutdi. U esa, milliy iqtisodiyotni isloh qilish maqsadida importga bog'lanib qolishni, zarur texnika va uskunalarni mamlakatga olib kirishni hamda tashqi dunyo bilan o'zaro xo'jalik harakatlarini kengaytirishni anglatadi.

Shular qatorida, Xitoy Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan ham o'zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishga kirishdi. Bu esa, uning mutloq savdo hajmining o'sishida mazkur davlatlarning ulushlarini ortib borayotganligi bilan tavsiflanadi.

Xitoy tashqi savdosining rivojlanishiga sezilarli tarzda jahon iqtisodiyotining jonlanishi, umumiy talabning ortishi va asosiy tovar bozorlarida jahon narxlarining o'sishi ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, eksportni qo'llab-quvvatlashga va importni ratsionallashtirishga qaratilgan tashqi savdoni qattiq ma'muriy tartibga solish saqlanib qoldi. Tashqi savdoning milliy iqtisodiyotdagi ro'lini oshirish bilan birga, Xitoyni jahon iqtisodiy tizimidagi pozitsiyasi ham mustahkamlanib bordi. Xitoy o'zining jahon savdosidagi nisbatan uncha katta bo'lmagan (4,1%) ulushi orqali islohotlar davrida dunyoning savdo qiluvchi yetakchi davlatiga aylandi. U dunyo eksportida 1- o'rinni, dunyo importida esa, 2-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, amalda Xitoy dunyodagi yetakchi mamlakatlarning birinchi o'nligiga kirib, hozirda o'zining milliy iqtisodiyotini yuqori sur'atlarda rivojlanishi, xorijiy sarmoyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilishi, YaMM

---

<sup>1</sup> \*2001-yildan keyingi davr hisoblanadi

umumiy hajmi bilan, boshqa dunyo davlaridan ajralib turadi. Xitoy o'zining tashqi savdo-iqtisodiy aloqalarini olib borishda eng qulay tartibdan (EQT-RNB) foydalanadi va dunyoning 23ta davlati uni "Preferensiyalarning umumiy tizimi"ga (muayyan imtiyozlarni umumiy tizimiga) kiritishgan. EI davlatlari, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Rossiya davlatlari shular jumlasiga kiradi. Bu esa, Xitoyga bojxona bojlarini o'rtacha 10% ga tushirish natijasida eksportdan sezilarli miqdorda mablag'ni ishlab olishga va jahon bozorida qulay pozitsiyalarni egallashiga yordam berdi.

Xitoy o'z import va eksportini kengaytirish bilan birga, xorijiy texnologiyalarni mamlakatga kiritish; boshqa davlatlar uchun moddiy yordam ko'rsatish siyosatini takomillashtirish; xorijiy kapitaldan foydalanish bo'yicha hamkorlik qilish; chet eldagi qurilish ob'yektlarida pudrat ishlarini bajarish; texnologiyalar eksportida mehnat xizmatlarini ko'rsatish; ob'yektlarni investisiyalash va xorijda o'z korxonalarini tashkil etish ishlarini rivojlantira boshladi. 1979 yildan boshlab Xitoyning barcha provinsiyalari, markazga bo'ysunuvchi shaharlari va avtonom rayonlari hamda bir qator ochiq iqtisodiy hududlari tashqi savdoni olib borishda turli darajadagi avtonomiyaga ega bo'ldilar. Ularda mahalliy ma'muriy organlarga bo'ysunuvchi tashqi savdo boshqarmalari va tashqi savdo kompaniyalari tashkil etildi. Provinsiyalar hukumatlari qaramog'iga kompaniyalarning xorijiy valyutadan tushgan tushumlarini bir qismi (o'rtacha 30% atrofida) kelib tusha boshladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 1980 yillar o'rtalarida Xitoydagi provinsiyalar, markazga bo'ysunuvchi shaharlar va avtonom rayonlar hamda bir qator ochiq iqtisodiy hududlar tashqi savdo bilan shug'ullanishga avtonom tarzli huquqiga ega bo'lish maqomini oldilar.

Desentralizatsiya (nomarkazlashuv) jarayoni bilan birgalikda, mamlakatda makroiqtisodiy nazorat ham mustahkamlanib bordi. 1982 yilda bir qator tashkilotlarning birlashuvi natijasida, Tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi savdo vazirligi tashkil etildi. Mana shu vazirlikka qarashli kompaniyalar soni ko'payib borib, ular asosiy strategik tovarlar eksporti bilan shug'ullanish funksiyasini o'zida saqlab qoldilar.

Tashqi savdo samaradorligini oshirishga Xitoy hukumati tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy tadbirlar katta ta'sir ko'rsatdi. Umuman, eksportni qo'llab-quvvatlash va uning zararlarini yo'qotish maqsadida, yuan bosqichma-bosqich devalvatsiya qilindi, natijada uning real sotib olish qobiliyati rasmiy kursga yaqinlashdi

Ushbu amalga oshirilgan ishlar natijasida, mamlakatda turli shakllardagi xalqaro ayriboshlash va hamkorlik arxitektonikasi shakllandi. Unda eksport tashqi savdoning negizi bo'lib, boshqa hamma tashqi iqtisodiy va tashqi savdo tashkilotlari bir-birlariga yordam beruvchi va oxir oqibatda savdoni rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shuvchi strukturalarga aylandi.

1991 yilda Xitoy tashqi savdo islohotlari sohasida yangi bosqichga ko'tarildi. Unda eksportni chegaralashga qarashli tovarlar turlari qisqartirildi. Endilikda, tovarlarni litsenziyalashga 138 tagina tovarlar turlari kiritildi.

Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan 16 turdagi tovarlar eksporti ustidan qattiq davlat nazorati o'rnatildi. Ular: don, bug'doy, soyali dukatlar, choy, ko'mir, neft, va neft mahsulotlaridan iborat bo'ldi. Shu bilan birga, chet el kompaniyalariga cheklovlarga kirgizilmagan tovarlarni hohlagan miqdorda olib chiqishga va xitoy korxonalariga esa, faqatgina, o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini eksport qilishga ruxsat etildi.

1994 yilda mamlakatda tashqi savdoni isloh qilishda muhim qadamlar qo'yildi. Xususan: tashqi savdoning direktiv rejalari bekor qilindi; umumiy import hajmini boshqaruvchi reja; eksportdan keladigan tushumlar va tovarlarni import qilishda valyutadan foydalanish bo'yicha reja; importni normalashni boshqarish va muhim tovarlarni eksport qilish bo'yicha rejalari ishlab chiqildi va takomillashtirildi; bojxona bojlari tarkibini tartibga solish davom ettirildi, tashqi savdo sohasidagi qonunlarni ishlab chiqish va takomillashtirish jarayoni kundankunga kuchayib bordi.

Tashqi savdoni erkinlashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar importdan kelib tushgan bojxona bojlarini pasaytirishni o'z ichiga oladi. 1991 yilda Xitoyda 40ta pozitsiya bo'yicha tariflar pasaytirilgan bo'lsa, 1992 yilda ular 241 pozitsiya bo'yicha va 1993 yilda import bojxona stavkalarini pasaytirishning eng yirik holati yuz berdi, ya'ni 3371ta tovarlar bo'yicha va sal keyinroq esa, yana 2898ta tovarlar bo'yicha import bojxona stavkalari pasaytirildi.

1994 yilda mamlakatda 206ta tovarlar guruhlari bo'yicha, 1995 yilda esa, yana 367 ta tovarlar guruhlari bo'yicha tarif cheklovlari bekor qilindi. Shular bilan birga, Xitoy hukumati 1985 yilda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish uchun qabul qilingan importni tartibga solish bo'yicha soliqni bekor qilishga majbur bo'ldi.

1996 yilda tashqi savdoni erkinlashtirish yo'nalishida yana yangi qadamlar qo'yildi. Xususan, yana o'rtacha 35%ga import bojxona bojlari darajasi pasaytirildi va ular Xitoy importi umumiy hajmining 76% ni tashkil etuvchi 5 ming ta tovarlar guruhlari assortimenti uchun kamaytirildi. Undan tashqari, 176ta tovarlar guruhlari bo'yicha notarif cheklovlar orqali tartibga solish bekor qilindi. Ular esa, notarif to'siqlarning 1/3 qismini tashkil etadi.

Garchi, 1990 yillar boshida Xitoyning jahon savdosidagi ulushi nisbatan past (1,70%) bo'lishiga qaramay, u islohotlar davrida sezilarli darajada o'sdi. Agar, 1992 yillarda uning ulushi 2,20% ni tashkil etgan bo'lsa, 1999 yilga kelib, u 3,80% ni tashkil etdi. 2000 yillarga kelib esa, u 4,0% ga ko'tarildi va nihoyat, 2008 yilda uning ulushi 6% dan oshib ketdi.

Shunday qilib, notarif cheklovlar ta'siridagi import tovarlari nomenklaturasining (kvota, litsenziya va turli xil ma'muriy nazorat choralarining) ulushi 1992 yildagi 20%dan 1997 yilda 5% gacha kamaydi. XXRni bu boradagi tuzilgan rejasi bo'yicha u, 2010 yilgacha notarif cheklovlarning asosiy qismini bekor qilishga va 2020 yilga kelib esa, JST normalariga zid keladigan barcha to'siqlardan xolos bo'lishga ahd qildi.

**1-bosqich**-1979-1984 yillarda amalga oshirilib, unda tashqi iqtisodiy kompleksning boshqaruv tizimini desentralizatsiyalash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi va ular quyidagilarni o'z ichiga oldi, ya'ni mamlakat Tashqi Savdo



Vazirligini va unga bo'ysunuvchi tashqi savdo kompaniyalarini eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishdagi yakkaxonlik (monopollik) huquqidan xolos etildi.

Ushbu jarayon tarmoqlar kesimida sanoat-savdo birlashmalarini sanoat muassasalariga yoki Tashqi savdo Vazirligiga qarashli qilib qo'yib, ularga kompaniyalarni birgalikda boshqarish vazifasini yukladi, ya'ni, sanoat korxonalariga eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishni, tashqi savdo kompaniyalariga esa, ularni jahon bozorida sotish va ulardan ko'rilgan foyda va zararlarga birgalikda ma'sul bo'lishni yukladi.

1982 yildan boshlab, sanoat korxonalari, sotish va ta'minot tashkilotlari hamda tashqi savdo kompaniyalari orasidagi aloqalarni tiklash oqibatida, ularni bevosita XXRsi Davlat Kengashiga bo'ysunuvchi yirik umumdavlat birlashmalariga aylantirish bo'yicha ishlar olib borildi. Natijada, mamlakatda Xitoy avtomobil sanoati kompaniyasi va Xitoy neft-kimyo kompaniyalari tashkil etildi.

1980 yilda XXR Davlat Kengashi bir qator yirik va o'rta sanoat korxonalariga tashqi bozorga chiqish huquqini berish bo'yicha qaror qabul qildi. Biroq, bunday huquqga ega bo'lgan kompaniyalar tashqi savdo muassasasi nazoratidan to'liq chiqmadilar va ularning moliyaviy mustaqillik masalasi har bir korxona uchun turlicha hal qilinar edi.

Tashqi savdo islohotlarining 1-bosqichida eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning xo'jalik mustaqilligi bir ozgina kengaydi. Ulardan mahalliy ma'muriy organlar va tarmoq vazirliklari real foyda ko'rdilar. Shunday qilib, 1980 yillar boshida xo'jalik hisobini joriy qilishni va tashqi savdo kompaniyalari faoliyatlarini o'zlari moliyalashlarini qo'llab-quvvatlashga amalda erishilmadi.

Mana shu sharoitlarda, Xitoyda tashqi savdoni isloh qilishning **2-bosqichi** boshlanib, u 4 yil (1984-1987 yy.) davom etdi. Uning natijasida, davlat va xo'jalik organlari orasidagi vazifalar chegaralarini belgilash, iqtisodiy boshqarish uslublaridan keng foydalanish bo'yicha, tashqi savdo kompaniyalarining mustaqillikka erishishlari bo'yicha qadamlar qo'yildi. Agentlik kelishuvlari tizimini joriy etish islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Unda tashqi savdo kompaniyalari eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda sanoat korxonalarini agentlari (vositachi) vazifasini bajarish huquqini oldilar. Davlat tomonidan yagona eksport tovarlarini sotib olish tizimi bir tomondan, eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va import mahsulotlarini iste'mol qiluvchilar orasida shartnoma tuzish tizimi bilan, ikkinchi tomondan, tashqi savdo kompaniyalari bilan almashtirildi.

Tashqi savdoni rejalashtirish ishlari jiddiy o'zgarishlarga yuz tutdi. 1985 yildan boshlab Tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi savdo vazirligi (TIA va TSV) eksport tovarlarini sotib olishni rejalashtirishni to'xtatdilar. Uning o'rniga, korxonalar arizalari asosida rejalashtirish darajasi uchun direktiv va indikativ rejalarni kiritdilar. Mahalliy hukumat organlariga TIA va TSV vakolatlarining bir qismi bo'lgan eksport va import uchun litsenziyalar berish huquqi berildi. Bir vaqtning o'zida, litsenziyalashga qarashli bo'lgan tovarlar ro'yxati kengaydi va

1986 yilning boshiga kelib, ularga xitoy eksportining 54%i va xitoy importining deyarli 30%i to'g'ri keldi.

1985 yillardagi savdo sharoitining yomonlashuvi, mamlakatning ichki rayonlaridagi iste'mol tovarlari importini davlat tomonidan tartibga solishning bo'shashganligi holatida yuqori narxlarda qayta sotilishi, tovarlar kamomadi va spekulyativ (olib-sotar) operatsiyalarining kelib chiqishiga sabab bo'ldi va xitoy hukumatini tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda nazoratni kuchaytirishga hamda qisman ma'muriy boshqaruv uslublariga qaytishga majbur qildi.

1988 yilda Xitoyda boshlangan tarmoqni boshqarishning yangi tizimiga o'tish chegarasida provinsiyalarning pudrat ma'suliyati tizimini joriy qilinishi – tashqi savdo islohotlari **3-bosqichining** asosiy mohiyatini keltirib chiqardi. Ular 3 yil mobaynida valyuta tushumining o'rtacha 75% ini markazga o'tqazishlari lozim edi. Ko'pgina tashqi savdo kompaniyalari, provinsiya hukumati qaramog'iga o'tqazilib, ular mustaqil ravishda, kompaniyalar uchun valyuta o'tqazish normalarini belgilash huquqiga ega bo'ldilar.

Shu bilan birga, eksporterlar uchun, byudjetdan ajratiladigan dotatsiyalar miqdori muzlatilib, eksportni rejadan tashqari dotatsiyalash to'xtatildi. Markazga, faqatgina rejadan tashqari bo'lgan valyuta daromadlarining 20% gina o'tqazilib, qolgan 80%i eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga qoldirilar edi. Uchta tarmoq: yengil va poyafzallarini ishlab chiqarish sanoati, badiiy-hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishlar, o'z-o'zini qoplash bo'yicha tajriba tartibiga o'tqazilgan bo'lib, ular qaramog'ida valyuta tushumining hammasi qoldirilar edi va ularga beriladigan dotatsiyalar bekor qilindi. Lekin, shuncha ishlar amalga oshirilgani bilan, baribir, tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy samaradorlik muammolari hal qilinmadi.

Eksportga davlat tomonidan subsidiyalar berish va eksportni rejalashtirish saqlanib qolib, tashqi savdo kompaniyalarini asosiy qismi o'zini-o'zi qoplay olmadilar va oxir oqibatda, mahalliy tashqi savdo kompaniyalari tashkil etilib, ular orasidagi raqobat kuchaydi hamda tashqi savdo daromadlari kamaydi. Mazkur holatni tuzatish uchun, 1989-1990 yillarda tashqi savdo kompaniyalarini "tartibga solish" jarayoni boshlanib, uning natijasida, 1991 yil o'rtasiga kelib, mamlakatda 1300 ga yaqin kompaniyalar bekor qilindi (bu ushbu korxonalar umumiy sonining 27% ini tashkil etdi).<sup>1</sup> Undan tashqari, bir qator boshqa cheklovlar ham qo'yildi: masalan, qator uzoq muddatli iste'mol tovarlarini (avtomobillar, maishiy elektronika mahsulotlariga) "keragidan ortiq" import qilinishi man etildi qimmatbaho tovarlarni mamlakatga olib kirish uchun, keragidan ancha yuqori import boji belgilandi (200% gacha). Natijada, qattiq ma'muriy chora-tadbirlar islohotlar jarayonini biroz vaqtga surib qo'yib, tashqi faoliyatni tartibga solishga yordam berdi va eksportni barqaror ravishda o'sishini qo'llab-quvvatladi hamda noratsional importni cheklab qo'ydi.

1991 yilda tashqi savdo tizimi islohotlari bozorga yo'naltirilgan o'zgarishlarni tezlashtirish va chuqurlashtirish umumiy kursi chegarasida o'zining **yangi**

---

<sup>1</sup> Цзинцзи цаньхаобао, 24.03.2000 г.

**bosqichi 4-bosqichiga** o'tdi. Tarmoqlar oldida xalqaro normalar asosida, ularni bozor tartibida faoliyat ko'rsatishga o'tqazish masalasi yuzaga keldi. 1992 yilda Xitoy jahonda qo'llaniladigan tovarlarga kod qo'yish va ularni garmonizatsiyalash tizimidan foydalanishga o'tdi.

1991-93 yillarda Xitoyda tashqi savdoni erkinlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar orasidan 1991 yil boshida eksportga subsidiyani bekor qilish, 1992 yil 1 apreldagi "importga o'rnatilgan soliqni tartibga solish" deb atalmish choralarini qayd etish mumkin.

Eksport litsenziyalarini berish tizimiga sezilarli o'zgarishlar kiritilib, ko'pchilik tovarlarga (2/3) u bekor qilindi. Yuqorida ta'kidlangan 16ta strategik tovarlarga: choy, paxta, shoyi, guruch, soya, makkajo'xori, neft va neft mahsulotlari, toshko'mir va boshqalarga davlat tomonidan o'rnatilgan monopoliya saqlanib qoldi. Shu bilan birga, eksportga litsenziya berishning tanlov asosida amalga oshirilishi joriy etilib, bir qator tovarlar uchun (sement, bug'doy) provinsiya organlarining bitimlarni lisenziyalash huquqi kengaytirildi. Mikrodarajada savdo-sanoat konsorsiumlarini tashkil etish tajribalari olib borildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan korxonalar qatori kengaydi, eksportni qo'llash tizimi takomillashtirildi.

Xitoyda eksportni barqaror o'sishi bo'yicha muayyan umidlar uning eksport mahsulotlarini, jumladan, mashina va uskunalar, elektrotexnik va qishloq xo'jalik tovarlari va tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ldi. 1990 yillarda Xitoyning eksport mahsulotlari soni 10 mingdan oshib ketgan bo'lib, uning eksportdagi ulushi 46% ni, valyuta tushumi esa 38% ni tashkil etar edi.<sup>1</sup>

1994 yil mamlakatda yagona valyuta bozorini shakllantirish yo'lida qo'yilgan muhim qadami bo'lib, u mazkur yilning 1 yanvarida hukumat qarori bilan Xitoyda milliy valyutaning "yagona boshqariladigan suzib yuruvchi kursi" belgilanib e'lon qilindi va yuan kursining ikki tomonlama tizimi bekor qilindi. Natijada, yuan amalda 1 AQSh dollari - 5,7 yuandan 8,7 yuanga devalvatsiya qilindi.

Tashqi savdodagi islohotlarning huquqiy asosi – 1994 yilda qabul qilingan "XXRning tashqi savdo to'g'risidagi" qonuni bo'lib, unda JST talablariga mos holda davlatning yagona ochiq tashqi savdo siyosati tamoyillari belgilandi.

1995-1996 yillarda Xitoy hukumati tomonidan eksport-import operatsiyalarini boshqarishni erkinlashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi bilan, tashqi savdoni isloh etishning **5-bosqichi** boshlandi. Eksportni qo'llab-quvvatlash (rag'batlantirish), shartnoma narxlarini oshirishda, ichki mahalliy va eksporter korxonalar orasidagi tartibsiz raqobatni kamaytirish uchun, Xitoy kvota auksionlari amaliyotini qo'lladi. Mamlakatdagi "strategik" xom ashyolar hisoblangan tovarlarga: xususan, neft, paxta tolasi, guruch, soya, ko'mir, minerallarga; an'anaviy yengil, oziq-ovqat, tekstil va mahalliy sanoat mahsulotlari eksportiga hamda ikki tomonlama kelishuvlari bo'yicha belgilangan tovarlarni mamlakatdan olib chiqishga kvota cheklovlari qo'yildi. (ya'ni, ayollar uchun tekstil va oyoq-kiyimlariga, AQSh bilan esa, tekstil mahsulotlari va po'lat ishlab chiqarish eksportiga).

---

<sup>1</sup> Цзинцзи цаньхаобао, 13.12.2001 г.

1996 yilning 1 apreldan boshlab, Xitoy importga oʻrnatilgan tarif stavkalarini (umumiy 6 mingta tovarlaridan 4,9 mingtasiga) qisqartirdi. Bu jarayon islohotlar davridagi tariflarni pasaytirish boʻyicha amalga oshirilgan eng yirik tadbirlarni oʻz ichiga oladi.

1990 yillarning ikkinchi yarmida Osiyoda yuz bergan moliyaviy inqiroz barcha mazkur mintaqadagi davlatlar iqtisodiyotiga katta talofatlar olib kirdi. Xitoy tashqi savdosida esa, uning taʼsiri deyarli sezilmadi. (Agar, 1997 yilda Xitoy tashqi savdo hajmi 325,06 mlrd.AQSh doll.dan iborat boʻlgan boʻlsa, 1998 yilda u 323,7 mlrd. AQSh doll.teng boʻldi). Bunda mamlakat eksportining hajmi - 0,42% ga va importining hajmi -1,59% ga qisqardi.

Islohotlar davrida Xitoyning eksport-import tarkibi jiddiy oʻzgarishlarga yuz tutib, agar, 1980 yillar boshida uning eksportining nisbati, yaʼni qishloq xoʻjaligi mahsulotlari 25,4% ni, mineral xom ashyolar 26,3% ni va tayyor mahsulotlar – 44,2% ni; importining nisbati: qishloq xoʻjalik mahsulotlari – 32,6% ni, mineral xom ashyolar – 4% ni va tayyor mahsulotlar – 58,8% ni tashkil etgan boʻlsa, 90 yillar oxiriga kelib, ushbu nisbatlar eksport boʻyicha, mos holda: - 9,6%: 4,6%:85,8% ni; uning importi esa: - 12,1%:6,2%:81,7%<sup>1</sup> ni tashkil etib, mamlakat tashqi savdosida tayyor mahsulotlarning salmogʻi kundan-kunga ortib borayotganligini koʻrsatadi.

2001 yilning 11 dekbrida XXRsining JSTga 143-aʼzosi boʻlishi bilan, uning tashqi iqtisodiy faoliyatida tubdan oʻzgarishlar yuz berdi va mamlakat tashqi savdosini rivojlanishida hamda uni isloh etishda yangi bosqichni boshlab berdi. Unda tashqi savdoni asosan, erkinlashtirish boʻyicha qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2001 yildan boshlab, 5 yil mobaynida mamlakat eksport va importning umumiy hajmi yiliga oʻrtacha 22% ni tashkil etib, u 3,5 martaga ortdi va uning ijobiy saldosi 22,6 dan 177,5 mlrd. AQSh doll. ni tashkil etdi.<sup>2</sup>

Endi, hozirgi davga kelib, 2017 yil XXRsi Tijorat vazirligi maʼlumotlariga binoan, AQSh va EU mamlakatlari tomonidan xitoy mahsulotlariga nisbatan savdo proteksionizmini oʻsishi bilan tavsiflanadi.

XXRsi Tijorat vazirligi vakillarini baholashiga koʻra, JSTning rivojlangan mamlakatlar ishtirokchilarini (jumladan, AQSh, Kanada, Yaponiya va EI) rivojlanayotgan mamlakatlarni (xususan, XXRni) qoʻllab-quvvatlashni hohlamayotganliklari natijasida, amalda xalqaro savdo kelishuvlarini (XSK) stagnatsiyaga va JST samaradorligini sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.

Mana shunday sharoitda Xitoy hukumatining bir qator tashabbuslari, jumladan: transchegaraviy elektron savdo tartibi ishlanmalari sohasidagi tashabbusi qoʻllab-quvvatlanmaganligini eʼtirof etish mumkin. Uni, nafaqat, AQSh va EI, balki, rivojlanayotgan mamlakatlar ham maʼqullashmadi. Undan tashqari, JST ga aʼzo bir qator mamlakatlarning XXR iqtisodiyotini bozor maqomiga oʻtganligini tan olmasliklari ham, mamlakat rahbariyatini jiddiy tashvishga solmoqda, garchi Xitoy 2016 yildayoq, JST ning barcha talablarini bajargan boʻlsa ham.

---

<sup>1</sup> Манба: Pomfred R.Es China "Large Country"? OECD Development Centre, 2000.P.39/

<sup>2</sup> Манба: Анализ перспектив китайской экономики – весенний доклад 2007 г. Под.ред.Чэнь Цзягуй.- Пекин,2007.с.156-157.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, Xitoy 2001 yilda JST ga a'zo bo'lishi bilan o'zining tashqi savdosini isloh etishning **yangi bosqichida (6 bosqich)** yuzaga kelgan barcha imkoniyatlarini ishga solmoqda.

## **10.2.Xitoyda savdo tartibini shakllantirish, savdo bitimlari ishtirokchilariga preferensiyalar berish va Xitoy qonunchiligida ularni aks etishi.**

Jahon globallashuv sharoitida XXRning mos holdagi (adekvat) tashqi siyosatini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash, hozirgi bosqichda barcha davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu davlat salohiyatini aniqlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan yangi asrning boshida XXR iqtisodiy rivojlanishida xalqaro integratsion jarayonlarning o'rni va ro'li muhim bo'lib, xususan, ushbu jarayonlarda mazkur davlat, o'z o'rnini topishi ham bag'oyat muhimdir.

XXRning jahon iqtisodiyotida va xalqaro hamjamiyatdagi mavqeining kundan-kunga oshishini kuzatib borar ekanmiz, ushbu jarayon boshqa dunyo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatayotganligini kuzatamiz. Shu sababdan, so'nggi yillarda jahon hamjamiyatida XXR ning tashqi siyosiy ustuvorliklari, uning dunyo maydonidagi pozitsiyasini mustahkamlashga yordam bermoqda.

Hozirgi kunda XXRning xalqaro maydonda iqtisodiy va siyosiy tomondan mavqei ortib, u jahon globallashuv va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etmoqda.

BRIK transkripsiyasi - ingliz tilidagi brick - "g'isht" so'ziga o'xshab ketadi va shu bilan birga, mamlakatlarning 1-harflari bilan atalishidan tashqari, mazkur termin - bu mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi kelajakda jahon iqtisodiyotining va jahon fond bozorlarining istiqbollarini belgilab beradi, deb taxmin qilinmoqda.

BRIK - bu 25% dunyo hududini egallagan bo'lib, unda dunyo aholisining 40%i istiqomat qiladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozigacha ushbu mamlakatlar YalM ning o'sish sur'atlari yiliga 5% dan 13% gacha bo'lgan. Undan tashqari, ushbu mamlakatlarni bir-biridan farqi, raasalan, ulardagi intensiv holda iqtisodiy rivojlanish uchun, muhim resurslarning mavjudligidadir.

BRIK chegarasidagi o'zaro bir-biriga bog'liq siyosiy aloqalar 2006 yilning sentyabr oyidan AQShning Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMTning 61-sessiyasida 4ta davlat tashqi ishlar vazirlari uchrashuvi chog'ida boshlangan bo'lib, undan keyin, ularning yana 3ta uchrashuvi, xususan, 2009 yilning 16 iyunidagi Rossiyaning Ekaterinburg shahrida to'liq formatdagi uchrashuvi ham bunga kiradi, natijalari sababli yuzaga kelgandir.

BRIK ning sammitlari:

BRIK ning 1-qisqa sammiti 2 iyul 2008 yilda Toyako-Onsen (Xokkaydo, Yaponiya) da bo'lib o'tdi va o'sha davrdagi Rossiya Prezidenti Dmitriy Medvedev, XXR rahbari Xu Szintao. Hindiston bosh vaziri Manmoxan Singx va Braziliya prezidenti Luis Ignasiu Lula da Silvalar qatnashuvida 2009 yilda to'liq miqyosli uchrashuv to'g'risida kelishib olindi va uning natijasida quyidagilar qabul qilindi:

BRIK liderlarining qo'shma bayonoti tuzildi va unda keyingi uchrashuv Braziliyada o'tqazilish kelishib olindi;

BRIK qatnashchilarining global oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qo'shma bayonoti qabul qilindi. Undan so'ng esa, ushbu davlatlarning moliya vazirlarining ham uchrashuvlari bo'lib o'tdi.

BRIK ning II- sammiti 15-16 aprel 2010 yilda Braziliyada bo'lib o'tdi. Uning natijasida bir qator global moliyaviy-iqtisodiy inqirozni yengish bo'yicha, yangi moliyaviy tartibni o'rnatish, xususan, XVF va Jahon bankiga o'xshash tashkilotlar tuzish bo'yicha davlatlararo kelishuv va bitimlar tuzildi.

Keyingi sammit esa, BR1KS tartibida bo'lib o'tdi va unga 5-davlat, ya'ni Janubiy Afrika Respublikasi a'zo bo'lib qo'shildi. BRIKSning III-sammit 13-14 aprel 2011 yilda Xitoyning Xaynan orolidagi Sanya shahrida bo'ldi va u, turli hamkorlik masalalarini ko'rib chiqdi. Undan tashqari, sammitda Rossiyaning tezroq JST ga a'zo bo'lishi, BMTning islohotlari masalasi, Livanni tinchlik yo'l bilan tartibga solish va keyingi sammitni Hindistonda 2012 yilda o'tqazish va milliy valyutalardan o'zaro foydalanish masalalari ko'rib chiqildi. Sammitda tomonlar bir-biriga milliy valyutada kreditlar taqdim etish borasida ham memorandum imzolandi.

2008-2009 yillarda yig'ilishgan BRIKSga a'zo davlatlar rivojlanayotgan mamlakatiar orasidagi eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan yirik mamlakatiar bo'lib, ularda katta hajmda tabiiy resurslarning mavjudligi va ular jahon iqtisodiyotini kelajakda ta'minlash nuqtai nazaridan, quyidagicha tavsiflanadi:

Braziliya — qishloq xo'jaligi mahsulotlariga juda boy;

Rossiya—jahondagi yirik mineral resurstarnieksport qiluvchi davlat;

Hindiston — arzon intellektual resurslarni eksport qiluvchi;

Xitoy — arzon ishchi kuchi va mehnat resurslariga ega davlat;

Janubiy Afrika Respublikasi - tabiiy resurslar.

Mazkur davlatlardagi mavjud resurslar ularning asosini tashkil etadi va ular iqtisodiyotlari tayanchi ham hisoblanadi. Ushbu mamlakatlardagi aholi sonining ko'pligi ularda ishchi kuchining arzon bo'lishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarini yuqori bo'lishi uchun ham asos bo'ladi.

Goldman-Saks fikriga ko'ra, 2050 yilga kelib, mazkur mamlakatiar iqtisodiyotlarinmg yig'indisi eng boy davlatlar hisoblangan - "katta yettilik" mamlakatlarining iqtisodiyotininz: yig'indisidan miqdoran ortib ketadi.

